TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

RAUF PARFI

SHAVKAT RAHMON

30

84 R-27

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

RAUF PARFI
SHAVKAT RAHMON

30

"O'ZBEKISTON"
TOSHKENT — 2022

UO'K 821.512.133-1
KBK 84(5O')-5
R 27

Tahrir hay'ati:

Xayriddin Sulton – hay'at raisi,
Ibrohim G'afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo'ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo'riboyev, G'ofur Eshmurodov, G'ayrat Bozorov,
G'ayrat Majid, Rustam Musurmon, Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To'plovchi va nashrga tayyorlovchilar:


Olim Oltinbek, Husan Maqsud

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat "Turkiy adabiyot durdonalari" deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g'oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo'lib O'zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko'lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro'yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san'atga ko'rsatilayotgan ulkan g'amxo'rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so'z san'atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.



ISBN 978-9943-8569-7-4

©"O'zbekiston" nashriyoti, 2022

IKKI BUYUK SHOIR HAQIDA

XX asr o'zbek she'riyatida olmishinchi yillar alohida o'rin tutadi.

Zero, bu yillar, ba'zi she'riyatimiz tadqiqotchilarining fikriga ko'ra, o'zbek she'riyatida yangi Renesans davrining boshlanish nuqtasidir.

Ma'lumki, sho'rolar adabiyotining temirdek mustakam chegaralari bor edi. Bu chegara hududlari partiyaning juda ko'p hujjatlarida qa'tiy belgilab berilgan, ijodkor mana shu hudud doirasidagina ijod qilishi lozimligi maktabdagi darsliklaridan boshlab miyalarga quyilar — yozishga mehri tushgan har bir boladan tortib, adabiyotda umrini o'tkazayotgan oqsoqol shoirlargacha mana shu qafas — sotsialistik realizm deb atalgan ma'shum metod yo'rig'ida ijod qilishga majbur edi. E'tibor bering, realizm emas, sotsialistik realizm! Bilamiz, realizm degan metod butun jahon adabiyotining asos uslublaridan. Ha, Balzakni, Lev Tolstoyni ijodini eslasangiz, Abdulla Qodiriy, Cho'lponning romanlarini ko'z oldingizga keltirsangiz shuning o'zi kifoya — realizmni shundoq tasavvur qilasiz.

Xo'sh, endi sotsalistik realizm nima? Sotsialistik realizm — adabiyotni hayotdan yuz o'girtirib, partiyaviy manfaatga, kommunistik g'oyaga bo'ysindirish. Partiyaning yo'rig'idan chiqmay, maddohlik sari yo'l ochadigan; haybarakallachi, ijodkorlarni qo'g'irchoqqa aylantiradigan g'oya. Partiya yo'rig'idan chiqmasang, omad seniki!

Haqiqatdan, Sho'rolar yozuvchilarni maddohga aylantirish yo'lida tinmay bosim o'tkazdi. Ijodkorlar cho'chib yashadi. Ayniqsa, o'ttizinchi yillarning qirg'inidan, elliginchi yillar boshidagi "qama-qama"dan so'ng, haqiqiy ijodkorlar nochorlikda qoldilar. Maddohlik, madhiyabozlik avj oldi.

Ayniqsa, she'riyat allaqanday yo'lsizlikda gangib qoldi. Haqiqiy she'riyat parvozining qanoti qayrildi. Parvozidan ayril-

gan she'riyat degan mo'jiza sehridan judo bo'ldi — ko'ngildan ko'ngilga yetib boradigan ilohiy qudrat uni tark etdi.

She'riyatni kim tushuntirib beroladi? Insoniyat dunyoga kelganidan buyon bu sehrning mag'zini chaqishni hech kim udda qilolmadi. Epik she'riyatni bir qadar mutonosib sharh etilgan bo'lsa-da, lirikaga kelganda qilni qirq yoradigan allomalar ham lol qoldi. Va, oxir-oqibat, haqiqiy she'rning sehri uni tushintirib bo'lmasligida ekanligi tan olindi. Shu sababdanmi, shoirning ruhidan rangu hayajon olib, she'rxonning ko'ngliga oqib kiradigan bu ilohiy tug'yon davr-u davron egalariga mudom xavotirli tuyuldi va she'riyat bu asil ko'rinishida sotsialistik realizm hudidlariga sig'madi. Hukmron deb atalgan bu uslub (metod) she'riyatdan qo'rqdi. Natijada, haqiqiy she'riyat bolshevikcha bezbetlik bilan to'g'ridan-to'g'ri — qat'iyan rad etildi. Ko'ngil dardi ifodalangan she'rlarga tushkun kayfiyatdagi asarlar, degan tamg'a bosildi.

Ammo Stalin vafotidan so'ng, yurag-u ruhlar atrofiga qurilgan temir devorlar tirqishidan erkinlik shamoli sizib oqa boshladi. Bu shamolning tirik nafasini his qilgan iste'dodlar ijodida haqiqiy Adabiyot yuz ko'rsata boshladi. Dastlab, ijodi boshida qiynalib, o'sha kunlar rasm bo'lgan yo'lda qiynalibgina she'r yoza boshlagan Asqad Muxtor she'riyati birdan o'zgardi. Uning turkum-turkum adjabtovur she'rlari matbuotda ko'rina boshladi. So'ng Erkin Vohidov va Abdulla Oripov bo'y ko'rsatdi. Bu ikki shoir el aro nihoyatda tezkor dovrug' soldi. Men maktabning yuqori sinflarida o'qib yurganimda, bu ikki ulkan iste'dod she'riyatidan osmonlarga uchib yurganman. O'sha paytda adabiyotda bu ikki shoir darajasidagi yana bir ijodkor paydo bo'lishi dargumonday edi.

Biroq yangi shoir paydo bo'ldi.

Bu shoir Rauf Parfi (1943–2005) edi.

Rauf Parfi ilk she'rlari nashrdan chiqqan onidanoq — bir kundayoq, mashhur bo'lgan shoir.

Bu she'rlar bilan yuzma-yuz kelgan har bir muxlis adabiyotimizga buyuk shoir dunyoga kelganini his qildi.

Esimda, qorli qish kunlaridan birida "Sharq yulduzi" jurnalining 1-soni qo'limga tegdi. Unda Asqad Muxtorning so'z boshisi — "oq yo'l"i bilan Rauf akaning she'rlari bor edi. Adabiyotda

ko'pni ko'rib, ko'zi pishigan Asqad aka yosh hamkasbi she'rlari haqida havoyi gaplardan yiroq — aniq xulosalar aytgan edi: (Raufning-U.A.) "...o'z ovozi bor. Bu adabiyot uchun juda muhim". E'tibor bering, shoir uchun emas, "adabiyot uchun" deb ta'kidlayapti bilimdon Asqad Muxtor. U katta matbuotda birinchi she'rlari chop etilayotgan Rauf Parfini ijodi adabiyot uchun muhim ekanligini anglagan, tushungan... Chunki bu hech kimga o'xshamagan she'riyat tamoman yangi — qandaydir boshqa olamlarning sadosiga mengzar, shu bilan birga unutilgan ohanglar jarangini yurakni to'lg'atib, masrur entiktirar darajada, ayni chog'da, bu satrlar atrofingda ro'y bergan yoxud ko'nglingdan o'tgan, ammo hech qachon she'rga tushmaydiganday tuyulgan tuyg'ular, manzaralar, hayajonlar, hayratlar, dardlarning tirik tasviri edi. O'sha paytda "Sharq yulduzi"ning bosh muharriri bo'lmish Asqad aka jurnal sahifalarini ayamay bu mo'jiza she'rlarga o'rin bergan — nazarimda, she'rlarning hajmi yosh shoirlarning o'sha paytda rasm bo'lgan — yupqagina birinchi kitobiga yetarli chog'li edi.

Men bu she'rlarni o'qiganimda o'ninchi sinfda o'qirdim. Rauf Parfining o'sha she'rlaridan olgan lazzatning huzurini hali hanuz tuyaman, hozirgacha bu she'rlarni takrorlab yuraman:

Ko'zimga berkitay, va lekin,
Yoshday oqib ketma, sevgilim.

Yoxud:

Ufq yonar, ufq. Uf-f!
Karvon borar qumlikda. Qum. Qum...
Tuyalarda hazin qo'ng'iroq, qo'ng'iroq:
Cho'li Iroq, Cho'li Iroq...
Tun... Kun... Tun...

Bu she'rlar shu qadar yuksak darajada ediki, oradan o'ttiz yilcha o'tib, maktablar uchun yozilgan bu turkumdagi birinchi she'r Adabiyot darsligidan joy olganiga ko'zim tushdi va ajablanmadim. Chunki Rauf Parfi ilk she'rlaridanoq mumtoz shoirga aylangan iste'dod sohibi edi.

Rauf Parfi o'sha paytda adabiyotimizga urf bo'lmagan mavzularda qalam tebratdi. U o'zini yozdi. O'zining ko'nglini, o'zining dardini, o'zining qarashini, o'zining Vatanini, armonini; shoir bilan dunyoning bahsini, shoir bilan davr-u davronning yuzma-yuz kurashlarini...

Yonida olg'ir maddohlarning oshig'i olchi bo'lgan adabiyotda, adabiyot va san'at ideologiyasi tamom o'zgacha bo'lgan Sho'rolar zamonida bu tarzda ijod qilish faqat ulkan iste'dodlarga va jasoratli zotlarga xosdir.

Shu o'rinda Rauf Parfi she'riyatidagi yana bir ulug' mavzu haqida so'z yuritish joizdir. Shoir Vatanni jondan ham aziz bilguvchi alplardan edi. Uning Vatani biz hozir tasavvur etguvchi hududdan keng — butun turkiylar dunyosi, Turon, Turkiston edi. U turkiy xalqlarning barchasini o'ziniki deb bilar — she'rlarida ota-bobolarimiz birligini orzu qilgan bu Vatanning qismatini achinib, kuyib-yonib qalamga olar edi.

Yurak chapak chaladi chanqoq,
Behuda sevinar Karvon.
Karvon uchun
Eng shirin armon
Turon —

O'sha buloq...
Qurigan biroq...
Cho'li Iroq. Cho'li Iroq.
Yo'li yiroq...
Ko'p yomon...
Tun... Kun... Tun.

Shoir sochilib ketgan Turonni, qurigan Turonni shu tarz og'riqli, dahshatli, rost manzaralarda tasavvur qiladi. Shoirning bu mavzudagi asarlari nihoyatda dardli. Xudo xohlasa, mazkur she'rlarni o'ziga singdirgan turkiy o'g'lonlarga bu buyuk orzu-armonlar nasib etgusi! Shoir hayotda ham yuksak maqomdagi vatanparvar, xalqparvar zot edi. Men Vatan haqidagi eng orzumand,

eng umidbaxsh so'zlarni Rauf Parfi suhbatlaridan eshitganman. U mamlakatimiz mustaqil bo'lishiga ishonchi komil inson edi.

Rauf Parfi degan ulug' daryoning bosh sarchashmasi — istiqlol uchun jon tikkan jadidlar. Fitratdan Usmon Nosirgacha bo'lgan buyuk tog'larning ruhi uning ruh-u joniga singib ketgan — u bu buyuk shoirlarning mangulikka daxldor merosxo'ridir. Ularning she'riyatidagi o'zgacha ohanglar Rauf Parfi ijodida sadolandi — sayqallandi, rivojlandi; shoirning ilhomiga qorishib, mukammallik kasb etdi. Rauf Parfining o'ziga xos iste'dodi unutilayozgan yigirmanchi-o'ttizinchi yillar she'riyatini ham o'qishga-o'rganishga da'vat etdi.

U jahon adabiyotini sinchiklab o'rgandi. Bu ulkan xazinadan o'zbek she'riyati uchun kerak, deb o'ylagani shakl-u sha'moyillarni zehn-u yuragidan o'tkazib, she'rlarida jilolantirdi. O'zbek she'riyatini ufqini kengaytirdi. Sarbast vazni uning iqtidori bilan she'riyatimiz eshiklarini keng ochib kirib keldi. Shoir o'ttizinchi yillar urf bo'lgan sochmalarni raufona bir ohangda qayta tiriltirdi.

Shoirdan sakkizta kitoblik she'r qoldi. O'lmaydigan she'rlar.

O'limidan keyin "Saylanma" asarlari nashr etildi.

U tarjima bilan ham jiddiy shug'ullangan ijodkor. Bayronning "Manfred", Muhammad Hodiyning "Hayot sadolari", Aleksandr Tvardovskiyning "Xotira huquqi" dostonlarini; Nozim Hikmat she'rlari va "Inson mazaralari" epopeyasini; Karlo Kaladze, Pablo Neruda va boshqa jahon shoirlarining she'rlarni o'zbekchaga ag'dardi.

Rauf Parfi she'riyati hamisha tillarda va dillarda takrorlanib turadigan daho shoirdir. Shoirlik orzu etgan har bir o'smir Rauf Parfi she'riyati bo'yidan ham ko'nglini to'ldiradi.

Adabiyot hamisha yangidan-yangi iste'dodlarni kutib yashaydi. Buyuk iste'dodlarning ijodiga ham muxlislar ko'nikibroq qaray boshlaydi. Chunki har bir daho shoirning ijodini adabiyot o'zlashtiradi. Bu o'zlashtirish, odatda uning ohanglarini, leksikasini, topilmalarini qay bir darajada tortqilash darajasida ham kechadi. Shoir maktab yaratdi, degan gaplarga men ko'p qo'shilmayman. Ko'pincha, bu izdoshlik, "maktabdor" shoirga taqlidchilik darajasidan nariga bormaydi. Adabiyot esa buni sezadi. Taqlidchilar burilib ham qaramaydi. Taqlidchilar lomakonga cho'kib ketaveradilar.

Ammo adabiyotga mudom yangi havo kerak. U taqlidchilarni emas, yoxud milliylikni bilib-bilmay rad etgan modernchilarni emas, xalqining ruhidan mavjlangan, o'zidan oldin ijod etgan daholarning bog'idan nafas olgan, ammo o'zi ham bog' yaratarli shiddati bor iqtidorlarni hamisha sog'inadi.

O'sha paytda Erkin Vohidov, Abdulla Oripov va Rauf Parfidan keyin go'yo she'riyatimiz barcha cho'qqilarni zabt etganday tuyulardi. Bu ulkan shoirlar darajasidagi yangi iste'dodlarning paydo bo'lishini tasavvur ham qilib bo'lmasdi. Toza adabiyot ahli, do'ppisi boshidan tushib, shavqu iftixor bilan bu osmonlarga mahliyo tikilib qolgan edi. E-he! Qanday osmon shoirlar!

Ammo Parvardigori olamning o'z ravishi bor. Yangi shoirlar paydo bo'ldi. Allaqanday ters, gapni qarsillatib aytadigan, dunyoni o'zicha ko'radigan, shiddatli, jasoratli; she'rni ham yangicha yozadigan shoirlar adabiyotga kirib keldi.

Shavkat Rahmon — keyinchalik, she'rshunoslarimiz yetmishinchi yillar avlodi, deb atagan shu shoirlar qatoriga mansub.

Shavkat Qirg'izston o'zbeklaridan. O'shda tug'ilgan. U maktabni bitirgach, ikki yil o'tib, Moskvadagi Adabiyot institutiga o'qishga kirdi. Uning ilk she'riy turkumlari talabalik paytida — O'zbekiston matbuotida e'lon qilindi. U birdan shuhrat qozongani yo'q. Yuqorida aytganimday, o'zbek she'riyati ancha o'sgan, endi uncha-muncha she'rlar odatdagiday qa'bul qilina boshlagan paytlar... Ammo Shavkatning yozganlarida she'r madaniyati yuqori darajada ekanligi o'shandanoq yaqqol ko'zga tashlanar edi. Shavkat o'qishni yakunlab, Toshkentga keldi. Uzoq yillar G'afur G'ulom nashriyotida muharrir, nazm bo'limining mudiri sifatida mehnat qildi.

Yetmishinchi yillar avlodi birinchi kitoblari nashr etguncha, matbuotda kattagina yo'lni bosib o'tdi. Har bir chiqishlari bilan, o'zlarini shoir ekanligini o'zlariga ham, she'riyat muxlislariga ham isbot qilib borishdi. Asta-asta o'zbek she'riyatiga yangi shoirlar avlodi kirib kelayotgani barchaga ma'lum bo'ldi. Ularning shuhrati mamlakatni tuta boshladi.

Men bu avlodga o'zim ham mansub bo'lganim uchun maqtovlardan tiyilaman. Ammo bir jihatni aytib o'tmasam, adolatdan

bo'lmasligini ham anglab turibman. Xullas, bu shoirlar o'z taqdirlarini xalqining qismati bilan chambarchas bog'lagan jo'mardlar — halol yashab, halol yozishga qaror qilgan, umrlarini faqat Vatangagina bag'ishlash lozimligini teran anglagan fidokorlar edi.

Bir qadar dunyoni tanigan va anglagan bu iste'dodlar o'zbek qismati juda ayanchli ekanligini; barcha teng, deb e'lon etilgan ersa-da, barcha teng bo'lmayatganlarini angladilar. Sho'rolar davrida Boltiq bo'yiga alohida, Kavkaz va Ukrainaga o'zgacha, o'zbeklarga boshqacha ko'z bilan qaralar edi. Xalqimizga o'gayday qaralar — "e, zo'rsan", deb ba'zan yelkamizga qoqib qo'yilsa ham, rahbarlarimizning xushomadgo'yliklari tufayli bizdan umuman hayiqmay qo'yishgan — mamlakatimizga mustamlakaga qaralgandek qaralar; xalqni ruslashtirish yashirin va oshkor, ba'zan zo'ravonlik tarzda amalga oshirilar edi. Aslida, o'zbeklar paxta yetishtirib beradigan zamonaviy qullarga aylantirilgan edi...

Shavkat Rahmon o'ttiz yoshlarida, ijodiy barkamollikka erishdi. Ichidagini bemalol — jo'shib qog'ozga tushira oladigan shoirga aylandi. Uning bosiq ohangi, haykaltarosh yo'nganday zil she'r zuvolasiga qo'shilib, ajabtovur pishiqlik kasb etdi. Bir cheti epiklikka borib tutashadigan bu lirik she'rlar ko'ngillarga hayratomuz zalvorli tug'yonlar olib kirdi. Real hayotimiz uning she'rlarini mavzusi edi. Bu she'rlarda jasorat va mardlik shundoq balqib turar edi. U o'zbekning dardini samimiy, yuksak she'riy satrlarda ifoladi.

Mana bir she'rdan parchalar:

Bir parihon
kabi so'zladim,
tuproq yorgan g'o'zaga qarab:
"Avlodlarning haqqi-hurmati
o'sgin,
o'sgin,
pakana daraxt"....

.....

Axir, senga egilaverib,
yo aytolmay ko'ngil dardini,
qancha-qancha o'ktam asrlar,
rostlayolmay o'tdi qaddini...

Bu satrlarda qancha nadomat, afsus; qaddini ko'tarolmay qolgan xalqimiz boshiga solingan kulfat-u fojealarning alami jo bo'lgan. Umuman, Shavkat Rahmon ijodining ikkinchi davri (1985–1996) faqat Vatan dardi bilan to'lib-toshgan. U Vatanini ozod ko'rgusi keladi. Yovlardan qo'rqmaslikka, bechorachilikka ko'nikmaslikka, kurashga chaqiradi. ***"Bir boshga bir o'lim demagan ermas", "Yovga ters qaragan musulmon emas"...*** , deb hayqiradi.

Shavkatning Vatandan ortiq hasrati yo'q edi.

Shavkat Rahmon ham — xuddi Rauf Parfi kabi — o'sha xalqparvar, Vatani uchun hamma narsaga tayyor jadidlarning izdoshi.

Shoir Adabiyotning ham chinakam jonkuyari edi. Adiblarimizni savodxon, jahon kechayotgan adabiy jarayonlardan xabardon shaxslar bo'lishini chin dildan istardi. U nazm bo'limini boshqarganda, "Asrlar sadosi" degan jahon shoirlarining o'ziga xos she'rlar antologiyasini tuzishga bosh-qosh bo'ldi. Garsia Lorkaning bir jildlik she'rlarini tarjima qildi. Tabiatan pok-u halol shoir bu tarjimani amalga oshirishda yengil yo'ldan ketmadi. Xuddi maktab o'quvchisi kabi repetitorga qatnadi, ispan tilini o'rgandi.


Uning yettita she'riy to'plami nashr etilgan.
O'limidan keyin "Saylanma" kitobi chop etildi.

Men bu ikki daho shoir — Rauf Parfi va Shavkat Rahmon bilan hamsuhbat do'st bo'lganimdan faxrlanaman. Ularning she'rlari menga ko'p baxtli damlar sururini baxsh etgan. Adabiyotni taqdirim, deb biladigan kelajak iste'dodlar, she'riyat muxlislari ham bu baxtga hamisha oshno bo'lishiga ishonaman.

Usmon Azim,
O'zbekiston xalq shoiri

RAUF PARFI





BAG'ISHLOV

Do'stim, dilda ne bor so'zlayman senga,
Taxayyul mayiga termulaman jim.
Unda jilva qilar ajib alanga,
Unda ichilmagan mening yoshligim.
Xayol girdobida cho'milib yotar,
Unda yuz ko'rsatar yashnagan sarob.
Kunlarim tug'ilib, kunlarim botar,
Qandayin mo'jiza, do'stim, bu sharob!

Asta varaqlayman o'tgan kunlarni,
Go'zal kitobimdir qadah lolagun.
Kelar bolalikning aziz unlari,
Aziz jo'ralarim, qaydasiz bugun?
Qaydadir izg'idim, nimadir izlab,
Nimadir anglamay bequt peshona.
Shirin afsonalar aytib yulduzlar
Yoniga chorlardi meni yagona.

Har narsa sof edi, har narsa porloq,
Go'yo go'zallikdan iborat olam...
O'limni o'ylardim yurakdan biroq,
Birovdan o'tganda zarracha alam.
Har kim ham yoshlikda jasur, jangari,
Hayotdan mo'jiza kutardim, hayhot!
Otildim ochofat kimsa singari,
Meni mo'jizaga to'ydirdi hayot.
Bir vaqtlar shunchaki qayg'urardim, oh,
Bir vaqtlar shunchaki uxlamasdim men,

Shunchaki tun bo'yi yig'lardim, ammo
Yoshligim, sen uchun yig'lamasdim men...
Men endi, men endi shunday aftoda,
Na sajda qilgayman, na duoi bad,
Qo'limda porlaydi arg'uvon boda,
Yoshligim, yoshligim, unda sen faqat.

Endi xo'p yashadim. Shunaqa dunyo...
Har safar qo'limga olganda qalam,
O'ylayman, ketyapman yo'qlikka qarab,
Bu balki so'nggi she'r, bu balki vido.
Xayol sharobidan quyib ber yana,
Quygil, to'kilmasin yerlarga ilhom.
Qani ey, ko'zimni chirt yumib mana,
Ichib tugatayin uni batamom!

Do'stim,
dilda ne bor so'zlayman senga...

* * *

Kunduz o'yga cho'mar.
Tun yaqin.
Osmon yanglig' oqshom sharpasi —
Olis ufq chetida yorqin
Kunning qizil shohi pardasi.

Kechki quyosh turmaklar sochin,
Jozibali bo'lar ertaga!
Ana ko'k ham marjonlar sochdi —
Kengliklarning moviy ertagin.

Dalalarda esar shabboda,
Egiladi nozik chuchmoma,
Yalpizlarning bargidan shoda —
Shoda shudring jimgina tomar.

Jozibali bo'lar ertaga,
Sevgi fasli asl va bedog'.
Kumush havolarga o'rangan
Go'zalligi bilan yashnar tog'...

OTAM XOTIRASIGA

Go'zal esdaliklar qoldi sendan,
Zahmat chekmog'im uchun hayotda.
Men tanib olguncha esimni
Esdaliklar qiynaydi, ota.

Esdaliklar o'rtaydi hali,
Ruhim to'la armon va motam...
Go'zal esdaliklar tufayli
Men qanday yashayin, ota?!

RONDO

Bu xafa kecha kechar,
Quvgay uni oftob.
Bu kecha pardek uchar,
Qo'ynida majhul sarob.

Bu xafa kecha kechar,
Kechar ko'ngildan alam.
Ul o'zi zahar ichar —
Alamsiz qolgay olam.

Bu xafa kecha kechar,
Kechar g'aflat uyqudan...
Uyqu bilmagan kecha
Porlar yana tuyg'udan.

Bu chovuk kecha kechar...

* * *

G‘unchalar pushtirang va za’far
Zangori yaproqlar shahrida.
G‘unchalar orzumdek har safar
G‘unchalar qalbimning bag‘rida...

Qalbimning bag‘rida bir jahon
G‘aroyib ertaklar aytadi.
Men qaytib kelmasman hech qachon,
G‘unchalar, albatta, qaytadi.

* * *

Yangi tong...
Tongda erib ketdi
Kecha.
Uyqusini quvib ko‘chaning
Avtolar shovqin solib kechar.

Dunyo so‘rarmidim sendan,
Do‘stim, shu daqiqa.
Shunchaki, tong nafasi yanglig‘
Tabassuming kerak
Faqat.

FAVVORA

Ko‘p og‘ir ko‘rinar uxlashing,
Bugun senga tushgandi ishim.
Faqat sening yig‘lashing yaxshi,
Yaxshi edi sening yig‘lashing.
Nechun jimsan bugun favvora?

Dunyoda yo‘q edi o‘xshashing,
Go‘yo tiniq toza gul eding.
Ko‘z yoshlaring tingan. Kul, endi!..

Yaxshi edi sening yig'lashing...
Nechun jimsan, axir, favvora?

ISIKAVA TAKUBOKU[1] XOTIRASIGA

Hasratimning
Suyuq toshlaridan
Dahma qurmoqchiman
O'zimga.
Ichida o'z jasadim bo'lsin.

RONDEL

Xayrlashdik... O'ynar kapalak...
Biz asir bo'lmadik lahzaga.
Xayrlashdik beso'z, beyurak,
Bu bog', bu gul keldi larzaga.

Shabnamning sof qadahi sindi ...
Kulimizni sovurdi falak —
Sen mendan ayrilding, men sendan,
O'yin tushar rangin kapalak.

O'ynar, o'ynar, o'ynar kapalak.
Bir lahzaning farmoni qoldi.
Xayrlashdik. Beso'z. Beyurak.
Buyuk sevgi armoni qoldi ...

Qanday go'zal rangin kapalak.

[1] XX asr yapon klassik shoiri.

* * *

Xarita
Ko'zlarimga nur singari singib ketar
Yuragimning surati — xarita yetar

Men hali ko'rmagan orollar
Men hali bilmagan yerlar, dengizlar
Qonlarimda orom olar
Qonlarimni buzar.

Bunda ko'rinmaydir bir chayla
Unda baqirayotgan bir odam
Qalqir qalqir har bir hujayra
Ko'zimga sachragan yaradan.

Shu parcha qog'ozni bosib
Kim qalbimni g'ijimlab otar
Xarita — nafasim
Ko'zimning issig'i — xarita.

* * *

Ma'no o'qi ko'zimdan,
Men yonib muhabbatda,
Gar adashsam so'zimdan,
Qoshingda xijolatda,
Ma'no o'qi ko'zimdan.

Sen jabrga ustasan,
Ammo men ortiq mohir,
Sevaman va istasam,
Tark etmakka ham qodir.
Men — muhabbat,
men — sitam.

O'ZBEKISTON DAVLAT UNIVERSITETI KUTUBXONA MARKAZI INV. № 489911

Changal yasab boshimda,
Seni olib qolg'ayman.
G'amgin bir qaroshimda
O'z nahrimga solg'ayman,
Cho'karsan ko'z yoshimda.

* * *

Oylar o'tdi va yillar o'tdi,
Lekin sendan bo'lmadi xabar.
Yolg'iz seni men yolg'iz kutdim,
Kuta berib xun bo'ldi jigar.

Mana oxir sen-da namoyon,
Muhabbatim, ko'zim, ismatim.
O'ngmi, tushmi yo shirin armon?
Birdan yaraqladi qismatim.

Sen o'sha-ku, xayolda ko'rgan,
O'sha nigoh, oshno tabassum.
O'sha ohu ko'zlar tig' urgan,
Va yurakka boshlagan hujum.

Senga juda g'alat tuyular
Balki sevging bilan yonganim.
Menga og'u kabi quyular
Shunday buyuk ishqdan tonganing.

Oylar o'tdi va yillar o'tdi,
Yurak esa ishonch va g'ashda.
Qanchadirki, o'tgan vaqt, kutdim,
Seni kutdim kuyib otashda.

* * *

Xayr, dada,
Biz endi ko'risha olmaymiz
Yorug' dunyoda.
Bilamanki, siz tuproqda,
Bilamanki, siz qalbimning
bag'rida ochilgan yaproqda.
Bilamanki, mumkin emas
sizni bir bor ko'rmoq,
baxtini
tuta bilmay ko'kraklar-la
yer o'pmoq!
Armonim qoldi, xolos.
Armonimga sig'inaman,
Sizni sog'inaman...
Bilamanki, mumkin emas.

* * *

Talpinadi, shunday kuladi
Ko'm-qo'k o'rmon va tiniq daryo.
Daryo uzra oy ham quladi,
Yer husniga bo'lib mahliyo.

Talpinadi yashil dalalar —
Sovutadi asov otini.
Quyosh shirin o'ylarga tolar,
Bugun yozar gul ijodini.

Sovuq yuraklarga o't qalab,
O'zi berib o'ziga baho,
Mangulikning nag'masi ila
Talpinadi o'lkada bahor.

* * *

Muallaq ko'llardek bulutlar,
Qo'ygan kabi kundaga boshni,
Tashna sahro yomg'irni kutar.

Dunyolar o'tlarga qorilgan,
Anglamaydir bu qaynoq toshni,
Bu sahro qontalash, yorilgan.
Sabrsiz, bu sahro sabrsiz,
Qayga ko'msin bu cheksiz loshni
Qabrsiz, bu sahro, qabrsiz.

Puflar kuyib ketgan quyoshni.

* * *

Yomg'ir ham tinmadi uzun kun,
Uvushgan navdalar sindilar.
Yomg'ir ham tinmadi uzun kun,
Barglari jon uzib tindilar.

Deraza ortidan bir juvon
Qaraydi, ufq ham qoraydi.
Deraza ortidan bir juvon
Entikib ko'klarga qaraydi.

Samoning ko'ksiga qoqilsa,
Shamolga chiqsaydi otilib.
Mayliga, yomg'irdek yiqilsa,
Shamolga chiqsaydi otilib.

Bag'riga olar-ku bo'ronlar,
Ismsiz hasratni haydarlar.
Bir imkon shartini aytarlar,
Bag'riga olar-ku bo'ronlar.

Yomg'ir ham tinmadi uzun kun..

* * *

Yoz kechasi. Osmon — falakda
Kunduzning kitobi o‘qildi.
Tars yorildi qovun palakda,
Oltin shaftolilar to‘kildi.

Dalalarda mudraydi uyqu,
Dala yotar kutib quyoshni.
Ariqlarda doim uyg‘oq suv,
Polizlarga ketadi shoshib.

Yoz sha’niga qo‘shiq to‘qilar,
Chigirtkalar chirillar chunon.
Yomg‘ir yog‘ar, go‘yo yog‘ilar,
Issiq tuproq ustiga marjon.

Yoz yomg‘iri iliqdir biram,
Shitir-shitir uning qo‘shig‘i.
Bir shirin hid taralar yerdan,
Va yurakka ketar qo‘shilib.

* * *

Yaproqlarda shamol o‘ynar,
Suv mavjida o‘ynar shamol.
Sarin shamol nima so‘ylar,
Yuragida qanday xayol?

Derazamni chertadi u,
Tiqirlatar eshigimni.
Orom bilmas, bilmas uyqu,
Uyg‘otadi kelib meni.

Sochlarimga qo‘nar shamol,
Shamol qo‘nar ko‘zlarimga.

Qo‘shiq, ertak aytib xushhol
So‘ngra qaytar izlariga.

Xayr, shamol, xayr, shamol,
O‘ynab-o‘ynab kelgin yana.
Menga atab bir qo‘shiq ol,
Olgin yana bir afsona.

* * *

Nimadir u — ko‘zingga kelgan
Xayolingga, ona, ne keldi.
Yig‘lab turib hattoki kulding,
Nimadir u, ko‘zingga kelgan?

Menga juda o‘xshaydi, ona,
Ko‘zlaringda yaltiragan yosh,
Menda o‘sha ko‘z-u o‘sha qosh,
Menga juda o‘xshaydi, ona.

Ona, uni to‘kma, iltimos?!
Ko‘zlaringdan to‘kilay, agar
Sevinchingdan bermasam xabar.
Ona, uni to‘kma, iltimos...

* * *

Qanday go‘zal, qanday lojuvard,
Xayol kabi ko‘rinar jahon...
Lekin mening yuragimda dard,
Mendan xafa bo‘lmang, onajon.

Uxlamasman tonggacha, ona,
Tongda chiqar yorim begumon.
Ko‘zingizga uyqu begona,
Mendan xafa bo‘lmang, onajon.

Sevganimning yoniga boray,
Yuragimda qolmasin armon.
Unga yig'lay, unga yolboray,
Mendan xafa bo'lmang, onajon.

Ishq yor bo'ldi munis ko'nglimga,
Meni ado etdi ul jonon.
Ko'z tutmangiz endi yo'limga,
Mendan xafa bo'lmang, onajon.

NOZIMNING SADOSI

Ketdi Nozim.
Kelar Nozim ovozi.
Kipriklarim soqchiligida
mening ko'zim — mening dunyom
Hasrat yanglig'
jannat yanglig' mening dunyom,
fikrlarim
soqchiligida.
Atrofimda aylanar eng dardli,
eng baxtli tiriklik sayyorasi.
Men uning o'rtasida
jahon kabi katta va norasida.
Ko'z yoshlarim qalbimni ovutmadi,
ko'zlarim yig'lasa,
qalbim yig'lar chorasiz.
Qalbim yig'laganda
ko'zlarim to'kadi
achchiq yosh.
Quyosh! Quyosh — bir bosh!
Ko'zlarimni qalbimdan ayri tutmadim.
Bir sado
Nozimning sadosi —
sochilar

millionlarning son ming ko'chalariga,
dunyoning eng yorug',
dunyoning eng qora kechalariga.
Nozim... Nozim...
Ketdi Nozim.
Qoldi Nozim sadosi.
Sadoning aks sadosi,
Aks sadoning aks sadosi.
Sadoga o'ralashib borar tobora
Bu dunyo.
Sado kengliklari teran boqar menga
Nozim Hikmat ko'zlari ila.

* * *

Yomg'ir emas, marvarid yog'ar,
Yomg'ir — kecha shaklida bu on.
Suv singari jildirab oqar,
Kecha kechar shod va bearmon.

Barglarda raqs etar shabboda,
O'ynar sabo shaklinda kecha.
Tun bulutga ko'tarib boda,
Afsonalar aytar tonggacha.

Tanizorim igna uchinda,
Ko'zlarimda porlar qora nur.
Menga kecha yomg'ir ichida

Mash'um xayol kabi ko'rinur.
Ruxsorini yuvgan kechada
Men bilmagan yalang'och shuur.

* * *

Derazamga uriladi qor,
Jaranglaydi jarangsiz kumush.
Derazamga uriladi qor,
Qor singari oppoq bo'ldi tush.

Bir ajoyib qor yog'ar bu kech,
Uchib tushar mening yonimga...
Men-ku, seni o'ylamasman hech,
Sen tushasan ammo yodimga...

* * *

Daftardan bir varaq boqadi kulib,
Bevafo, keldingmi yana bu fursat.
Soat ham urinar qahrga to'lib,
Yo'qsan-ku, ne uchun kelding, ey surat?

Qattiqroq urinar yana-da soat,
Yana-da buruqsab yonmoqda chiroq.
Tun qushi o'kirib qilar ibodat,
Derazam ortidan egilib shu choq.

Qorayib yonarsen zulmat yo'linda,
Yuragimda yonib bitgan sevgilim.
O'tgan xotiralar o'ng-u so'limda.
Daftardan rasmingni olganman yulib,

Suratsiz shu varaq mening qo'limda,
Suratsiz varaqda sen borsan, gulim.

* * *

Bu kun bir tush ko'rdim.
Tushimda
Buxoroda yurgan emishman.
Yuksak minoralar boshimda,
Oyoqlarim ostida gulshan.

Buxoroda yurgan emishman,
Men-la birga yurarmish quyosh.
Erir emish, oqar parishon
Muz asridan omon qolgan tosh.

Yuksak minoralar boshimda
Menga hasad bilan boqarmish.
Asrlar bir damday qarshimda
Zangor olov bo'lib oqarmish.

Oyoqlarim ostida gulshan —
Qaynoq olovlarning davomi...
Buxoro zangori gul ushlab
Meni asir etdi tamoman.

Ul ayirdi meni hushimdan —
Yuragimni ko'rgan emishman...
Bu kun bir tush ko'rdim.
Tushimda
Buxoroda yurgan emishman.

* * *

Kulrang bulut kezinadi jim,
Kulrang bulut o'xshar uyquga.
Kulrang bulut boshlaydi hujum,
Baqirib shivirlar ruhimga.

Nafaslari qisilib go‘yo
Qaldirg‘ochlar uchar yer bo‘ylab.
G‘amgin-g‘amgin ko‘rinar dunyo —
O‘ylarini qiynaydi o‘ylab.

Kulrang bulut quladi oxir,
Parchalandi shu mualliaq ko‘l.
G‘ir-g‘ir shamol, g‘ir-g‘ir yomg‘ir,
Suratimni chizib berar yo‘l.

Qalqib-qalqib qo‘yadi qarab
Tabassumlar yozilgan tuproq.
Chapak chalib, sochini tarab
Bosh yuvadi bir hovuch yaproq.

Yana bulut kezmoqda sarson
Ta’qib etib borar izimdan,
Nafaslarga to‘la bu osmon
Uzilmaydir aslo ko‘zimdan...

* * *

Sabolarda o‘ynaydi navo,
Ariqlarda suv oqadi shan.
Ohanglarga to‘libdir havo,
Benavosan nechun yolg‘iz san?

Kuzgi bog‘lar *shivirlashar jim,*
Kuzgi bog‘lar kuychi za’faron.
Kuylarmikan shunday yuragim,
Qo‘llaringni qo‘ygil, mehribon?

Benavosan nechun, dilbarim,
Hayot seni etmasmi maftun?
Maftun etmaydimi gul bargi,
Maftun etmaydimi she’riy tun?

Qara, qanday porloq erur ko‘k,
Tingla, qo‘shiq aytar yulduzlar.
Bu — oy to‘kkan shu’la emas, yo‘q,
Bu — navoga aylangan so‘zlar.

Ufqlarda yoniq afsona —
Olgin Erkin Vohid she’rlarin.
Oydin yo‘llar qo‘shig‘in, mana,
Yo‘llar o‘zi aytar, dilbarim.

Sabolarda o‘ynaydi navo,
Ariqlarda suv oqadi shan.
Ohanglarga to‘libdir havo,
Benavosan nechun yolg‘iz san?

* * *

Mudrab yotar bunda daraxtzor,
Uxlar yupqa muz ostida suv...
Quyosh oyni topolmasdan zor
Botib ketdi, bulut — oq parquv.

Zulmat otli shoh kiymoqda toj.
O‘z hukmiga olganda uyqu
Uxlab olar olam noiloj.
Bechora tong — uxlamaydi u.

* * *

Og‘ir tun. Qurir tinka...
Qanday izg‘irin kecha,
Bu yomg‘ir tinar qachon?
yerga botadi tovon,
Loy yopishar etikka.

Lekin kutasan hamon
U tanish tol ostida,
Arazing bo‘lar tamom,
Qari to‘nka ustida
O‘ltiramiz yonma-yon.

His va xayol kechasi
Haroratli bir sovuq
Gulxan yoqaman va sen.
Obbo, tamaki ham yo‘q,
Meni asta quchasan.

Yomg‘ir qorga aylanar,
Ko‘zingda kular alam,
Ohista bosh aylanar.
Qayga qochib borar g‘am?
Qanday go‘zal bu olam!..

* * *

Bormi, bahorim bormi?
Bormisan, sevimli yor,
Dilga shuncha ozormi,
Ey Bahor, ey Bahor?

Quyosh kular, kular hayot,
Anvoyi gullar kular.
O‘zin baxsh etmoqdan shod
Poyimizga yiqilar.

Qaylardasan sen faqat,
Jondan aziz ko‘rganim.
Hech yasholmas
muhabbat
Ayriliqqa o‘rganib.

Sensiz ko‘kda mohitob,
Sensiz uyg‘oq yulduzlar.
“Qani” deb qilar xitob,
Tanho dil seni izlar.

Bormi, bahorim bormi,
Bormisan, sevikli yor?
Dilga shuncha ozormi,
Ey Bahor, ey Bahor?!

OYDINLIK

Kunday yorug‘, tunday qora
ekan ko‘zlaring.
Usmon Nosir

1

Oy suzadi. Muzlagan kecha,
Qor ufurar.
Tumanlarda bir yulduz muncha
G‘amgin turar...

G‘uj-g‘uj yulduz, oy kezar xoliy,
Boqasanmi?
Ishq daryosi oqar xayoliy,
Oqasanmi?
Nima keldi shu dam o‘yingga...
Kim u? Ayt, kim?
Bechora oshig‘ing yo‘lingga
Zormi, aytgin?

Oy suzadi. Muzlagan kecha,
Qor ufurar.
Tumanlarda bir yulduz muncha
G‘amgin turar.

2

Mayli oqshom, mayli qor,
Oy yorug‘ida
Sen porlading, go‘zalim,
Sevgi — ruhimda.

Kim yashirdi, yolg‘izim,
Tunni ko‘zingga,
Qor singari musaffo
Kumush yuzingga?

Olisda yal-yal yongan
Nima ekan ul?
Yurgin o‘sha tomonga,
Ey go‘zal surur.

Mayli oqshom, mayli qor,
Oy yorug‘ida
Sen porlading, go‘zalim,
Sevgi — ruhimda.

* * *

Aylanib tushar qor yo‘limga,
Qo‘lingni qo‘ygil, yor, qo‘limga.
Sen qolding muhr kabi labimda,
Sen — bir dard asabiy qalbimda.

Ko‘zimga berkitay va lekin
Yoshday oqib ketma, seviklim.

* * *

Og‘ushiga olar kunduzni
Kunduz kabi bu yorug‘ kecha...
Kechalarning kechalik yodi
Asta tongning mayidan ichar.
Kuzatib qo‘y tunlar yodini...

* * *

Bir so‘z bor
Beg‘ubor tong kabi go‘zal,
Tong chog‘i ochilgan g‘uncha kabi,
G‘unchada shabnam kabi musaffo.
Shirin tuyg‘ularning
Shirin farzandi,
Osmon kabi bepoyon ko‘zlar sevinchi yanglig‘
Bir so‘z bor.

Bir so‘z bor.
Haqiqat so‘zidan ham yuksak
Haqiqatning o‘zidan ham yuksak,
Bir so‘z bor...

* * *

Balki o‘chgan edim yodingdan,
Shirin xayolingni buzdimmi?
Laylo, Laylo, sening yoningda
Yaproq kabi ko‘rdim o‘zimni,
Shirin xayolingni buzdimmi?
Seni o‘ylab kelmaydir uyqu —
Qora tunning o‘zga sehri bor.
Tushlarimda topay deb gulro‘,

Men uxlarman mangu, ehtimol.
Go'zal tushlar tilayman, Laylo...

Yana paydo bo'lding yo'limda,
Yo'llaringda yana bo'zladim.
Bechora qalb sening qo'lingda,
Ko'zlaringda mening ko'zlarim.
Nechun paydo bo'lding yo'limda?..

SHABNAM

Umring juda qisqa bo'lsa ham,
Dunyoga shaffoflik bo'lib to'lasan.
Sen jamiki ko'zlarga malham,
Iliq tabassuming bilan o'lasan.

YOSHLIK

Yuragingda, sening qo'lingda
Toza chechak kabi o'ynadim.
Yoshligim, men sening yo'lingda,
Sevintirdim. Seni qiynadim.

Nahot xafa kunlaring o'tgan,
O'zing berdingmi beboshlikni?
Lekin meni otmading o'tga,
Naqadar yaxshisan, yoshligim!
Bir dard bo'lib, bir sevinch bo'lib,
Va bir donishmand bo'lib goh,
Ko'zlaringga qarab yurgin, deb
Etganing bor, yoshligim, ogoh.
Faqat sen uchgil nafasimdan,
Sendan bahra topsin bu olam.
Aytilmagan so'zlarim sendan,
Qilinmagan zahmatlarim ham.

3-22-313 № 48981

Men bilan bo'l doimo birga,
Ayri tutma meni, yoshligim.
Toza saqlay butun umrga,
Butun umrim, qora qoshligim.

Yuragingda, sening qo'lingda
Toza chechak kabi o'ynadim.
Yoshligim, men sening yo'lingda,
Sevintirdim, seni qiynadim.

* * *

Hayotga to'ymagan ko'zlarim,
Vallomat tog'lardan yuksakda.
Yurakda qaynagan so'zlarim,
Hislarim yong'ini yurakda.

* * *

Nima qilib qo'yding, quyosh,
Nima qilib qo'yding, axir?!
Eritib yubording-ku suv qilib, qurmag'ur,
Takrorlanmas mo'jizani
Darchamda.

* * *

Muncha g'amgin bo'lmasa o'ylar,
Hijron muncha bo'lmasa uzoq.
Meni o'yla, sog'inib o'yla,
Yolg'iz meni o'yla intizor,
Muncha g'amgin bo'lmasa o'ylar.

Hijron muncha bo'lmasa uzoq,
Holbuki, bir qadam o'rtada.

Oramizni kim buzdi o‘zi,
Inonkim, behuda o‘rtadi,
Hijron muncha bo‘lmasa uzoq.

Meni o‘yla, sog‘inib o‘yla,
Aytsalar-da sevgi uzilgan.
Ishonchsizlik hukmi tufayli,
Xafa bo‘lma mendan, o‘zingdan,
Meni o‘yla, sog‘inib o‘yla.

Yolg‘iz meni o‘yla intizor,
O‘ylaringda men yashay yakka,
Chunki sevgi atalgan azob
Qodir emas hech yashamakka —
Yolgiz meni o‘yla intizor.

Muncha g‘amgin bo‘lmasa o‘ylar,
Qasdi bormi menda, bilmadim,
Har bir olgan nafas ham yig‘lar,
Sen og‘ir nafassan, dilbarim,
Muncha g‘amgin bo‘lmasa o‘ylar.

* * *

Hoy, bola-bola, hoy, bola,
Bas qil, shodlik rubobin.
Mana, Dunyo bir piyola
Tutar senga sharobin.

Hoy, bola-bola, hoy, bola,
Hech qo‘rqmasdan uni ol.
Bir piyola, bir piyola,
Dunyo g‘ami icha qol...

SO‘ZLAR

Darak gap: Inson.
Undov gap: Inson!
So‘roq gap: Inson?
Yashamakni o‘rgatar so‘zlar.
Ba’zan ko‘ksimizda tashigan jonni
tashlamakni o‘rgatar so‘zlar.

So‘zlar kerak,
Bosh Harblarda yaralangan.
Bosh harflardan yaralgan
so‘zlar.
Bolari so‘zdoni bir ajib,
So‘zlardir peshonada to‘plangan ajin.
Qo‘llarimiz fikrchan so‘zlardir.

Haddan ziyod go‘zal so‘zdir — Turon.
Assalom, bu — tongotar.
Yaxshimisiz? Bu — yo‘l.
Xayrli tun, bu — quyoshning botishi.
Yo‘ldagi kishi —
juda ajoyib jumlaga o‘xshaydi.
Olijanob so‘zlarga o‘xshaydi — yer shari.
Yer shari — muqaddas bir kitob.

OHANG

Sen, ohang, ey g‘amli ohang,
Tanimasdim, bilmasdim oldin.
Tomirimda xun talashur jang,
Shuncha g‘amni qayerdan olding?

Bilmasmidim, yorug‘ dunyoda
Shuncha alam, shuncha iztirob.
Qayg‘ularda tuyg‘ular yondi,
Zaharmi simirdi xotirot?!

Yomg‘ir go‘yo diyda yoshidan,
Nechun yaralandi tushuncha?
Alamlarga timsol o‘xshaydi
Tong chog‘ida ochilgan g‘uncha.

Dilgir-dilgir yulduzlar yonar,
Oy o‘zini otadi hozir.
Mening o‘ychan, mehribon onam —
yer sharidan olingan tasvir.

Yo‘q, sen ohang emassan. Yolg‘on.
Sen qalbimda eshilgan nido.
Sen ham menga o‘xshagan Inson,
Sen ham dunyo, shu yorug‘ dunyo.

* * *

Dilgir musiqa oqardi,
U payt so‘zsiz va parishon
Bir-birimizga boqardik.
Seni aldamayman... Ishon...
Dilgir musiqa oqardi.

U payt ko‘zing edi — ma’no,
Soxta tuyulardi so‘zlar.

Orzularim kabi navo —
Sening kabi mislsiz go'zal.
U payt ko'zing edi — ma'no.

Oqshom, shabboda va yomg'ir,
Sen yonimda. Sen... yonimda...
Asta to'xtar bu kuy og'ir.
Kuy bo'lib qolding yodimda.
Oqshom, shabboda va yomg'ir.

* * *

Bir qushcha derazam yonida
O'tirar parishon va g'arib.
Yig'laydi, ko'zlari yonadi,
Ko'zlari ikkita marvarid.

Bir ajib navoga o'xshaydi,
Shoirga o'xshaydi bir hassos,
Miskin soz chalmoqqa u shaydir,
Dardiga bordir-ku bir asos.

Men unga qarayman ohista,
Men qushcha holiga yig'layman.
Va lekin bilmayman ne istar,
Bilmayman, hech qachon bilmayman...

TANKA

Ayt-chi, meni unutdingmi —
Gullarim qonlar yutdimi?!
Unutdingmi, eh, bir yo'la:
Yorug' dunyodan o'tdimi
Muhabbatim ekkan gullar?

* * *

Daryo mavjlarida yozilmish g'azal,
Maysalar egilib o'qiydir kitob.
Shodlanib xandalar otar bir lahza,
Bir lahza oh tortib qo'yadi oftob.

Qamishlar shivirlar daryo tomonda,
Ko'kda oq bulutlar kezar bemajol.
Bir tirik nafosat borliq, jahonda,
Kimgadir egilar, qilar iltijo.

Bu qadar go'zallik qaysi ochunda,
Bu qaysi kitobdir, kimning daftari,
Kimning alamidir qilich uchinda?

Qaltirab porlaydir bir chiroq g'arib,
Bir qushcha sayraydir ruhim ichinda,
Bir qushcha yig'laydir meni axtarib.

* * *

O'tmishlarning yodi qolsin,
Kelajakning orzusi —
Ikkisi ham bo'lmasa yolg'on.

* * *

Sokin turar bir daraxt salobat to'kib,
Bir so'z demas... Hech qachon.
Aqlli ko'rinar balki shuning-chun.

* * *

Dilimda bir so‘z bor edi,
Bu so‘z meniki edi. Aytdim-u,
Men so‘zniki bo‘ldim ortiq.

* * *

Men o‘zimdan o‘zim kulaman,
Baxtiyorman go‘dak singari
Kula bilganimdan.

* * *

Umrimni sovurding, deb,
G‘azabingni sochma menga.
G‘azab sochgan umrin sochmasmi?!

* * *

Tonglar ziyosidan ziyoli dunyo,
Shodlik daryo kabi sharqirab oqar.
Baxt singari olis yulduzlar go‘yo
Azal go‘zallikning sha’mini yoqar.

Ko‘nglim osmon yanglig‘ yorishdi, keling,
Cheksizlikni quchib yotar oq qog‘oz.
Yorqin saharlarda Sen, ruhim mening,
Yuksak-yuksaklarga qilaver parvoz.

Ey, samo, ey, zamin, ey, Inson — qodir,
Gullar, chechaklarga to‘lsin oydin yo‘l,
Nafosatga axir chidamli odam.

Bu kun Sen boshqasan, dunyo boshqadir...
Sen-da hur tug'ilding, bir kuyla, bir o'l
Va bilgil, qaylarda sarsondir alam.

* * *

Men bilaman, vujuding bo'zlar,
Bag'ring yonar sayoq o'g'lingga.
Seni o'rtar bir og'ir so'zlar,
Axtarib chiqarsan yo'limga.

Ko'chalarga qaraysan har zum,
Ko'chalarni oqlaysan, ona.
Gunohkorman yolg'iz men o'zim,
Yana meni oqlaysan, ona.

Ochiq yotar tokchada kitob,
Ochiq yotar mening daftarim,
Unda kezar mangu Iztirob.

Tubanlikda yosuman jari.
Sho'rlik o'g'ling bir umr betob,
Singan sozi, singan xanjari.

RASSOM

Qorlariga qorishdi osmon,
Elay ketdi nurli changini.
Qaydan olsin bechora rassom
Bunday ma'yus sevinch rangini.

Uni izlar, topolmas, garang,
O'tga qo'ngan qor kabi behol.
Ko'zlarida turar o'sha rang,
Osmonlarga tikilar bekor.

* * *

Shovullaydi shamol, uvlaydi,
Na tinim bor, na uyqu unda,
Alamini yoza bilmaydi,
Shodligin ham etolmas udda.

* * *

Tong otmoqda. Tong o'qlar otar.
Tong otmoqda, quyosh — zambarak.
Yaralangan yer shari yotar —
Boshlarida yashil chambarak.

Tong otmoqda, musaffo tongga
Yuragini tutar odamlar.
Shu tong uchun kelgan jahonga,
Shu tong deya o'tar odamlar.

Tong otmoqda...

* * *

Mudrar yarim kecha uyquda
Bulut suzar va oyni yopar,
Oyni yopar, lekin behuda —
Yana bir on o'tmasdan yonar.

Kecha olar uyqusida dam.
Kecha uzra posibon — chiroy...
Seni ko'rgim keldi juda ham,
Ajib qo'shiq aytgan chog'i oy.

* * *

Shirin uxlar tong chog'i go'dak,
Uxlar go'dak yo tong ko'ksida,
Yoki go'dak quchog'ida tong,
Uxlar shirin ham tinch, osuda.

* * *

Hasratlari dunyoning ko'pdir,
Lekin yo'li bir: quyosh sari.
Uning bir dam oromi yo'qdir,
U yaproqqa o'xshagan sariq.

Tuman — tamaki tutunidek,
Go'yoki dunyoning qayg'usi.
Quyosh sari ketmakda chekib
Dunyo xayol surib uyqusiz...

* * *

Termilaman olis ufqqa,
Botgan kundan qolmishdir dog'lar.
Yomg'ir urar qorong'ulikka,
Sovuqqina shovullar bog'lar.

Yana keldim mahzun go'shaga,
Bunda bir nay yotibdi sinib.
Qo'y, sig'inma ortiq o'shanga,
Qo'y, sig'inma unga, sevgilim.

Men hech narsa so'rmasman, dilbar,
O'tmishingdan so'zlama zinhor.
Men ham bir bor sevganman, yetar...
Qarasang-chi, atrofda bahor...

* * *

Oppoq bulut izg'ir sarosar,
Oppoq bulut sokin osmonda.
Yo'llar oshar, manzillar oshar,
Nelar bordir o'sha tomonda.

Shunday jim-jit zangori osmon
Zaminlarning nidosi bekor.
Naqadar oh, axir bepoyon
Sukunat deb atalgan diyor.

Oppoq bulut izg'ib yurar jim,
U yerlardan nelar izlar ul!..
Bu choq osmon fikrimga — hokim,
Dohiyona sukunatga — kul...

* * *

Chiroq. Chiroq yonar bo'zarib!
Jim. Tinglangiz uning kuyini.
U bir qo'shiq aytar, do'stlarim,
Sahargacha aytar kuyinib.
Chiroq. Chiroq yonar bo'zarib.

Chiroq yonar — sevimli orzu,
Chiroq yonar — so'ngi yo'q hasrat.
Sevinchingiz kabi yonar u,
Chiroq yonar — eng go'zal qismat,
Chiroq yonar — sevimli orzu.

Chiroqni tinglangiz, odamlar,
Qarshisida egib turing bosh.
Sizni kuylar u tongga qadar,
To navbatni olguncha quyosh.
Chiroqni tinglangiz odamlar...

* * *

Yillar, berahm yillar,
Shoshasiz qayga,
Shirin-shirin bu tillar
Ovozi nayga
Jo‘r bo‘lgan kezlar.
Yoshligim kerak, yillar,
Ko‘z nurim kerak,
Nachora quvib yelar
Yillarni bu yurak.
Xafaqon dillar.
Qish faslidir qahraton,
Boshimda yellar...
Yoshligimni bermayman,
Berahm yillar,
Berahm yillar.

* * *

Ona, mening haqqim ko‘p
Moziydan, hozirdan
va kelgusidan.
Ona, mening haqqim ko‘p,
Ayniqsa, o‘zimdan.

Birinchi — yonishlar.
Ikkinchi — yonishlar.
Uchinchi...
Yo‘l esa uzun.
Oh, uzun.
Ba’zan xafa ko‘rinasan
o‘g‘lingdan,
Haqqimni
Tan olmaysan ba’zan.

Ona, mening haqqim ko‘p,
Quyoshdan,
Gullardan,
Va sendan.

IZLAR

Go‘yo qordagi izlar —
O‘tkinchi.
Go‘yo qum ustida
Tovon ko‘lkasi.
Birinchi iz.
Ikkinchi iz.
Uchinchi iz...
O‘ninchi.
Bu yaxshi kim!
Bu yomon qaysi?!
Izlar
Abadiyat haqida so‘zlar.
Toshlardagi yozuvlar kabi izlar.
Yomonlikni yanchib boradi
Quyoshning va yerning
O‘z bolalari.

* * *

Mana, chaqmoq chaqdi nogahon,
Zimiston tun choki so‘kilar.
Shunday yaqin ko‘rinar osmon,
Yashinlar yog‘dusi to‘kilar.

O‘t ichida poyonsiz jahon,
Ne izlarman otashlar ora?!
Chaqmoq chaqib yupatar osmon: —
Bunda sen-u va men bechora.

* * *

Nigohing ko'rinur, ko'zlaring...
Erimasin yerda yotgan qor.
Qor ustida sening izlaring,
Qor ostida mudragan bahor.

Chaman-chaman ochilgan gullar,
Bahor qo'shiq aytarmish qorga.
Qo'shiq aytib daryo shovullar,
Ta'zim ila go'zal bahorga.

Porlab turar bahor — ko'zlaring,
Bahor yuzlaringda barqaror.
O'chmasin hech sening izlaring,
Yo'qsa nechun menga bu bahor?!

* * *

Yulduzlar buncha ham behisob,
Yur, yulduzim, yulduz sanaymiz.
Yur, shu so'lg'in o'tlarga qarab
Jo'naymiz, istasang jo'naymiz.

Chorlab turar moviy bir diyor,
Da'vat etar kahkashon yo'li.
U dargohda rang bor, olov bor,
Tanhogina sen yo'qsan, gulim.

Unda qurgan bazm koinot,
Chiroy unda tantana qilur.
U yerda sen ko'rmagan hayot,
G'oyat ajib bo'lib ko'rinur.

Olovlarning belanchagida
Huv, daxlsiz ko'kka uchaylik.

O‘ylamaylik tashvish haqida,
yerlik tashvishlardan kechaylik.

Bir tirik jon topilmas unda,
Jabrdiyda ellar bo‘lmaydi.
Yo‘q, daf’atan bir qora kunda
Yurak-bag‘ring qonga to‘lmaydi.

Yulduzlar buncha ham behisob,
Yur, yulduzim, yulduz sanaymiz.
Yur, shu so‘lg‘in o‘tlarga qarab
Jo‘naymiz, istasang jo‘naymiz.

* * *

Binafsha, ismingiz umidli,
Nafosat to‘la — Binafsha.
Yana bir yil, oh, bir yil o‘tdi,
Ey umr, sen bunchalar shoshma.
Yuraklarning shavqi, kulgusi
Aks etadi arg‘uvon mayda.
Binafsha, mehribonim, do‘stim,
Bu kun xafa bo‘lmangiz mandan.

Xafa bo‘lmang yurakdan kulsam,
Xafa bo‘lmang yig‘lasam toshib.
Poyingizga kelib yiqilsam,
Xafa bo‘lmang mendan, quyoshim.
Chunki shodliklarim, Siz — tanho,
Alamlarim, Sizsiz mening.
Siz tilsimot kabi bir dunyo,
Siz dunyosi — Sizni ko‘rganning.
Binafsha, ismingiz umidli,
Noumiddir yuragim hamon.
Ko‘kda bulut, ko‘ksim bulutli,
Tumanlarga belangan havo...

* * *

Ammo kun botmoqda, kun botmoqda axir.
Asqad Muxtor

Bu kun kechdi. Quyuldi oqshom,
Men haqimni olurman tundan.
Tun — ajoyib fikrga o'xshar,
Xotiralar qolmishdir kundan.

Kun aylandi, mening boshimda,
Odamlarning fikri aylandi,
Ko'rganlarim ich-u toshimda,
Hukm-farmonimga boylandi.

Hech kim meni xafa qilmadi,
Hech kim xursand qilmadi meni.
Yuragimni kimdir bilmadi,
Kimdir ko'tarmadi ko'nglimni.

Bu kun kechdi. Bir hasrat qoldi.
Bir quvonchim qoldi orqada.
Ko'z o'ngimdan bu kun yo'qoldi,
Quyosh ketdi uni orqalab.

Bu kun kechdi tilini tishlab,
Na xursandman, na xafa undan.
Bu kun kechdi. Quyuldi oqshom,
Men haqimni olurman tundan.

* * *

Bu kun mening yuragim bo'm-bo'sh,
Na vidosi, na-da tilagi.
Hech bir narsa jalb etmas uni,
Bu kun bo'm-bo'sh mening yuragim.

Holbuki, men ohang istardim,
Musiqa edi-ku, har yaproq.
She'r hajrida yonardim kecha,
Bu kun biror qofiya ham yo'q.

Shundayin, so'rraygan bema'no,
Yulduzlarning nuri sanchilar.
Qanday edi, eslamoq mahol
Afsonalar aytgan kechalar.

Bu kun mening yuragim bo'm-bo'sh...

* * *

Sen shohimsan, sen qulimsan,
Sen — ona tilim.
V. Bryusov

Men o'tkinchi, men faqat mehmon,
Dargohingda, ey, ona tilim.
Menga bir she'r kerak, ey, mezbon,
Yozilmagan she'r erur dilim.

Aytgil, nechun bunchalar qiziq
Eski jahon, bu eski jahon?
Bir she'r kerak non kabi issiq,
Menga bir she'r kerak, ey, mezbon.

Qiynamag'il meni, onajon,
Sen — abadiy, men — lahza, biroq
"Itoat et menga shul zamon,
Yo aylagil telbani tuproq?!"[1]
Men o'tkinchi, men axir mehmon...

[1] V. Bryusovdan.

* * *

Bilaman, siz meniki emas,
Orzuimga bo'lolmaysiz xesh.
Biroq Sizni, Sizni bir nafas
O'ylamaslik mumkin emas hech.

Siz keldingiz yoniq — ko'ngilning
Betasallo kuygan armoni.
Mayli, mendan, Siz mendan kulmang,
Tashlang otash qa'riga meni.

Shunday, mag'rur va sodiq qolar
Sevgisiga, va lekin shoir
O'zi tanho yashashdan tolar,
Tanholikda bo'lar ko'p og'ir...

ONAMGA

Shu buyuk qo'llarning madori
Qurigandir uzoq yillarda.
Ketdi yozing, ketdi bahoring,
Onaizor, aziz qo'llardan.

Ne yaxshilik ko'rding o'g'lingdan,
Umidingni dunyodan uzib.
Ko'zlaringdan nur o'g'irlagan
Men emasmi — sening yolg'izing?!

Qo'llarimda bo'lsaydi mening
Bahorlarni ortga qaytarmoq —
Bilinmasdi shuncha kuyganing,
Tushmas edi sochlaringga oq.

Men yashayman doim qalbingda,
Ko'zyoshlaring bo'lib yashayman —
Kechirmayman o'zimni. Lekin
Bo'z yoshliging bo'lib yashayman...

* * *

Juda baxtli eding u bilan,
Bir jahonga to‘lib yurarding.
Sen o‘shani o‘ylaysan hamon,
O‘sha bilan banddir yuraging.

Uning bilan kechgan damlardan
Senga qolgan shirin xotira.
Mening esa achchiq g‘amlardan
Tortib ketdi ko‘zlarim xira.

Lekin sevgi joy topolmadi
Xotiralar yotgan qalblardan.
Sen uni hech unitolmading,
Men ham kecha olmayman sendan.

* * *

Qayg‘u bo‘lsang agar, sevgilim,
Ko‘zlarimda seni asrayin,
Tirik kipriklarga aylanib,
O‘zim posbon bo‘lib turayin.

Sevinch bo‘lsang, sevgilim, agar
Unut bo‘lar edi qayg‘ular, shoyad.
Kular edi ko‘hna dunyolar,
Kular edi ul ham nihoyat...

* * *

Oppoq bulut izg‘ir sarosar,
Oppoq bulut sokin osmonda.
Yo‘llar oshar, manzillar oshar,
Nelar bordir o‘sha tomonda.

Shunday jimjit zangori osmon —
Zaminlarnig nidosi bekor.

Eh, naqadar axir bepoyon,
Sukunat deb atalgan diyor.

Oppoq bulut izg'ib yurar jim,
U yerlardan nelar izlar ul?...
Bu choq osmon fikrimga hokim,
Dohiyona sukunatga qul...

* * *

Hayot ummonida bir-birin bilmay,
Shunday, biz to'qnashib qoldik daf'atan.
O'zing ayt, ne qilay, aytgil, ne qilay,
Qanday ayrilayin endi men sendan.

Sho'rpeshona ishqni tolega yo'yib,
Jimgina taqdirga berganimda tan,
Ishonch-u armoning ko'ksimga o'yib,
Dovdir hayotimga kirib kelding san.

Sening ko'zlaringga qildim iltijo,
Bo'lmay, deb eng so'nggi mehrdan yiroq.
Inongil, bu sevgi emasdi aslo.

Aldanib o'rgangan dard edi biroq.
O'rtada anglanmas qismat — muallo,
Yolg'izlik oshyoni, abadiy firoq.

* * *

Ko'zlarimga to'lib qolgan nimadir,
Tomog'imga tiqilib qolgan nimadir, axir,
Kim aytadi, sen aytmasang agar, gunafsha?

* * *

Bir aqlli-yey, mana bu qurmag‘ur,
Bir chiroylikki mana bu?
Bular ham tug‘ilganmikin?

* * *

Men sening ko‘zlaringga qarayman,
Sen o‘zgalarga.
Kimning ko‘zlaridan izlaysan meni.

* * *

Seni topgunga qadar,
Qanday yashadim men?
Nahot yashadim?

* * *

To‘xta, vijdon, qayoqqa ketayapsan,
Qayga qochyapsan bevafo xotin kabi.
Haqqing yo‘q, bir o‘lim haq xiyonat uchun.

* * *

Yo‘qlik bir armondir, armon — bir yo‘qlik,
Armondan iborat borliq va lekin,
Yerga cho‘kkan osmon mening armonim.

* * *

Jigar-bag‘rimga to‘ldi ushbu so‘zlar,
Ushbu so‘zlarga aylandi-ku, mening dunyom —
“Sen meni aldamaysanmi? Aldamaysanmi?”

BOG‘CHASAROY FONTANI

G‘amli fontan, hamon yig‘laysan,
Hasratlarda bo‘lmaysan ado.
Ehtimol, kimnidir yo‘qlaysan,
Kimlardandir bo‘lgansan judo.

Necha-necha malak qoshingda,
To‘kib solgan qonli yoshini.
Sen yig‘laysan balki o‘shandan,
G‘amli fontan, egib boshingni.

Ko‘ngil uchun axir kulmaysan,
Sen hamon yig‘laysan, bechora.
Ko‘rganingni ayta bilmaysan,
Bir gap ayta olsayding zora...

Shu zangori osmon ostida
Xayolotdek bepoyon olam.
Nuqta kabi olam ustida
Qrim degan bir mamlakat ham.

Qahrli, beshafqat garoylar...
O‘zing guvoh, ko‘z yoshing guvoh.
Kechdi asr, yillar va oylar,
Nelar kechdi boshingdan, e voh!

Ko‘kka yetdi sabr daraxti,
Yig‘la, Qrim, yig‘la, Tangri Ko‘k.
Ne bo‘lmoqda insonlar, ayting,
Qrim bor-u, qrimliklar yo‘q.

Ayting menga, qayda adolat,
Qayda, ayting, insoniy huquq?!
Bu na holdir, qandayin holat,
Qrim bor-u qrimliklar yo‘q?!

G‘amli fontan, hamon yig‘laysan,
Hasratlarda bo‘lmaysan ado.
Ehtimol, kimnidir yo‘qlaysan,
Kimlardandir kutasan sado.

EGALARI TASHLAB KETGAN UY

Kim bor? Bo‘m-bo‘sh uy, chor atrof qorong‘u.
Yastangan samoning rangi o‘chibdir.
Kim bor? Bo‘m-bo‘sh uy, chor atrof qorong‘u.
Ko‘chmishlar. Yulduzlar qayga uchibdir.

Qorong‘u, chor atrof qorong‘u. Yo‘q, yo‘q.
Cheki yo‘q sahrodek yaxlagan taqir.
Qorong‘u, chor atrof qorong‘u. Yo‘q, yo‘q.
Bechora bo‘m-bo‘sh uy, ey sag‘ir...

* * *

— Oyi, oyi, aytib bering,
Bormi mening ham o‘z yo‘lim?
— Hamma yaxshi yo‘llar sening,
Eng yaxshisi sening, o‘g‘lim.
— Oyi, nedir baland uchgan,
Nega mening yetmas qo‘lim?
— Yerdan osmon uzra ko‘chgan,
Xayolingdir sening, o‘g‘lim.
— Oyi, urush nima, ayting,
U nimadir — nomi o‘lim?
— Bo‘lsa aytar edi otang...
Urush — bu yo‘q narsa, o‘g‘lim...

* * *

Shivirlaydi oyog‘imda yashab o‘tgan xazonlar,
Ko‘zlarimga igna yanglig‘ sanchilmoqda mezonlar.
Huvillagan qishloq uzra quyuq tuman cho‘kmoqda,
Yiroqlarda nay ko‘nglini so‘nggi bora to‘kmoqda.

Dala bo‘m-bo‘sh ko‘milgandek unga ko‘hna savollar,
Faqatgina kezib yurar, izg‘ib yurar shamollar.
Faqatgina ko‘rinadir kuygan daraxt mung‘ayib,
Qayda qoldi mangu bahor, qayga bo‘lding sen g‘oyib?

* * *

Yomg‘ir yog‘ar, shig‘alab yog‘ar,
Tomchilar tomchilar sochimga.
Yomg‘ir yog‘ar, shig‘alab yog‘ar
Ham qayg‘umga, ham quvonchimga.

Yomg‘ir yog‘ar, shig‘alab yog‘ar,
Men unga ochaman bag‘rimni.
Yomg‘ir yog‘ar, shig‘alab yog‘ar,
Asta unutaman yomg‘irni.

Yomg‘ir yog‘ar, shig‘alab yog‘ar,
Oxir meni asir etar ul.
Yomg‘ir yog‘ar, shig‘alab yog‘ar,
Yog‘a boshlar qog‘ozga ko‘ngil.

* * *

Butun kecha o‘ychan va sokin,
Xona ichra qolmishdik tanho.
Bir telbalik ruhimga hokim,
Shunday hokim ruhimga sen ham.

Ohang oqar. Devorda surat:
Moviy dengiz ustida kema...

Tanholig-u o'rtada hurmat,
Va sevgiga o'xshash bir nima.

Men o'ylayman, nedan boshlay gap,
Sen o'ylaysan, ne qilay javob.
Na kuladi, na yig'laydi qalb,
Qarashlarda yaxlagan sarob.

Butun kecha o'ychan va sokin,
Xona ichra qolmishdik tanho.
Men demadim: "Sevaman seni".
"Sevolmayman" demading sen ham.

* * *

Tashqarida shovullar shamol,
Yomg'ir qattiq yog'ar bu kecha.
Tashqarida shovullar shamol,
Yuzlarini yuvmoqda darcha.

Tashqarida shovullar shamol,
U kunlarning shakli ko'zimda.
Tashqarida shovullar shamol,
Savollarga ko'madir zimdan.

Tashqarida shovullar shamol,
Derazamni qoqar betoqat.
Tashqarida shovullar shamol,
Tashqarida pushaymon faqat...

* * *

Uzoqdan chiroqlar ko'rinar —
Orzumning munavvar shulasi.
Yonishlardan ko'zlarim tinar,
Lekin yetib borgum, shubhasiz.

Uzoqdan chiroqlar ko‘rinar.
Ot qo‘yaman. Yonishlar yondi,

U yerdan kelmoqda ovozim.
Uchgan ovozimdan ham oldin
Chiroqlarga yetmagan o‘zim!
Ot qo‘yaman. Yonishlar yondi...

* * *

Xayr senga, yaxshi qol endi,
Faryod chekar ko‘zingda sevinch.
Xayollarga bir dam tol endi,
Huzuringga men qaytmasman hech...

Seni o‘rtar achchiq pushaymon,
Ayrilmoqdan qo‘rqmassan mendan.
Sevgi uyi uzlatda vayron —
Bir tasalli tilamas sendan.

Bir kun ko‘rib seni ko‘chada
“Ana, u!” — deb qo‘limni cho‘zgum...
Yodgorlikdek so‘nggi kechadan
Yo‘l ustida to‘xtagin bir zum.

Boshing egib kelma men tomon,
Sen ketaver... Yonimga qaytma...
Ko‘rib qolsang undan ham yomon.
Yo‘q, yo‘q, meni kechir, deb aytma...

Xayr senga, ketar bo‘ldim men,
Ketar bo‘ldim shu qorong‘u kech.
Qaytmasam-da muhabbatimdan,
Huzuringga men qaytmasman hech.

* * *

Yo‘q! Ko‘rishmaymiz, xayr, endi!
Ortiq ko‘rishmaymiz yuzma-yuz,
Sahrolarda sevgimiz qoldi,
Qor ostida qoldi sevgimiz.

Ortiq ko‘rishmaymiz yuzma-yuz,
Mehr to‘la yoniq ko‘z bilan
Yo‘q, yo‘q, endi hech qaramaymiz,
O‘rtalikda mash’um bir tuman.

Sahrolarda sevgimiz qoldi,
Kuygan yantoq misol quyoshda.
Xato sevgi qo‘shilib tomdi
Zahar-zaqqum bo‘lib ko‘z yoshdan.

Qor ostida qoldi sevgimiz,
Sho‘rlik sevgi topmadi omon.
Yakka-yakka bo‘ldi ismimiz.
Har xil yo‘ldan ketdik har tomon.

* * *

Qayda o‘sding, qayda yashnading
Yaproq, yaproq, aytib ber menga,
Yulqinib o‘zingni tashlading,
Nega axir, yaprog‘im, nega?

Seni shamol, boq, supurmoqda...
Yaproq, yaproq, so‘zlab bersang-chi?
O‘z sevgingdan bo‘zlab bersang-chi?
Nechun tushding, nechun oyoqqa?..

* * *

Shivirlama menga, ey shamol,
Xuddi qalbim yonidan oqma,
Shivirlama menga, ey shamol,
Uzib yaproqlaringni otma.

Shivirlama menga, ey shamol,
Qayga olib borursan tag‘in?
Shivirlama menga, ey shamol,
O‘tmishlarning qora ertagin.

* * *

Yana ajib tushlar ko‘ribman,
Tushlarimda uni ko‘rdim men.
Yana ajib tushlar ko‘ribman,
Huzurida yonib turdim men.

Chirmab borar olovli to‘lqin,
To‘lqinlarda bo‘larman abas.
Yonishlarning qo‘ynidan yulqib
Koshki sudrab chiqsa bu nafas.

Alanga chaqnaydi ko‘zimda,
O‘tlar meni tashladi tilib,
Sevgi, sevgi, mening bo‘g‘zimda,
Kalimaga kelmaydi tilim.

Shunday ajib tushlar ko‘ribman,
Tushlarimda uni ko‘rdim men.
Shunday ajib tushlar ko‘ribman,
Huzurida yonib turdim men.

Yana sevgim qoldi yurakda,
Ul qiynaydi meni beomon.
Tushlarim ham tugab bormoqda,
Bir so‘z ayta olmayman hamon.

ABDULLAJON MARSIYASI

1. Qushlar, qushlar, qator-qator,
Qushlar, uyga qaytingiz,
Abdullajon qaytmas zinhor,
Yor-do'stlarga aytingiz.
O'ynar bo'ron, o'ynar bo'ron,
O'ynar mening boshimda.
Endi yo'qdur Abdullajon,
Yigirma besh yoshinda.

Yo'llar uzun, yo'llar uzun,
Kunlar ham ko'p cho'zildi.
Qonli yoshlar to'kdi ko'zim,
Jigar-bag'rim ezildi.

Poezd chopar, poezd chopar,
Poezd chopar Sibirdan.
Abdullajon jonsiz yotar,
Tobutlari temirdan.

Bo'zlar osmon, bo'zlar osmon,
Bo'zlab bersa bo'zto'rg'ay.
Ko'zlarini Abdullajon
Bir dam ochsa, na bo'lg'ay?!

Nafas olmay ul uxlaydi,
Ko'kragida o'ng qo'li.
Yel yig'laydi, el yig'laydi,
Yig'lar o'zi ham o'lim.

2. Aziz do'stim, qaylarda qolding?
Ko'rib turib seni, ko'rmadim.
So'radim-u men dard-u holing,
Men dard-u holingni so'rmadim.

Sen yonib ketarsan yodimda,
Biron sharpa, tovush eshitsam,

Go‘yo mana, hozir oldimga
Otilib kirarsan eshikdan.

Shamol kabi uchib o‘tgaysan,
Shovullaysan boshimda har zum.
Aytilmagan qo‘shiq aytgaysan,
Yaproqlarni otgaysan uzib.

Doim birga va doim judo
Bag‘ridan, bechora ko‘zlarim.
Buncha xasis bo‘lmasa dunyo,
Toptaydi o‘zining izlarin.

Nahot, do‘stim, shu qabr — senmi,
Senmi yozilmagan shu kitob,
Ko‘milarmi hech qachon sevgi?
Men javob istayman, javob.

Aziz do‘stim, qaylarda qolding?
Ko‘rib turib seni, ko‘rmadim.
So‘radim-u, men dard-u holing,
Men dard-u holingni so‘rmadim.

3. Sen tark etding yorug‘ olamni,
Sen butunlay tark etding, yohu.
Tinglamaysan mening nolamni,
Tinglamaysan, chorasiz ohu.

G‘amli uyda qirq kun yonur sha’m,
Sen o‘yimda yonursan abad.
Qayta tug‘iladir dunyo ham,
Sen dunyoga kelmaysan faqat.

Ohim mening buzgay samoni,
Nafasim aylanur quyunga.
Sovuq yerga qo‘ydikmi seni,
Kerakmiding shunchalar unga?!

Yigirma besh yoshda ketding sen,
Juda erta ketding, do‘stginam,
Hey ajal! Maqsadga yetding sen,
Yigirma besh yoshdaman men ham...

Yigirma besh yoshimni qo‘shdim
Yigirma besh yoshingga sening
Haddan ziyod bu alam, do‘stim,
Bu kun ellik yoshim bor mening.

Sen tark etding yorug‘ olamni,
Sen butunlay tark etding, yohu.
Tinglamaysan mening nolamni,
Tinglamaysan, tinglamaysan-ku...

* * *

Seni menga betob dedilar...
Bu so‘z yomon, bu so‘z ko‘p og‘ir.
Seni menga betob dedilar,
Oqdi yoshim misoli yomg‘ir.

Seni menga betob dedilar...
Menga dunyo hazin tuyuldi.
Bulutlarga to‘ldi osmon —
Achchiq-achchiq yoshi quyuldi.

Seni menga betob dedilar...
Lekin kelding, kelding sen o‘zing.
Qora bulut tamom yo‘qoldi.
Holbuki men... Yig‘laydi ko‘zim.

* * *

Avtobus derazasidan qarab ketsang
Uzoq-uzoqlarga,
Masofalar suvratini olib ko‘zlarga.
Xususan, oy bulutlar orasiga berkinib tursa.
Xususan, yulduzlar so‘nganda,
Xususan, zim-ziyo tun chog‘i.
Ayniqsa, shaharning shovqini seni zeriktirsa,
Ayniqsa, sevgiling sevmasa seni...
Ayniqsa, g‘iybatlar to‘qisa
Do‘stlaring...
Yiroqlarga qochar qismatlar,
Avtobus derazasidan qarab ketsang...

* * *

Derazamdan boqar zulumot,
Zulmat bilan jang qilar yomg‘ir.
Yuragimga oqar zulumot,
Oqib fikrimni tilar yomg‘ir.

Zulmat bilan jang qilar yomg‘ir,
Shiddat bilan kesar zulmatni.
Pichog‘ingni bog‘la, ey bag‘ir,
Sen ham, sen ham uni yo‘latma!

Yuragimga oqar zulumot,
Manzilda bo‘larmi hukmron?
Qo‘llarimni bog‘larmi, nahot,
Shu mantiqsiz zulmat — nogiron?

Oqib tilar fikrimni yomg‘ir,
Fikrlarim mening sachraydi.
Cho‘yan parchalaridek keskir,
Nega bu zulumot qochmaydi?

Nega tushunmayman, nega? Dod!
Yomg‘ir — dunyo singari og‘ir.
Derazamdan boqar zulumot,
Zulmat bilan jang qilar yomg‘ir.

* * *

Birga tug‘ildik-ku, yuragim,
Jahonni kezmakka piyoda,
Odimlarimiz birdir bizning.
Shu baxtli, shu badbaxt dunyoda
Odamlarimiz birdir bizning.

Birga tug‘ildik-ku, yuragim,
Nasib etganda ham mangulik,
Sen yashayver, sen mani kutma.
Men-ku ismingman, xolos, lekin,
Yuragim, nomingni unutma.

* * *

Qayga uchmoqdasiz, qayga, bulutlar,
Bu kun mehringizni to‘kasiz qayga.
Eh, shamol qaylarga sizni irg‘itar,
Siz bilgan yergami, qandayin joyga?

Daryo tepasida yig‘ilib u kun
Bulut bo‘lgandingiz yaxshi niyatda.
Nechun qo‘l berdingiz shamolga, nechun,
Nechun qul bo‘ldingiz, bulutlar, qayta?

Siz bilar edingiz qaydadir kutar,
Sizsiz chil-chil sinib yotibdi toqat...
Holbuki, shamol — yo‘q, siz — yo‘q, bulutlar,
Siz telba shamolga, bir ermak, faqat

* * *

Qani nay ber menga, do'stginam.
Abdulla Orif

Rubob bergil menga, do'stginam,
Ber, qalbingni torlarga qaday,
To'lib-to'lib kuylayin men ham,
Barmoqlarning qo'shig'in aytay.

Oftob kuylar parishon kulib,
Bir oz xafa ko'rinadi u.
Ana, qo'shiq boshladi bulut,
To'kilmoqda tuproqqa tuyg'u.

Ohang varaqlaydi dunyoni,
Dunyo — o'qilmagan bir kitob.
Zangori tovushlar ummoni —
Astagina baqirar rubob...

Rubob, rubob, sen uni quvla,
Ovozini o'chirsin alam.
Uyqudan uyg'onsin uyqular,
Ber, rubob ber menga, do'stginam.

* * *

Yulduzlarga men ham qarayman,
Yulduzlar — samoviy bir xayol.
Men ko'proq zaminga yarayman,
Menga kerak yerdagi hayot.

Yulduzlarga qarayman men ham,
Yulduzlar — chatnagan orzular.
Huv, miskin kezadir bir odam —
Ko'ksida yonmagan yulduzlar.

Yulduzlarga qarayman men ham.
Ba'zida keladir havasim.
Ba'zida bosadir og'ir g'am.
Ba'zida yetmaydir nafasim.

* * *

Yuragimdan maskan axtarib,
Miltiraydi, nurlanadi sham,
Intilaman yuragim sari,
Intilaman shu'laga o'xshab.
Undan yorug' tovush keladi,
Shamol unda to sahar, to shom.
O'z dardini o'zi biladi,
Miltiraydi, nurlanadi sham.

HAMLET

So'ldirma! Dunyoga shafqat qil, qizg'on!..
Shekspir

1. Faqat vijdon bilan o'rtanar Hamlet,
Doniyo — zindonga, qarab turar lol.
Biz ham shu sahnaga tikilamiz tek,
Bizni ham o'rtaydi qadimiy savol.

Hamlet sevgisiga sodiq qolardi,
Sadoqat neligin bilardi, biroq
U yolg'iz vafoni yolg'iz xohlardi,
E voh, jafo undan ming karra ko'proq.

Shoir, yetolmaysan uning dodiga,
Hamlet yuragida alam va kadar.
Yetar... Ofeliya, qayt hayotingga.

Inonmoq istardi senga naqadar,
Inonmoq istardi bashar zotiga,
Undan ko'rmasaydi yomonlik agar.

2. Bosh egib tonglardan tonglargacha to,
Vijdon shevasiga tashbeh izlaymiz.
Odamda vijdon ham bo'lmasmi, hatto!
So'zlaymiz, jigarxun bo'lib so'zlaymiz!

Sen ey, sen, xilqatning yovuz bandasi,
Ne balo solgaysan ma'sum boshlarga.
Bo'g'ilib yotgandir vijdoning sasi,
Boshingni yorsang-chi urib toshlarga...

Zamondoshim mening, jafokash Hamlet,
O, do'stim, dunyoda xunxorlarni ko'r,
Ojizdir bu qalam, ojiz tasavvur.

Qonlar oqmoqdalar, so'nmoqdadir nur,
Turibsan-ku, davr bilan betma-bet.
Nahot iztirobda doim tafakkur?!

3. Buyuk jinoyatchi, buyuk qahramon,
Buyuk asrimizda ko'rsang-chi buni...
Yetim qilmas meni muqaddas imon,
Sobit orzularim aytur hukmini.

Qara, qaylardadur yer rangi — shafaq,
Qarigan qayg'ular sudranar g'ijim.
Hamlet ko'zlarini yummoqda... Faqat
Seskanib, shaklanib to'lg'onadi jim.

Yumilgan ko'zlarda beshumor ochun,
Ko'kargan lablarda aytmagan so'zi,
Sen-da ketarsanmi, o, Hamlet, nechun?

Kimlarga ishonib ketarsan, do'stim,
Nahot, yetar senga yovuzlik kuchi?!
Yo'q, seni o'ldirdi shoirning o'zi.

* * *

Ishq-vafodan so‘zlaganlarim,
Yetur senga oh-u fig‘onim.
Yodga tushar bo‘zlaganlarim,
Men olamdan o‘tganda, jonim.

Qaltirarsan ajib sezgidan,
Har bir so‘zim — oshkor jahonim.
Judo bo‘lding buyuk sevgidan,
Men olamdan o‘tganda, jonim.

Sen qoshimdan keta olmassan,
Ko‘zlaringda turarman yonib.
Sevgimni rad eta olmassan,
Men olamdan o‘tganda, jonim.

CHINGIZ AYTMATOV

Uchqur otim og‘ir-og‘ir hansirar,
Ola ko‘zlariga olam qorong‘u.
Mendan tilsizgina bir narsa so‘rar,
Yolborib fikrimga termuladi u.

Ajal, boshimizda kezma sarsari,
Yo‘limizni kesma, ey yovuz shamol!
Uzoq-uzoqlardan kelamiz horib,
Manzil xam yarqirab ko‘rindi, alhol.

U manzil bag‘rida so‘ngi yo‘q sirlar,
Tashna dunyo yotar hali o‘ksinib,
O‘qchir otim va tishlari g‘ijirlar,

Ohista tuproqqa bosar ko‘ksini,
Uning iztirobi meni g‘ijimlar,
Uning ko‘zlariga ko‘mdim o‘zimni.

* * *

Mana shundoq kechar kunlarim:
Falaklarga uchgayman o‘ktam,
Lol qoldirar ul afsunlarim,
Taajjubga solar meni g‘am.

Hamma narsa xursand va kular,
Bir shodmonlik keladir ichdan.
Hamma narsa sevinib kuylar,
Yaralgandek olam sevinchdan.

Izlaganim yolg‘iz muhabbat,
Sabolarga she’rlar kuylayman,
Toqatimga tilayman toqat,
Buyuk sevgi, seni o‘ylayman...

Kunlar bo‘lar o‘zgarur dunyo,
Mantiqsizday manzil sari yo‘l.
Yer — tuyg‘usiz osmondir go‘yo,
Osmon — qahri muzlab qolgan qo‘l.

Ko‘chalarda yurgayman sarson,
Adashgan it singari uvol.
Go‘yo kimsa hol so‘rmas mendan,
Jo‘ralarim so‘ramaslar hol.

Ko‘zlarimga kunduz qorong‘u,
Voz kechaman ba’zi do‘stlardan.
So‘zlar — turgan-bitgani og‘u.
Berkinaman har xil so‘zlardan.

O, kunlarim ko‘pdir oldinda,
Yetib kelar eng so‘nggi nafas.
U payt birov ona tilimda
Boshim uzra so‘zlab tursa, bas!

U payt hayf ketmas kunlarim,
Falaklarga uchgayman o‘ktam,
Lol qoldirar ul afsunlarim,
Taajjubga solar eski g‘am.

* * *

Izlaysanmi sen-da bir panoh,
Hech tinarmi bu kuy, bu og‘riq.
Ehtimolki, bekordir, evoh,
O‘rtanishing bu qadar, bag‘rim?!

Kerak emas balki yonishing,
Qayg‘ularing kerak emasdir?
Hayotingning butun yozmishi
Bir nafasdir, eh, bir nafasdir.

O‘ychan kecha, tun ichra tanho,
Rauf, do‘stim, qoldik ikkovlon.
Biz mehrga to‘ymadik aslo,
Bir yorug‘lik izlaymiz hamon.

Shuncha abgor qilgani yetar,
Biz yonardik, yonardik yana.
Yorug‘lik, deb boshiga yetar
Yorug‘likni sevgan parvona.

Rahm-shafqat bo‘lmas shoirga,
Za’far dunyo bosar yuzidan,
Parvonadek uchsin qayerga,
Qayerlarga qochsin o‘zidan.

Har narsadan ayri, benasib,
Sho‘rlik qismat yuklari og‘ir.
Kelar osmon dardlari bosib,
Bu cheksizlik emas, bu og‘riq.

Afsuski yiqildi parvona,
Qanotidan ayrildi o‘shal...
Yo‘q, hajrida kuygay u yana
Qanot bo‘lgay qaysi bir go‘zal.

Bir zum kabi yoshlik ham o‘tdi,
Bir zum sevgi vafo qilmadi.
Kutganimiz ko‘pdir hayotdan,
Kelmadi. Kelmadi. Kelmadi.

Sadoqatda do‘stlik ahdiga,
Baxtlarning yo‘lida tolmadik.
Va lekin biz sevgi baxtiga,
Rauf, rauf, yo‘q, yetolmadik.

O‘ychan kecha, tun ichra tanho,
Armon bilan qoldik ikkovlon.
Biz mehrga to‘ymadik aslo,
Yana, yana istaymiz hamon.

* * *

Ko‘zlaringga ishonmaysan,
Jasorat ko‘rsatsam bir kun.
Katta ketma demoqchisan,
Miyiqda kulib qo‘yding hozir.
Labingda porladi istehzo,
Yuzlaringda achinish rozi.
Yaratarkan meni tabiat
Bir qudrat etgan ehson —
Bu — haqqim.
Meni suyab qo‘ydi qismat
Va ulug‘ xalqim,
Kerak bo‘lsa vulqon kabi
Otilar
Jasorat...

* * *

Telbalarcha qarayman goho,
Ne qilarim bilmayin abgor.
Bosib kelar hasratli dunyo,
Bekor bo'lur shodligim, bekor.

Men ko'lanka erurman faqat,
Yuraman-ku, yo'q emish izim.
Bo'lmagandek azaldan hayot,
Ko'rmagandek hech narsa ko'zim.

Tomirimda g'imirlar-ku qon,
Hayqirurman, so'rarman shafqat.
Kerak emas menga hech qachon,
Shodliklarga o'ralgan hasrat.

Dunyo, o'zing yorlaqa meni,
Barcha uchun yorlaqa o'zing,
Bergil, menga bergil, qayg'ungni,
Butunicha bera qol, ko'zim.

Telbalarcha qarayman goho,
Ne qilarim bilmayin abgor.
Bosib kelar bu hasratli dunyo,
Bekor mening shodligim, bekor.

USMON NOSIR

She'riyat, yo'llaringda sening,
Eh, kimlar zor-u zor kezmagan.
Eh, kimlar chok etib ko'ksini,
Qalbini g'ijimlab ezmagan.

Men bilurman seni, she'riyat,
Yuragimning sensan ulfati.

Lekin, ey voh, shu edimi, ayt,
Shu edimi shoir qismati?

U Layli atagan she'riyat,
Majnuningni nechun tashlading?
Shu edimi oshiqqa qismat,
Muqaddas ko'zlarni yoshlading!

Xato yo'lga kirgan bo'lsa ul,
Nega sen tutmading qo'lidan?
Shunday ketdi yana bir o'g'il,
Saqlab qololmading o'limdan.

Ona she'riyat, o'ylaysanmi,
Qo'yding-ku, shoirni qaqshatib.
U qurboni bo'ldi deysanmi,
So'qir zamonaning vahshatin?..

Qanday ayanch, bu nadir axir,
Kechirmasman seni hech qachon.
Vujudimni g'ijimlar og'ir
Ruhim ichra yalang'och vijdon.

Nahot mumkin emasdi, nahot,
Lol turganda dunyo qarshingda,
Qiynashganda ohanglar nohaq,
Bir qadam tushmading arshingdan...

Yon she'riyat, tutunga aylan,
Oq qilaman, tamom bo'l, jigar,
O'z, she'rini ul o'zi bilan
Yondirgani rost bo'lsa agar!

She'riyat, yo'llaringda sening,
Eh, kimlar zor-u zor kezmagan.
Eh, kimlar chok etib ko'ksini,
Qalbini g'ijimlab ezmagan.

* * *

Suv ostida yaltiraydi tosh,
Xarsanglarda sinadi suvlar.
Xayollarim singari bebosh
Toshlarda o'ynoqlar ohular.

Mavjlar kabi jimirlaydi jon,
Yaproqdek qaltirar nigohim.
To'lqinlar ustida parishon —
Sevinchlarim, chekilgan ohim.

Borini chekaman asabiy,
Imonimda allaqanday kuch,
Allaqanday qudrat besabr,
Allaqanday shaklsiz sevinch.

Ko'zimda qumlarning o'yini,
Yo'llarimda g'ij-g'ij soqov tosh...
Nelar buzdi, shoir, o'yingni,
Buncha xursand ko'zlaringda yosh?

Nelar kerak menga o'zi? Oh...
Ko'ksimni sindirar xarsanglar.
Kaftimga to'kilar bir navo,
Ne navodir — kim uni anglar?

Suv ostida yaltiraydi tosh,
Xarsanglarda sinadi suvlar.
Xayollarim singari bebosh
Toshlarda o'ynoqlar ohular...

* * *

Ayt-chi, meni unutdingmi?
Gullarim qonlar yutdimi?
Unutdingmi, eh, bir yo‘la
Yorug‘ dunyodan o‘tdimi
Muhabbatim ekkan gullar?!

* * *

Men kimnidir kutgayman mahzun,
Men kimgadir yig‘lamog‘im shart.
Tanholik-la turibman o‘zim,
Mening bilan birgina zulmat.

Yiroqlarda ingranar list ham,
Qulog‘imga bo‘zlaydi furqat.
Huzurimga chiqmas bir odam,
Men baribir kutgayman faqat.

O‘ksib-o‘ksib axtaraman nur,
Qorong‘uda bo‘lgayman ado,
Qo‘ng‘iroqlar jarangi kelur,
Qanday mash’um bu go‘zal sado.

Shilliqurtday to‘lg‘anar ariq,
Suyanaman badburush tolga.
Osmon yuzi shundayin sariq,
Sovuqlikni qaylardan olgan?

Kular-da va qalqib borar oy,
Ul hayosiz shundoq yalang‘och.
Kimni aldab, balqib borar oy —
Tevarakda kecha qorasoch.

Men kutgayman, elitmas uyqu,
Men kimgadir yig'lamog'im shart.
Ayting, nechun tashlab ketdi u,
Nechun tashlab ketdi muhabbat?!

Tugab borar tun yanglig' toqat,
Saharlarga bergayman hisob.
Qayga ketdi, qayga muhabbat,
Yuragimda muqaddas azob.

* * *

Daryo kabi oqdi olis yil,
Yillar kabi oqmoqda daryo.
Laylo, hayot naqadar qiyin,
Qanday og'ir yashamoq, Laylo?

Endi kimni Laylo atayin,
Yoki sinsin majnunona nay?
Do'stim, endi kimga aytayin,
Hasratimni kimlarga aytay?!

ONA TILIM

Oftob farzandidir oltin dalalar,
Mo'l-mo'l nurin sochar bosh uzra balqib.
U sening tilingda aytar allalar,
Oftobdek ardoqli, ey, ona xalqim.

Men erka o'g'lingman, goh she'r ayturman,
Goh tushib olurman so'qmoq izingga.
Seni yozmak uchun ortga qayturman,
Seni yozajakman bu kun ko'zimga.

Go'yo qismat deya, oyatlar yozib,
Shunday sudrab olib kirarlar jangga.
Bas, ne ko'rgulikdir, nima gap o'zi
Bu ne talotumdur, aytib ber menga.

Nahotki umrbod o'rtasa o'ylar,
Umrbod zanjirband etsa xotirot?!
Navoiy baytiga o'xshaydi yo'llar,
Bu toshlar Hamzaning qotili, hayhot!

Nahot ayrilurman?! Rost esa agar...
Tuproq zarrasidek bo'lurman, ammo.
U zamon dunyoga tashlayman nazar,
U zamon xarsangga aylanar dunyo.

Abut-turk o'tmishdan qolgan rivoyat,
Biroq sen borsan-ku o'zbek elida.
Shoir, she'r aytmakka sen shoshma faqat
Ulug' Alisherning qutlug' tilida...

Sen-da abadiysan, ey ona tilim,
Senda ayon bo'lgay nafratim, qahrim.
Hech qachon hech kimsa ololmas yulib,
Haqiqatni yulib ololmas, bag'rim.

Lekin odamlar bor tillari tutqun,
Lekin odamlar bor — hisdan begona.
Ularning insondek yashashi uchun
O'zing ona tili ato qil, ona...

Oftob farzandidir oltin dalalar,
Mo'l-mo'l nurin sochar bosh uzra balqib.
U sening tilingda aytar allalar,
Oftobdek ardoqli, ey, ona xalqim.

* * *

Hayron, mag'lub bu koinot,
O'ynar gullar, o'ynar nasim.
Ayting, kimga etmish nasib,
Bu kimningdir shirin hayot,
Hayron, mag'lub bu koinot?

Mayli, hali bor imtihon,
Huv, oldinda buyuk orzu.
Ufq yorib ketmakda u,
Huv oldinda aziz inson:
Mayli, hali bor imtihon.

Sadolar ber, baxtli jahon,
Unda yo'qmi yovuz o'lim?
Sarbon, qani ketdik, sarbon,
Yoshlik tomon karvon yo'lim,
Assalom, ey baxtli jahon.

HABIB ABDULLA XOTIRASIGA

Bukun tushlarimga kirgan emishsan,
Muallaq uzanib turar qo'llarim.
Bunchalar yiroqda, bunchalar osmon —
Uning yo'llarida qoldi yo'llarim.

Yonarsan kahkashon ichra munavvar,
Lekin telba xayol bosar shu zahot.
Seni yer qa'riga qo'ymasak agar,
Nahot tepamizda yonmasding, nahot?

Qalqinib uyg'otur ona yer meni,
Yana o'tlar sochar o'ylarim, biroq.
Axir bilarding-ku, tuproq ilmini,
Axir bilarding-ku, so'qirmi tuproq?

Yodimga keldilar alvido damlar,
Ko'ksimda tirildi yohu bedavo.
Ko'chani to'ldirib borar odamlar,
Ko'zlarda savollar — shunday bejavob.

Oldindan bilgandek so'rardim bot-bot,
Ra'no, olib borgil otang qoshiga.
Ne kulfat yiqildi boshlarga, hayhot,
Ne musibat tushdi vatan boshiga.

Mangulik maskanga uzatdik sekin,
So'ng bora egildik muqaddas yerga,
Bir dunyo qoldirding dunyoga, lekin
Bir dunyo ketardi sen bilan birga.

Hech qachon tark etmas shundayin armon,
Hayotda ko'rishmak bo'lmadi nasib...
Bag'rimda og'riqlar... Ey, buyuk inson,
Shogird bo'lar edim senga munosib.

Bu-ku tush. Falakka qarayman har kech,
Takror ko'rarmanmi, ayta olmasman.
Sen qaytib kelmassan huzurimga hech,
Men sening yoningga qayta olmasman.

* * *

Yo'q, shoir deb qarama atay,
Hukm etmakka shoshilma bir oz.
Men kuyinib sevaman, netay,
Men kuyinib so'zlayman, xolos.

* * *

Jigarbandim, ko'zim yo'lingda,
Sen ruhimda ochila qolding,
Bir sir bo'lib sochila qolding,
Jigarbandim, ko'zim yo'lingda.

Go'zallarning go'zali onang,
Sevimlidir hamda mehribon,
Ul ham tug'ilgandir mehrimdan,
Go'zallarning go'zali onang.

Dunyo qadar sevgim bor senga,
Bilmaganlar aytar: ul yo'q-ku!
Sen qaylarda yuribsan bugun,
Dunyo qadar sevgim bor senga.

* * *

Butun umr o'ylar band etar,
Bizdan ayri tushmas bir zamon.
O'ylarimiz shirin vatandir,
O'ylarimiz bir achchiq jahon.

* * *

Daf'atan yomg'ir yog'ar, tinar daf'atan.
Daf'atan yer yiqilib tushsa...
Nahot shu qadar dushman "daf'atan" so'zi.

* * *

Ostonamda yotar do'stimning iti,
Yulduzlarga qarar. Eh, o'lmagur do'stim-ey,
Marhum do'stimning iti.

* * *

Kuygan daraxt bo'yniga osilar
Oq bulut, oppoq bulut,
Yig'lagali ketar keyin.

* * *

"Ha" va "yo'q"dan iboratdir qisqalik,
Tushuntirish uchun ketgan so'zlar qolgani,
"Ha" va
"yo'q"ni tushuntirish uchun ketgan so'zlar.

* * *

Ko'zimga nechun to'r tashladingiz,
Nechun arqon tashladingiz?
Kiprikmi shular?!

* * *

Nima desam ekan senga, shamol,
Nima desam ekan, boychechak?
Bir oz jim turish mumkinmi?

* * *

Men seni sevamanmi? Bilmayman.
Sen mangulik nafassan —
"Bilmayman" degan.

* * *

Tovushlarning rangiga qarang,
Qarang tez ranglarning tovushiga,
Bu — sho'rlik oy ham shoirmi, deyman?!

* * *

Sen kelmassan, kelmassan endi —
Achchiq tomchi yoshga aylanib,
Ko'zimda aylanar qo'rg'oshin quyosh.

* * *

Yer o'z o'qidan ayrilar, ishon,
Inon, osmonidan ayrilar quyosh.
Agar biz ayrilsak.

* * *

Eslaysanmi, izg'irin kecha
Darchaga qor urar besabr.
Yiroq o'ylar edi ketgancha,
Yiroq o'ylar edi bir og'ir.

Darchaga qor urar besabr,
Oyna uzra lojuvard makon.
Oyna uzra shohona qasr,
Oyna uzra sovg'a—sargardon.

Yiroq o‘ylar edi ketgancha,
Sen nelarni o‘ylarding yana,
Izsiz edi o‘sha tun ko‘cha,
Kimsasizday biz turgan xona.

Yiroq o‘ylar edi bir og‘ir,
Qarg‘ar edi balki sukunat,
Erimagan qor kabi bag‘ir,
Buni hozir angladik faqat.

Xayol yana u yonga uchar,
Allaqachon ayirgan taqdir.
Eslaysanmi, izg‘irin kecha
Darchaga qor urar besabr...

* * *

Bir yoni baland tog‘, mudraydi besas,
Bir yoni so‘ngsiz qir — uxlaydi uyqu.
O‘rtada bir qabr — ko‘zga tashlanmas,
Hayqirib uyg‘otar dunyolarni u.

* * *

Uyg‘on, ey malagim, tur, o‘rningdan tur,
Otashin muzlarda isinaylik, yur.

Yong‘inli daryoda quloch otaylik,
Bu yerdan ketaylik, faqat ketaylik.

Undan ham olisroq ketarmiz hali,
Undan ham olisroq, mening go‘zalim.

Qaragil, eng yorqin bir yulduz yonar,
Yorug‘ bir chaman bu, ketarmiz yana.

Bu kun shoh erurman — tilak tilagil,
Bu kun men gadoman, tingla, malagim.

* * *

Yasatib qo'yibdi senga bir dunyo,
Orziqib kutadi bu kun yuragim.
Mening yuragimga, kelgil, marhabo,
Mening yuragimga, kelgil, malagim.

Oshiqlar baxtini topadi unda,
Kelgil, afsonalar aytmoqda bog'lar.
Aziz boshing uzra yaltirab kunda,
Oltinga aylanar kuychi yaproqlar.

Mehribon yellarning qanotlarida,
Qani yur, boraylik lola tergali.
G'aroyib gullarim bordir narida.
Gulim, ko'rmagansan umringda hali.

Inon, ot o'ynatib bir tong mahali
Sarbozlarim kelar g'irotlarida.
Zangor to'lqinlarda otarmiz quloch,
Yana-da ketarmiz yiroq-yiroqqa.

U yerda tun yo'qdir, abadiy quyosh
Nurlarin sochadir ona tuproqqa.
Qaragil, naqadar tiniqdir osmon,
Undan-da go'zaldir, undan g'aroyib.

U yerga qaro kuch yo'lamas aslo,
Bulutlar qayg'udan ketmas qorayib.
Balki shoirdirman, bir oshiq, kuychi,
Seni sevmak uchun tushganman yerga.

Qani, qo'llaringni qo'limga qo'y-chi,
Mening yuragimga ketaylik birga.
Sira ham u yerdan kelmaylik ko'chib,
Achchiq tajribalar ortib taqdirga.

ONAMGA XAT

Eshitdim, onajon, xafa emishsan,
Kechir, oylab senga yozolmadim xat.
Garchi muhabbatdan tilardim ehson,
Yorug‘ kunlarimga bo‘lgandim ilhaq.

Yuzimga nafasing urilar iliq,
Ajib yorug‘likka to‘lmoqda xona.
Suratim qoshida duolar qilib
Tag‘in yig‘ladingmi, mushtipar ona?

O‘sha gap, sevganim shu aziz vatan,
Bu qadar tashvishlar yutmagil, bag‘rim,
O‘ksik otam kabi hali ham zotan,
Qalqinib-qalqinib turibdi shahrim.

Bilurman, sirni boy berishlik yomon,
O‘g‘lingga bu yo‘lda bardoshlar tila.
Ba’zan topganimni ichib qo‘yaman
Sirni boy bermasdan ulfatlar ila.

Biroq, eh, bilmayman, go‘yoki zimdan
Kimdir ta’qib etar meni beomon,
Qandaydir bir kimsa mening haqimda
Xunuk latifalar to‘qiydi, yolg‘on...

Ona, kuylanmagan bir kuy istayman
Va lekin aldoqchi hislar olur jon.
Ehtimol, qalamni bekor qistayman,
Netayin, rostini aytgil, onajon.

Yashil daraxtzorni yechintirar kuz,
Poyimda bahorning alvido uni.
Beparvo yoshlikni ilg‘amaydi ko‘z,
Qaylardan axtaray, onajon, uni.

Bilurman, yo‘limda g‘ichirlab toshlar,
Za’faron kuz yanglig‘ xayolim taqir.
Shaharning g‘avg‘oli tinchini tashlab,
Uzoq vaqt yoningga bormadim axir.

Eshitdim, onajon, xafa emishsan,
Kechir, oylab senga yozolmadim xat.
Garchi muhabbatdan tilardim ehson,
Yorug‘ kunlarimga bo‘lgandim ilhaq.

Baxtsizlikka o‘xshab ketar bu holim,
Sensiz baxtsizlikka o‘xshaydi qismat.
Sensiz yorishmasdi mening xayolim,
Dunyoning laqabi bo‘lurdi hasrat.

* * *

Seni o‘ylab jon-holim og‘rir,
Seni o‘ylab qondir o‘ylarim.
Manzilim ham yiroq va og‘ir,
Tig‘ ustidan borar yo‘llarim.

Telba-otash deb meni pinhon,
O‘ylama sen, mening yulduzim.
Seni o‘ylay oldim-ku, inon,
O‘zimni ham o‘ylarman o‘zim.

* * *

Yana qaytib keldim.
Chang to‘zgan
Yo‘limizni sog‘indim, ona.
Tom ustida maysalar o‘sgan
Uyimizni sog‘indim, ona.

Aziz dargoh ostonasida
Sizni qalbim bilan quchayin.
To'yib-to'yib sopol kosada
Muzdek quduq suvin ichayin.

Har bir narsa yaqindir menga,
Har bir narsa menga qadrdon.
Qarab qoldingizmi yo'limga
Issiq nonlar uzib tandirdan?

Koyimangiz meni bu safar,
Unutdi deb uyni, dalamni,
Ne chora bor, dil yonsa agar,
Dil sog'insa turkiy olamni.

O, qishloqning munis chiroyi,
Achchiq piyoz to'g'rayin o'zim.
Dil sog'inib yig'ladi doim,
Hozir, mayli, yig'lasin ko'zim.

Targ'illanib bormoqda osmon,
Oppoq hidga to'lmoqda bag'rim.
Aytingiz-chi, bormi sog'-omon,
Shahlo ko'zli mening targ'ilim?

Og'ushimda zangori sezgi,
Kiprigimda suyuq hayajon.
Ko'zlarimda yumaloq sevgi,
Salomatman men ham, onajon.

Qaytib keldim yana.
Chang to'zgan
Yo'limizni sog'indim, ona.
Tom ustida maysalar o'sgan
Uyimizni sog'indim, ona.

* * *

She'r yo'li mushkul naqadar,
Qaltis dordan boradi shoir.
Agar qalqib ketmasa langar,
Kuylab berar qalbiga doir.

Go'yo falak boshidan yiroq,
Go'yo o'chgan tubanda ovoz.
Dor ustiga chiqmasdi biroq
Yiqilishin o'ylasa dorboz.

YURAK

Go'yo baribirdir yaxshi va yomon,
Yurak, senga borar ko'chalar ochiq.
Sachrab yonarsan-u, bo'lmassan tamom,
O'tkinchi g'amlarga achchiqma-achchiq.

Yurak, yo'llaringda turganman takror,
Rosa sayraganman sening to'g'ringda.
Kim bilar, aqlimga kelding necha bor,
Necha bor so'zladim sening yo'g'ingda.

Balki aldaganman vahima yutib,
Sen-da tashvishlarga solgansan balkim.
Bugun-chi, degayman o'zimni tutib:
Sen haqsan, baribir, mening yuragim.

Shul osmon ostida kezgaymiz hali,
Mantiq axtargaymiz izg'ib izma-iz.
Darkor bo'la qolsang yiqilgil, mayli,
Faqat yiqilmasin sho'rlik dunyomiz.

Mayliga, hayqiray iymonim haqqi,
Ko'klarga termulib solayin uvvos.
Men faqat kommuna atalgan yorqin,
Farxunda zamona istayman, xolos.

Garchi tutqinman-ku erkin sehringga,
Unda sobit turar maqsud-manzilim.
Qolib ketmasaydim sening mehringdan,
Qolib ketmasaydim yo'lda uzilib.

Ajoyib diyorsan, qalbim, na chora
Shodlik va hasratning maskani sanda.
Ovoz ber, kuyingni eshitib zora,
Eslab qo'yarlar-ku, hech bo'lmaganda.

Aytgil, kuylarmanmi bir kun, yuragim,
Aytgil, kuylarmanmi boqmay o'zimga.
Seni jarroh kabi sovuqqon va jim
Yulib qo'yarmanmi qog'oz yuziga.

U payt aldamasding ko'zimga boqib,
Shodumon dardingni aytarding butkul.
Ungacha ilhomlar kelmagay oqib,
Ungacha dunyoni anglamak mushkul.

* * *

Termulaman olis ufqqa,
Botgan kundan qolmishlir dog'lar.
Yomg'ir urar qorong'ulikka,
Sovuqqina shovullar bog'lar.

Yana keldim mahzun go'shaga,
Bunda bir nay yotibdi sinib.
Qo'y, sig'inma ortiq o'shanga,
Qo'y, sig'inma unga, sevgilim.

Men hech narsa so'rmasman, dilbar,
O'tmishingdan so'zlama zinhor.
Men ham bir bor sevganman, yetar —
Qarasang-chi, atrofda bahor...

* * *

Yuragimdan maskan axtarib,
Miltiraydi, nurlanadi sham.
Intilaman yuragim sari,
Intilaman shu'laga o'xshab.

Undan yorug' tovush keladi,
Shamol unda to sahar, to shom.
O'z dardini o'zi biladi,
Miltiraydi, nurlanadi sham.

* * *

Shoirlikni berdi tabiat,
Shart ham qo'ydi o'zi oldindan.
Butun umr yonasan faqat,
Lekin dunyo tilama mendan.

Shodligim bor, sevinchlarim bor,
Alamim bor, kuyinchlarim bor,
Odamlarga ilinjlarim bor:
Lekin dunyo tilama mendan.

Qismat yuki shu bo'ldi, jonim,
Qo'shig'im bor, ayturman yonib.
Lol eturman yorug' dunyoni,
Lekin dunyo so'rama mendan.

* * *

Qorayib ketdi ko'ksimdagi qorlar,
Maysalar uyg'ondi,
Shoxlarga qo'ndi ko'klam.

SAMARQAND OSMONIDA

Kezar bo'ldim fazolarda man
Oq to'lqinlar ummoni ichra.
Yuragimda qayg'u — shodumon,
Aylanurman Samarqand uzra.

Ko'z o'ngimda qadimiy jahon,
Asrlarni buzar xayolim.
Osmonida shuncha hayajon,
Tushganimda ne kechar holim?

Falaklarda muallaq turdim,
Meni so'ngsiz xayol etmish band.
Sening buyuk o'tmishing ko'rdim,
Kelgusingni ko'rdim, Samarqand.

Tarix aytar, asta jaranglar
Dahmalarda qadrdon kalom.
Ziyo sochar samoviy ranglar,
Minorlarda abadiy ilhom.

Klavixo[1] kabi boqurman,
Boshing uzra keldim-ku, alhol.
Asrlik tosh yanglig' qoturman,
Shohizinda qoshida behol.

Oshiqman-ku, men uchun basdir,
Atamassan menga qahringni.
Lekin barcha oshiq emasdir,
Sen ularga ochma bag'ringni.

Karvon-karvon kelib ketdilar,
Hammasini bag'ringga olding.
Shamol kabi yelib ketdilar,
Faqatgina sen mangu qolding.

[1] **Temur hukmronlik** qilgan davrda Samarqandga **kelgan ispan elchisi.**

Ilhom izlab keldi birovi,
Birov senga qilindi surgun.
Kim do'st edi, kim edi yoving,
Barchasini aytolmam bugun.

Yer talashib keldilar axir,
Vahshiy to'da ayyuhannos urib.
Hammasidan xabardor tarix,
Men ne deyin osmonda turib.

Bo'lgan-ku ko'p qiyomat-qoyim,
Qiyin erur axtarmoq qiyos.
Kelajakni o'ylarmiz doim,
Kelajakka buyuk ehtiros.

Tushlar ko'rib uxlarsan, go'yo
Tushlaringda qadimiy qismat.
Ey. Samarqand, ey ko'hna dunyo,
Sen uyg'onib ketmagil faqat.

Ko'p-ku shahar deganning oti,
Imkon bo'lsa ko'rarman bir-bir.
Biroq tanho erur hayotim,
Tanho erur Samarqand axir...

Kezar bo'ldim fazolarda man
Oq to'lqinlar ummoni ichra.
Yuragimda qayg'u- shodumon,
Aylanurman Samarqand uzra.

* * *

Tog'da bir buloq bor zor-u zor
Ko'ksida sevgining zahari.
Ul manim ko'nglimdek intizor,
Tog'lardan keladir sarsari.

Nimadir so‘zlaydi shivirlab,
Orziqib tushadi yo‘llarga,
Tog‘larning sevgisin o‘g‘irlab,
Boqmaydi ming turli gullarga.

Quyiga shoshilar tog‘lardan,
Kelguncha quriydi madori.
Kelguncha adodir ohlardan,
Yo‘liga chiqmaydi ul yori...

* * *

Yorug‘likni o‘g‘irlab sekin,
Tevarakni qurshadi tuman.
Ermak qilib tun cho‘kdi, lekin
Eshik ochib chiqmading-ku, san?

Deydilarki, ko‘zing afsuni
Balo emish, sehr etarmish,
Kimki ko‘rsa bir karra seni,
Oyoq yetganicha ketarmish.

Sovuqni ko‘r, yuzni chimchilar,
Masxaraman unga bu zamon.
O‘ylarimga kelib sanchilar,
Oy emas ul, u — qotil kamon.

Bunda har ne ermaklar meni,
Qorong‘idir axir jahonim.
Hech bo‘lmasa ochgil darchani,
Darpardani ocha qol, jonim.

BIR LAHZA DOSTONI

Men o‘zimni yo‘qotdim tamom,
Men o‘zimni yo‘qotdim shu zum.
Qayonlarda, ayting, bu zamon,
Qayonlarda qolibdir o‘zim?

Bir kimsaning qoshida balki,
Titrab turar sha’m kabi g‘arib.
Ko‘chalarda tentirar yoki
Dodlab yurar meni axtarib.

Shunday sarson, shunday sargardon,
Yuragida lahzalik qayg‘u.
Qay odamning ko‘ziga nolon,
Najot tilab termularkin u.

Bir lahzalik erur bu sitam,
Lahzagina yig‘laydi ko‘zim —
Yaproq kabi oyoq ostida
Xazon bo‘lgan, ey, mening o‘zim.

Lahzagina yubormas qo‘yib,
Kimdir zanjir bilan bog‘labdi.
Kimdir: “senga o‘zlik nima?” — deb
O‘ldirmoqqa meni chog‘labdi...

Men o‘zimni yo‘qotdim tamom,
Men o‘zimni yo‘qotdim bir zum.
Qayonlarda, ayting, bu zamon,
Qayonlarda qoldim men o‘zim?

* * *

Yodingdami, sevgilim, bir kun
Chiqib keldim yo'lingga.
Binafshalar terdim sen uchun
Va uzatdim qo'lingga.

Yana o'shal yo'ldan borurman,
Nigorondir bu ko'zim.
Xayolimni qonga qorurman,
Sen yo'qsan-ku... Bir o'zim...

Huv, yoshligim qolgan joylarda
Izg'igayman men yonib.
Ayt, izlayin seni qaylardan,
Qaydan topayin, jonim?

* * *

Bir kun yo'lga otlansam, tanho
Bu yerlarda ne kechar holing
Ko'cha poylab har subhi sabo,
Allanarsa tuyar xayoling.

Mening holim uchun sen yig'lab,
Judolikka bo'lursan iqror.
Balki meni kelar, deb o'ylab,
Darbozaga boqursan bekor.

Na chora bor, ayriliq og'ir,
Ketar bo'lsam, boshlasa yo'lim,
Unda jonim, bir kuni axir,
Meni senga topshirar o'lim...

* * *

Yana jimlik, yana sukunat,
To‘lib ketar hech narsadan dil,
Hech narsadan boshlanadi gap,
Hech narsani so‘zlar yana til.

Qichqiradi bezabon xulyo,
Sukunatda qiynaladi jon,
Hech narsani tan olmas, go‘yo
Hech narsadan boshlangan jahon.

* * *

Daryo kabi doimo uyg‘oq,
Intilishim tog‘ qadar baland.
Olis yo‘lga otlandim, biroq
Mehrim bilan, muhabbat bilan,
Ey, ko‘nglimga tugilgan vatan.

Xotiralar so‘zlar har bir tosh,
Esdaliklar yog‘adi osmon.
Tiriklikning shohidi quyosh
Eslamakdan tinmaydi hamon.
Onajonim, oh, O‘zbekiston.

Chaqiradi tog‘lar, daryolar,
Yana yo‘lga chorlaydi meni.
Meni chorlab quyoshlar yonar —
O‘rganadir yonish ilmini,
Chaqiradi tog‘lar, daryolar.

Hali oldda qanchalar dovon —
O‘tgunimcha to uni bosib,
So‘zla, nahot bitadir darmon,
Ko‘zlarimning tugar ziyosi?!
Hali oldda qanchalar dovon...

O‘zbekiston, eng shirin bo‘sa
Kabi lablarimda urinding.
Men olisga otlanar bo‘lsam,
Yuraklarim bo‘lib ko‘rinding.
Onajonim, oh, O‘zbekiston.

Daryo kabi doimo uyg‘oq,
Intilishim tog‘ qadar baland.
Olis yo‘lga otlandim, biroq
Senga bo‘lgan sadoqat bilan,
Ey, ko‘nglimga yo‘g‘rilgan vatan.

* * *

Muncha g‘amgin bo‘lmasa o‘ylar,
Hijron muncha bo‘lmasa uzoq.
Meni o‘yla, sog‘inib o‘yla,
Yolg‘iz meni o‘yla intizor,
Muncha g‘amgin bo‘lmasa o‘ylar.

Hijron muncha bo‘lmasa uzoq,
Holbuki, bir qadam o‘rtada.
Oramizni kim buzdi o‘zi,
Inonkim, behuda o‘rtadi.
Hijron muncha bo‘lmasa uzoq.

Meni o‘yla, sog‘inib o‘yla,
Kim aytdi sevgimiz uzilgan.
Shunday ishonchsizlik tufayli,
Xafa bo‘lma, mendan, o‘zingdan,
Meni o‘yla, sog‘inib o‘yla.

Yolg‘iz meni o‘yla intizor,
O‘ylaringda men yashay yakka,

Chunki sevgi atalgan azob
Qodir emas toq yashamakka.
Yolg‘iz meni o‘yla intizor.

Muncha g‘amgin bo‘lmasa o‘ylar,
Qasdi bormi menda, bilmadim.
Har bir olgan nafas ham yig‘lar,
Sen og‘ir nafassan, dilbarim,
Muncha g‘amgin bo‘lmasa o‘ylar.

* * *

Suvlar, ne deb jildiraysiz?
Ne deb shivirlaysiz, sabolar?
Sen-da berahmsan, boychechak!

* * *

Xayol olib ketar yiroqlarga,
Ko‘z ilg‘amas yoqlarga olib ketar.
O‘ziga qattiq ishonar xayol.

* * *

Daraxt shoxlarida silkinar
Kuzning yaydoq sariq shamoli,
Chirqirar bir qushcha.

* * *

O, xayolning yo‘llari olis,
Yana olislarga boshlar beshafqat
Olis u yo‘llarning xayoli.

OYBEK XOTIRASIGA

Tog‘lar aro oydin bir buloq.
Atrofida shivirlar o‘tloq.
Buloqda sha’n va sobit chiroy,
Nur yo‘lidek o‘ylari yiroq
Suvda mangulikdek suzar oy...

Biroq hayhot, bir quyun keldi...
Oydin buloq qayga berkindi?!
Qaydadir sha’n va sobit chiroy?
Falaklarga qarayman endi,
Falaklarda suzib yurar oy...

ODAMNING BOLASI

Yodimdadir achchiq dardlarim kabi,
Fazolarda uchar edi xayolim.
Qanot qoqmay o‘q—tayyora singari,
Bari o‘z qo‘llarim misoli tanish.

Qadim minoralar ko‘ksida — yodim,
Ilohiy yozuvlar yaralangandir.
Bunda menga so‘zlar fotih Iskandar,
Tajang bo‘lib xotiramning sabriga.

Tajang kezar qubbalar tepasida
Temurning cho‘zilgan arvohi — bulut.
Eski gap: men odam bolasi, axir,
Yodimda, yodimda men bechoraning.

Keyin menga har xil laqab berdilar,
Avval jindek gunohim uchun — asir.
Asirlik yoqmasdi menga, qul bo‘ldim,
Och qolishgan kuni sotdilar keyin.

Bosh degani nimadan yasalgan ekan,
So‘ng so‘ydilar, so‘ydilar, so‘ydilar,
Gardanimda boshlandi sargardonlik,
Men kabilar ko‘p ekan yer yuzida.

Biz to‘plandik. Qolgani kundek ma’lum.
Fazolarda xayolim uchar yana.
Qanot qoqmay o‘q—tayyora singari,
Bari barmoqlarim misoli tanish.

Dag‘allashdim — salga jahlim chiqadi,
Injalashdim — salga quvonchim dunyo.
Asabim buzildi — fikrsizlikdan?!
Shart otdim o‘zimni — oriyatim bor!

Yuragimning ustki qatlami balki
Sovuq, ichi yonib turar lovullab.
Bu dunyoning ustki qatlami sovuq,
Ko‘ring, ichi yonib turar, ehtimol.

Qo‘llarim sirtida go‘shtlar va paylar,
Qo‘llarim ichida qahrabo suyak.
Oh, qanday yonardim krematoriyda,
Qo‘limni kranga o‘xshab ko‘tardim.

Juda katta qishloq erur yer yuzi,
Butun yer yuzida do‘stlarim bordir.
Do‘stlar, men borimni ayamadim hech,
Kerak bo‘lsa, mana, tayyorman. Meni

Unutmangiz sira, hamqishloqlarim,
Boshimni olsinlar, mayli olsinlar.
Dunyo, men ko‘tarib yuribman hamon,
Sening qayg‘u-g‘aming bo‘lgan boshimni.

* * *

Chars-chars yonaver, nimjon olov,
Qo'llarimni qalayman,
Begona emasmiz, har qalay.

* * *

Og'zim to'la so'zlar — jigarlarim-ey,
Ortiq sizni asray olmayman,
Bilganingizni qiling.

* * *

To'r tashlaysan, igna sanchasan,
Nechun menga baqrayasan, osmon,
Xato qilgan bir menmi?!

* * *

Sevinch, biror marta qayg'urganmisan?
Kulgu, yig'laganmisan bir marta bo'lsin?
Do'st bo'lolmassiz men bilan.

* * *

Men hammasini chindan aytdim, eh, sizlarim,
Siz nafasni mendan qizg'ondingiz-a?!
Qolganini... Baliqlar... Aytsin...

* * *

Xiralashib borar kunduzning rangi,
Oy ham kular mendan behayo, behis —
Kunduzning rangini so'rib olgan u.

* * *

Osmon shu qadar toza! Rahming keladi,
Uzoq qarab turolmayman, bevafo,
Sening suratingga to'lar qorayib.

* * *

"Voh, jonim, voh, jonim", deb hayqirar,
Derazamning ortida shamol.
Yulib tashlasam edim jonimni qani.

* * *

Bu qanday oroldir, osmon ko'rinmas,
Bu qanday daryodir, ko'rinmas sohil.
Biz shu qadar nochormiz, oh, sevgilim!

* * *

Pag'a-pag'a oppoq qor yog'ar,
Bog'lar kiymish ilohiy libos.
Yuragimni bir otash dog'lar —
Quyosh tutib kelayotir yoz.

Nima bo'ldi? Kipriging namli,
Ko'zlaringda yashirin asror,
Devordagi suvratim qani?
Nima bo'ldi? Qalbingda ne bor?

Yog'ar oppoq pag'a-pag'a qor,
Dardim qorlar kabi sochilar.
Huv, yiroqda gullagan bahor
Bo'ylari ko'ksimga sanchilar.

* * *

Yomg‘ir yog‘ib chiqdi tun bo‘yi,
Tong oqardi, tinmadi yomg‘ir.
Buzilgandek osmonning uyi —
Yerga qarab yig‘laydi og‘ir.

Men xonamga kirgayman, alhol,
Yuragimda ko‘hna anduhlar.
Derazamga urilar shamol,
Qaydasan sen? Qayda ul ruhlar?..

* * *

Men o‘zimdan o‘zim kulaman,
Baxtiyorman go‘dak singari
Kula bilganimdan.

AGAR

Agar shunday bo‘lsa, agar shundayin,
Hammasi tushunarli, ha, hammasi,
Hammasi ikki karra ikki, ya’ni to‘rt.
Agar shunday bo‘lsa, agar, darvoqe,

Hayot murakkab, deb o‘ylaymiz, hayron,
Gavjum — odam to‘la bo‘shliqqa qarab.
Oq, qora, qizil, za’far va boshqa —
Cheksiz xaritaga bosh qo‘yib ma’yus.

Bu hayot murakkab, deymiz tik boqib,
Yulduzlardek hadsiz hayot ko‘ziga.
Xususan, hayot ko‘p murakkab deymiz,
O‘z-o‘zimiz buzib qo‘ygandan keyin.

Garchand hamma narsa tushunarlidir...
Baribir bir fikr beringiz menga,
Oddiy "assalomu alaykum" kabi,
"Salomat yuribsizmi, ona?" degandek.

"O'g'lim, qayerlarda qolding sen, tavba?"
"Uy oldingmi? Necha xonalik, inim?"
"Usting but, moyana qancha?" singari,
Odatiy, kundalik gap monand bir fikr.

Va yana bir fikr beringiz menga,
Toki tog'-toshloqda kezayin sarson.
Sahroni, xarsangni so'zlatmak uchun,
Paxta kabi yumshoq so'zlasin toshlar.

Hammasi tushunarli, ha, hammasi,
Agar shunday bo'lsa, agar... Darvoqe...
Yirtqichlar qaytsin o'z bolaligiga...
Nahotki, biz qayta bilmaymiz, nahot...

Hammasi tushunarli, ha, hammasi,
Tushunarli, agarda shunday bo'lsa.
Osmonlarga bosh urib o'lmak, qiziq,
Chunki boshing yetmaydi. Tushunarli.

O'ylashib bir fikr beringiz menga,
Toki artmakka shoshsinlar odamlar
Maysa yaproqlarning shabnam yoshlarin,
Botayotgan kunga qarab yig'lashsin...

* * *

Pochta. Telegraf. Telefon. Kirdim.
Zo'rg'a olib keldim oyoqlarimni,
Tanbal, erinchak bir vujudki bu, eh,
Oyog'im ma'yuslikning oyog'idir.

Goh shunday bo‘lurki, miyamda g‘ashlik,
O‘zim bir chelak qon, suv va boshqalar,
Na Vetnam, na Isroil, na AQSH,
Dunyo o‘z yo‘liga, men o‘z yo‘limga.

Shohkursiga tashlab qo‘ydim o‘zimni,
Yumshoq shilimshiq shohkursiga cho‘kib,
Kuta boshladim rag‘batnomalar,
Do‘stlarimning yozmagan maktublarin.

Boshin arang tutar og‘ir ustunlar,
Zalda uymalashgan jonlarga qarab.
Bu yer g‘ovuriga beparvo, behis
Pochta qutilari turishar uzun.

Qopqoqli og‘zini ochar-u yopar,
Bu yerda yelim va siyoh hidlari.
Bu yerda qog‘ozlar bo‘lmoqda isrof,
Garchi voqif erurlar har narsadan.

Ey, bechora varaq, qafasga tushding,
Telefonchi qizning ovozi chiqar.
Jaranglar sovuq: “falon falonchiev,
Javob bermayotir... Allo, Farg‘ona...

Turkiston?! Oltinchi xonaga kiring...
Bu yerda so‘rrayib turmang, azizim”.
Omonat kassasin qulog‘i tirband,
O‘likning og‘zidek ochiq daricha.

Birov pul qo‘yishga shoshar, baxtiyor,
Birov olar so‘nggi so‘min parishon.
Mening unga rahmim kelmaydi. Ajab,
Bu yerda o‘yin tushar shodlik va g‘am.

Oyoqlarin kerib ohang purkaydi,
Taxtalar. Qandillar jo‘r bo‘lar shoshqin,

Bulg'anib mast holda yozg'ichlar yotar,
G'ijim qog'ozlarga boqishib hayron.

Telefon xonaning birida kulgu,
Birida kulguning teskarisidir.
Bunda suvratlar ham qandaydir dardli,
To'g'risi, dardlarning shaklidir bular.

Goh shunday bo'lurki, miyamda g'ashlik,
Burchakda oq, jiddiy tufdonlar faqat,
Tufuklarin sochib turar iljayib.
Nofelet, fargelet, atchop. Ketaman.

SHOIR

Abdullaga

O, ona tabiat, ma'yus onajon,
Sirli bu zavq aro sirqiraydir tan.
Oxiri o'ldirar meni hayajon,
Boisi ne, aytolmasman daf'atan.

O, ona tabiat, o'ylayman seni,
Tinglayman olamning shivirin takror.
Bandi maskaniga chorlaydi meni
Kibor cho'qqilarda muzlagan bahor.

Mungli tovushiga osurman quloq,
Dovdir majnunona xayolga asir.
Varaqlar ustida mixlandi nigoh,
Yong'in changalida turibman axir.

Bir she'r qarshisida turaverdim lol,
Bir she'r qarshisida telba, devona.
Munkayib qiroat qilayotgan chol,
Umrini boshqatdan boshladi yana.

Shoir shuning uchun tuzarmi devon,
Yo‘qsa bu parishon tizmalar nechun?
Kimni shoir deya tan olar jahon,
Biz kimni shoir deb ataymiz bu kun?

Kimdir ul, jafokash shu xilqat aro
Hamnishin tutingan qora qalamga.
Kimdir ul, g‘amgusor va motamsaro
Fikr sochayotgan turkiy olamga?

Kimdir ul? Ermak deb kuylarmi, nahot,
Soxta ehtiroslar chulg‘armi uni?
Yo‘q!.. Yo‘q, yaralmadi u bilgan hayot,
Hali tug‘ilmadi shoirning kuni.

Hali qaylardadir jang borar yovuz,
Ma’sum go‘daklarning sha’mi o‘chmoqda.
Musiqor[1]
Emas-ku, temir yalmog‘iz
Mushtarak osmonda uchmoqda.

Ne ellar, vatanlar gulxanda yonib
Shoir ko‘z o‘ngidan o‘tadi bir-bir —
Barchaning dardini o‘ziga olib
Majnun bo‘lib yurar shuning-chun shoir.

Hali bo‘g‘izlarda bo‘g‘ilar nafas,
Eski yaralardan chak-chak tomar qon.
Shoirni kuylatgan tabiat emas,
Shoirni kuylatgan hazrati inson.

Tikkandir jonini vataniga u,
Bu so‘z qarshisida titrama, ey jon.
Yuzma-yuz kelgandek go‘yo o‘t va suv
Yuzma-yuz keladir shoir va zamon.

[1] Afsonaviy temir qush. Sayraganida xushbo’y taratarmish.

Buyuk e'tiqoddir bu dahr aro yo'l,
Buyuk e'tiqoddir muborak ilhom.
Shoir yuragida ochilmagan gul,
Shoir yuragida sobit intiqom.

SAN'ATKOR

Hammasi tugadi, tugadi axir,
Parda tushirildi, tomosha tamom.
Biroq sahna uzra hal bo'lgan taqdir
Mening yuragimda etmoqda davom.

Qarsak gurilladi, qandillar titrar,
Sovuq suv sepgandek titrar bir odam.
O'q yegan ohudek muallaq turar,
Shundoq ko'zlarida yo'qolgan olam.

Kimlarga sharxi hol aylar bechora,
Pinhon dardlarini kim tinglaydi, kim!
Do'stim, men yashadim bu kun, bir bora,
Axir necha marta yashamoq mumkin!

Qaygadir shoshyapsiz, ko'rib turibman,
Ketarkan, yelkalar qilmoqda ta'qib...
Go'yo falaklarda uchib yuribman,
Yerga tushmoqlikka yo'q bugun haqqim.

Kimdir darbozaga otar o'zini,
Nahotki hech narsa qoldirmadi u.
Nechun yashirmoqda, nechun ko'zini,
Aldovmi, riyomi, baxtmi yo qayg'u?!

Oh, singlim, turibsan ne uchun ma'yus,
Kim hasrat suratin chizdi ko'zingga.
Kim parda tashladi beqo'l-u beso'z,
Kimning qahr bozori yetmadi senga.

Hech narsa ko'tarmas ko'nglimni manim,
Sapchib bo'g'izimga osiladi jon.
Dodimga yetmaydi na do'st, na g'anim —
San'atkor baxtiyor bo'lmas hech qachon?..

Siz sofsiz, umringiz nash'aga to'la,
Men parda ortida qolurman yig'lab.
Hayhot, unutarsiz meni bir yo'la,
Siz bo'lak tushlarni ko'rarsiz uxlab.

Siz esa ne uchun qotib qoldingiz,
Qanday xayollarga boshingiz to'ldi.
Ehtimol, vijdonga burov soldingiz,
Marhum vijdon edi, u qayta o'ldi?!

Birov dardlariga izlaydi sherik,
Quchib yer shariga o'xshagan boshin.
Chorlayman, kel beri, men hali tirik,
Chorlayman, kel beri, mening quyoshim.

Xayr, meni tashlab ketgaysiz bir-bir,
Parda tushirildi, tomosha tamom.
Biroq sahna uzra hal bo'lgan taqdir
Mening yuragimda qilmoqda davom.

* * *

Do'stim, menga doimo
Ochiq yuz bilan boqar eding-ku,
Aldamas eding-ku,
Riyokorlik qilmas eding-ku.
Nima bo'ldi senga,
Nima bo'ldi axir.
Nechun menga o'zingning
Shaxsiy kasalligingga qaragandek qaraysan.
Nima bo'ldi senga?

* * *

Tolib Yo'ldoshga

Hayot jomi ichra oqamiz,
Gohi xursand, gohida vayron.
Tevarakka hayron boqamiz,
Tevarakni qoldirib hayron.

* * *

Ko'zlarimning osmonlarida
Faqat o'zing, faqat sen o'zing.
Oydan, yulduzlardan narida,
Ko'zim ichra sening yulduzing.

Tushlarimda uchib yurardim,
Men-la birga ozod qushlarim.
Sen tushmi, deb sendan so'rardim,
Aldamchidir barcha tushlarim.

Meni kutmas endi ul bog'lar,
Meni kutmas qalam qoshligim.
Tushda qoldi ul masrur chog'lar,
Eh, huvillab qolgan yoshligim.

Shafqat nedir — qovjiroq taqir,
Men yo'lsizman — besar-u somon.
Botmoqdadir quyosh ham axir,
Hansirar-da, bo'g'riqar osmon...

Qaydasan sen, bu kun behuda
Hasrat bilan ko'yingda yondim.
Yolg'iz sening mehringdan judo,
Qon yutilgan sahroda qoldim.

Da'vat etmas, shundoq alvido,
Talqon bo'lur tamallar toshi —
So'nayotgan oftob nurida —
Mening kirsiz o'n to'qqiz yoshim.

Tomog'imda qotgan so'zlarim,
Sochiling, samoga sochiling.
Mana, tong. Tonglarning go'zali,
Tong oqardi. Tong — sochim mening.

Xayr senga, otilgan ohu,
Dunyolarga vido ayturman.
Elitmoqda cho'ng qudrat — uyqu,
Tushlarimga yana qayturman.

* * *

Oy, nurlaringni yig'ishtirib ol
Qora pardangni tashla yuzingga, tun,
Men yorim-la vidolashgani keldim.

* * *

Sen ko'p yashading, buyuk tosh,
Yashay berasan hali uzoq-uzoq.
Ko'p yashab qo'yganimdan
uyalaman men esa.

* * *

Hayhotdek tun ichra bir o'zim,
Yulduzlarning nurlari og'rir
Ko'zlarimga kelib sanchilib.

* * *

Sen, ayt, bu kun sening aytganing aytgan,
Uzun kalomingdan uvushadi jon.
Yulduzlar haddiga kimlar ham yetgan.
So'zning hisobiga yetibmiz qachon?

So‘zlardan deraza, so‘zlardan eshik.
So‘zing ostonadir, koshona so‘zing.
Sen ayt, minnatdormiz, boshimiz egik.
So‘zlar saltanatin sultoni o‘zing.

Kimdir buzdi so‘zni, kimlar o‘ngladi.
Kim so‘zning jallodi, kimlar qurboni.
Olislar tingladi, yaqin tingladi.

Qo‘ynimizga to‘ldi so‘zlar xirmoni.
Boshimizga qo‘nib, so‘zlar ingladi.
Ko‘nglimizga botdi so‘zning hijroni.

* * *

Yulduzlarning achchiq nurlariga chirmashar,
Yular oyning namxush sochlarini
Falakka termulib qolgan ko‘zlaring.

* * *

To‘kildi umidimning bahori —
Bo‘g‘izlangan guldasta bo‘lib,
Sening oyog‘ingga yiqildim.

* * *

Ovozingni o‘parman, sevgilim,
Ko‘zlarimga qirib muzlab qolar ovozing,
Yo‘qotuv hissini tuyar ko‘ksim sirqirab.

KARLO KALADZE DIYORIDA

Ucharman, quyoshga botgan qush kabi
Ko'kda yer haqida qo'ishq aytarman.
Karlo Kaladze

To'rg'ay uchar... Ilhomga u to'lib uchar,
O'qdek uchib borar moviylik sari,
Quyoshdan, o'zidan mast bo'lib uchar,
Og'ushiga olar cheksizlik bag'ri.

Har nega qodirdir sohir she'riyat,
Goh o'ngga evrilur, goho ro'yo, tush,
Kamolot timsoli singari faqat
Tumanlarni kesib uchar vola qush.

She'riyat ko'yida bir majnunshior,
Yana uyg'ondimmi, deyman uyg'onib.
Gurjiston qo'shig'in tinglayman takror,
Buyuk she'riyatning qa'rida yonib.

Bir o'zbek o'g'loni gurji she'rining,
Ne tong, shiddatiga asirlar bu kun.
Men-da bir oshiqman ona yerimning
Sevgisi so'ngsizdir, iqboli gulgun.

Shoir, tunlar o'tdi, o'tdi kunduzlar,
Yuzidan Kartveli ko'tardi parda.
Necha bor aylandi ko'kda yulduzlar,
Oqardi qora tun gavrizangarda.

Uchar, to'rg'ay uchar, moziydan so'ylar,
Men uni tinglayman ko'zlarimda yosh.
Shoir, kavkasion nelarni o'ylar,
Nahot botib ketsa yerlarga quyosh?

Bahrun najot uzra o'rlar qora chang...
Garchi bu to'qilgan afsona erur —

Ehtimol zirvadan ma'lul va o'ychan
Yofasning, kartlosning ovozi kelur.

Ular do'st tutingan, inon, ey shoir,
Sog'ari alvido qilganlar, balkim.
Yo'q, ular g'arazgo'y bo'lmagan oxir,
Yo'q, dushman bo'lmagan hech qachon xalqim.

To'rg'ay uchar, to'rg'ay kuylar beomon,
Bosib kela boshlar moziy ko'lkasi.
Necha jafo bo'lsa ko'rding, gurjiston,
Sen, ey, asrdiyda mardlar o'lkasi.

Tanimni qaqshatar ul o'tmish yellar,
Go'yo ko'k yuziga tortilmish niqob.
Lekin mxedruli saslari kelar,
Titrar yer-u osmon, titrar ko'hi qof.

To'rg'ay ham osmonga cho'kib bormoqda,
Daf'atan samoviy baxtdan tiqildi.
Hayhot, ul bechora to'rg'ay tuproqqa,
Shul ona tuproqqa jonsiz yiqildi...

Qutlug' tuprog'ingga qadamim bosdim,
Qutlug' tuprog'ingni kuylarman qonib.
Yo'q, men gurjistonni seva olmasdim,
Bag'rimda turmasa O'zbekistonim.

Bilurman, oxiri to'xtar-ku qalbim,
Qo'l siltab dunyodan bir kun o'tarman.
Ucharman, quyoshga botgan qush kabi,
Ko'kda yer haqida qo'shiq aytarman.

TAVFIQ FIKRAT KITOBIGA YOZUV

Nechun yo'lning so'ngida jarlik.
Tavfiq Fikrat

Men uxlayman, men uxlayman,
Ro'yolarga botaman.
Tushlarimda men yig'layman,
Bulutni uyg'otaman.

Boqmam yerlik navolarga,
Bilmam qachon qaytaman.
Men dardimni havolarga,
Shamollarga aytaman.
Men uxlayman, men uxlayman,
Asta yumgayman ko'zim.
Tushlarimda men yig'layman,
Sen kulib tur, yulduzim.

BITIKTOSH

Azizxon Qayyumga

Firdavsiy bir zamon aytgani kabi,
Har ne o'tkinchidir — fanoning o'zi.
Faqat ikki narsa qolur abadiy —
Botirning shavkati, dononing so'zi.

Ajdodlar vatan, deb jon fido qilgan,
Behuda gap sotib yurmagan ular.
Mana, ming yillarni opichlab kelgan
Bitiktosh ona yer haqida kuylar.

Vaqt quyunida ne davr-u davron,
Bu — toshga aylangan erkdir, bardoshdir.
Bu vatan atalgan muqaddas armon.

Unga qarayman-u, bir his tuyaman.
Bu yurtim timsoli mangulik toshdir...
Yuragim toshiga she'rim o'yaman.

ARAVA TORTAYOTGAN OTGA

— Uf, buncha uf tortasan bunday,
Yemishing soz, hansirama, bas!
— O'zim shunday, odatim shunday,
Men shunaqa olaman nafas.

* * *

Bu qanday oroldir — osmon ko'rinmas,
Bu qandaydir daryodir — ko'rinmas sohil,
Biz shu qadar nochormiz, sevgilim.

* * *

Aytmasang bo'lardi-ku shularni, e voh,
O'zim talab qildimmi haqiqatni,
Qanday yashayman qolgan umrimni endi?!

* * *

Mo'ltirab qarab turibsan, qushcham,
Nega bunday qaraysan?
Baribir, menga ishonmaysan-ku?!

BETXOVEN
V. S.

Hozir so'ng zarb ila uzilajak tor,
Nahot, har ne abas, hammasi bitar.
O'zing qo'lla meni, ey buyuk daho,
Qanday saodatdir, bu so'nggi sado?!

Shivirlar, hayqirar bepoyon dengiz,
Men uni sipqormoq istayman tanho.
Faqat sen ko'zingni bag'ishla, ziyo,
Faqat sen, jasorat, qo'lingni ber tez.

Balki bu osmon — orzu sadosi,
Dengiz — xayollarin sadosidir bu.
Haqiqat qoshida qasamdir ezgu.

Suyukli insonga balki vidosi ...
Hozir so'ng zarb ila uzilajak tor —
So'nggi zarb hayotin yashamak darkor.

PABLO NERUDA
O'LIMIGA

Axir o'ldirmishdir qora mash'al tutgan
Mash'um shaytanat.
Qo'rqoqlar o'ldirdilar.
Sotqinlar o'ldirdilar
Shoirni. Insonni.
Garchi mumkin emasdir aslo,
Ufqning bo'yniga sirtmoq — dor tashlab
O'ldirmoq insonni, pablo.
So'ndi ozodlikning so'ngsiz osmoni, pablo.
Chatnadi yulduzlar,
So'ndilar qaqshab,

O, bukun qayg‘uning qora suvratin ko‘rdim,
Nafratning qoshida turdim yuzma-yuz,
Nafasini ichiga yutib yuborgan havo.
Dim.
Nafasini ichiga yutib yuborgan
Pablosiz.
Bukun tanho hasrat. Shoir va dunyo.
So‘z yo‘q so‘zga,
Osmon toshib kirar ko‘zga, sig‘mas ko‘zga, pablo,
Bu buyuk hasratning mazmuni o‘zga, pablo.
Nahot, borliq — soqov,
Nahot, borliq — ko‘r.
Dildirab, lopillab turgan bulutlarning
Tobutida yotar jonsiz tafakkur.
U qanday sevardi,
U qanday sevardi — dunyo — vatanin.
Yo‘q, ozodlikni otib bo‘lmas, yo‘q,
Na-da tuban, na-da ayanch osmonning dushmani.
Qo‘llariga qaytadan qora mash’al olgan
mash’um shaytanat —
Zulmatliklar chilining oppoq tongini
Chil-chil sindirdilar.
Qonli sanjoq ildilar, pablo.
Yetim qilmoq bo‘ldilar ozodlikni,
Faqat,
Yana o‘zlarini yetim qildilar,
Pablo.
Yetar, bas, marsiya...
Ey siz, g‘aflat suprasida biqsib to‘yganlar,
Ey siz, qurbonlikka
Quyoshni so‘yganlar...
Uni o‘liklar o‘ldirdilar,
O‘ldirdilar shoirni. Insonni.
Hayqir, hayqir, hayqir, osmon —
Pablo — Nerudaning so‘ngsiz osmoni.

* * *

Huvillagan uyda siqilar yurak,
G'olib keldi oxir qora gumonlar.
Men-da sargardonman, o'zimdan yiroq,
Ko'zlarimga cho'kmish horg'in tumanlar.

Hayhot, tinglamaysan yonimga qaytib,
Ortiq yetib bormas otashin so'zim.
Sen ketib borasan alvido aytib,
Men esa izlayman o'zimni o'zim.

HIJRATDA ONA ALLASI

(1944)

Haydar Usmonga

Shakar qo'zim, tushlaring bo'lsin shirin,
Sen mening jonimsan, sen mening tanim.
Onangning ko'ksida qasos yashirin,
Yuragida o'q parchasi — vatanim.
Nido qildim, nidolar qildim, alla,
Seni yo'qdan binolar qildim, alla.
Ona yurtni bosdi yovuz yildirim,
Maskanatga aylantirmish dorugir.
Garchi qon ichradir bargrezon yerim,
Ayri tushmak, bolam, mushkul baribir.
Nido qildim, nidolar qildim, alla,
Seni yo'qdan binolar qildim, alla.

Qontalashgan ufqlarda nofarmon,
Botishini quyosh bilmay turadir.
Odam ortgan poezd borar sharq tomon,
G'ildiragi ko'ksim uzra yuradir.
Nido qildim, nidolar qildim, alla,
Seni yo'qdan binolar qildim, alla.

Qirg‘oqlarga chopar, qaytar dolg‘alar,
Muztarib osmon kabidir nolam.
Bog‘larda qag‘illar qora qarg‘alar,
Bog‘lar bulbulidan ayrildi, bolam.
Nido qildim, nidolar qildim, alla,
Seni yo‘qdan binolar qildim, alla.

U yerda vizillab o‘qlar uchadir,
O‘qlar uchib yurmas bekordan bekor.
Tirik jonning, bolam, shami o‘chadir —
Yov uchun quyoshning o‘chmog‘i darkor.
Nido qildim, nidolar qildim, alla,
Seni yo‘qdan binolar qildim, alla.

Balkim afsonalar aytar bulutlar,
Turkular aytadir musaffo, tuyg‘un.
Yiroq-yiroqlardan turnalar o‘tar,
Hijron qo‘shig‘ini aytarlar bugun.
Nido qildim, nidolar qildim, alla,
Seni yo‘qdan binolar qildim, alla.

Otang jangda. Otang seni ko‘rmaydi,
Otang jangda, qora xat olgan onang.
Otang kelib, ahvolingni so‘rmaydi,
Bu olamda bir o‘zi qolgan onang.
Nido qildim, nidolar qildim, alla,
Seni yo‘qdan binolar qildim, alla.

Armon-la yumgandir ko‘zlarini, bas,
Jon berib, dushmandan olgandir o‘chin.
Nechun qalqib-qalqib olasan nafas,
Nechun qo‘rqib ketding, to‘lg‘onding nechun?
Nido qildim, nidolar qildim, alla,
Seni yo‘qdan binolar qildim, alla.

Shakar qo‘zim, tushlaring bo‘lsin shirin,
Sen mening jonimsan, sen mening tanim.

Onangning ko‘ksida qasos yashirin,
Yuragida o‘q parchasi — vatanim.
Nido qildim, nidolar qildim, alla,
Seni yo‘qdan binolar qildim, alla.

YEGISHE CHARENS XOTIRASIGA

Men
Olamdan
O‘tdim.
Men olamdan o‘tdim,
Erkalatmang o‘tgan odamni.
Yelkalarda ko‘tarmang.
Atrofga
O‘g‘rincha
Yo‘talmang.
Rahmat, o‘zim borardim-ku...
Ehtiyoj bormi endi tobutga?!
Baribir... Yondiring.
Men, axir, o‘ch edim o‘tga.

TAGOR VA SRABON[1] YOMG‘IRLARI

Shoir, chataka[2] Qush uyg‘otdi seni,
Parishon yomg‘irlar ichra parishon.
Omonlik izlaydir srabon seli,
Bir vatan so‘raydir g‘arib srabon.
Shoir yuragini ochdi va yomg‘ir
So‘zlarga aylandi, har nadan judo
Uxlab yotganlarni uyg‘ot, ey, shoir,
Yo‘qsa ummonlarni to‘nkarar xudo.

[1] Yomg‘ir juda ko‘p yog‘adigan fasl.

[2] Faqat yomg‘ir iste’mol qiladigan afsonaviy qush.

Axir haqiqatga erk ham kerak-ku,
Mondar[1]da tangrilar yovuzdir axir.
Bo'ron ko'zlariga kelmaydir uyqu.

O'ltirar naq vaytaran[2] to'g'onida...
Yomg'irlarga serob yashadi shoir,
Uryon yurak bilan mangu qoldi u.

VERLEN

U haybatli ko'zga aylandi,
Undan oqib chiqadi o'zi.
Quvib borar qizil-yashil ko'ylak kiygan
Havoni, quvib borar.
Temirbeton qo'llari bilan
Qattiq taqillatar hapriqib,
Yuragining pochta qutisi
Osilgan darbozasini:
— Kim bor?
Kirmadimi shu yoqqa,
Qizil-yashil ko'ylak kiygan
Havo?!
Tevarakka jovdirab boqar,
Tevarakka boqar mushakkal.
Uyalar,
Yalang'och.
U — tor emas,
U — tovushdir, ehtimol,
U hasrat ham emasdir, hatto,
U — yaradir aniq.

[1] Ma'budlar majlis qiladigan tog'.
[2] Razolat daryosi.

* * *

Dolg'alarning shoshqin odimi,
Shiddat ila yuzmoqda kemam,
U tomonda baxtim qoldimi,
Baxtsizligim qoldimi, bilmam?

Yo'lni darg'a shamollar oldi,
Mana, sudrab borar kemamni.
U tomonda nimalar qoldi,
Bu tomonda ne kutar mani?..

G'AFUR G'ULOM VA TURSUNALINING VARRAGI

Har kuni bolakay varrak uchirar.
Varrakning ipiga qulog'in tutib,
Tinglaydir bo'shliqni nafasin yutib,
Har kuni bolakay varrak uchirar.

Lekin uning tushlariga bir mahal
G'afur G'ulom kirgan emish, ajabo:
– Varrak o'ynab yuribsanmi hali ham?
U — sening yuraging, der emish bobo.

Havoni to'ldirib uchadir varrak,
Goh kuyib uchadir ufqdan nari,
Goh qoplab oladir zulumot qa'ri,
Havoni to'ldirib uchadir varrak.

Yana uning tushlariga bir kuni,
G'afur G'ulom kirgan emish, ajabo,
Ushlaganmish varragining ipini,
Unga o'ychan so'zlab turarmish bobo:

Vaqtidir, qo‘y, uchsin yuraging, o‘g‘lim,
Qo‘yib yubor, so‘ng armonga botmasin.
Uchsin! Mayli, to‘ssin shamollar yo‘lin,
Sening ko‘kragingda faqat yetmasin.

Havoni to‘ldirib uchadir varrak...
Goh kuyib uchadir ufqdan nari,
Goh qoplab oladir zulumot qa’ri,
Varrak qanotida yalang‘och yurak.

OMON AZIZ.
“KANDAKORLAR”

O‘ltirishar ikki jununvash,
Ikki jahon bilmagan jahon —
Ikki shoir ma’yus, xayolkash,
O‘rtalikda olov siyohdon.

Mangu yonar lahzalik otash,
Qotib qolgan xayol bepoyon:
Asriy hasrat, yurakdagi tosh,
Bir lahzalik shodlik namoyon.

Titrar olam bir parishonhol,
To‘rt tarafda zulmatdir g‘arib,
To‘rt tarafni go‘yo bosmish yov.
Kelajakka yog‘dirar savol,
Go‘yo tunda imkon axtarib,
Chorlar misda muzlagan olov.

* * *

Kunduz: chiq-chiq,
Kecha: chiq-chiq,
O‘lmagan sening joning.

* * *

Bir yoqlarga ketmaysanmi uchib-uchib,
Yurasanmi is bosib, qorayib,
Sho'rlik shaharlik chumchuq?

* * *

Og'zimga eng xushbo'y havolarni to'ldirib,
Yiqilib, turib chopayapman
Sen tomon, jonim.

* * *

Har kun huzuringga kelaman,
O'ltiraman soatlab,
Sen meni tushunishing kerak, chinor.

ITLAR

("Tush" dostonidan parcha)

Qayt, Bo'ynoq, qayt, To'rtko'z...
Hoy, odam bormi?.. Qayt!
Rauf, sen bu itlarga
Ne yomonlik qilgan eding, ayt!
Tishlari g'ijirlar,
Ko'zlari yonar, qizili qizilga,
oqlari oqqa,
Hurpayib tashlanar,
Oldimdan bir uzib olmoqqa.
Ehtiyot bo'l,
Bu — johil,

Qulog‘i kesik,
Dahani teshik.
Bu — muttaham,
Qari,
Ezilgan,
Dumi kesilgan.
Bu sim bo‘ylab yugurar, yelar,
Qattiqroq uvillar,
Ko‘ngli to‘q,
Bog‘liq ekanin bilar.
Tekinxo‘rmisan, sen, jini suymaydi,
O‘g‘rimisan, sen,
Ko‘chadan o‘tgani
Qo‘ymaydi.
Nechun, sen itlarga yoqmaysan,
Ehtimol, tuzukroq boqmaysan,
Quloq qoqmaysan,
Bo‘yniga nishonlar taqmaysan.
Eh, sho‘rlik, qolding ne kunlarga,
Ko‘ksingni
Sindirib
Otgil ularga.
Chandikli, zaharli yuraging otgil,
So‘ngra ularning holiga
Yumalanib-yumalanib
Qotgil.
Hammasi til tortmay
O‘lar-ku!
G‘aroyib hangoma
Bo‘lar-ku!
Yo‘q, yo‘q! Qayt, bo‘ynoq qayt,
to‘rtko‘z!..
Hoy, odam bormi? Qayt!
Rauf, sen bu itlarga
Ne yomonlik qilgan eding, ayt!

* * *

Bo‘ron, do‘stim, nechun jimsan,
Nechun jimsan, chaqmoq, ukam,
Singlim sukunatning boshida?

* * *

Vujudim yallig‘lanar nafasingdan,
Sen shunday yaqinsanki jon qadar, axir,
Baribir, seni sog‘inaman, sevgilim.

* * *

Tovushlarga ko‘milib qoldim,
Zalvor qorli tovushlarga.
Junjiktirar oyning nolasi.

* * *

Tirnaydir sochlaringning tarog‘i,
Ko‘zlaringning surma suyi zaharlar,
Labingdagi o‘qni nechun saqlaysan.

BAYRONNING SO‘NGGI SAFARI

Cho‘kib bormoqdasan ko‘zim o‘ngida,
Alvido, alvido, ey ona diyor.
Bayron

Dengiz teranligi — sening suvrating,
Ko‘rinur timsoling, zimiston qaynar.
Oshib bormoqdadir mavjlar sur’ati,
Sen kabi hislarim qaynovi o‘ynar.

Qayda jasoratim, qayda jur’atim,
Qayda u cheksizlik, samoviy kuylar?!
Ko‘hna qasr ichra yashar guljamol,
Tubanda hayqirar dolg‘a-g‘alayon.

Dengiz sohilida turib ehtimol,
U sening umringga keltirgay imon.
G‘amgin ko‘zlarida aks etgay magar,
Achchiq muhabbating, olis xotirot.

Qani, ey, dolg‘alar, qani to‘fonlar,
U kabi g‘azabga to‘lingiz, hayhot!
Qontalash ufqda intiqom porlar,
Shoir — erk o‘g‘loni, nomus sarvari.

Go‘yoki xo‘rlangan hamshirang chorlar,
Yuzlanding qasos, deb sen yunon sari.
Sevgan vataningda barchasi qolar,
Aldangan umid-u g‘iybatlar bari...

Dengiz hayqiradi, girdob bekaram,
Shoir, ko‘zlaringga dengizlar to‘lar,
“...Tojdor maxluqlarga yemning o‘zi kam,
Tishlamoq va qopmoq istaydi ular...”

Jang maydoni kerak jangchiga axir,
Qutlug‘ erkinlikning jasur farzandi,

So‘ngsiz alam bilan telbarib yonding,
Ona vataningni tark etding, shoir.

To‘lqin goh tosh qotar, sapchigay goho,
Sen esa sohildan termulasan jim.
So‘ng tinar qahrli bu shovqin, ammo
Shunday aniq tinar mening-da sasim.

Bir dam hasratlarda bo‘larman ma’lul,
So‘ng yana chorlagay bu hiddat, tug‘yon.
Seni yetaklagay dengiz sari ul,
Va meni begona sanamlar tomon.

Yo‘q, bizni ajratmas cheki yo‘q dengiz,
Ajratmas zaminning vodiy, tog‘lari.
Biroq shoirliging — qismating tengsiz,
Meni erkalatar yurtim bog‘lari,

Biroq mumkin emas kurashmoq sensiz,
Ba’zan ko‘ksim uzra dayr tirnoqlari.
Nahot, yovuz bo‘ron xasdek uchirgay?
Qaynar tomirimda otashin qonlar.

Qahrim quyunlarning izin o‘chirgay,
Poyimda yoturlar qora bo‘ronlar.
Ufq o‘tda yonar, dengiz ham notinch.
“Yo‘q esa ko‘klarga sochib hasratim

Bosh olib ketmasdim vatanimdan hech,
Senga qul bo‘lardim, ey muhabbatim...”
O‘jar xayollarga bir dam to‘larman,
Bir dam so‘zlaringni tinglayman sokin.

“...Kurash nechun axir?.. Men yosh o‘larman,
Necha imkon bordir sevdim-ku, tokim
Tuproqdan edim men, tuproq bo‘larman,
Dunyoni tutajak mening-da xokim...”

ALYOR

Sevgisiz tiriklik anduh, befarah,
Mangu sharofatli ma'raka bu kun.
Qani, ey do'stlarim, to'ldiring qadah,
Dunyoda muhabbat borligi uchun!

Gulga to'la dunyo, shodumon do'st-yor,
Go'yoki davrada faqat gul, chechak.
Bu ikki oshiqdir, ikki baxtiyor,
Bir dardga aylangan bu ikki yurak.

Sadoqat taxtida yuzlaring gulgun,
Olamni yoritgay sevging shu'lasi,
O'zgacha ko'rinur har narsa bu kun —
Kelur har narsaning senga havasi.

Dunyoni bir kezib topding yagona,
Mana, suyuklingga turibsan qarab,
Qani, piyolani to'ldiring yana,
Nash'aga to'libdi, qarang, to'rt taraf.

Go'yo bo'ston ichra ochilgan chechak —
Bu harir oq libos poklik timsoli.
Umr go'zal bo'lur, baxtli kelinchak
Kafolat beradir ko'zgu misoli.

Bu kun to'y kechasi, sevgi ayyomi,
Bu kun to'y kechasi, shodlik toshadi.
Bu ikki baxtiyor — dunyo salomi,
Ikki dil hayotga qadam tashladi.

Bu barcha ko'rgulik ko'rgan hayotdir,
Hayot barchasiga qilgaydir toqat.
Umr deganlari zahmat, sabotdir,
Umr deganlari ishonch, sadoqat.

Ko'qda oy, yulduzlar kirganday so'zga
Aziz boshingizga sochar nurini.
Men yulduz shu'lasin tilayman sizga,
Men sizga tilayman oyning umrini.

Sizni qutlar bugun do'stu qadrdon,
Yosh bahor umringiz nurlarga to'lsin.
Bo'lmasin jafolar, bo'lmasin hijron,
Do'stlarim, ezgu baxt muborak bo'lsin.

* * *

Ko'zimga to'qinar malolat, tumon,
Cheksizlik qo'ynida yalang'och sukut.
Ruhimda muallaq jimlik bezabon —
Neki o'tgan bo'lsa, barchasin unut.

Zarba gali senda, mayli, ko'ray men.
Ovoz ber, qaydasan, o'lmas toqatim,
Yo sukunat kafaniga o'ray men.
O, saodat, yo'q, mening saodatim.

Faqat bordir bunda soqov sukunat,
Saodatin izlab chiqqan bir shoir —
Men qachon bag'ringga yetgayman, faqat,

Yoril tosh, ey, yoril tosh, yoril, axir,
O'limning qoshida yoril, ayt, baqir,
Chaqmoqlarga aylan endi sukunat!

* * *

E. D. R.

Qabringni ziyorat qilgali keldim,
Uzun yo'l bosib,
Yelkamdan bosib o'tar bu yo'l,
Bu yo'l yer-u osmon yo'lidir, do'stim.

Sanchilar ko'zimga shamolning ignasi,
Yular oftobning sochlarini
Yer-u osmon yo'lida
Kuyib ketgan bulutlar.

Qaldirg'ochlar uchar chirqirab,
Chuchmomalar ochilibdi,
Ochilibdi lolaqizg'aldoqlar,
Sening cho'kib qolgan qabring ustida.

* * *

— Bir she'rimning, qarang, boshi yo'q,
Kesilgan-ku, qarang, oyog'i?!
Muharrirga boqdim, ko'zim lo'q:
— Axir qandoq bo'lur u yog'i?!

— Tilingni tiy, dedi muharrir,
Yaxshilikni bilmagan hamak.
— Kechiringiz, lekin ko'p og'ir
Yolg'iz qorin bilan yashamak.

MUHABBAT

1. Shunday iztirobda sevgan yuragim,
Muhabbat dastidan yo'q majol-imkon.
Horg'in — ado ko'zlarimga qaragin,
bilurman, shunchaki o'rtanmas vijdon.

Og‘ir, sevganimdan rashkim ham og‘ir,
Ul g‘oyib ilmdan olgayman saboq.
Axir nohaq edi, Otello, axir,
Sevgilim, shafqatsiz muhabbatga boq!

Sodiq Dezdemona, ey jigarpora,
Nechun bo‘g‘izlandi muqaddas tuyg‘u,
Nechun qatl etildi sevgi bechora?!
Qasding bormi menda, ey, so‘ngsiz qayg‘u,
Dunyo — dunyo emas, dunyo — bu yara?!
Nahot, bu jarohat sobitdir mant-u.

2. Sevgilim, sevgilim, javob ber axir,
Sovuq jismim ichra alahsirar jon.
O‘ynab qilich solar boshimga taqdir,
Domiga tortmoqda so‘qir lomakon.

Holbuki, aylanar olam aqlimda,
Uning ranglariga bo‘yalmish jigar.
Besh qo‘lim singari tanish iqlimda
Ishonchsiz yashamaq og‘ir naqadar.

Ne xayol tashlanur o‘ksik yodimga,
Yodimning ko‘zini kesib kirar tun.
O, kim ham yetardi mening dodimga!
Na yer sarvarlari, na sarvat, na din,
Inonmog‘im uchun odam zotiga,
Men senga inonmoq istayman oldin.

3. Yo‘q, yo‘q, kerak emas ilohiy husn,
Mayli, peshonangda yonmasin daho.
Faqat inson bo‘lgin sadoqatda sen,
Mening vafodorim bo‘lolgin tanho.

Gohida o‘shandoq tentak xayollar,
Sendan voz kechmakka qistaydi hargiz.
Qaylardan kelarlar mash’um savollar,
Qandayin yasharman, sevgilim, sensiz.

Sensiz dunyo menga nimadir, gulim,
Har ne unut bo'lar, har neki ezgu.
Qonimni muzlatar tirilgan o'lim.
Na sevinch, na ko'z yosh, na ushbu sezgi,
Bu cheksiz olamda yagona yo'lim —
Yolg'iz inonganim sensan-ku, sevgim.

4. Sevgilim, men senga inondim nechun,
Seni o'zgalardan o'zga, deb bildim,
Qora girdob qa'riga men yiqildim,
Oqar daryo bo'lib yig'layman bu kun.

Falakning charog'i yondi-da, so'ndi,
Ko'zimning imoni — daryolar kechar.
Qotdi aqlim, qattol qismat qon ichar,
Maqtul muhabbatga makon yo'q endi.

Xayr, xayr, xayr endi. Bo'g'ilar nafas.
Tabiat, madad ber, yetmas o'z kuchim.
Nechun aldading sen, tushunib bo'lmas?
Sevgilim, hech kimni sevmasman nechun,
Osmon yiroq, yulduzi yo'q, oy kulmas.
Hamma narsa kulgilidir men uchun.

5. Men kimni suyibman... Yolborib toldim —
O'zgarar tabiat, dunyo o'zgarar.
Balki men o'zga baxt yo'lida qoldim,
Lekin olib ketdi seni o'zgalar.

Axir o'zga edi sening ahding, ey,
"Axir o'tkinchidir hattoki abad".
Nechun o'zga edi sening baxting, ey?
"Lekin o'zga erur buyuk muhabbat!"

Yashin urib ketgan daraxtdek to'nib,
Poyonsiz bo'shliqqa qarayman dilso'z.
Sarson axtaraman yuragim to'lib.
Qayda u sadoqat, poklik degan so'z?!

Hayhot! Xiyonatning yetimi bo‘lib
Faqat yig‘lab qoldi ikki qora ko‘z.

6. Afsus-nadomatning bordir-ku cheki,
Sening gunohingni yuvsin ko‘z yoshim,
Ayni jasoratdir har qanday sevgi,
Senga oq yo‘l tilar mening bardoshim.

Bu shunday hayotdir, bu shunday dunyo,
Ega chiqavermas har kim ahdiga.
Onasan, omon bo‘l, sog‘ bo‘l doimo,
Ma’sum bolalarning ma’yus baxtiga.

Lov-lov yonayotir quyosh — ul najot,
Osmon chorlayotir, chorlar yuksak tog‘.
Shunday yuragimda tovushsiz faryod.
Men senga inonmoq istayman, e voh,
Barcha ko‘rgulikka ko‘nikkan hayot.
Buyuk muhabbat deb atalgan Alloh.

VAN GOG

Isfandiyor Haydarga

Buyuk sevgi rangin izlab yurardi,
Yozar moviylikka rangin qasida.
Biroq hayrat ichra qalqir yuragi,
Ezgulik, yovuzlik chegarasida.

Hech narsasiz, lekin mehri ziyoda,
Izlar tiriklikning sirli bo‘yog‘in.
Buncha g‘arib... Razillar ko‘p dunyoda?!
Kesib bersamikan qolgan qulog‘in.

Qarindosh-urug‘-u do‘st-u yor, xotin,
Uni anglamadi kibor olomon,

Yuragi bilgisiz zardobga to'ldi.
Sha'niga xiyonat qilishdan oldin
Bilmoqchi bo'ldi u, bu qanday zamon?
Yuragin rangini ko'rmoqchi bo'ldi.

* * *

Yoshlik — zangor fasl. Kechdi. Sarg'ardi.
To'kildi u. Shafqat bilmas bargrezon.
Qora sovuqlarga otib yubordi,
Shamollar poyida sinmoqda xazon.
Yoshlik zangor fasl. Kechdi. Sarg'ardi.

Harna o'tdi, mendan o'tdi, omon bo'l,
Qancha faryod qilmay qaytarib bo'lmas.
Har qalay, oldinda bordir so'nggi yo'l,
Toki yetguningcha xotirot o'lmas.
Harna o'tdi, mendan o'tdi, omon bo'l.

Vido tabassumli olam, yoshligim,
Ko'zlarimda qotgan jolam, yoshligim,
Ko'klarga yetmagan nolam, yoshligim,
Suvga cho'kib ketgan bolam, yoshligim,
Vido tabassumli olam, yoshligim.

ALDOV

Alda meni, sevgilim, aldab yashash oson,
Mardi maydon, deb ayt, saxovatli, deb aytgin.
Hattoki zo'r shoir, deb ham aytaver, mayli,
O, yo'qdan bor qilursan, deb aytgin, ishontir,
Mayliga, dunyoda tenging yo'q ,deb ayta qol!

Alda meni, sevgilim, aldab yashash oson,
Dunyoda eng go'zal sensan, deyman-ku men ham,

Dunyoda eng shafqatli sensan deyman, sen, sen,
Deyman-ku, dunyoda sensan eng vafoli yor,
Deyman-ku, yo'q narsalarni talab qilmassan.

Alda meni, aldayver. Aldab yashash oson?!

SOYA

Men endi qo'rqmayman, uyg'ongil, ey dil,
Bir karra o'lganman, qayta yo'q o'lim.
Shukrullo

Ortimdan ergashar bilgisiz soya,
Qora ro'yo kabi sudralar sovuq.
Yo'qdir panoh menga, yo'qdir himoya,
Bemajol, izma-iz kelar ul yovuq.

Goh g'azab-la boqar, goho quturib,
Hasratdan qoraygan uning yuzlari.
Undan qochib bo'lmas qutulib,
Yuragim ustidan o'tar izlari.

Bani odam uchun noyob, beqiyos,
O, vijdon shevasi, mukarram tuyg'u.
Lekin men tuproqqa otdimmi bexos —
Balkim qamchilangan vijdonimdir u?

Ishqim osmonida tanho oqqushdir —
Qo'ldan uchib ketdi yoqib qismatim.
Butun va'dalari yolg'ondir, puchdir —
U balkim xo'rlangan ilk muhabbatim.

Muhabbat, sen menga vafo qilmading,
Sevgi sahrosida osiy, mosuvo.
Men seni bilardim, meni bilmading,
Balkim u soyamas, sensan, bevafo?

Hey, farzand dog‘i, hey, achchiq jolalar,
Ota-onangizdan xato o‘tdi-ku...
Yo‘q, yo‘q, xato qilmang, sizlar, bolalar! —
Sho‘rlik bolalarning soyasidir u?..

Kimni aldadim men, kimni sotibman,
Kimning hayotiga chaplab qo‘ydim dog‘?
Men kimning nahs ko‘rpasida yotibman —
U balki sotilgan imonim, ey voh?!

Tilim haqiqatdan tondi bir zamon,
Qochdi ko‘zlarimdan tiyraklik, uyqu.
Kechira olmasman seni hech qachon,
Sen balkim qo‘rquvsan, shabparak qo‘rquv!

Ey soya, kelaver payti yetgandir,
Go‘yo tugayotgan kabi hayotim.
Ehtimol, umrimning yarmi o‘tgandir,
Ehtimol, yarmiga qolganman botib.

Kor qilmas afsuning, yetmagay kuching,
Sadaqa chaqaday otgayman yo‘lga.
Ayt, soya, izg‘irsan poyimda nechun,
Sen kimsan, nimasan, ey mavhum ko‘lka?!

Ortimdan ergashar bilgisiz soya,
Pinjig‘ida bordir a’mol-u asos.
Yo‘qdir panoh menga, yo‘qdir himoya,
Do‘stlar, u qasosdir, muqaddas qasos.

* * *

Moviy osmon etaklarida
Uxlab yotar yiqilgan bulut.
Tanholikda ertaklaridan
Ayrilmish ul, bag‘rida sukut.

Baxtli edi kezib falakda —
Axir, to'yib-to'yib yig'lardi.
Ruhi bo'm-bo'sh, bo'shliq yuraqda,
Oh, yiqilgan bulut uxlardi...

* * *

Tun yaqin. Daraxtlar junjikar bchol,
Bir kun o'tgan edik bu yerdan shoshib.
Yomg'ir hidi kelar, tentirar shamol,
Bir o'zim borurman sensiz, adashib.

Bir o'zim, sen yo'qsan endi yo'limda,
Serzavq davralarda yurarsan o'ynab.
Achchiq she'r silqiydi yara ko'nglimdan,
Qadimiy so'zlarni terarman qiynab.

Baxtiyor edik-ku, bir jon-u bir tan,
Nahot ko'z ochmasdan hammasi o'tdi.
Biz buyuk edik-ku sevgimiz bilan,
Eski jafolarning "oh"lari tutdi.

Uchib ketmoqdasan qaylarga qarab,
Men esa eslayman sevgi kunlarin.
Bir bola burchakda turar dildirab,
Ko'ksida o'tmagan so'lg'in gullari.

Men uryon o'tlarning ustida chopdim,
Qara, kuymoqda-ku yetim sevgimiz.
Bu yorug' olamda men seni topdim,
Sening izlaganing men emas, essiz.

Yodingdami, bir kun. Eslagim kelmas,
Yangi zarba topib qo'yibsan. Nadir?
Sening hayotingda men yakka emas,
E voh oxirgi ham emasman axir.

O, mayli, o‘ylanma, qayg‘urma zinhor,
Baxt-iqbol yor bo‘lsin ko‘rkam, munosib.
Biroq sen “oh” cheksang agarda bir bor,
Men yana kelurman qalbimni bosib.

Sirli qo‘shiq aytar ruhimning qushi,
Abadiy bir navo singari samo.
Sen bilan kechgan u damlarning tushi
Yaltirab chaqirar, imlar, har zamon.

O‘pib xayolingni qonaydi dardim,
Yig‘lar xotiramning g‘arib bog‘lari.
Seni tushlarimdan so‘rab axtardim,
Qaytarib bo‘lmas hech o‘sha chog‘larni.

* * *

Kel, jimgina vidolashaylik endi,
Yoningdan o‘taman bu — so‘nggi safar,
O‘tib ketmoqdaman senga to‘ymasdan.
Shu gaplar, shu gaplar rost bo‘lsa agar,
Nega jim turibsan, axir so‘ylamasdan?

Shu gaplar rost bo‘lsa, yolg‘izim, yig‘lab,
Senga o‘lim tilab qolar edim men.
Yo‘q, yo‘q, mozoringni o‘pib, timdalab
Qayta tiriltirib olar edim men.

Rostin ayt, men ozlik qildimmi senga?!
Ayt, bir yurak ozmi? Mana! To‘ydim-ku!
O‘jar sevgim bilan tegdim joningga,
Kechir, rashkim bilan qiynab qo‘ydim-ku.

Kechir endi, mening quyoshim botdi,
Senga inonmadim. Sen mendan tonding.
Bir tuban nomingni loylarga otdi,
Razil kimsalarga nechun inonding?!

Imon bormi derdim, yonib, sig'inib
Porloq timsolingga, sevgilim, biroq
Tashlab ketmoqlikni o'rgandik ko'proq,
Kel, vidolashaylik endi sog'inib.

Menga og'ir ichmoq sening ko'z yoshing,
Boshingda g'amlarning toshlari sindi.
Ko'rib turibman-ku, tosh bo'lsin boshing,
Kel, jimgina vidolashaylik endi.

Bu yorug' dunyoda vafo qani? Kel.
Senga inonmadim — men telba, g'arib.
Qayga olib borib ko'mayin, aytgil,
Yuragimning jasadini ko'tarib.

To vola yuragim shan libos kiysin,
Toki bir yayrasin so'nggi bor bu jon.
Sening ko'ksing uzra bir uxlab to'ysin,
Yo'q, o'zgacha sevolmasman hech qachon.

Hech bir mozor qabul qilmas, yo'llar berk,
Bugun yuragimning saslari tindi.
Sevgilim, so'nggi bor, so'nggi izn ber,
Kel, jimgina vidolashaylik endi.

DILOROMNING KO'ZLARI

Uning ko'zlari faqat hayqira olardi.
Rene shar

1. Ma'yus edi sening ko'zlaring g'oyat,
Go'yo yo'lsiz o'rmon barglarin to'kib,
Qora yorqinlikda shivirlar oyat,
Ko'zlaringni tinglayapman entikib.

Ayricha ko'ringay har kasga dunyo,
Borliqning savdoli ishlarin o'ylar.

Pirpirab yonardi yulduzlar, go'yo
Ruhning manguligin yondirar ular...

Zanjirmi sharq qizining qo'llarinda,
Bir kuch topilmasmi, kishan sinmasmi,
Sharq qizi, sharq qizi, endi kulmasmi?

Malomat, tutqunlik mangu, o'lmasmi?
Bir sovuq mozorlarmi yo'llarinda,
Erkinlikning porloq nuri inmasmi?!

2. Yo'lsiz o'rmon og'ochlari shovullar,
Ko'hna jarohatga tuz separ o'rmon.
Tepamda yurg'un oy — g'ariba uvlar,
Gizli xayol ingrar, xolos, bearmon.

Ko'zlaring qa'rida siniq bir nola,
Balkim qafas ichra uyg'ongan navo.
Balkim toshloqlarda qon yutgan lola,
Yo'q, havosi so'rib olingan havo.

Yo'q, sen ey, adashgan kemani chorla,
Oyning oq sochlarin sevib taragil.
Koshki suvga cho'ksam.
Cho'kmasman. Sen bor...
Koshki o'tda kuysam. Kuymasman. Sen bor.
Sen borsan. Sen borsan. Oftobim, porla,
Ko'zlaringda yonib bitay, sevgilim.

3. Nechun, yana, ko'zim, kulmaysan nechun,
Nechun sen yozmaysan inja qanoting.
Yana tortmakdami o'shal mudhish tun,
Ufqda o'chdimi, ey quyosh, oting?

Ochgil ko'zlaringni. Nash'a soch. Borliq
Oq erklik ichradir, har narsa oq. Oq.
Sevgilim, bu sening ko'zingga bog'liq —
Shodlik. Nur toshqini. Bir chaman. Bir bog'.

Bular bari so'zlar-ku, axir, so'zlar,
Qaylarga yiqilar bir kun, beomon
Ko'zing osmonidan uchgan yulduzlar.
Ko'zingning qa'rida yukinar, izlar
Yorug' sohillarni asrdiyda jon...
Mangulik osmoni — bu teran ko'zlar.

TANBEH

(hazil)

Barcha tanbeh bermakka shaydir,
Goh muloyim, gohida toshib: —
Qadamlaring bejo o'xshaydi,
Yo'llaringdan ketma adashib.

Tanbeh berish yaxshi, albatta,
Ko'zni yumib, peshona qashib.
Gap topilar agar hayotda
Olgan bo'lsang bir oz adashib.

* * *

Osmon naq boshimning ustida turar,
Ichayotgan choyimga bulutlar qo'nar.
Qaldirg'ochlar bag'rini yerlarga urar,
Daraxtlar sinar, oftob so'nar,
Meni tashlab, qayga ketding, do'stim?

MAQTOV

Maqtov kimga yoqmas, ko'ngling to'ldirar,
Maqtov — shirin og'u shirin o'ldirar.

Dil-u jon o'rtanar, dil orom izlar,
Ilhomning pichog'i sanchilar butkul.
Lovullab yonmoqda oylar, yulduzlar,
Orzumning quyoshi bo'lmoqdadur kul.

Rom etmas hech narsa. Sahrodir ko'ngil.
Osmonlarga faqat afsona so'zlar.
Malomat toshida ochilgan bir gul,
Dam o'tmas kular ul, dam o'tmas bo'zlar.

Injigan sevgiga yo'qdir tasallo,
Lol boqdim quyoshning so'nik ko'ziga.
Olisda yalt etgan oy yo'q, yulduz yo'q.
Ruhimda eng so'nggi ilinj bor, ammo,
Oh, qanday qarayman uning yuziga,
Menda majol yo'qdir, menda bir so'z yo'q.

* * *

Xato qildim, sevgilim,
Xato qildim, beomon,
Yo'q endi borar yo'lim.
Bog'imda so'ldi gulim,
Bag'rimga to'ldi xazon.

Xato qildim, sevgilim,
Xato qildim bilmasdan.
Qani, yutilsa tilim,
Qaltirab turar qo'lim,
Jigarimni yulmasdan.

Xato qildim, sevgilim,
Xato qildim bilmasdan.
Men suyib xato qildim,

Men kuyib xato qildim,
O‘lib xato qilmasman.

Xato qildim, sevgilim.

JAVOB

Qorlar yogdi. Qizdirdi oftob.
Nedir baxt deb so‘radim, biroq
O‘zi bilan o‘zi ovora
Baxtiyorlar bermadi javob.

Qorlar bosdi. Kuydirdi oftob.
Nedir baxt deb so‘radim, biroq
O‘zi bilan o‘zi ovora
Baxtsizlar ham bermadi javob.

* * *

Sira ko‘nika olmaydilar onam shaharga.

Kelganda ham biror narsaga urilib ketmay, degandek, bir joyda jim o‘tiraveradilar. Ko‘chalarni, do‘konlarni, bozorlarni aylanib keling, desam, qo‘y, o‘g‘lim, til bilmasam, deydilar. Qishloqqa onamni ko‘rgani borganimda xursand bo‘ladilar-u, tez-tez: “sen tengilar... Sen tengilar” — deya, afsus ila bosh chayqayveradilar. Bechora onamning doimo menga qattiq rahmi kelib qarab turishi vujudimni achchiq jizillatadi.

* * *

Sevgilimning porloq-porloq ko‘zlarini
Ko‘rmoqdaman ko‘zguda.
Qo‘llarida qo‘g‘irchog‘i —
Jingalaksoch munchoq ko‘zli qizaloq.

Parishon.
Avaylar, quchar beparvo bolaligi —
qo‘g‘irchog‘ini.
Nahotki, vidolashuvlar, nahotki?!
Oqarib ketdi oq ko‘zguning rangi.
Qanday bardosh ila qarab turibman,
Men hech kim,
Hech narsa emasman, axir,
ko‘zguning qarshisida.
Sen — jingalaksoch, munchoq ko‘zli qizaloq,
Bilasanmi, nelar bo‘lib o‘tdi,
Bilasanmi, nelar kutar oldinda?
Sen bo‘lsang har kimga,
Har narsaga shunday ishonasanki...

QO‘RQUV

Doimo birgadir, doimo,
O‘zi bilan o‘zi o‘ralashib qolmas hech.
Ulug‘ yuraklarning muvaqqat ijarachisi —
U og‘iroyoq xotini bilan yashar
Sizning uyingizda.

YETIM

Og‘zim to‘la hayot,
Binafshaning shamoli.
Men sho‘x bolakayman,
Otasi tashlab ketgan,
Onasi tashlab ketgan.
Og‘zimga to‘lib qolgan hayot.

MIKELANJELO SEVGISI

Sevgim, men naqadar sevaman seni.
Mikelanjelo

1. Muqaddas tosh, mening sevgim, anduhim,
Raddi balo bo'lur bu ishq xanjari.
Dunyoni to'ldirib uchadir ruhim.
Sen qaysi makonda? Manzildan nari?!

Ufqqa bosh urar dengiz devori,
Yurakda isyonning issiq xunlari.
Jimirlar shafqati yolg'on g'amxorim,
Kelur oqchorloqning achchiq unlari.

Dengiz, oqchorloqqa tilayman bardosh,
Unga lochin shiddatini ber, qani,
Bag'ringga olmay tur, qanoti singan...
Saodat bag'ishla, ey, muqaddas tosh,
Bu cheksiz og'riqdan xalos et mani.
Menga ilhom kerak, mangulik senga.

2. Ichimdagi yovga qarab turaman,
Yillar o'tgan sayin u ham beqayg'u.
Mangulikning hassasiga uraman,
Taqdirning yolg'onchi shevasidir bu!

Qish quyoshi kezar xayolga cho'mib,
Yolg'izlik yo'lida yolg'izdir o'zi,
O'zi yaratgandir, ketmas ko'z yumib,
Har narsani ko'rar osmonning ko'zi.

Tul qolgan kimsadek osmon azali,
Mozor — dunyo uzra qilar ibodat.
Men ham uning kabi ko'p bor tutildim.
Yo yiqilmas yoki kulmas tuzalib,

Yer — yo hayot, yo mamotdan iborat...
Insonni sevdim men. Insonni bildim.

3. Bilingiz, qurolim sevgimdir faqat,
Uning o'qlaridan bo'ldim baxtiyor.
Neki qahru g'azab, makru qabohat,
Sevgimning yo'lida mag'lub, tor-mor.

Borliq yonsa, quyosh aylansa kulga,
Yulduzlarni tugma kabi yulsalar.
Mening buyuk sevgim, bir bora kulgin,
Qahqahang yo'qlikni dahshatga solar.

Allohning ishiga hayron qolaman
Qonli tovushlarning rangi: o'ldir, os...
O'tlarning ichinda kuyib tolaman.
Ichim yonar, har nafasim — extiros,
Fir'avnga sig'inmayman, olomon,
Allohga sig'inaman — sevgimga, xolos.

* * *

Uyqu kelmaydi.
Hech narsaga bormaydi qo'lim.
Majol yo'q.
Tinsiz hurar qo'shnimning iti,
Yig'lar,
Balki xastadir,
Sog'ingandir biror kimsani,
Balki zanjirdan bo'shatishni esidan
chiqargandir egasi.
Majol yo'q menda,
O'sha itga aylanib qolishni istayman shu payt.

* * *

So'zlar
Tun qo'ynida
Bo'shliqning qo'llari ko'ksimni qisarkan,
Ruhim taslim bo'lmaydir-da,
Olg'a intilar,

Qarshimda bir oq bino paydo bo'lar,
Oq binoda qalin va oq ko'rpalariga
O'ranib-chirmanib qator so'rilarda
Uxlab yotgan so'zlarni ko'raman.
So'zlarni ushlab ko'raman, tishlab ko'raman.
Yana tun qo'ynida
Bo'shliqning temir qo'llari
ko'ksimni qisarkan:
— Yordam bering, uxlab yotavermang, —
deya hayqiraman.
Shunday uyg'otaman qadimiy so'zlarni.

* * *

Siniq osmon, bir yulduz mudrar,
G'amli yulduz tanho, benavo,
Qora dunyo qo'yniga sudrar,
Ko'zlariga chang yutgan havo.
Siniq osmon, bir yulduz mudrar.

Osmon, yuzlaringni yuvib ol,
Bir chaqnasin tanho yulduzim.
Yog'il, yomg'ir, guvla, ey shamol,
Hayqir, endi havoni buzib,
Osmon, yuzlaringni yuvib ol.

To'kilmaydir, axir to'lmaydir,
Turkiy dunyo chil-chil bo'lingan...
Tanho yulduz nechun kulmaydir,
Yiqilish oldidan qo'limga?
To'kilmaydir. Dunyo to'lmaydir...

SHOIR (2)

Shunday ko‘z o‘ngida xiyonat qilgan xotini,
Saltanat — taxtidan mangu quvilgan sulton.
Rosa yuz yil tomchi suvga tashna bo‘lgan zot.
Sochlari oqargan,
Yarasi qonagan ovoz.

SHUHRAT ABDURASHID MOZORIDA

O‘lgan o‘ldi. Ketdi.
Do‘stlaringga xiyonat qilganmiding, do‘stim?
Bilmadim.

O‘lgan o‘ldi. Ketdi.
Sen xotiningga xiyonat qilganmiding?
Bilmadim.

O‘lgan o‘ldi. Ketdi.
Vataningga xiyonat qilganmiding, sen axir?!
Bilmadim.

Hammasini qilishar
O‘lmaganlar.
O‘lgan o‘ldi. Ketdi.

NASIHATNI CHUQUR TUSHUNISH

(hazil)

Ustozning muborak o‘giti tekin,
Doim qilar edi u bir nasihat.
Derdi, aytganimni qilgin-u, lekin
Yana qilganimni qilmagin faqat.

Qattiq tutib oldim ustoz etagin,
Nasihatin kamtarlikka yo'ydim men.
Barcha aytganini qildim-u, lekin
E voh, qilganin ham qilib qo'ydim men.

BIR KISHINING O'LIM OLDIDAN O'G'LIGA AYTGANLARI

1. Shoir bo'lolmaysan, endi bu aniq,
Mumkin edi olim bo'lishing balki,
Hech bo'lmasa boy bo'lgin axir.
Bu shafqatsiz dunyoda, o'g'lim,
Farzandlaring uchun yashamog'ing shart.

2. Imkon yo'q menda ko'rib turibsan,
Yashamakka — vujud sotqinlik qildi.
O'lim — har kimning muqaddas nasibasidir.
O'lim imkoni bor senda yolg'iz —
Haqiqatni aytish imkoni.

SUNBULA

To'kilish oldida gulim. Ehtimol,
Senga boqib ko'nglim uyi buzildi.
Xomush tortib, junjikib qo'ydi shamol,
Bir uzim uzumning yuzlari so'ldi.
Sovuq osmon yuzida izg'ir ko'zim,
Xotiramning tasbehlari tizildi.
Qayg'uliman, qonga qorishgan so'zim,
Tasbehimning chayir ipi uzildi.

Qaydandir bu nido, hazin va karaxt?!
Nechun ketmas qora qarg'alar nari?
Qarang, ingillagan itlarga qarang.
Sirli entikadi yalang'och daraxt,

Bari unutilish istaydi, bari...
Sunbulaning simlari keskir, tarang.

2. Qo'y, bo'ldi. Gapirma. Kechirma meni.
Ko'zingdagi toshni g'ichirlatma, bas.
Quyilmoqda kunduzning achchiq tuni,
Ichib tashlamasam men uni bo'lmas

To'xta. Bas qil. Gapirma. Bo'ldi.
O'zim gunohkorman. Mendan — bu ko'rlik...
Zangor yaproqlarning bag'rida sho'rlik
Kecha shovullagan shamollar o'ldi.

Bir so'z topolmayman senga, sevgilim,
So'zlar, so'zlar qolur bo'g'zimda qotib.
Bilmayman naqadar sevaman seni.

Bu payt falaklarga sovrilar kulim,
Yerga to'kilaman seni yo'qotib,
Shivirlab shamollar marsiyasini.

3. To'lg'ongan sochlaring qora ilondir,
Vujudimga tashlar anglanmas qo'rquv.
Ochilgan bag'rimning dardi nolondir —
Sening ko'zlaringdek teran, qorong'u.

Ilon sochlaringni shamol o'ynaydir,
Uzilgan barg kabi qaltiraydir jon.
Ezilgan yurakni ezib to'ymaydir,
Gulim, ko'zlaringga berkingan jahon.

G'imirlar kechaning qop-qora tani,
Sochlaring iloni tanimni yoqar.
Bag'rimni ezishga yana shaylanib,
Daryo bo'lib sening ko'zlaring boqar...
Uzayib, jimirlab suvga aylanib
Daryoga lim to'lib jasadim oqar.

* * *

Hofiz do'stimga

Men yolg'izman, g'uluv, hayajon,
Hasrati ko'ksimga quyular.
Ko'z o'ngimda bu yorug' jahon
Mungli qo'shiq kabi tuyular.

Yiroqlarda guldirab og'ir
Shivirlaydi bahor tovushi.
Achchiq shamol sanchig'i. Yomg'ir.
Zamin oydinlikning hovuchi.

Atirgulning qo'llari singan,
Yomg'ir yog'ar, og'rir chuqur iz.
Hayajonning tili kesilgan.
Men yolg'izman. Ovozim yolg'iz.

OG'RIQ

1. O, ilhom, axtardim seni dunyoda,
Qismat yelkasida yugurdim, yeldim.
Goh shavq qanotida, goho piyoda
Yukinib men senga sig'inib keldim.

Men seni sog'indim haddan ziyoda,
G'amli xotirangga bistarim to'ldi.
Bu uzgin ummonda, bu ahgar bog'da
Sirpandim. Men qattiq chirpandim. So'ldim.

O'tkinchi g'amlardan tanamda titroq,
Rostmi shu? She'r tug'ar emish alamlar?..
Goho xo'rlab, tishlab o'tdilar biroq.
Sen bilan kechgan, ey, ilohiy damlar
Balkim ilhomingni sudradi ko'proq,
Shon-shuhrat burjida yongan sanamlar.

2. Sohir yuragingni chaqmoq urdi-ku,
Ortiq kulfatlarga doimo shaysan.
Ko'zingda qotgan nur porlab turdi-ku,
Sen axir tiriksan — yonib yashaysan.

Tugatib bo'lmas hech bu dardni ichib,
Yorilgan yaradan chechaklar o'sdi.
Yuragingning yirtiq ko'ylagin yechib,
Bag'ringa bosarsan — bormisan, do'stim?

Dunyoni shopirar yolg'onga, chinga,
Birov rohat qilar ezg'ib, kuldirib,
Iztirob urug'in separ ichingga.
Hay deysan, ne topar meni o'ldirib,
Qaraysan, ko'zingga nurni to'ldirib,
Balli, qabog'ingning ulug' kuchiga.

3. Hech narsa yupatmas, shoir, hech narsa,
G'arib baxtiyorlik endi yupatar.
Yulib vujudimni, titib axtarsam,
Dunyoviy alamning toshlari yotar.

Har kim o'z qalbiga o'zidir xoqon,
Baribir, men seni sevib sizlarman.
Ehtimol nohaqman, ehtimol haqman —
Lekin men muqaddas so'zni izlarman.

So'z mening ko'ksimga sanchilar, hayhot!..
Shovulla, gurkira, hayot nafasi.
Ruhga imon bergil, ey qodir hayot,
Qizg'onma samoviy sehrning sasin...
Yurak deb atalgan og'riq bu — najot,
Ko'krak qafasimiz — najot qal'asi.

TURKISTON YODI

Naqadar uzundir, og‘irdir bu yo‘l,
Dalalar yastanib yotar ko‘k kabi.
Tig‘lar xotiramni osmon — cheki yo‘q,
Tizginsiz bu shiddat kenglik asabi.

Bu kengliqda o‘ylar meni g‘ijimlar,
Ul so‘z qofiyasin sudrab keladir.
Qancha qochsang, shuncha qilgay hujumlar,
O‘q singari xotiramni tiladir.

Tegramda zich havo — ona Turkiston,
Yorgay tomirimni ko‘r hayajonim.
Bu maydon ichinda men to‘kmagan qon,
Mening uni deya ayagan jonim.

Yana yiroqlarga chorlaydi moziy,
“Vatan” tushunchasi kelar yetaklab
Ayrilgan, xo‘rlangan ulus ovozin.
Shoirning beshigi aytar ertaklar.

Yassaviy maqbari mung‘aymish mag‘rur.
Tovushga aylandi har bir g‘isht rangi.
“Dunyo mening deganlar...” Nido kelur.
“Karkas qushdek...” Qadim so‘zlar jarangi.
“Yolg‘on da›vo qilganlar...” So‘zlar shoir.

“Oqni qaro qilganlar...” Ayting, kimlar?!
Maqbara boshimga yiqilar hozir.
Yana tovush: “harom yegan hokimlar...”

Parchin-parchin bo‘ldi yodim simlari,
Simlar — ko‘zlarimga mil tortgan chizgu.
O‘tgan ulug‘larni eslayman barin,
Xotirot mozori — Turkiston mangu.

Kecha sodiq o'g'ling o'tdi dunyodan,
Saxiy inson edi, u shoir edi.
Sanchilib yashaydi bir umr yodda,
Ketayotib, men yig'lab bo'ldim, dedi.

Yig'la, endi ko'zim, sen-da yig'lab ol,
To'ysin ko'z yoshingga bu turkiy sitam.
To'ysin, vatan yodi chidar bemalol,
O, sabr daraxti — qutlug' Turkiston.

Naqadar uzundir, og'irdir bu yo'l...

MUKTIBODH[1] DUOSI

O, shiva![2]
Xaloskor shiva, madad ber,
Tokay shundoq qolur muqaddas bu yer.

Kunduz talvasada, kecha jon uzgan,
So'qir vujudlarning shahparlari yo'q.
Ruh — tashlab ketilgan uy kabi to'zgan,
Ko'z — tuman pinjida so'nayotgan cho'g'.
Oyoqlar qalashgan, o'tin tusida
Charchagan, chopolmas muyulishda quv-quv.
Yurakning eng chuqur qorong'usida
G'or ichra berkingan singari qo'rquv.
Ul bo'shliq, bemantiq mehrob imdodi,
Undan o'lim hidi gup etib urar.
Umidning, ilhomning, gulning jallodi
Qonli qilichini sermab yugurar.
O, shiva, xaloskor shiva, madad ber,
Tokay shundoq qolur muqaddas bu yer.

[1] Muktibodh Madhav (1917–1964) ulug' hind shoiri.

[2] **Shiva** — hind mifologiyasida barbod va bunyodkorlik ma'budi.

Toki pul, amaldir hukmi om chindan,
Axloq yesirlikda, imon qolgay tul.
Nafosat — bir latta etik ichinda,
Ko'rki, insonlikning qimmati bir pul!
Kuy yo'qdir, pul deya baqirar devor,
Pul deya yoqangdan olar xotining...
Dehlida kim bordir?! U joyda kim bor?!
Oxiri bormidir axir bu tunning.
Tili kesilgandek chuldirar birov,
Suvab, chalpib borar bosgan izini.
Unga odam zoti kela bilmas dov,
G'ayri tilda aytar vatan so'zini.
Ul soxta bir shoir, qartabon, laqqi,
Cho'talga onasin qo'yar garovga.
Ko'ksini changallab yaltoq munaqqid
"Daho iste'dod" deb ko'tarar g'ovg'a.
Sadoqat minnatin qilar behayo
Ko'pdan qolib ketgan "vafodor" jalab.
Nafratlarim unga, ey bulg'onch hayot,
Mendan ne istaydir nishtarin qadab?!
O shiva, xaloskor shiva, madad ber,
Tokay shundoq qolur muqaddas bu yer.

Men shoir, shu ojiz holimda yana,
She'rimni tinglagan devor-da soqov.
Shafiq sarasvati[1] Qilsin tantana,
Unda yo'qdir amal, unga yo'qdir g'ov.
O, qutlug' kalima, o, mag'rur inson,
Mahringga tushmishdir oq tong, qaro tun.
Inson orzusidan iborat osmon,
Bori zamin uzra yoymish qanotin.
Ul osmon daryosi gang[2] Bo'lsin ko'zgu,
Men yonib kuyladim, yashadim halol.

[1] **Sarasvati** — hind mifologiyasida fan va san'at ma'budasi.

[2] **Osmon daryosi Gang** — hind mifologiyasida Gangning bir irmog'i osmondan o'tarmish.

Barchani teng ko'rsam — matlabim ezgu,
Millatim qalbiga kirsam bemalol.
Sotilgan vijdonlar, nomuslar yig'lar...
Ko'zimga hurlikning shabnami indi.
Faqat o'liklar-ku abadiy uxlar,
She'rim, kechalarni kesib uch endi.
Erkinlik bor alhol tog'lar ortinda,
Yuzingni yashirma, aruna,[1] Sen ham.
Qachon tong otadir mening yurtimda,
Qachon ado bo'lur g'amga botgan g'am?!
O, shiva, xaloskor shiva, madad ber,
Tokay shundoq qolur muqaddas bu yer.

Quyoshning elchisi turar yo'lakda,
Tashrifidan bo'lmish chamanlar bunyod.
Dunyo ko'zi yorar, olov ko'ylakda
Uyqudan uyg'onur tirik bir dunyo.

O, shiva, xaloskor shiva, madad ber...

* * *

Ertaga boshqa kun bo'lajak,
Xuddi kechagi kunga o'xshash.
Rolando Eskardo

Bugun yashash kerak, ha, xuddi bugun,
Bugun yashash kerak, chirqirab, yashnab.
Yo'q, boshqa chora yo'q, endi. Yo'q endi.
Choraning buguni bor, xolos: bugun.
Bugun yashash kerak. Xuddi bugun. Bas.

[1] **Aruna** — hind mifologiyasida tongotar timsoli.

* * *

Ko'ksimning chap tomoni tinsiz og'rir,
Pichoqlanar ko'zlarimga tinchlik bermas u.
Ko'zlarimning esa qo'llari yo'qdir,
Ko'ksimga sanchilgan pichoqni
sug'urib olmoqqa.
Bu pichoqning dastasi ham yo'q.

ALEKSANDR BLOK

Bilurman, xun haqi, halokat haqi,
Baribir men seni qutlayman, hayot.
A. Blok

1. Qora bulutlarin o'ynar osmon,
Olis yulduzlarning sirli shu'lasi.
Tumanli sohildan undar begumon
Bu so'lg'in shamlarning ignalik sasi.

Tashnalik sasidir, bu — tush, bu — olam,
Kimdir tishlab olgan olovni unda.
O, rus, sen — yorim, sen — singlim,
sen — onam,
Qanday olib chiqay, men seni tundan?

Sira quvib bo'lmas bu qonli tushni,
Kuydirguvchi yulduz sapchir daf'atan,
Hech sinmas ruh ichra osmonning husni.
Tomoqqa tiqilgan ko'zyoshim — Vatan.
O't ichindan termakdaman tovushni,
Kuyib bo'lgan narsa kuymas qaytadan.

2. Mador yo'q, qanot yo'q. Tamom.
Charchadim,
Cho'qir jigarimni bu o'truk, yolg'on.
Bu ta'na qadimiy, bu so'zlar qadim,
Bu sovuq sayyoddir ko'hna palahmon.

Yolg‘iz menmi axir?! Dard bor, hamdard yo‘q.
Bu yolg‘on dunyoda men yolg‘iz emas.
Naqadar tiniqdir, zangoridir ko‘k,
Naqadar shirindir, uzundir nafas.

Rusiya! Yig‘lama, ko‘z yoshingni sot,
So‘yilgan oy kezar, u mening xunim,
Sen bilursan, xolos. Boshqa hech bir zot.
Jismim sovub borar so‘nmoqda unim.
Girdob qo‘ynida men, qo‘lingni uzat...
Xayr! Bu kun mening oxirgi kunim.

3. Qayda, qayda qoldi o‘zg‘ir g‘alayon?!
Nahot uning sinmas qilichi sindi.
Titra, cheksiz ummon, sen mudroq jahon,
Temir darbozangni teparman endi.

Qara, qo‘llarim qon, tirnoqlarim qon,
Turgil, g‘aflatingni yotmagil bosib.
Eshikni ochsang-chi, ey, yalqov posbon,
Qarshingda mana, men — jahon sadosi.

Vahmzor jahonsen, qalbimni yoqib,
She’riyat qa’riga sho‘ng‘irman noshod.
Rusiya, rusiya, sevib, yutoqib,
Sho‘rlik, omon bo‘l, deb topindim bedod.
Bilurman, xun haqi, halokat haqi,
Baribir, men seni qutlayman, hayot.

* * *

Hech narsa behuda emas bu on:
Botib ketajagi quyoshning aniq,
Yaproqlarning shivir-shiviri nolon,
Qorong‘uning achchiq hidlari tiniq,
Sirqiragan og‘riq tovushi, inon.

LUTFIXONIM. "UYG'ON, BOLAM"
(1943)

Yolg'iz sen uxlaysan, yolg'izim bolam,
Maysalar shivirlar, hayqiradi tog'.
Shovullar daryolar, dalalar uyg'oq,
Qasamga botirar tubi yo'q olam.

Umidning ko'zi ko'r, achchiqdir firoq,
Axir men alamman — chinqirar alam.
Bu g'olib turkuda bo'lmish edi jam,
Ona yurtim, elim, toptalgan tuproq.

Uyg'on, uyg'on, bolam, uyg'ongil, ey dil,
Uyg'ondan iborat uyg'otlik dunyo.
Inon, seni o'ylab ketmakdaman, bil.
Sengadir, jon bolam, mushkulot, g'avg'o,
Uyg'on, uyg'on, deya ingraydi navo,
Sengadir bu vatandir, sengadir bu til.

QADIMGI TURKULARDAN

Chiqmasmi quyosh balqib,
Boqmasmi qodir xudo.
Alvido, ona xalqim,
Alvido, ey, alvido.

Po'latxonni o'ldirdi
Oqposhsho jallodlari.
Yer-u ko'kni to'ldirdi
O'zbekning faryodlari.

O'zbekmomo avlodi,
O'zota o'g'lonlari,
Rost bo'ldi yurak dodi,
Qonlarga to'lg'onlari.

Dengizi qurib bitdi,
Daryolari oqmasmi,
Nahot, bizni yer yutdi,
Qodir xudo boqmasmi?

Turkistonni bo'ldilar,
Parchalandi bemajol.
Ustimizdan kuldilar
Ul yovuzlar bemalol.

Chiqmasmi quyosh balqib?!.

* * *

Osmon o'zgarib ketdi,
Bo'zarib ketdi osmon bugun.
Hech narsani anglamay qoldi,
Bulutlarmi bu, to'zonlarmi bu
Ko'zlariga kirayotgan.
G'imirlab qoldi hamma narsa
osmonning tagida.
Xushomad qila boshladilar maysalar,
Shamollar, bulutlar, changlar,
Yana allaqanday narsalar.
Osmon depsinib o'zgarib ketdi,
Bo'zarib ketdi osmon bugun.
O'zligini unutdi osmon...
O'zining borligini his qildi bir vaqt.
Baribirlik o'rnashib oldi uning
cheksizligiga.
Shuning uchun ham xo'mrayib
turishlik endi
Shart emasligin tushundi.
Mana senga, mana senga, mana senga, dedi.
Xuddi pastlarda ivirsib yurgan
odamlarga o'xshab.

YONG‘IN
(1812)

Yuzma-yuz, ko‘zma-ko‘z, izma-iz izg‘ir,
Yovuz yov, qattol yov qonga qonmoqda.
Bu zulmat o‘tlari, bu yong‘in nadir?
Moskva yonmoqda, axir yonmoqda.

Oxiri, bir kuni intiqom bordir,
Kimlar jon uzmoqda, kimlar tonmoqda.
Haqiqat xoch uzra, qayda ul qodir,
Moskva yonmoqda, axir yonmoqda.

Moskva, moskva qutlug‘, sho‘rlik yer.
Bug‘riqqan qo‘shburgut qanotida qon.
Bilgisiz, anglanmas, ey, g‘arib jahon.
Bandangga to‘zim ber, yer ber, iymon ber...
Ayting, kim so‘zlaydir bu kun ham yolg‘on?!
Moskva yonmoqda, yonmoqda axir.

* * *

Ichingdagi g‘amingni ber menga, yo‘lovchi,
Tarozuga qo‘yaylik ikkimiz,
Nihoyat bir fikrga kelaylik oxir.

* * *

Men senga ishonmayman endi,
Bir kun dog‘da qoldirib,
Seni tashlab ketaman, yurak.

* * *

Haykallar ko‘p bizning shaharda,
Parrandalar bilmaydi xolos,
Kimning boshiga o‘tirganini.

VATAN

1. Xotiramning qa'r-qa'rida tarix,
Doim so'zlab turar ezgin hikoya.
Tutqun qush singari qolurman g'arib,
Ruhimga bulutlar tashlaydir soya.

Bot-bot xayolimdan chekindi mubham,
Fikrimdan yulqindi vatan qorasi.
Olisda miltirab so'nayotgan sha'm,
Ko'hna hasratimning mashum yarasi.

Kishanband qilinar qo'llarim go'yo,
Tuproqqa qorisha boshlaydi tanim.
Shu qadar yuragi tormidir dunyo.

Nahot farzandiga — o'ziga g'anim.
O'zi yuragimga jo bo'ldi, ammo
Nechun sig'dirmadi, nechun vatanim?!

2. Ko'ringiz tarixni, ey, buyuk xalqim,
Ko'zimda ertaning sevinchi, xolos.
Nadir, vatan ishqi nadir? U balkim
Ichimni kemirgan qadimiy qasos.

Ko'ringiz tarixni. Ko'z oldim parda.
Qo'limdan uchmoqda bu yer, bu vatan...
Oshno tutinardim po'lat xanjarga...
Jang maydoni sari otilardim man...

Vatan, aylanarman bir keskir toshga,
Qoshingga o'q kabi uchib borarman...
Nahot til boshqadir, nahot dil boshqa?!

Yo'q! Farmon kutarman, eng so'nggi farmon,
Shaklanib qararman qalqqan quyoshga.
Baribir, qasos deb yonarman hamon.

3. Umr deganlari o'tmaqda shoshqin,
Tilla barglarini elab yo'limga.
Sening manguliging beradi taskin,
Erta uzilguvchi mening umrimga.

Vatanim, ovoz ber, kuylayman yonib,
Dunyo jur'atini berding qo'limga.
Men endi angladim-u, bildim dunyoni,
Mana, men tayyorman endi o'limga...

Ey, mening zahmatkash, ey, turkiy xalqim,
Bergil, faqat kuyib kuylamak haqqi.
Ortiq mas'ul etar topilgan bu baxt.
"Ishq so'zidan kuydi bulbul maskani"[1],
Til bilan kuylanmas ona vatanim,
Men seni kuylamak istayman faqat.

* * *

O'ltiribman jar yoqasida —
Hech narsa yodimda yo'q,
Olgan nafasim ila yuzma-yuz.
Hech kimni eslamayman ortiq,
Sendan bo'lak.
Bo'g'zimga tiqilib tirnar
Kuyib ketgan yurakning hidi.

[1] Alisher Navoiydan.

O‘RTADA

(Hazil)

O‘rtada qozon-tovoq,
O‘rtada ot-u eshak,
O‘rtada qosh-u qovoq,
O‘rtada yostiq-to‘shak.

O‘rtada nom-u nishon,
Oq-qoradir o‘rtada.
Xullasi, ikki jahon,
Har balodir o‘rtada.

O‘rtada jabduq-yugan,
O‘rtada yakrang palos.
O‘rtada “sevgi” degan
Bir balo yo‘qdir, xolos.

MUNOJOT

Bag‘rimda g‘ildirar temirchil hayot.
Izg‘itqi chivg‘itda chidamdir boshim.
Faqat sen uyquchan tomirim uyg‘ot,
Qizimning qo‘liga kuch ber, quyoshim.

Bag‘rida laxcha cho‘g‘ aylanadi yer,
Kulinchim, sevinchim, kuyuk ko‘zyoshim.
Faqat sen qizg‘onma, bir kaft mehr ber,
Ilinjim, sig‘inchim — buyuk quyoshim.

SIYOVUSH FARYODI

Sudrar oyog'imdan qaro yer qa'ri,
Muz tog'lari o'sar ko'zim yoshidan.
Dardi yo'qdir ko'k yuzining, yo'q bag'ri —
Inson yuraklarin qahr toshidan.

Nahot parchalanmas, bu toshlar sinmas,
Kimsan, o'zligingdan qil meni ogoh.
Siloxlar, zanjirlar olami tinmas,
Qayon oqmoqdasan, ey, olampanoh?

To'xta, siyovushman, unutding nahot?
Qonlarga botdim-ku, yondim, qirildim,
Sendan, damovanddan tiladim najot.

Ko'z ochib ochunga qayta urildim,
To'xta, Siyovushman, men yana — hayot,
Qayta o'lish uchun qayta tirildim.

* * *

Buncha ko'p so'zlaysan? Nega? Ne uchun?
Axir kerak emas. Axir behuda,
Axir kerak emas, shart emas axir,
Tillaring yam-yashil yaproq singari,
Daraxt emassan-ku, bas qil, gapirma.

* * *

Go'yoki men hamma narsani
Daf'atan topgandekman qaytadan,
Daf'atan mukofot singari
Eski tortgan alamlar haqi.
Ehtimol, hamma narsani yo'qotgandirman,
Daf'atan hamma narsani topganim zamon.

* * *

Uzoqlarda itlar huradi,
Uzoqlarda shovullar suvlar,
Uzoqlarda xayr-xo'shlashib
Ketib borar
Mening gavdam.

* * *

To'xta, deyman, haybatli bo'shliqqa qarab
To'xta, to'xta, deyman, xolos.
Tilimda o'zga so'z o'lgan.

* * *

Men o'z gavdamga boqib
Hayratga tushdim bu kun.
Bu gavda ichinda mozorlar ko'p naqadar.

* * *

Men nochor va mehribon kimsalarni ko'rdim,
Ko'rdim g'olib jallodlarni ham.
Ko'r emasman, ko'rdim.

* * *

Cho'kmakdaman suvlarga,
Ko'klarga cho'kmakdaman,
O'pmakdaman quyoshning oyog'in.

* * *

Ko'nglimga qil sig'mas,
Sen esa bunday shirin,
Sen esa bunday ulkan.

* * *

Qaydadir ko'rgandim men seni, daraxt,
Isib ketdi ko'zim, omonmisan, hey?
Suyub erkaladi qo'llarimni u.

* * *

Ko'zlaring so'qirmi, tun, nima bo'ldi?
Bu holda birovni bosib olasan.
Mana gugurt, yondirib ol ko'zingni.

ABDULHAMID SULAYMON CHO'LPON

Shu ojiz holimda shoirmanmi men?
Cho'lpon

1. Ona tilim, sen ruhimning qanoti,
Abut-turk nafasi, oltoy chechagi.
Xun davridan omon qoldi g'iroting,
Qutlug' Enasoyning ezgu ertagi.

O'rxun bo'ylarida toshga aylanding,
Ko'klarga sanchilding. Turon bo'lding sen.
Mangulik safarga qachon shaylanding?
Qachon bu alamga — kuchga to'lding sen?

Porloq osmoningda quzg'unlar uchdi,
E voh, yog'iylaring soldi yag'moni.
Yog'iylaring jigar qoningni ichdi.
Jigar-qon jarangi tutdi jahonni,
Onasen. Kechirding, qonidan kechding,
Biroq kechirmading aslo yolg'onni.

2. Dunyo oq emasdir, yo'q, qora bardosh,
Kuyib yodimizdan kechkanlar aytsin.
So'zlarida zahar, ko'zlarida tosh,
Elidan, tilidan kechganlar aytsin.

Tunlar bosib kelar dunyo hasrati,
Kunlar gizli tug'yon, bosib kelar she'r.
Nechuk qismat erur shoir qismati?!
Tushlarimni buzar hazrat Alisher.

Yillar bahorimni uchirdi chalqib,
Muzlarga ko'chirdi o'tluq yozimni.
Axtardim muhitda xas kabi qalqib
Men o'z yulduzimni o'z quyoshimni...
Yulduz — sen. Quyosh — sen. Sen — ona xalqim,
Sen uchun sindirdim sinmas sozimni.

3. Oh, shoir qismati yarqiroq, gulgun,
Zavqlarga to'lar u. Bir so'zni izlar.
Dunyoda hech bir zot bilmas ne uchun,
Ayricha kular u, ayricha bo'zlar.

Yo'lsizlik yo'ldoshi, tolei nigun,
Hech qachon to'yarmi axir yovuzlar.
Bu — xalq dushmani, deb tutsalar bir kun,
Baribir, u xalqning nomidan so'zlar.

Boshida qora qish, oppoq bahorlar,
Yuragi yarim-u butun iymoni,
Talotum olamni shivirlab chorlar,
Tani omonatdir, naqd erur joni.
Ko'krak qafasida lovullab porlar,
Buyuk muhabbatning qonli nishoni.

XUDBINGA MARSIYA

Hech kimga inonmadim yorug' dunyoda,
Inonmadim otamga, onamga inonmadim.
Bolamga inonmadim, men — o'zim...
Hech kimni sevmadim, hech kimni.
Boshqasini tilga olmadim, hatto.

Meni tug'arkan onam o'ldi.
Yanada qattiq o'zimni sevdim.
Men yolg'iz yashadim o'zimning
O'limimni kutib yetmish yil.
Mozorimda bir to'yib yig'lamoq uchun.

ABDULHAMID CHO'LPONGA MUXAMMAS

Yuzlashding balolarga, alamlar ichra ko'zlashding,
O'zing kuyding, o'zing yonding, o'zgalar haqqi o'zlashding,
Bu qul bozorinda izg'ib qumrilar kabi bo'zlashding,
Ko'ngil, sen bunchalar nega kishanlar birla do'stlashding,
Na faryoding, na doding bor, nechun sen buncha sustlashding?

Ko'zimga xoki turonim, ozodlik gardi inmasmi?
Bu kunlardan umid yo'qmi? Yo'llaring qaro tunmasmi?
Xazon bo'lgan bahor senmi, nishon hurliqdan unmasmi?
Haqorat dilni og'ritmas, tubanlik mangu tinmasmi?
Kishanlar parchalanmasmi, qilichlar endi sinmasmi?

Alloh-alloh, yig'layursan, bulutdek bag'ri so'zonsan,
Munavvarsan, mukarramsan, risolat tug'ida shonsan,
Sen ka'bamsan — Turkistonsan, xunimsan, sen axir qonsan,
Tiriksan, o'lmagansan, sen-da odam, sen-da insonsan,
Bo'yin egma, kishan kiyma, ki sen ham hur tug'ulg'onsan.

* * *

Ey siz, to'yganlar,
Ey siz, bashang olomon.
Yuzingizga sepaman so'zlarimni...
Ha! Hech narsa yo'q menda,hech narsa.
Xotin — yo'q.
Farzand — yo'q,

Do‘st — yo‘q,
Vatan — yo‘q.
Yo‘qotganlarimning alami — zahri,
Ko‘ksimdagi sanchiq olami —
She’riyatdan boshqa
Hech narsa,
Hech narsa,
Hech narsa.

AY, TURKISTON BULBULI

Ayt, bulbul, bormidir ona maskaning?
Rostmidir, yolg‘onmi o‘shal cho‘pchak ham?
G‘oyat sodda erur kaloming saning,
Kuylaganing kuymi, xolos, yoki g‘am?

Boringda bormidir inja bir najot?
Hofizda ishq, alam, qo‘ldan ketgan erk.
Bag‘riga sig‘dirar seni odamzot,
Hofizni bosishga bag‘irlari berk.

Sen uchunmi, ay, Turkiston bulbuli,
Temir qafas to‘qir pastlar, nokaslar?
Ko‘kdan vahiy keldi — qo‘shiq g‘iroting,
Sochilsin turonga erkin nafaslar,
Ochilsin qo‘llarning haqiqat guli.
Uch, ishq, alam bo‘lsin qanoting.

USMON NOSIRGA MUXAMMAS

Qachon keldim, qayon ketdim, yo‘limga temir to‘r etding,
Yurak, senmi, falak, senmi, zorimga buncha zo‘r etding,
Soqov devor uza yozdim, qo‘limni qonli bo‘r etding,
Yurak, sensan mening sozim, tilimni nayga jo‘r etding,

Yurak, sensan ishqibozim, ko‘zimga oyni berkitding.
Dorulomon zamon o‘lmas, qutilmas sangi gumrohdan,
Bu sotqinlar hamon bordir, ayurgay mangu tuproqdan.
Bo‘g‘zimda qotdi jonim, hey, qotilni to‘xtat bo‘g‘moqdan,
Senga tor keldi bu ko‘krak, sevinching toshdi qirg‘oqdan,
Tilim charchar, ajab, gohi seni tarjima qilmoqdan.

Oyog‘im yo‘q, qo‘lim yo‘qdir, yiqitgayman bu doringni,
Yurak sensan, tavob etgum yuvib dard-u g‘uboringni,
Ko‘rarsen bir kuni bo‘zlab o‘shal turkiy diyoringni,
Sen, ey sen, o‘ynoqi dilbar, zafardan izla yoringni,
To‘lib qayna, toshib o‘yna, tiriksan, kuyla boringni.

Alvido, dil, agar dunyo g‘araz bo‘lsa, maraz bo‘lsa,
Alvido, til, qani hurlik, qani erkin nafas bo‘lsa,
Alvido, el, itoat et, vatan ramzi qafas bo‘lsa,
Itoat et, agar sendan vatan rozi emas bo‘lsa,
Yoril, chaqmoqqa aylan sen, yoril, mayli, tamom o‘lsam.

* * *

Uxlama, sen, haqiqat,
Chidam bilan borib qayt,
Oq bo‘lsin bosgan izing,
Suyib aytgin, tuyib ayt,
Lovullab tursin so‘zing.
Kuyib aytgin, to‘yib ayt,
Uxlamagin sen o‘zing,
Uxlamagin sen faqat.
Mudroq qo‘rqoq jonlarni,
Uyqudagi muvaqqat
Basirlarni uyg‘otgin,
Noraso makonlarni,
Qasrlarni uyg‘otgin.
Uyg‘otgin zamonlarni,

Asrlarni uyg'otgin,
Uxlamagin sen faqat.
Chidam bilan borib qayt,
Elni to'plab, uyg'otgin,
Zahar ho'plab, uyg'otgin.
So'zlaringning quyoshi
Achchiq yoshga aylansin,
Botirlarning ko'z yoshi
Bir kun toshga aylansin...
Uxlamagin sen faqat.

DORNING OG'OCHI

Akif Bag'irga

Assalomu alaykum, dorning og'ochi.
"Kuntug'mish"dan.

Ko'nglim qorong'udir, tevarak tutun,
Yolg'iz boshim uzra uvillar shamol.
Ko'zlarimni g'ajir allaqanday tun,
Sen kimsan, nimasan, sen kimning boji?
Aqlimni g'ijimlar yalang'och savol,
Assalomu alaykum, dorning og'ochi.

Turkiylar, aytingiz bizda nima bor?
Bizda bor mute'lik, qullik, ozorlar,
Bizda bor qo'llardan ketgan ixtiyor,
Manhus kimsalarning talon-taroji.
Hayqirib yotibdi buyuk mozorlar —
Assalomu alaykum, dorning og'ochi.

Turkiylar, aytingiz bizda nima yo'q?
Bizda yo'q ittifoq, bizda yo'q birlik,
Oyoq ostindadir insoniy huquq,
Bu turkiy olamning qutlug' me'roji.
Oyoq ostindadir muqaddas hurlik,

Assalomu alaykum, dorning og'ochi.
Yovuzlar kuchlarin to'plab shaylanar,
Ichi to'la g'azab, qo'llarida tig',
Zamonlar aylanar, osmon aylanar,
Ona Turkistondir turklarning toji.
Aytingiz, qandayin yashaymiz ortiq,
Assalomu alaykum, dorning og'ochi.

Non so'rab kelganga joningni berding,
Sendadir matonat, sendadir toqat,
Qon so'rab kelganga shoningni berding,
Yurtingni berding sen qattol xiroji,
O'ldirsang o'zingni o'ldirding faqat,
Assalomu alaykum, dorning og'ochi.

Magar ohing bilan olamni to'ldir,
Tinglamas allohing nolalaringni.
Vahki, otangni ot, onangni o'ldir,
Ey, qora dunyoning qora muhtoji,
Bo'g'izla tolesiz bolalaringni,
Assalomu alaykum, dorning og'ochi.

* * *

O'zingni ayama, borayotgan ildiz,
Yulg'ichlar yo'lda tutib ursalar-da,
Qora sovuq yula ketgan yaproqlarning yuziga.
Shoxlaringni bo'shatsalar-da,
Qoqib shamollarda o'g'rilar.
Ko'zlaringga suqsalar-da palidlar
Harom qo'llarini,
Og'riqning o'zigacha sanchsalar-da pichoqlarini,
O'yib o'z ismlarin.
O'zingni ayama borayotgan ildiz,
Borayotgan hasrat,
Borayotgan vatan,
Ona Turkiston.

* * *

Yana jimlik. Yana sukunat.
To'lib ketar hech narsadan dil.
Hech narsadan boshlanadi gap,
Hech narsani so'zlar yana til.

Qichqiradi bezabon hulyo,
Sukunatda qiynaladi jon.
Hech narsani tan olmas go'yo
Hech narsadan boshlangan jahon.

YONAYOTGAN AYOL

Tentirar kasofat, g'olib ahraman,
Haqorat jar solar bunda bemalol.
Qayon ketmakdasan yonib, qahramon,
Qayon ketmakdasan, ey yong'in — ayol.

Ko'ksingda harorat so'nib bo'ldimi,
Ko'zingda so'nggi sham o'chdimi, nahot?
To'xta! Qolgan — qoldi. O'lgan — o'ldimi?
To'xta. Kuyma, deyman. Bu kuygan — hayot.

Yonayotgan ayol, shafqat qil, uyg'on,
Yonayotgan ayol. Hurmuz — panohing,
Bolangga qaragil, u — tirik tug'yon.
Tirik jasoratdir, tirik allohing,
Qani, turkiylaring, turoning qani?!
Yonayotgan ayol, yondir dunyoni.

* * *

Biz sumar nishoni, abut turk qoni,
Biz o'zbek, jahonga qudrat-u ko'rkmiz.
Turksug'ut makoni, Samandar joni,
Biz — Turon, Turkiston, biz asl turkmiz.

* * *

So‘nmas ruhimizda matonat aslo,
Ajdodlar sharafi abadiy yashar.
Mukarram ziyosan, ey turkiy dunyo,
Qo‘llagil, allohim, qo‘llagil, bashar.
So‘nmas ruhimizda matonat aslo.

Yolg‘iz allohimiz, chorlar istiqlol,
Muborak siymolar, botirlar chorlar.
Yolg‘iz panohimiz, chorlar istiklol,
Jahonga, insonga muhabbat porlar,
Yolg‘iz allohimiz, chorlar istiqlol.

Uyg‘on, turk dunyosi, muqaddas Turon,
Quyosh, boshimizdan sochgil qutlug‘ nur.
Asl turk yurti bu, qadim, navqiron,
Temur umidi bu, Turkiston mag‘rur,
Uyg‘on, turk dunyosi, muqaddas Turon.

ADASHGAN RUH

1. Quyoshning yog‘dusi qoradir,
Yulduzlar muzlardir to‘kilgan.
Bu daryo uzangan yaradir,
Daraxtlar egilgan, bukilgan.

Yulduzlar muzlardir to‘kilgan,
Toshlardek qotmishdir tumonlar.
Yerlarga tikanlar ekilgan,
Ekilgan yolg‘onlar, gumonlar.

Bu daryo uzangan yaradir,
Hasratdir tinmagan hech qachon.
Jimirlab qaylarga boradir,
Boradir bezabon, bemakon.

Daraxtlar egilgan, bukilgan,
Yer tishlab yotibdir yaproqlar.
Toshlarga mixlangan, chekilgan
Lochinlar, kaptarlar, chorloqlar.

Quyoshning yog'dusi qoradir,
Quyoshning sochini o'rgayman.
Nahotki eng so'nggi choradir,
Adashgan ruhni men ko'rgayman.

2. Toshlardek qotmishdir tumonlar,
Bulutlar falakning ohlari.
Kechmakda eronlar, turonlar,
Tubanda qorong'u chohlari.

Bulutlar falakning ohlari,
Ingrog'i, singrog'i uchadir.
Tubanda musibat tog'lari.
Qora qon ichindan kechadir.

Kechmaqda eronlar, turonlar,
Sudralib, paypaslab, itarib.
Kechmaqda bo'ronlar, suronlar,
Eng go'zal, eng bag'al, eng g'arib.

Tubanda qorong'u choxlari,
Qa'riga chaqirar, yaltirar.
Itlari, otlari, zog'lari,
Xarsangga aylanar, qaltirar.

Toshlardek kotmishdir tumonlar,
Bilgisiz ochunning asari.
Tubanda gunohlar, iymonlar,
Adashgan ruh kezar sarsari.

3. Yerlarga tikanlar ekilgan,
Toshlarga, xarsangga sanchilar.

Turkiston tug'lari tikilgan,
Betlashgan joni bor yanchilar.

Toshlarga, xarsangga sanchilar —
Cheki yo'q yo'qlikning nolasi.
Diydalar tomchilar, qamchilar,
Sabrning — odamning bolasi.

Turkiston tug'lari tikilgan,
Vatansiz kaslarning yo'li berk.
Zorlangan, zo'rlangan, to'kilgan,
Erkidan ayrilgan qutlug' erk.

Betlashgan joni bor yanchilar,
Tuyoqlar ostida bo'zlaydir.
Jangchilar, pulchilar, tankchilar,
Yog'iylar yolg'onni so'zlaydir.

Yerlarga tikanlar ekilgan,
Dov uchun, ov uchun, g'ov uchun.
Turkiston tug'lari tikilgan
Yov uchun, yov uchun, yov uchun.

4. Ekilgan yolg'onlar, gumonlar,
Tarixning temirdan devori.
Akkadlar, sumarlar, yunonlar,
Bilingiz, bu turon diyori.

Tarixning temirdan devori,
"Yilt" etgan bir ziyo ko'rinmas.
Moziyning ko'milgan mozori.
Atrofda tirik jon urinmas.

Akkadlar, sumarlar, yunonlar,
Turkiylar, nahotki kechmishdir.
Ketmishdir, yitmishdir jahonlar,
Yo'qlikning zahrini ichmishdir?!

Bilingiz, bu turon diyori,
Qonlari ko‘klarga sochilgan.
Yo‘q erki, yo‘q do‘sti, haq yori,
Boblari kenglikka ochilgan.

Ekilgan yolg‘onlar, gumonlar,
Bergaydir mashaqqat mevasin.
Bu tunlar, bu kunlar, bu tonglar,
Men va sen, men va sen, men va sen

5. Hasratdir tinmagan hech qachon,
Manglayga yozilmish bu oyat.
Muhaqqah yozmishdan kim qochg‘on,
Kim ko‘rgan? Kim bilgan, nihoyat.

Manglayga yozilmish bu oyat,
Hukmdir, muhrdir, o‘chmasdir.
Zulmatda yo‘q erur hidoyat,
Zimiston ranglari ko‘chmasdir.

Muhaqqah yozmishdan kim qochg‘on?
Borini zabtiga olajak.
Tiriklik tilsimin kim ochg‘on?!
Qulfiga kim kalit solajak?

Kim ko‘rgan? Kim bilgan nihoyat?
Qorayib yaltirar lojuvard.
Shoirda bormidir rioyat,
Ko‘zida, so‘zida so‘ngsiz dard.

Hasratdir tinmagan hech qachon,
“Yilt” etgan ziyodan yo‘q asar.
Ul mavjud, nomavjud, jon-bejon,
Adashgan ruh kezar sarbasar.

OZARBAYJON. 1991

Anglatgali anglagan boshlar qani,
Yig'latgali yig'lagan yoshlar qani?
Sen yolg'iz emassan, oh, Ozarbayjon.
Irg'itgali chinglagan toshlar qani,
Sen yolg'iz emassan, oh, Ozarbayjon.

Malomatlar yurakka yetdi oxir,
Pichoqlari so'ngakka yetdi oxir,
Ayting, kimlar tilakka yetdi oxir?
Yolg'iz ohim falakka yetdi oxir,
Sen yolg'iz emassan, oh, Ozarbayjon.

Bu olamda gunohim bor, yolg'izim,
Yuragimda bir ohim bor, yolg'izim,
Turk dunyosi — panohim bor, yolg'izim,
Yolg'iz mening allohim bor, yolg'izim,
Sen yolg'iz emassan, oh, Ozarbayjon.

Bir taraf amniyat, bir taraf qiron,
Bir yon Turkistondir, Turkiya bir yon,
Bir taraf farovon, bir taraf uryon,
Yolg'iz nechun mening ko'zlarim giryon?
Sen yolg'iz emassan, oh, Ozarbayjon.

Yondi davr-u yondi davron, Allohim,
Yondi jonu yondi jahon, allohim,
Yondi dinu yondi iymon, allohim,
Yondi, alloh, yondi turon, allohim,
Sen yolg'iz emassan, oh, Ozarbayjon.

THAKURGA IQTIBOS

Suyganlaring tashlab ketsalar,
Hech gap emas, qayg'urma zinhor.
Armonlaring qonlar yutsalar,
Balchiqlarda yotsang xor-u zor.
Hech gap emas, qayg'urma zinhor.

So'lg'in kunning, oyning huzuni,
Olis yo'lda sovuq kuz tuni,
Zulmat ichra yolg'iz va nochor,
Achchiq sellar qaqshatsa seni,
Hech gap emas, qayg'urma zinhor.

Tovushingni tinglab qushlar ham,
Hayvonlar ham kelsalar, agar
Kelmas bo'lsa do'stu birodar,
Yaqinlaring kelmasa bir bor,
Hech gap emas, qayg'urma zinhor.

O'qlar uchar, chinglar shamshirlar,
Atrofingda soqov bir devor.
Bog'lab olsa seni zanjirlar.
Yo'q bo'lsang-da, yo'qliqda agar,
Bor bo'l, do'stim, qayg'urma zinhor.

* * *

Inondim shamollarga, yomg'irlarga inondim,
Chaqmoqlarga inondim. Yondim.
Telbalarcha inondim men quyoshga.
Derazamdan kirib keldi ruhlar.
Zulmat bilan, zulm bilan sirlashdim.

ABDURAUF FITRAT

Nega seni chulg'ab oldi buncha tikonlar?
Nega chiqdi yuragingdan yuzga bu qonlar?
Abdurauf Fitrat

1. Ajab mudhish qora tun kafan tutar,
Bir zamon tinmaydir izg'irar shamol.
Daryo ko'piradir, odamni yutar,
Ul go'zaldir, ul — irganchdir, ul — xayol.

Riyozat qamchisi kabi savaydir,
Alkan yomg'ir buzg'un tanizorimni.
Ulug' turkistonni kimlar sevmaydir?!
Fir'avnlar sevmas mening borimni.

Firoqning nag'masin chalar nay siniq...
Isrofning ichindan silqir bu navo,
Taralar, huv, cho'kkan tog'lardan tiniq:
Riyolar, rishvatlar... Zaharli havo.
Azon tovushini tinglayman og'ir.
Turkiston. Qora tun. Shamol va yomg'ir.

2. Aytadir oy dardin bulut qo'ynida,
Bulutlar hurpaygan, na-da xoradir.
Dorlari muhaqqaq azlom bo'ynida,
Unutilgan, xo'rlangan xalq boradir.

Rahm qildi menga manfur jaholat,
Alam ortgan karvon borar mung'ayib.
Urinadir, surinadir, bu holat
Faqat paydo bo'lar va birdan g'oyib.

Fasiqalar ko'rinar sochlari olov,
Ivirsir gumrohlar ko'zi-qo'li qon...
Turkiston, Turkiston, mukarram yalov.

Rad etdimmi seni, qoldimmi bejon?
Amalim sha'mlari so'ndimi, ona?
Tilagim yulduzi to'ydimi, ona?

3. Ayriliq shamshiri boshimda sindi,
Borligim chopildi. Ichdim qonimni,
Dunyo tarixini o'qib yukindim,
Uyqudan uyg'otdim turkistonimni.

Rizqimizni axir kimlarga berdik,
Axir, odam edik, muhtoj, notavon.
Ular xirmon-xirmon, biz nushxurt terdik.
Faryodimiz yetib bormas hech qachon.

Falokat ustiga falokat tutdi,
Intiqom, intiqom, dedim, yugurdim...
Turkiston, Turkiston, Turkiston o'tdi —
Razolat qabrinda bosh egib turdim.
Ay, ulug' tog'larim, ay, shonli Turon,
Tokay uyg'onmassan, ay, qonli Turon!

ABDULLA QODIRIY G'AZALIGA MUXAMMAS

Yil o'tub, yillar o'tub tobora loyga botamiz,
Iblisning suprasinda vahdad mayini totamiz.
Onomiz balki gumroh, balki so'qirdir otamiz,
Ko'r, bizim ahvolimiz, g'aflatda qanday yotamiz,
Joyi kelgan chog'ida vijdonni pulga sotamiz.

Bizga or bo'ldi nahot, yorab, vatanni kuylamak,
Zor-u zor-u bu zamin yetti falakni o'ylamak,
Qizimizga o'rgatub, "suf" deb jahonni bo'ylamak,
O'g'limizga na adab, na fan, na yaxshi so'ylamak,
Na xudoning buyrug'i bo'lg'on ulum o'rgotamiz.

O'ltirur el xonavayron, botgan quyoshga ko'z tikib,
Kulfat-u somon yig'ib qolmish yana bo'ston ekib,
Nechalar narvondadur, nechalar yitmish ko'z tegib,
Hamda har kun takyalarda nasha, ko'knori chekib,
Bachchaga kokul solib oh-voh ila o'ynotamiz.

Ne balomiz biz o'zi, to'rdamiz, ayvondamiz,
Ne kasofat fe'li bu — qurdamiz, tayvondamiz,
Benazir parrandamiz, qo'rdamiz, hayvondamiz.
Qorimiz, boyonmiz, balki bu vaqt ahvondamiz,
Nogahon ko'rsak agar bir besoqolni qotamiz.

Qaydin ey sen takabbur, ko'ksimni mixlab o'yguvchi,
Ay yaloqxo'ri balo, ichib qonimni to'yguvchi,
Bormikan olam aro ko'ngilga malham qo'yguvchi,
O'rtadin chiqsa agar millatni yaxshi suyguvchi,
Biz ani dahriy sanab, to'foncha birla otamiz.

Aqrabolar — ko'z ochiq, dunyoi dun foniy biling,
El uchun, alloh uchun jonni tiling, tanni tiling,
Kelingiz, ul kun o'tdi, qullik, asirlikni siling,
Kelingiz yoshlar, ziyolilar bu kun g'ayrat qiling,
Uxlag'onlarni agar qodir esak uyg'otamiz.

SENSIZ

1. Sovuq. Atrof temir. Qo'limni ochdim,
Yelkamda chatnadi qaynoq qo'rg'oshin...
Vayrona qa'ridan ko'klarga qochdim —
Arzonga oldilar majnunning boshin.

Rahmsiz olomon, sizga ne kerak?
Angladim, jismimni, ruhimni bog'lar.
Vahiy keldi menga, chirpandi yurak,
Aks-sado berdi muqaddas tog'lar.

Farog'at zirvasi. Olam — bilgisiz,
Oxiri sen kelding. Xayolga tolding.

Vodiy og‘ushida so‘zsiz, belgisiz,
Asta odimlar-la ko‘zdan yo‘qolding.
Faqat qayga ketding, qaylarda qolding,
Oh, qanday yashayman sensiz — sevgisiz.

2. Sohilda bir o‘zim. Dengiz qorong‘u.
Yelkansiz kemaning ichinda shubham.
Vahima shiviri, bo‘g‘zimda og‘u,
Aqlim bir falokat sezadir mubham.

Rangi o‘chgan osmon xunuk g‘uldirar,
Achchiq chirqiraydir noma’lum bir qush.
Va yonimda qonli buloq chuldirar,
Atirgullar, sening gullaring behush.

Feruza, zumurrad gullaring payhon.
Oh, tushding kemadan. Karnay chaldilar,
Va ko‘zga ko‘rinmas qo‘llar shu zamon
Ag‘dardilar meni, kishan soldilar.
Faryodim ichimda, otma gulingni...
Otma, yolg‘izlikdan baxtli qulingni.

3. So‘ldirma gulingni, ilohim, yonsin,
Yeru osmon ko‘rsin ko‘z yummay bedor.
Vaqt — ulug‘ hakam. Ruhing uyg‘onsin.
Asriy umidim — sen. Sen borsan. Sen — bor.

Roviylar ne uchun? Haq va haqiqat!
Asirlik zanjirin parchalab tashla.
Vujudingni yoqsin alamli fikrat,
Ayon haqiqatga, haq yo‘lga boshla.

Fursat o‘tmakdadir. Vaqt bu — beomon,
Omonat dunyoda omonat odam —
Vijdon shevasi bor, mehrobi iymon —
Asl insonlarin chorlaydi bu dam.
Falakka sanchilib qolgan ko‘zim bor,
Olovlar, chamanlar ichra o‘zim bor.

TANGRI SOG'INCHI

1. Bir zamon falakning ko'zlari so'ndi,
Asta qora kiydi mudragan jahon.
Ruhimning asrlik muzlari sindi,
Nimadir bo'g'zimni kesdi beomon.

Otildim, noma'lum, qorong'u nigoh,
Birov qulog'imga sovuq shivirlar.
Aziz bir tovushni esladim nogoh,
Rangin ovozdir bu, go'zal g'imirlar.

Naqadar go'zaldir bu chirkin tovush.
Ohang vujudimni chirmadi butkul.
Bo'g'ildim, ingradim, titradim behush,
Ojiz badanimga suykandi bir gul.

Nadir bu?! Qo'limda qora loladir,
Ul ko'zdan g'oyibdir. Tirik noladir.

2. Bosh egdi qoyalar, tog'lar cho'kdilar,
Axir qismat parchin, xilqat beshumor.
Romillar, daholar borin to'kdilar —
Nahot, mangulik yo'q, fano manzil bor.

Og'ir-og'ir odimlaydir bu karvon,
Buyuklar omonat, pastlar omonat.
Afsuslar omondir, xiyonat omon,
Raddi balo bo'lgur kaslar omonat.

Nechun boshim uzra qora shamollar,
Osmonda ignadek nur yo'qdir, nechun?
Balki sudrar meni mudhish xayollar.
Ochg'il ko'zlaringni, ey so'ngsiz ochun,

Naqadar g'aribsan, bormi bir so'zing?
Uchib kel, malagim, madad ber o'zing.

3. Ey, dil, orom nadir? Kechding dunyodan,
Ko'zing qonli, bag'ring somon - yanchilding.
Sen qo'rqmading haqiqatdan, bu yovdan,
Xiyonatning botqog'iga sanchilding.
Tangritog'dan vahiy keldi, qayrildim,
Oltinlarga - temirlarga bosdilar.
Men bilmadim, sen bilmading, ayrildim,
Oyog'imdan haq doriga osdilar.

Izg'irin turondan, to'fonlar chindan
Yomg'irli yolg'izlik, g'ubor ichindan,
Munojotlar qildim, qaqshab sig'indim.
Shaftolirang olam nayza uchinda...
Dunyolari yolg'on, men o'ldim chindan...
Ulug' tangrim, seni achchiq sog'indim.

MUNAJJIM

Sen mening erkimsan, mening qafasim.
Asqad Muxtor

1. Ma'suma binafsha yaproqlarida
O'zing yuz ko'rsatding. Ma'sum boqursan.
Telba yuragimning so'qmoqlarida
Azobimning chaqmoqlarin chaqursan.

Bahorning o'tkinchi, gizli sirlari
Aniq nishon olur, o'char nafasim.
Rostin ayt, yolg'on de bu gaplar bari,
Mening erkim sensan, mening qafasim.

O'g'ri urib kuygan kulbam sochilgan,
Taqdirning o'yini cheksiz naqadar.
Ammo yo'llarimda bir bog' ochilgan
Baxtdan baxtsizlikdan bermoqda xabar.

Ajalning o'rog'i mangu osilgan
Ranju malomatdan asrar bu maqbar.

2. Munajjim ko'klarga termular hayron,
O'lmas haqiqatning kalomin aytar.
Taskin izlar yig'lab, vujudi vayron,
Alamzor bog'iga ezilib qaytar.

Behuda, dunyoning kibr-u havosi.
Achinmakka arzimaydir shaytanat.
Razil olimlarga, sotqin, hayosiz,
Maddoh shoirlarga to'lgan saltanat.

O'rtada taloshdir kechmish va bu kun
Tuproq sochar, ingrar, qo'ltig'ida tig'.
Axir haqiqat bor, valvala nechun?
Buncha osmon yiroq, buncha yer qattiq?!
Aql-u hushdan ayro, vola munajjim,
Rad bo'lmish olamdan ko'zin yumdi jim.

3. Muhabbat ne o'zi? Nadir sadoqat?
O'zingdan ming bora so'rarsan o'zing.
Titrab toqatingga tilarsan toqat,
Aytursan xilqatga ilohiy so'zing.

Bu dunyo barchadan qolur begumon,
Armon sahrosi bu, alam cho'li bu.
Ruhingni so'ndirma, allohga inon,
Madad ber o'zingga, iymon yo'li bu.

O'lim kabi haqdir bu — muhabbat, bas,
Tanho seni deya dunyolar kezdim.
Ayirma borliqdan meni bir nafas
Buzdim tanizorim, ko'zimni ezdim.
Yorildi falakda oftobim, mohim.
Raqibimga omonlik ber, Allohim.

TAVBA

1. Dodimni eshitgil, qodir Allohim,
Ishq sensan, oshiq ham sen, men qulingman,
Loyiqman qahringga, do'zaxim-bog'im,
Omonat devorman, o'tman, kulingman.

Rub'i maskun ichra sayyod, o'zim sayd,
Ortiq madorim yo'q, voqifsan axir.
Manglayda yozilgan farmoningni ayt,
Da'vat qil, gunohkor bandangni chaqir.

Iymon ber ruhimga, jismimga jon ber,
Loyimni qorishtir, poklab ber menga.
Ojiz tomirimga pokiza qon ber,
Ravshan qil, qoramni oqlab ber menga.
Oxirat ilmidan qil meni ogoh,
Murodim sha'mini so'ndirma, alloh.

2. Moziyga urilib sinar ovozim,
Umr o'tib borar benaf, benavo,
Nahotki bu — qo'lim? Bu — mening sozim?
Allohdan so'rayman: — nechun bu jafo?!

Jami judoliklar jonimga yetdi,
Ol, deyman, allohim, omonatingni.
"Tavba qil", — dedi ul, bir kitob tutdi —
Muroding mustajo, mingil otingni,

Ummonlar yo'lingda, jangal yo'lingda,
Noma'lum har joyda qurilgan doring.
Olamning kaliti sening qo'lingda,
Jafo habibingdir, xiyonat — yoring".
Allohim, lahza — men, sen ersa mangu,
Taskin berganingmi, shafqatingmi bu?!

3. Semurg‘ qushim, podsho qushim, xush kelding,
Yetti gumbaz, yetti vodiy sarvari.
Vasling ne’matidan bahravar qilding,
Intizor joningman, yo‘lsiz, sarsari.

Nola aylab semurg‘ dedi: — ey, bedor,
Chorlar seni biruborim. Bor. Ishon!
Sen fano vodiysi, haq qoshiga bor,
Yer-u osmon cho‘kmakdadir benishon,

Vahshiy dunyo, qonxo‘r dunyo quturdi,
Inson faryodiga to‘ldi koinot.
Nabiylar, dohiylar, shoirlar turdi,
Chora, chora, deya so‘rdilar najot...
Allohim, bilursan qay sori ketdim,
Allohim... Men o‘ldim... Men senga yetdim...

UCHLIK TURKUMLAR

1

1. Chag‘alayim, mehmon chag‘alay,
   Bu yurtga qaydan kelding.
   Nechun kelding, qurbon chag‘alay?

2. Sen o‘ylagan omad yo‘q,
   Sen so‘ylagan qomat yo‘q,
   Sen bo‘ylagan bir mard yo‘q.

3. Chag‘alayim, seni suyganlar yolg‘on,
   Seni deb kuyganlar yolg‘on,
   Senga to‘yganlar yolg‘on, chag‘alay.

4. Toshingni tayirdilar,
   Qoshingni qayirdilar,
   Seni mendan ayirdilar, chag‘alay.[1]

5. Unut bo‘lgan chag‘alayim,
   Unutilgan qonli dunyo bu.
   Dunyo najot izlaydir.

6. Chag‘alayim, u dunyoda
   Sen yolg‘iz, men-da yolg‘iz.
   Yolg‘iz allohim, yolg‘iz.

2

1. Mana zahar. Hozir ichaman,
   Ketaman men sizning hayotingizdan.
   “Sevaman”, deb sizni aldadim.

[1] Ba’zi manbalarda ushbu turkumdagi dastlabki to’rtta uchlikning yozilish sanasi “1989” ko’rsatilgan.

2. Men yig‘ladim tushimda,
To‘yib-to‘yib yig‘ladim.
Yoningizga endi bormayman.

3. Men — g‘olibman buyuk — lashkarman,
Bosib oldim sevgi yurtini,
O‘zimning qalbimni o‘chirdim.

4. May ber menga, achchiq sharob ber.
Do‘sti g‘arib, xush qol bu kecha.
Yulduzlarga seni topshirdim.

5. Yulduzlarning rahmi keladi,
oy mo‘ltirab qaraydi menga,
yuzlarimni silaydi og‘och.

3

1. Sochimni yuladi izg‘irin,
Qorlar pichirlaydi boshimda,
Ko‘zimga sanchilur ismingiz.

2. Ichimdan dunyolar kechdi,
Ichimda titraydi zaminlar.
Oylar kuydi, portladi quyosh.

3. Baxtsiz shahar yupun uxlaydi,
Changlar yutib uxlar boyaqish,
Kir-chir, sochlari to‘zg‘igan bola.

4. So‘z meni ta’qib qilar,
chirqiratar o‘yib ko‘ksimni,
sen kimning bojisan, ey so‘z?

5. Xayr, qo‘llarini silkitar bulut,
miyig‘ida kulib qo‘yar oy.
Shivirlar Ilash To‘ychi degan shoir.

6. Men uzoq uxladim,
Bir asr uxladim, nega meni —
Nega siz yashinni uyg'otmadingiz

4

1. Men sizni sevaman, Alloh kechirsin,
Men sizni sevib o'lganman.
Kechiringiz o'lgan odamni.

2. Men suvman — hali hech kim ichmagan,
kuygan kitobman men —
Hali hech kim o'qimagan.

3. Ishonch yo'q hech kimga. Bu qanday dunyo?
Yashab yasholmaysan — bu qiziq.
Tashlab tashlamaysan, undan qiziqroq.

4. Uyquning daryosida cho'mildim,
yotaman uyquning sahrosida,
Men qanday bolaman? Balo — man!

5. Yillar ko'zimga sachradi,
jigarimga o't qo'ydi oylar.
Kunlarimni sanadim sensiz.

5

1. Shamolga osilib yashadim,
Mingga kirdim, chiridi jismim,
So'ngaklarim oqardi qaqshab.

2. Dunyosiga qo'ydim qo'limni,
oyog'imni bosdim yuziga.
Ko'zlarimni yumdi bu dunyo.

3. Bir piyola may ber, azizim,
bag'rim yonib bitdi, kul bo'ldim.
Chivg'inlarga sotdim o'zimni.

4. Qorlarga ko'mildi bog'larim,
tog'larimga cho'kdi osmon.
Sen yo'qsan. Sen yo'qsan? **Sen yo'qsan!**

5. Balki men majnunman,
Balki siz — laylo,
Balki men mahkumman, **balki siz — jallod.**

6

1. Ayting, nima qilay,
Qanday yashayin?
Nima qilib qo'ydim o'zimni?

2. Ko'chalarda itdek sang'idim.
G'ingshidim o'tgan-ketganga,
bog'lab oling itingizni.

3. Ko'zimga bir yulduz yiqildi,
Eridi, aylandi bir toshga,
teshib o'tdi kaftimni.

4. Eh, qandayin kun edi, bilmam,
Toshoynaga urilib sindi
uchib-uchib yurgan musicha.

5. Sahrolarning podshosi qani?
Qani vishillagan yovuz ilonlar?
Nahotki bir o'zim qoldim sahroda?

7

1. Soat sindi, soatlar sindi,
Vaqtning iskanjasida
O‘lib ketdi soatsoz bevaqt.

2. Siz — mening nomusimsiz,
pichog‘imsiz — bo‘g‘zimda qotgan,
Ichilmagan qonimsiz mening.

3. Yo‘l ko‘p, yo‘llar ko‘p dunyoda,
har bir yo‘ldan ko‘rinar lekin
so‘nggi yo‘l.

4. Bir narsa dedimmi sizga?
Sevaman, deb aytdimmi?
La’natlayman o‘zimni o‘zim.

5. “Seni oq qildim!” Dedi dunyo,
oqardim, oqarib ketdim.
Oqib keldim oyog‘ingizga.

8

1. Hech kimga ishonmang. Hammasi yolg‘on,
Hech qachon ishonmang siz menga,
Men baribir sevaman axir.

2. O‘zimni kechirmayman, yo xudo,
sizni kechiraman yer o‘pib.
Men sizni o‘zimga bermasman.

3. G‘amlar cho‘kdi mening qalbimga,
g‘amlar mening dustu yorimdir.
Bu g‘am ichra siz yo‘qsiz, xolos.

4. Isfandiyor, do‘stim, bas endi,
men sizlarni tashlab ketaman,
men sig‘mayman endi dunyoga.

5. Men hech kim emasman — amirman,
jinnistonning sohibqironi.
Hukmimni tinglashur hangrashib.

9

1. Meni haydang, meni yo‘latmang,
Oyga qarab uvlagan,
Quturgan itman, axir.

2. Ey voh, endi nima qilamiz?
Bu yo‘lning boshi yo‘q, oxiri ham yo‘q.
Muzliklarda qoldik dildirab.

3. Lo‘lini eshagini sug‘orib,
pulini ol, degan, ey shoir.
Muravvat bor ekanmi lo‘lida?

4. Ming yil kimni izladingiz,
ming yil sizni izladimmi men?
Bir zumda yo‘qotmak uchunmi?

5. Hech bir inson anglamas bizni,
itdek tepib o‘tar kiborlar,
Eh, ular, naqadar baxtsizdir ular.

10

1. Qurbonlikka meni so‘ydilar.
Assalomu alaykum, sevimli jallodim.
Endi men uchun jallodim yashar.

2. Sizni tanimayman, sizni bilmayman,
siz mening yo'qotgan oltinim,
baxtsizligim — siz mening.

3. Aldadilar meni beomon,
sevib aldadilar sevganlarim.
O'ldirdilar sevib-sevib.

4. Siz qachon keldingiz dunyoga,
dunyo qachon sizni yaratdi.
Hech narsa yo'q. Siz bor va men bor.

5. Bu kim? Peshonasi sho'r bola,
javob bering unga, o'ynasin,
baxtli bo'lsin, marhamat qiling.

11

1. Men bilmayman yoshim nechadir?
Hozir so'nggi nafasdir balkim.
Xayrlashib olaylik. Men — yo'q.

2. Men qaqshab yig'ladim, chirpandim,
uchib tushdim yerga falakdan.
Xayrlashmak uchun siz bilan.

3. Xayr endi, xayr mehribon,
sizni topgan onim yo'qotdim.
Bir so'z qoldi menda: — xayr.

4. Hey, ko'zingizni oching,
nega jim turibsiz ostonalarda
g'ariblar dunyosi, qullar dunyosi.

5. Tonggacha suhbat qurdim daraxtlar bilan,
tushlarimni suvlarga aytdim.
Kel, yo'qolib ketma, dedilar.

XIYONAT

1. Tong qachon otadi. Yildan uzun tun.
Nahsga botib shahar uxlaydi.
Bulg'angan daraxtlar, ko'kargan suvlar.

2. Buncha uyatsizsan, ey shahar?
...Yolg'onning xotini...
...Yolg'onning eri...

3. Men sinovdan o'tdim,
sindirdim bardoshimni,
rahmat senga, bevafo.

4. Ay bechora, ay buzuq ayol,
o'zingni aldaysan bunchalar?
Buncha toza, bunchalar haqsan.

5. Qarigan gul, belangi xonim,
tevarakka pista ulashar,
tirsagimni chimdir tarsillab.

6. Sen kimsan menga, bilmam, bevafo?
Endi onam bo'ldingmi mening?
Singlim bo'ldingmi endi?!

7. G'ichirlar eshikning zanjiri,
pichirlar darchaning qafasi,
sovuq qimirladi o'z ko'rpam.

8. Buncha g'arib bo'lmasa bu koshona?
Buncha xunuk bu go'zal xonim?
Nechun hech kim axlatga otmas?

9. Men itdek sog'indim birovni,
zanjirini uzgan itman men,
birovning xotinin nega sog'indim?

10. Yerga botib ketdi osmon,
bir jonzot qolmadi gunohdan.
Uyatdan chinqirib yubordi quyosh.

11. Men sening teringga kirdim,
tuproq tortdim o'zimga o'zim.
Qaydan keldim? Ne uchun keldim?

12. Yuzimga loy surtdi megajin,
bir it irilladi tanamda.
Ko'rpamga egildi begona ayol.

13. Nima qildim senga, bevafo?
Nima uchun tipirchilaysan
jasadimning ustida. Bas qil!

14. Tong oqardi. Shahar uyg'ondi.
Tobutlari o'tdi lopillab.
Marsiyalar aytdi devorlar.

15. Men qaqshab yig'ladim, chirpandim,
Uchib tushdim yerga falakdan,
Xayrlashmak uchun siz bilan.

QORA DEVOR

1. Qandayin sirdir bu, bu qanday tushdir,
Bu qanday uyqudir, uyg'ongan uyqu?.
Ko'zlarimdan qora quzg'unlar uchdi
Mudhish qora devor ortida, yohu!

Qora devor qa'ri, sotqinlar yurti,
Tilsiz, vatansizlar vatani qoldi.
Sanqigan jasad-la telbarib yurdim,
Aqlimga ro'yolar kalolat soldi.

Zaharga aylandim, og'ochdek sindim,
Qayta o'ldim, ruhim qaytmadi tanga.
Hazrat sultonimga singrab sig'indim.
Allohim, madad ber. Bir so'z ber menga.
Jonimning parvozin bergil, sog'indim.
Ishq ber! Qaytar meni yorug' vatanga.

2. Ko'rdim yuzingizni, chatnadi olam,
Buzg'unzor qo'ynida ungan sof gulim.
Majruhlar yurtida xo'rlangan onam,
Zo'rlangan qonsinglim, mangu sevgilim.

Tuproqqa yiqildim, ko'kka osildim,
Ming yil izladimmi? Topdimmi? Qachon?
So'rib to'ydilarmi sizni, qonsinglim?
Ezib bezdilarmi sizdan, onajon?

Yerga cho'kkan osmonlarni kuzatdim,
Chopilgan oyog'im bilan chopdim men,
Kesilgan qo'limni sizga uzatdim.
Bu dunyo gullarga to'ldi. Qotdim men.
So'qir ko'zlarimni nur-la bezatdim,
Mehribonim, qonim, sizni topdim men.

3. Mehribonim, izingizdan boraman,
Shivirlaydir she'rim. Bu qaysi oyat?
Bu dunyoda qirq majnunning biri men,
O'limga chap berib keldim, nihoyat.

Yuragim zindoni. Bir yalang'och dor.
Sollanib turadir faqat men uchun.
Bunda bir muhabbat zahri qotil bor.
Bu zindonda bir laylo bor, bir majnun.

Mehribonim, xunim, men sizni topdim.
Qonim berdim bu sirli xayollarga.
So'ydim yuragimni, ko'ksimni chopdim,
Ay, sovurdim ul sovuq shamollarga,
Hukm qildim o'zimni. Tong chog'i otdim.
Nuqta qo'ydim javobsiz savollarga.

4. Nadir bu? Tilim lol, vujud valangar,
Ko'rgali ko'zim yo'q, ko'zim o'yilg'on.
Bir sharpa ilg'amas, quloqlarim kar.
Bildim, sizdan boshqa barchasi yolg'on.

Ey voh. Qora devor sirti oqlangan,
Bo'ynimga chirmashgan iblisni quvdim.
Kavsar chashmasida ming yil poklangan
Tosh bilan qadimiy tanimni yuvdim.

Bir qudrat nash'asi tentir izimda.
Xilqatni anglagan zotdek xomushman.
Yetti vodiy aylanadir izmimda.
Bori yolg'on, men — sarobman, men — tushman,
Yo'q, men — qushman, chala so'yilgan qushman,
Aytilmagan bir so'zim bor bo'g'zimda.

5. Aldangan, charxlangan qalb bilan o'tdim,
Yor-u do'stlar boshim uzra yig'ildi.

Hukm kutgan kabi men sizni kutdim.
Unutdim o'zimni, o'zim tug'ildim.

Ko'zimning jarida ul qora devor,
U taraf qorong'u, har narsa yo'qdir,
U taraf zahardir, xanjardir, o'qdir.
Kecha yo'q. Bukun yo'q. Erta yo'q. Siz bor.

Tiriklikdan kechdim, o'limdan kechdim.
"Osmon" deganlari mening fig'onim,
Dunyo zaharini bir o'zim ichdim.
Yondi tun charog'im, kuldi jahonim,
Men qanot bog'ladim, qo'klarga uchdim,
Assalom, sevgili insonim, qonim.

6. Tanamdan chiqdim-da men yerga endim,
Menga bari ayon. Tiriklar ko'rmas.
Ey, siz, ko'r olomon, men ruhman, dedim,
Ular ko'rmas meni, holimni so'rmas.

Bani odam ovchi, odamni ovlar,
Tishlab to'ymas, g'ajib to'ymas, bedavo.
Nochor mayitlarning cho'ntagin kovlar,
Panjida xiyonat, qabohat, g'avg'o.

So'zimga to'ldi sog'inch, so'zim-da yolg'iz,
Ko'zimga to'ldi yolg'iz alloh jamoli.
Belgi berdi falak. Noma'lum bir iz.
Jismimni sindirdi — ajal shamoli.
Tobutimni quchib yig'ladingiz, siz,
Nechun, dunyoning eng go'zal ayoli?!

* * *

Meni ta'qib qilar shoir degan nom,
Chiqmagan she'rimga sadaqa oldim.
Aslo tark etmadi qurmag'ur ilhom,
Neki undan o'tdi, xudoga soldim.

Qirq yil she'r yozdim. Ey, voh, bo'lmadi,
Rosa yigirma yil yugurdim, yeldim,
Ammo topilmadi biror mard noshir.
Hayot jomi to'ldi. Ko'ngil to'lmadi.

Ko'ksimni yirtdim men, bag'rimni tildim,
Ay, sen, ay, oltmishni tepgan yosh shoir.
Yuzimni, og'zimni yopdi soqollar,
Somonlari teshib chiqdi terimni.
Maymunlar yig'ladi, kuldi shoqollar,
Sichqonlar yeb ketdi oxir she'rimni.

YO‘LOVCHI

Xayolimdan oltin qafas to‘qidim.
Abdulhamid Cho‘lpon

1. So‘zning gulxanida ruhim isindi,
Ul yulduz, oylarning so‘zin o‘qirdim.
Lablarim yorildi, tishlarim sindi,
Xayolimdan oltin qafas to‘qirdim.

Iymon qayda? Bilmas qattol juvonmarg.
Dam ko‘kka boqadir, dam yerga boqar.
Alamzor qo‘ynida ezilgan bir barg,
So‘nggi unut so‘zin daryosi oqar.

Undan-da so‘rayman, she’riyat nadir?!
Lazzatga g‘arq botib kunga qarayman.
Hech tuzalmas yara, u so‘zdir axir.
Ilindim, endi men nega yarayman?
Davrlar qa’rida ingraydir bashar.
Aytadir: shoir yo‘q, she’riyat yashar!

2. Satrlar sangida shoir nihondir,
Uchratdim tushimda, qo‘lim uzatdim.
La’nat puchmog‘iga ko‘ksim nishondir,
Hovliqma sozimni qayta tuzatdim.

Ilgari chalingan sehrgar qo‘shiq,
Dor ostidan uchib, tanimga qaytdim.
Azon ovoziga ovozim qo‘shib,
Sochilgan soch kabi so‘zimni aytdim.

Uchib o‘tgan turnamidir, g‘ozmidir,
Lola ruhlar ko‘lkasimi xorasiz.
Hovuch-hovuch ichganim ovozmidir,
Chorasizlik chora bo‘lmish chorasiz.

Dard so‘zin qonida tiyrar milyon ko‘z.
Adashgan yo‘lchini yo‘llagil, ey so‘z.

3. Surinib-urinib oxir yiqildim,
Umrimni yolg‘onga, chinga ko‘mdim men.
Loyimni bulg‘adim, yig‘lab tiqildim,
Hukm qildim o‘zimni. Oh, so‘ndim men.

Iqrorman. Men bandaman gunohkor,
Dard to‘la boshimda xiyonat yo‘qdir.
Agar yurak yutib qilsam oshkor —
So‘zlarim zulmga otilgan o‘qdir.

Ular kim!? Men so‘zni sevdim. Men — xarob,
Loyiqmanmi so‘zga, bilmadim, netay?
Horg‘in yo‘lovchiman, manzil-da sarob.

Itdek izg‘idim men. Men endi ketay.
Devorga boshimni urib bo‘zladim,
Allohga sig‘inib, bo‘zlab so‘zladim.

* * *

Uyg‘ondim. Derazam zulmati o‘chdi.
Uyg‘ondim. Mo‘jiza. Mo‘jizadir shul.
Robindranath Thakur

Shoir, men uyg‘ondim. Dovdirab turdim,
Ko‘zimda tushimning qo‘rqinch suvrati.
O‘chirdim suvratni falakka burdim,
Qani uning so‘zi? Qani qudrati?!

Qani mening tilim? Tinglasa birov.
Baxtdan to‘yib ketgan soqov olomon.
Oltindan kishani, kumushdan burov,
Bo‘g‘zida olqish-olqish, omon-omon.

Nihoyat uyg‘ondim. Uyquda olam.
Ko‘rpasini yirtib ingradi xotin.

Mendan bir to'g'ram non tiladi bolam.
Qandayin tugandi bu mahshar, bu tun?
Men uyg'ondim. Salom-assalom.
Qaytib keldim, ey va'dasi yolg'on kun.

HAZIL

O, do'stim, bizlar-chi nimani ko'rdik,
Ellikka shunchaki lallayib kirdik.
Abdulla Orif

Oltmishda birovlar olim bo'lg'onmish,
Olim bo'lmog'oni zolim bo'lg'onmish.
Uquvsiz lodoni mirshab bo'libdir,
Boshi to'lmasa-da, hamyon to'libdir.

Shoirlar bu yoshda dovrug' taratmish,
O'zi tug'masa-da, asar yaratmish.
Biz-chi, biz ne qildik, biqsib, olayib?
Oltmishga ham kirib chiqdik lallayib.

U DUNYOGA, ONAMGA MAKTUB

O'zgalar umrini yashamak og'ir.
Ioan Xristoluchiy

1. Sog'indim, afu et, sensan alamim,
Xat yozmadim, ammo sog'indim, ona.
Go'yo qog'oz uzra singan qalamim,
Qadimiy xontaxta menga begona.

Ko'zgudan boqadir mungli bir siymo,
Xotiramni sanchib chatnar izlaring.
Yuzimni silaydir nigohing, iymon —
Ul sening ko'zlaring, sening so'zlaring.

Ko'zlaring tubinda ko'hna musibat,
Mening sevinchlarim, mening ohlarim,
Go'yo unutilgan, bitmagan suhbat,
Balki ul dardlarim, ul gunohlarim.
Meni junjiktirar, shovullar faqat
Qorlarga ko'milgan yashil bog'larim.

2. Ko'zguning ko'zinda shamol uxlaydir,
Onajon, qaydasan, jannatmi joying?
Issiq nafasingdan bag'rim yig'laydir,
Quygil piyolangdan sovigan choying.

Men — kim? Neni bildim,
bilmadim, ne tong,
Hali yiroqdadir bilgisiz yo'lim.
Dunyoviy alamni yutmagan bu ong,
Bashariy qalamni tutmagan qo'lim.

Qayga bordim, qaylardan qaytdim,
Sen ta'na qilmading, minnat qilmading.
Kimlarni tingladim, kimga ne aytdim,
Jahon shovurini ko'zga ilmading,
Senga yetib bordi parishon baytim.
Sen mening she'rimdan,
rahmat, kulmading.

3. Sening ko'zlaringda xilqatni tuydim,
Yashamak san'atin soldim qo'ynimga,
Olomonni emas, Allohni suydim,
So'zlaringdan tumor osdim bo'ynimga.

Mana, endi necha zamonlar kechdi,
Kimsa bilmas she'rim, chalinmas ko'zga.
Sen tomon ruhimning shiviri uchdi,
Bu kun bari o'zga, barchasi o'zga.

Sog'inchdan, og'riqdan o'rtandi dilim.
Yuragim chog'landi, bog'landi tilim.

Yurdim. Odim oldim. Qadam tashladim.
Alam qilar ekan gohida biroq,
O'zimning umrimni men oz yashadim,
O'zgalar hayotin yashadim ko'proq.

SHUURSIZ SHE'R TAJRIBALARI

1. MATBUOTNING KATTASIGA

Jangari matbaachi dermishlar sani,
O'zingga qulmishsan, o'zingga xoqon...
Ozod so'z — haqiqat, haqning maxzani.
Oxir parchalanur bu g'ul, bu yolg'on.

Yolg'onning tiyg'ida o'ylab qadam bos,
Kimlarni yalaysan, kimni chopasan?
O'zingni aldaysan, qorningni, xolos,
Haqiqatni chilg'ib nima topasan?!

Men-ku bir faqirman hamma qatori,
Duduq shoiringman, Alloh oshig'i.
Siniq bir qalamdir qo'limda bori,
Sening qo'llaringda kimning qoshig'i?
Dilimda ozorim, tilimda torim,
So'zim osmonida iymon qo'shig'i.

2.BIR MUARRIXGA

Men o'zi Ahmadmi va yoki boshqa.
Ahmad A'zam

Og'zingga tupurgan shaytoni layin,
Pul desa o'zingni tomdan otasan.
Kimlarga qahhorsan, kimlarga mayin,
Tarixni chiylaysan, iymon sotasan.
Mushukdek suykanchak, itdek qopag'on,
Burning ostidadir yuhonafs jarlik.
Seni allalagan qadimiy yolg'on,
San'ating aldoqdir, kasbing o'jarlik.

Ko‘rib ketdi azroil ham atayin,
Yengil oyoqsan-u g‘oyat surbetsan.
Senga o‘ptirgandir vosvos manglayin.

Ortiqcha tirnoqsan, ortiqcha etsan,
Sen hali kuchuksan, havaskor itsan,
Ammo quturishing muqarrar, tayin.

3. BIR TUFURISH

Bir shovvoz bir o‘yin o‘ylab topibdir,
To‘rt yoqqa ko‘z yumib yugurmak emish.
Do‘stining yuziga tupurmak emish,
Shovvoz bola gazet tomon chopibdir.

Juda mashhur bo‘libdir ushbu o‘yin...
Bizdek o‘ynar emish sho‘rlar, cho‘kchalar...
Qosh qoqib o‘ynarmish hatto cho‘chqalar,
Tuyalar o‘ynarmish cho‘zgancha bo‘yin.

Yog‘liq o‘yin emish. Sirli, yaltiroq,
Ko‘plarning ketibdir yuragi, tomi.
Bu o‘yin dovrug‘i uchibdir yiroq.

Bormish yana bu yumushning davomi...
O‘yinning ma’nosi yo‘q ekan, biroq
Bir tufurish ekan, shunchaki nomi.

4. SOTTI QO‘YDI SHO‘RLIK AYG‘OQ

Sotti qo‘ydi sho‘rlik ayg‘oq, qayg‘urma,
Qo‘ynimda hech narsa yo‘qdir, ko‘ngil to‘q.
Boshimni devorga behuda urma,
Sen axtargan balo axir menda yo‘q.

Soqolimni yulma, yoqamdan olma,
Pusib og‘u solma, cho‘ntagim yirtiq.
O‘q-mo‘qingni tiqma, yo‘lingdan qolma,
O‘zingning eshingni o‘z meshingga tiq.

Oqni qora deysan, tillani temir,
Nohaqsan! Sarqitni osh deb urasan.
Karmisan? Ko‘rmisan? Nimasan, axir?!
Qaqqayib boshimda tokay turasan?
Kimsan?! Yalog‘i hech to‘lmagan sagim?!
Ammo qonga to‘ldi mening yuragim?

5. BOSH SENZO‘RGA QAYG‘ULI SO‘NET

Seni ardoqlardi sho‘ro zamoni,
Taajjub! Omading yurishdi bu kun.
So‘zning tillosini, so‘zning somonin
Tergaysan matnlar ustida beun.

Maqsuding ne edi, ne kunga qolding,
Nelarni o‘ylading qorovul bobo?
Bir she’r yozmading sen, kechikding, tolding,
Afsus, ilmu fandan bo‘lding mosuvo.

Hech kim ko‘kragingga taqmadi nishon,
Barcha hayron o‘tdi cheksiz sabringga.
Sen — erkin, so‘z — erkin. Qalbingga ishon!
Bir kimsa yetarmi sening qadringga?
Uchinchi qabatga yetding parishon,
Asta kirib ketding g‘arib qabringga.

SIYOVUSH

Ibrohim Haqqulga
Ey, qora yurakli boyqush, senga qolg'on
Vayronani qutlamak uchun keldim.
Abdurauf Fitrat

1. Ey sen, so'qir quvva', ey sen, chirkin taxt,
Tug'dirgan tuxmingning oqini ichding.
Maqtulning, oltunning faryodi bir baxt,
Quturgan nafsingning zanjirin yechding.

Ma'badlar toblamish o'ziga bashar,
Onlarin ichinda eng shumi shayton,
O'liklar ustinda mashvarat, hashar,
Tog'kelbat o'g'lonlar mayiti maydon.

Irfonning qo'llarin, qanotin kesding,
Yovuz saodatsen, yonglishqon ko'lka.
Ostingda yotqonni bag'ringda ezding,
Tepangga minganni irg'itding ko'kka.
Borliqni talatding, vabo taratding,
Yaratganni pisqib o'zing yaratding.

2. Tiriklik sinchini, avom tinchini,
Sindirding — ko'ksimning siniqlarini.
Erlarning sirtini, ayol ichini
Bulg'otding — suvlarning tiniqlarini.

Qalamdan o'ch olding, so'zini o'yding,
Sening qo'lingdami oyning ajali?!
Otaning tiyg'i-la o'g'ilni so'yding,
Sanchildi otaga o'g'il xanjari.

Erto'ng'adan tortib to rahim to'nka,
Harom xoin, varam sotqin tug'ilmish.
Insonning xayoli, hiddati to'ngan.
Osmon nafas olmas, inson bo'g'ilmish,

O‘zing tobindirib, o‘zing so‘yasan.
Haqiqat etiga qachon to‘yasan?!

3. Nechun yuraqda tosh, ko‘zlarda huzun,
Nechun?! Xo‘rlangan insonlar faryodi?
Nechun? Nechun, yolg‘onning umri uzun?
Nechun? Tirilmasmi o‘tkanlar yodi?

Nechun iymonini sotib yashaydir,
Nechun qulligidan bexabar har qul,
Nechun zulm yashar, zulm yashaydir?!
Haqsiz olomonning tirikligi shul.

Insonni tahqirlash yo‘llari ko‘pdir,
Boshinda palaxmon, jigarida o‘q.
Yutgani og‘udir, topgani cho‘pdir.
Nahot, iymon o‘chgan, toptalgan huquq,
Nahot, bu millatning qahramoni yo‘q,
Nahot, bu millatning shoiri yo‘qdir?!

4. Oftob nurin yutar zulmat ahkomi,
Shoqoldek uvlaysan, itdek hurasan.
Ey, boyqush qafasi, ajdaho komi,
Dunyoni dunyoga tokay urasan.

Insonlik fitrati uyg‘onguncha tur,
Ich haqning qonini yuho jomida.
Chorasiz haqiqat, ul ilohiy nur,
Abad qolib ketmas vahshat domida.

Qachon uyg‘onadir xaloskor daho?
Bir jahon quyoshga chulg‘anib kelur!..
“Jahon ganjig‘a shoh erur ajdaho,
Ki o‘tlar sochar qahr hangomida,
Uning komi birla tirilmak erur
Maosh aylamak ajdaho komida”?[1]

[1] So‘nggi to‘rt satr Alisher Navoiy qitasidan.

* * *

Ko'zimning g'orida parchinlangan ko'k,
Bulutlar, to'lqinlar, hiddat sochilgan.
Sening chiroyingda gard yo'q, g'ubor yo'q —
Aldangan gullarning bag'ri ochilgan.

Sen-da sochilgansan, ochilib gulim,
Sen balki men uchun yasharsan endi.
Sen yolg'izsan bu dunyoda, sevgilim,
Cheksiz chidamimning sinchlari sindi.

Munkaygan cho'qqidan so'rayman seni,
Qarigan bahordan seni so'rayman.
Topgil, deyman, mening buyuk sevgimni.
Yer tishlab so'rayman, so'ng bor ko'ray man.
Chaqinlar cho'lakka chaqir jismingni,
Ko'kning sinig'iga seni o'rayman.

* * *

Mening otam odam, momom havodir,
Mening Turkistonim yorilgan yerim.
Mening farog'atim ulug' jafodir,
Mening yetim bolam — sevgili she'rim.

Mening ilk shoirim isfidan zardo'st,
Muhammadur rasulullоh — panohim, pirim.
Mening lashkarimdir har dushman, har do'st,
Mening tirik nolam — sevgili she'rim.

* * *

Qirq yil qoraladim qog'ozni,
Boshimni oqqa bo'yadim qirq yil.
Qo'limda qo'l,
Oyog'imda oyoq qolmadi,
Ko'zim oqib tushdi izingga.

* * *

Loy ichindan ko'zlarimni izlayman,
izlayman shamollarda ruhimni,
yomg'irlardan haybatli, sirli tosh bo'ldim.
Chaqmoqlarni yulib otdim o'zimning
zulmatimga, go'zal zulmimga.

* * *

Tirik o'likzorga sen uchun keldi.
Robindranath Thakur

Shoir. Ilhomning bir qo'lida xanjar.
Bir qo'lida porlar zumurrad, marjon.
Qoqar vujudingning eshigin, ochar,
U sendan muruvvat kutmas hech qachon.

Ko'zlaringning darchasini ochadir,
Taningga to'ldirar anglanmas g'uluv.
Seni falaklarga tortib uchadir,
Borliqni sen birla yutmak istar u.

O'limning qorong'u qa'ridan kelar,
Yuragingga kirar suvaydo kabi.
Sening jur'atingni allohdan tilar,
Sening jasorating — uning matlabi.
Yarim dunyo unga kerakmas faqat,
Butun koinotni zabt etmog'i shart.

* * *

Ko'zimda g'ildirar xo'rlangan xilqat,
Iymon asirlari kechar ko'zimdan.
Nafasim bo'g'zimga tiqildi, faqat
Qanoat topmadim topgan so'zimdan.

Avval kalom edi, qayda u qudrat?
Qayda haqiqatning xaloskor qo'li?

Tokay osmon kabi turgaylar mudrab?
Arosat yo'limi shoirning yo'li?

Iymon asirlari bir karvon bo'lib
Qayon yo'rtmakdadir g'ul, zanjir sudrab?
Aldanish sahrosi, pushaymon cho'li,
Fano vodiysida bosriqqan suvrat,
Zo'rlangan jonlarning chuvalgan siri.
Menim-da kitobim — iymon asiri.

* * *

Iymon asirlari quyoshga boqar,
Ozod sabolarga osilib nolon.
Umidning nogiron shamlarin yoqar,
Osmon sukutdadir, sokindir hamon.

Biror mujda yo'qdir kezgan bulutdan,
Nahot qutqaruvchi bir xaloskor yo'q?
Ko'zimning soqqasi portlar sukutdan,
Sokindir fir'avn, sukut — sotqin o'q.

Pirlar, avliyolar, nechun sokinsiz?
Nechun ul jalloddir, nechun bul tutqun?
Men kimman? Ul kimdir? Siz kimsiz?
Kimning arobasin sudraymiz bu kun?
Iymonning bag'rida axir erkinmiz.
Erkin vijdon bergan birubor nechun?

* * *

Ay, iymon asiri, vijdon tutquni,
Qismatda bor ekan bu vahshat, zo'rlik.

Ko‘zingda umidning so‘lg‘in uchquni.
Ko‘ksingda inonchning imdodi sho‘rlik.

Kechalar bosriqding tushda, ro‘yoda,
Kunduzlar boshingda sindi kaltaklar.
Haq bilur, sen haqsan haqsiz dunyoda,
Sendan xabar olsin hurlar, malaklar

Sening yuragingni koinot bilsin,
Senga kulib boqsin osmonning ko‘zi,
Qattol ahramanning bag‘rini tilsin.
Sabr-toqat bersin haqiqat so‘zi,
Ozod dunyolarning xabari kelsin,
Qoshingga bir kelsin biru bor o‘zi.

* * *

Men g‘arib og‘ochman. O‘zim osaman,
Qayta tirilaman to‘lib sehrga.
Mehrgonning qanotini yozaman,
Dunyolarni to‘ldiraman mehrga.

Men — qishman, boshimda azaliy oqtosh,
Qonli bulutlarga burkanib qotgan,
Men bahorman, muzlagan otash,
Zulmatning jizg‘anak tonglari otgan.

Abadiy koinot birlan qolaman,
O‘lsam chirqiraydir ovozim tanda,
Eng yarqiroq yulduzni uzib olaman.
Ezilgan, xo‘rlangan bargman tubanda,
Yolg‘iz o‘zim xalqman, o‘zim olomon,
Men shoirman axir, shohman, ey banda.

* * *

Sen shoir — chorlaysan osmon hurlarin,
Oyning sochlarini suyib taraysan.
Ko'zlaringga yutib kunning nurlarin
Bolalikning ko'zlari-la qaraysan.

Sen bukun manfred, bandi va banda,
Sen uchding musiqor og'zini bog'lab.
Chekkil, cheksizlikning chegasi senda,
Kul! Hayqir, taningni o'tlarga dog'lab,

Boshing uzra rumiy darvishu tabib,
Qoshingda navoiy, sen — bobo tohir.
Sen — shoir, mangusan oxirat kabi.
She'riyat ibtido, she'riyat — oxir.
Iztirobdan o'lmas shoirning qalbi,
Shoirning onasi iztirob axir.

* * *

Kuch-quvvat bag'ishlar erkin she'rimga
Unli tovushlarning sohir qo'shini.
Hovuchimda titrar, yetgan yerimda
To'kilma, hurkitma ilhom qushini.

Undoshlar har gapning kibrli, g'addor
Ega-kesimini talab qiladir.
Havoda muallaq, ilojsiz, nochor
Ikkinchi daraja so'zlar qoladir.

Men g'arib kim bo'ldim so'z to'fonida,
Kimdan madad tilay, kimga elanay?
Zangori girdibod kahkashonida
Yuragini teshib yig'lar kuygan nay,
Qoniga belangan dunyo ufqida.
Men yo'qman. Bir so'z bor axir. Uch nuqta.

THAKURNING OXIRGI SHE'RI

(07. 05. 1941)
Ayroliq kunidir tug'ilgan kunim.
Robindranath Txakur

1. Sohir sarasvati! Nadir bu aqlim,
Nadir tan-u nadir dil-u nadir jon?
Bu qanday qahkashon? Bu qaysi iqlim?
Aldandimmi tug'ilib? Rostmi yolg'on?

Ey, mening parishon, ey, sho'rlik xalqim,
O'zing qachon tug'ilasai, sen, qachon?!
Qorayib tirkashar o'z muztar ko'lkam,
Izillar so'zimniig ma'yus jarangi.

Vizillar muzlarga burkangan ko'klam,
Ochiq poyonlarning bayonsiz rangi.
Sovuq qorong'uning oppoq sadosi,
Bo'g'zimda bo'g'ilar musiqam, unim.
Ajr saharidir — hajr sahrosi,
Alvido kunimdir — tug'ilgan kunim.

2. Ay, sen, ona xalqim! Loylarga botdim,
Tilla halovatning g'ilofidan chiq!
So'yilgan sag'rimga zahrolud qotdim,
Kamolot so'qmog'i naqadar achchiq.

Tiriklar! Yondirmang eski ma'voni,
Suvlarga botirmang. Tiriklik bitar.
Havoni qizg'anmang, ozod havoni.
Tuproqni bulg'atmang. O, shiva, yetar!

Yerga qo'ying meni. Onamdir tuproq,
Tobinib o'payin onamning izin,
Onamning yuzini, oy yuzida dog'.
Yashin bering menga, chatnayin o'zim,

Menga dengiz bering, daryolar urfoq,
Nafas bering menga, beringiz so‘zim.

3. Izg‘irdim sargardon men sizni izlab,
Tovonimni teshdi srabon, yomg‘ir.
O‘zimni la’natlab, sizimni sizlab
O‘lmay turib o‘ldim, siz uchun axir.

Yonib aytdim, cheksizlikning cheki bor,
Cheksizlikning cheklariga yetarmen.
Mendan rozi bo‘ling, tiriklar, do‘st-yor,
Bir chimdim mehringiz olib ketarmen.

Mening sog‘inganim qaylarga ketdi?
Tamom! Bor-yo‘g‘ini sovurib bo‘ldim,
O‘limim sog‘ingan dodiga yetdi.
Agar men koinot bo‘lsam, men — to‘ldim.
Xayr! Xayr endi! Biz ketdik? Ul ketdi?
Men bukun tug‘ildim. Men bukun o‘ldim.

4. O‘zimni topkanda sizni qidirdim,
Unutdim o‘zimni, kuchdim yerimni.
Men sizga bir dunyo dunyo qoldirdim,
Men sizga qoldirdim qonli she’rimni.

Safarim oldidan yana o‘yladim,
Nachora? Qarzlarim ko‘p edi, esiz.
Ruhiga sokin so‘yladim.
Yamaning?[1]
Uyoqlarda qanday yashayman sizsiz.

O‘g‘ri tashlab ketgan bir tugun molim,
Men ortib ko‘chmasman. Sizga bu tugun.

[1] **Hind asotirlarida: Sarasvati** — fan va san’at ilohasi. **Shiva** — bunyod va barbod ma’budi. **Srabon** — tinimsiz yomg‘ir yog‘adigan oy. **Yama** — u dunyo, o‘lim ma’budi.

Sizsiz u yoqlarda ne kechar holim.
Sizsiz bor narsa yo‘q. Tomirda tugun.
Yuzingizda ko‘rdim alloh jamolin.
Oxirgi safarim. Men tug‘ilgan kun.

* * *

Xayol. Xayol. Yolg‘iz xayol go‘zaldir,
Haqiqatning ko‘zlaridan qo‘rqaman.
Abdulhamid Cho‘lpon

Avval xayol eding, bir xayol, xolos,
Avval xayol eding. Yo‘limsan endi.
Poyonsiz yo‘limsan, qo‘rqinch, beqiyos,
G‘arib dunyolarning g‘ovuri tindi.

Ay, buyuk xayolim, suyanchim yolg‘iz,
Toki o‘lgunimcha asra bag‘ringda.
Inonch, yelkan yo‘qdir xayolsiz — sensiz,
Sen tubsiz dengizsan, cho‘ktir qa’ringda.

Irg‘itma bo‘shliqqa, mening birla qol,
Intizor joningman, toldi ko‘zlarim...
Sen meni tark etding nechun, ay xayol?
Kayhondek ochilib qoldi ko‘zlarim.
Ortiq tanizorim to‘ldirdi shamol,
Endi men. Tuproqqa to‘ldi ko‘zlarim.

TUHMAT — 1985

Mash'um "lefortovo " turmasining tutquni,
Do'stim toshtemir qahramon o'g'liga
Ey ajal, jonimni tez olg'il faqat,
Yolg'onga qul emish, yo rab, haqiqat.
Shekspir

1. Ay tuhmat! Ayri til, sudrangan ilon,
Tanimga chirmanib, yirtar bo'g'zimni.
Tuhmat changalida bir puldir iymon,
Chalpir o'zligimni, haqqon so'zimni.

Yovuz shaytanatning chirkin a'moli,
Nahot bir millatning boshiga yetar.
Nahot chekinmasdir vabo shamoli,
Nahotki o'zbekning borligi bitar?

Kishanlar, zanjirlar shovqini tinmas,
Nahotki teskari aylanmas borliq.
Koinot mehvari buzilmas, sinmas,
Aldangan aqlning mahrimi zorliq?
Bu ayanch podaning cho'boni qayda?
O'limga shaylangan qo'ylarni hayda!

2. O'n emas, yuz emas, o'n ming chorasiz,
Bo'ynida tuxmatning maraz nishoni.
Ezilib, tizilib qayga borasiz,
Qaylarga yo'rtasiz, qullar karvoni?!

Kelgindi, bosqinchi, isqirt qartabon,
Yurtimni qonlarga botirdi, yo rab.
Botirlar, shoirlar bo'ksib yuztuban,
Ko'zlarin chirt yumib o'tirsa, yo rab.

Bu qonli o'yinni alloh ko'rmasmi?
Qutlug' turkistonim, imdoding yo'qmi?
Sotqinlar karmasmi? Xoin ko'rmasmi?
Dunyoni buzg'uvchi faryoding yo'qmi?

Muqaddas turonim, seskanib to'lg'on,
Qo'llaringni uzat, chirpanib uyg'on!

3. Tuhmat balosidan qutqar, uqubat!
Vatanim boshida mazallat ro'mol.
Tuhmat tutquniman! Ismim mening tuhmat!
Bu tavqi tamg'ani ko'kragimdan ol.

Jallodlar davroni, tuhmat zamoni,
To'ydirding! G'unchani ezg'ib so'ldirding.
Qarg'ishlar, fig'onlar tutdi samoni,
O'ldirding insonni! Qusqib o'ldirding!

Zolim, qon icharsen, oxir qon tutar,
To'maris meshi bor, qondirar o'chin.
Uyg'on, uyg'on, elim, boshingni ko'tar,
Haq uchun, muborak haqiqat uchun,
Faqat sen haqdirsan! Zamonlar o'tar.
Yetar! Ko'ksingga ur qasos qilichin!

4. Milkda mangumidir zaharli tikon?
Avval yolg'onmidir, so'ngra qutlug' so'z?
Qo'li uzun ekan, yo'li ko'p ekan,
Umri uzoq ekan yolg'onning, afsus.

Sovuq yolg'onzorning mozori ochiq,
Xo'rlangan qismatlar chirqirab yotar.
Bu g'ayyur vaboning shamoli achchiq,
Ko'zing achishdimi, avliyo ota?

Haqiqat ka'basi! Tingla dodimni,
Iso masih, uyg'on, dodimga yetkil.
Oqla suyagimni, oqla zotimni,
Haq birlan birga bo'l! Yo mutlaq — bitgil!
O'zbek ildizining ohidir — ohim,
Sendan bo'lak suyanchim yo'q, allohim!

TOSHTEMIR QAHRAMON O‘G‘LI SHE’RLARIDAN

Leporte
Rusiya, Lefortovo turmasi.
24.02.1986.

1. Yo rab! Bu qanday yurt, qanday olomon?
Mansabdorin aslo tushunib bo‘lmas.
U mazlum tomonmi yo zolim tomon,
U tirik insonmi yo mangu o‘lmas.

Qorni biqsib to‘lar, hech ko‘zi to‘lmas,
O‘zining qo‘lini o‘zi kesadi.
Yurakdan yig‘lamas va lekin kulmas,
Toshlarga qoqsa-da yashnab o‘sadi.

Tepada kim bo‘lsa, unga baribir.
Elanib, suykanib yetar poyiga.
U shunday beparvo, dajjol, besabr,
Birov nazar qilmas hayyu hoyiga.
Oxir nasib qilar bir quloch qabr.
Pichoq tiqib yotar yotgan joyiga.

2. Yo rab! Kim xoru zor, kim omon-omon?!
Ul o‘zin aldaydir, o‘zini sotar.
Bilmas haq qaydadir, nimadir yolgon?
Qulluq qila turib, zimdan tosh otar.

Sho‘rlik inson, ay sho‘rlik yurtim,
Sen uchun jigarim ado bo‘lmoqda.
Men yirtqich shoqollar komida yurdim,
Mening arslonlarim nechun o‘lmoqda?

Boshimda charx urar bo‘ronlar, qorlar,
Bir umr izg‘isa qarg‘alar, nahot,
Qaylarga qochdilar lochin, shunqorlar?
Ivigan xas kabi sirg‘alar nahot?

Nahot unut bo‘lsa iymon, viqorlar?
O‘lib bitsa qo‘rqmas darg‘alar, nahot?

3. Yo rab! O‘g‘ri, kazzob mahridir bozor.
Ayoling tul bo‘ldi, farzanding yetim,
Padaring qul bo‘ldi, volidang mozor,
Ey, mening nomusim, ey mening yurtim.

Bu yurtning dahosi, panohi qani?
Qayda pusib yotar aldamchi kaslar,
Qayda u ozodlik, erkin nafaslar,
Qachon uyg‘onadir mardlar vatani?

Sahro. Karvon borar. Ayrildi hushim,
Boshimga egildi sog‘lar, nosog‘lar.
Simyog‘ochda xonish qilar oq qushim.
Turmani to‘ldirdi bolalik chog‘lar.
Yodimga sanchildi qadimiy tushim,
Yodimni yoritdi ul g‘arib bog‘lar.

4. Yo Rab! Ko‘zingni och! Hiddat surindi,
Qiyomat quturdi, bo‘kirdi yobon,
Yalang‘och yobonda bir ins ko‘rindi,
Bu senmi, ahraman, yovuz qahramon.

Sariq alvastilar bo‘ldi namoyon,
O‘lim raqsi avjga mindi, shafqat yo‘q.
Sen qonxo‘r quzg‘unsan, kirdoring ayon,
Sen, ey, o‘laksaxo‘r, ey, irganch maxluq!

Ko‘ksimni ezg‘ilab, bosib turgan kim?
Kimdir, o‘likzordan izlagan najot?
Xayr! Tishlarimda g‘ijirlagan qum,
Xayr! Shivirlagan, singragan bayot.
Xayr! Burdalangan, chirpangan xalqim,
Xayr! She’riyatga ko‘milgan hayot.

ALANIYA

Ko'z yoshim yulduzlar kabi sochilsin,
Falakda yorilsin bu fandur — navo.
Bu o'lik jonlarning ko'zi ochilsin,
Mening faryodimdan tirilsin dunyo.
Kusta Hyetog'uri

1. Ay zulm zumrasi, yovuz, o'lik toj,
Ay yolg'on yalog'i, ay so'qir sarvat.
Ay sen miskin iymon, ay sen sho'rlik xoch,
Tur, uyg'on, ay hurmuz, chalqindi charvat.

Hayhot! Mutlaq aql chorasiz bu tong,
Bu sahar koinot ko'ksini yordi,
Kahkashon simlarin uzib urdi bong,
Yo'q! Yo'q! Mumkin emas! Bir imkon bordir.

Bir ilinj sharpasi bordir? O, agar,
Agar sinov bo'lsa — haq imtihoni —
Xilqatning ko'ziga sanchildi xanjar,
Falakka sachradi go'daklar qoni,
Mening yuragimda tirildi ajal.
Yo'qlikka topshirdim borliq dunyoni.

2. Sotqin jonin sotar, tanini sotar.
Uyqu ichinda sharq, mudraydir mag'rib.
Ahraman lashkari najasga botar —
Ona vataningni bermas qaytarib.

Yana ufq yonar, yana tong otar,
Nahot oy kezgaydir kunni axtarib?
Qo'yningga qo'llarin tiqib o'ynatar,
Qaqir qo'rchoqbozdir, chiqmish mag'ari.

Vahshat farzandlarin qo'yar garovga,
So'z bermas, erk bermas, havo bermaydir.
Sunar besarlarga sargardon, sovg'a.

Chirkin cho'ntagiga chorlab chirmaydir,
Sudraydir jonliqni kishanga, g'ovga,
Sag'ringda yalang'och qilich sermaydir.

3. Ey jafokash inson, ojizsan buncha?
Yo'q, sen mavjudotning qismisan axir,
Insonsan, allohning ismisan axir,
Sen — sen, toki mahshar qa'ri yutguncha.

Zamin o'yinchoqdir zulm dastinda,
Qo'rchoqboz hukminda muslim-u tarso,
Sag'irlar singari sanqirmiz sarson,
Mehrsiz, muruvvatsiz og'riq dashtinda.

Zulm och ofatdir, zulm g'ar, g'arib,
Non so'raydir, jon so'raydir, so'rar qon.
Hamon intizordir tafakkur, tarix,
Tantana qilurmi xo'rlangan inson?!
Sabr ila sayyora so'ndi sarg'arib,
Yo Rab! Qachon kelur ul ayyom? Qachon?!


4. Yetim alaniya, yig'lama baslox,
Toshlarga yukunma, o'tlarga yukun.
Sen kimga yomonlik sog'inding? Aslo!
Kimlarning bojini to'larsan bu kun?

Itlarga qopilding, loyga qotilding,
Kimning changalida qolding chirqirab.
Tariqday sochilding, yitding, otilding,
Zardo'shtiy singradi quyoshga qarab.

Ey voh! Qanoatning qanoti sindi,
Sabrlar sarildi, toriqdi toqat,
Achchiq yig'larimdan qaranful indi, —
Kutlug' mozoringga yiqildim faqat,
Mard bo'l, Alaniya yig'lama endi,
Sen borsan — Alloh bor, bordir haqiqat!

SHAVKAT RAHMON





QASAM

Shavkat Rahmon degan
Bir o'jar shoir,
Bir kuni qaytadan yaraladimi?
Hayotim ma'nisin juda ko'p o'ylab,
Sayladim so'zlarning
Saralarini.
Har bir so'z
Yuz so'zning o'rnini bosar —
Vatan, Xalq, Jasorat, Kurash, Ozodlik.
Har bir so'z yetajak yuzta umrimga,
Har biri baxsh etar
Ruhimga shodlik.
Hozirlik ko'rarkan buyuk safarga,
Pushtirang pardali minglab darchadan
Mo'ralab o'tirgan go'zal so'zlarni
Qoldirib ketaman endi barchaga.
Aslida atirgul bo'yin taratgan
Bu o'ynoqi so'zlar menikimasdir.
Menga nonday zarur, qilichday keskir,
Zaharday mard so'zlar bo'lsayoq basdir.
Sayladim so'zlarning saralarini,
Kurashlar shamoli kirdi nazmimga.
Yurtimni kezaman,
Endi har narsa —
Egilgan narsalar tegar g'ashimga.
Endi ishlash kerak bu kengliklarda,
Tokim so'ylamasin yolg'onni hech kim,
Tokim buyuk tog'lar saltanatida
Egilgan boshlarni
Qilichlar kessin.

ORZU TASBEHI

Ajoyib kunlarning birida
Uyg'onib ketaman uyqudan,
Yurakning eng chuqur yerida
Og'riqqa aylangan tuyg'udan.

Bir qo'shiq bo'laman daryoday
Yurakning eng chuqur yerida,
Boqaman dunyoga dunyoday
Ajoyib kunlarning birida...

1976

MANZARA

Oq sukunat portlar saharda,
Kun nurida yonib, yaraqlab,
Chopib kirar sovuq shaharga
Yalangoyoq yashil daraxtlar.
Bir zumdayoq devorlar oshib,
Ko'chalarga tarqab ketdilar.
Darchalarga yuzlarin bosib,
Bolalarday qarar kattalar.

1976

SOYA

U goho cho'zilar, goho yiqilar,
G'ujanak bo'ladi oyoq ostida.
Yiqilsang, sen bilan birga yiqilar,
Sen kabi suyanib turar dastida.

Gohida yurakni yorar kechasi
Yoningda lip etib botasan terga.

Sen doim yuksakka, ko'kka uchasan,
U-chi tortaberar balchiqqa, yerga.

1974

* * *

Sen baxtlisan, moviy havoga
Sachratib yur kulgining rangin.
Sen kulmasang, endi dunyoda
Kimdir... kimdir yashaydi g'amgin...

1974

* * *

Sen meni bilmaysan,
Bilmaysan, yo'q, yo'q!
Olovdan yomonman, suvdan battarman.
Turarman, eshikni yoparman qattiq,
Bosh oqqan tomonga ketarman.

Men qaytib kelmasman,
Xayr, baxtli bo'l!
Vaqtni so'raydi yo'lda qorovul.
Men chekib boraman, ortga qaramay,
Jilpanglab o'tadi so'nggi tramvay.

Uyga ham yetaman qoq yarim tunda,
Joyimga yotaman chiqarmay nafas.
Sen uxlay olmaysan, juda yaqinda
Entikib, entikib
Olasan nafas!

1974

* * *

Og‘ir botar ko‘zlarimga kun,
Bu kunlarning bahridan o‘tay.
Baqir menga, g‘azabingni sun,
Selga ketay, dovulga ketay.

Men tog‘larga aytay dardimni,
Men cho‘llarga ochayin bag‘ir.
Faqat, seni suymog‘im qiyin,
Faqat, sen-la bo‘lmog‘im og‘ir...

1974

* * *

Men yo‘g‘imda...
Gullar ochilar
Tashna bo‘lib salqin yellarga.
Mayin, tiniq bo‘ylar sochilar
Yolg‘izoyoq,
Sokin yo‘llarga.
Men yo‘g‘imda...
Tikilib yo‘lga
Xo‘rsinmoqda yalang qoratol,
Xotirlardan faromush bo‘lgan
Buloqlarning ko‘zida malol.
Men yo‘g‘imda...
Yovqur shamollar
Og‘ushida rayhon kuladi.
Guzarlarda mudragan chollar
Bir kechada g‘oyib bo‘ladi.
Men yo‘g‘imda...
Fig‘on etarmish
Ko‘kka qarab karnay-surnaylar.
Men yo‘g‘imda tashlab ketarmish
Farg‘onani oppoq turnalar.

1972

* * *

Ertaga qiynalib seni topaman,
Sen hamon o'ynoqi, dilbar, rasida.
Baxtliman, kuchliman, deya chopaman,
Moviy ko'zlaringning doirasida...

Shaharga sachraydi sevgining bo'yi,
So'ng quchoq ochadi baxtiyor xonang.
Dadang chiqib ketar qovog'in uyib,
Jilmayib qo'yadi mehribon onang.

1975

* * *

Ko'rishamiz bu kun sog'inib...
So'zlashamiz yana sansirab.
Sen o'ynaysan qayin bargini,
Sen chopasan uzoq hansirab...

So'ng yo'qotib qo'yadi bizni
Begonalar, shahar, avtolar.
Oy bulut-la to'sar yuzini,
Oppoq qayin o'ylanib qolar...

1973

BAXTIYORLIK

Sen uni sevasan,
Sevasan qattiq,
Sen mensiz yashaysan, usiz yo'q, qiyin.
Kunlarni sanaysan toqatsiz, intiq,
Ochilib boryapsan kun o'tgan sayin.
Serg'alva shaharning
Barcha ko'chasi
Senga yo'l beradi, qarar tortinib.
U haqda o'ylaysan doim, kechasi
Shivirlab aytasan uning otini.

Men hamon go'dakman,
Tashlab ket meni,
Endi na yonaman va na o'saman...
Haqsizlik oldida turaman to'nib,
Tishni tishga qo'yib
Mushtim qisaman.
U mendan kuchliroq,
U mendan dadil,
Men oddiy yigitman,
U-chi — bahodir.
Juda ham qo'rqmas u, juda ham odil,
Ablahlar yuziga tuflashga qodir.
Sen uni sevaver,
Ardoqla uni,
U bilan bu dunyo kuchga to'lajak.
Dunyoni yetaklab yurar bir kuni
Sening bag'ringdagi
Mitti kelajak...

1975

* * *

Bizlardan kuldilar panada, ochiq,
Kuldilar silkinib, goho yulqinib.
Biz-chi, ketaverdik achiqma-achiq,
Abadiy isyonga bo'ysunib.

To'sh ochdik izg'irin, qaynoq yellarga,
Jimgina tashlandik azoblar sari.
Kirib kelaverdik go'zal yillarga
Yalang'och, baxtiyor, jangari.

Kimlardir keladi bizlarning izdan,
Abadiy farog'at, oromdan xoli.
Bizdan kulganlar-chi, turar olisda,
To'xtagan soatlar misoli...

1974

ESLASH

O‘y surib ohista ketaberasan,
Qosh ham qorayadi, oy ham to‘lishar.
Ko‘chadan ko‘chaga o‘taberasan,
Yalangto‘sh o‘smirlar,
Qizlar kulishar.

Kulgidan taningga kiradi titroq,
Kulgilar o‘xshaydi yozga, yomg‘irga.
Jimgina tinglaysan, ketasan, biroq
Kimningdir kulgisin
Bosib bag‘ringga...

1974

POYEZD

Qizara boshladi yiroqlar...
Bulutlar erinib suzildi.
Qishloqlar, adirlar, o‘tloqlar
Orqaga yugurdi — uzildi.

Anhorlar qoladi to‘lg‘anib
Yarador oqqushning bo‘yniday.
Yangi oy nuriga chulg‘anib
Kiraman kechaning qo‘yniga...

1974

* * *

Tog‘larga chop, dalalarga chop,
Bag‘ringni och moviy navoga.
Tuproqni o‘p, maysalarni o‘p,
Dardingni ayt subhi saboga.

Gulga aylan, yomg‘irga aylan,
Sayhonlarga quyil ziyoday.
Qayta tug‘il, yorug‘ yuz bilan
Vodiylarni kezgin piyoda...

Tog‘larga bor, dalalarga bor,
Nurga to‘ldir umrning damin.
Tuproqni o‘p, yalinib yolvor—
Gunohingni kechirar zamin.

1974

SHAHAR

U duch kelib qandaydir g‘amga,
Tinmay chekdi, kezdi tun bo‘yi.
Hasrat qildi uzoq, yelkamga
Temir-beton qo‘llarin qo‘yib.

Sahar payti ko‘zlari tolib,
U bir lahza mudragan kezda,
Uning jindak dardini olib
Jo‘nab ketdim tonggi poyezdda.

1974

* * *

Qushlar kutmas bahorni bizday:
Tushganida o‘rtaga firoq,
Ketishadi bahorni izlab,
Topishadi bizdan oldinroq...

1973

* * *

Ko‘zingizni oching, qo‘rqmang,
Ziyodan qamashsin, og‘risin mayli,
Mayliga yashamak bo‘lsin qiyinroq
Ochiqligi tufayli.

Lazzat bor har qanday og‘riqda,
Kechalar og‘riqdan ingrab yotaman
Va o‘sha og‘riqni beg‘am, bo‘g‘riqqan
Og‘riqsiz yuzlarga otaman...

Izg‘iringa yuring, oching ko‘krakni,
Yiqiling, qon qusing — baribir keraksiz.
Qiynang, o‘z holiga qo‘ymang yurakni
Yashamaslik uchun yuraksiz...

1975

SHIMOL KUNI

Yechinadi milashlar yana,
Tor yo‘laklar yana sarg‘arar.
Qovjiragan kuz tepasida
Aylanadi qora qarg‘alar.
To‘lib ketdi qarg‘aga osmon,
Hatto arang ko‘rinadi kun.
Qarg‘alarmas,
Go‘yo qag‘illab,
Uchib yurar parchalangan tun.

Moskva, 1972

* * *

Bir haftaki
Qora bulutlar
Bosib yotar shaharni bo'g'ib,
Na yog'adi va na ketadi,
Turaverar hurpayib, qo'qib.
Uzoqlarda,
Ufqlar tagida
Kunlar yonib-yonib so'zlaydi.
Bir haftaki
Kun porillagan
Ufqlarda yashar ko'zlarim.

Moskva, 1972

ESDALIK

Unutganim yo'qdir hali
O'rikzorni, asov soyni,
Soy bo'yida ko'zdan xoli
Baqaterak o'sgan joyni.

Unutganim yo'qdir hali
O'yinqaroq zilol suvni,
Tol tagida shom mahali
G'ira-shira ikki kuvni[1]

Yodimdadir o'shal damlar,
Kulgularing edi so'lim,
Hali yiroq edi g'amlar,
Dunyoda yo'q edi o'lim.

Qovjiradim yoz guliday
Sog'ingancha o'shal joyni,
Xoli kecha, yetim hulvo,
Yarqiragan ulkan oyni...

1972

[1] Sutni pishirib, yog'ini ajratib oladigan asbob.

MANGULIK

Yillar o‘taverar, sezmay qolasan,
Ortda qolaverar qorlar, jalalar.
Bolaga qo‘shilib sen ham kulasan,
Bo‘yningga osilib kular bolalar.

Ular paydo bo‘lar tushlaringda ham,
Bir lahza yurakdan ketar nolalar.
Soylarday gurkirab, dunyoga beg‘am
Kirib kelaverar quvnoq bolalar.

Bir kun oh urarsan yulduzga boqib —
Boshingda yarqirar oppoq tolalar.
Ortingga qaraysan, yurakni yoqib
Oqib kelaverar sho‘x-sho‘x bolalar.

Achinmay chiqasan uydan bir kuni...
Ortda qolaverar qorlar, jalalar.
Ortda qolaverar gavron ot minib
Ajoyib bolalar, baxtli bolalar.

1974

* * *

Yashamog‘im zarur
Har daqiqani
G‘azab bilan, sevgi bilan to‘ldirib.
Dunyodagi barcha qora narsani
Yorug‘ lahzalarda o‘ldirib.
Tokim
Bosh ko‘tarib qaray quyoshga,
Tokim ko‘zlarimda yonsin haqiqat,
Tokim tosh misoli tegmasin boshga
Men yashay olmagan
Har bir daqiqa...

1974

* * *

Birodar, yashayber, yig‘lab va kulib,
Chayir bilagingda oqar quvvating.
Qayta turolmasang bir kun yiqilib,
Achinma,
Boshqaga qolar niyating.

Boraver g‘ovlarga achchiqma-achchiq,
Tilka-pora bo‘lsin, o‘rtansin yurak.
Birodar, dunyoda, gapirsam ochiq —
Faqat yaxshi niyat yashashi kerak.

Chidamak mumkinmas, mumkinmas sira,
Hamoqat hayqirsa, boqilsa o‘g‘ri,
Fahsh yursa, menman, deb toza, bokira,
To‘g‘riligi uchun qiynalsa to‘g‘ri.

Hali juda ko‘pdir kalamushniyat —
Dunyoni kemirib, sotib yurganlar.
Umrida o‘tqazmay birorta daraxt,
Zanchalish ko‘ksiga mushtin urganlar.

Kurashsang arziydi haqiqat uchun,
Kurashib yurganlar haqdir, odildir.
Qotillik qilganlar qotil-ku, lekin
Kuzatib turganlar asl qotildir.

Yashayber, qalbingga ishonib, mag‘rur,
Yashayber, bo‘lsang ham oromdan yiroq.
G‘olib chiqmoqliging juda ham zarur,
Boshqacha bo‘lishi mumkinmas biroq.

1975

TANISH-BILISHLAR

Mixail Yurevich,
Ey otashin qalb!
Biz uchun g‘ururs iz, isyon, sharafsiz,
“Tanish-bilishlarning yukin orqalab
Dunyomiz keksayar shonsiz,
Sharafsiz!”
Payg‘ambar so‘zi bu,
Balki ziyoda...
Fikring yorishadi, ruhing to‘lishar.
Tanish-bilishlarsiz yasha, dunyoda
Masxara qilishar, kulishar.
G‘azabingni sochgin,
Mushtingni qisgin,
Baqirgin —
Baribir bo‘lmaydi nafi.
Hujumga o‘tasan,
Qaytarar keskin
Tanish-bilishlarning cho‘yanday safi.
Tepangdan qarashar “to‘nka”lar...
Goh kulasan, goho uh-h deysan yonib.
Mastona jilmayib o‘tar tentaklar
Tanish-bilishlarning bo‘yniga minib.
Asab ham sirqirar,
Ketar-da sabot,
Seni telba qilib qo‘yar yonishlar.
Maqsadga yetasan,
Mana,
Nihoyat,
She’ringni o‘qiydi faqat
Tanishlar!..

1975

* * *

Sayyora turnalar arqon solishar,
Osmon to'lar "qur-qur"lariga.
Ularga kerakmas qo'nalg'a —
Ular uchaberar uyqularida...
Bizlarda bo'lsaydi qushlar imkoni...

1974

UYQU

Amerika shoirasi Deniza Livertovga

Odam uxlayapti,
Uyg'otmang uni!
Sukunat shivirlar quloqlariga...
Odam lablarini tutar sevinib
Bolalikning barcha
Buloqlariga.
Odam uxlayapti,
Baxtiyor va jim,
Bosh ustiga qo'yib og'ir qo'llarni.
Avaylab bag'riga bosyapti balkim
O'ngida parvosiz bosgan gullarni.
Balkim tushlariga kirgandir dengiz,
To'lqinlar bosh qo'yar oyoqlariga.
Balkim dunyodagi barcha yaxshi so'z
Quyilar qaqshagan quloqlariga.
Tayyora,
Poyezdlar,
Avtolar orasida
Odam uxlayapti, pok, norasida...
Unutgan Temurlar,
Napoleonlarni,
U bilmas, nimadir jang-u jadal, harb.
Batamom unutgan faryod, qonlarni,

Uning xayolida yo‘qdir sharq-u g‘arb.
Barcha razolatlar ustida,
Barcha qabohatlar ustida,
Barcha jarohatlar ustida
Odam uxlayapti,
Odam!

1974

DO‘STLAR

O‘tga ham,
Suvga ham o‘zini urdi.
Sira ayamadi g‘ayrati, kuchin.
Xatarga, kulfatga basma-bas yurdi
Do‘stlari uchun.

Silkitdi kattakon qo‘lchalarini...
Yuzida tabassum, ko‘zida uchqun.
Hamisha tutdi u yelkalarini
Do‘stlari uchun.

Do‘stlar bosib o‘tdi
Baxtiyor, shodmon,
Orqalab dunyoning vafosiz ko‘chin.
U zina misoli yashardi hamon
Do‘stlari uchun.

Do‘stlar gunohidan qiynaldi, yondi,
Do‘stlar qilmishiga yig‘ladi beun.
Kechalari tanho cho‘chib uyg‘ondi
Do‘stlari uchun.

Do‘stlar-chi, suyanib buyuk bir dastga,
Tobora yuksalib bordilar durkun.
U esa boradi pastga va pastga
Do‘stlari uchun!

Xalaqit bermangiz, aytmang yaxshi so‘z,
Holsiz qo‘llarini ushlamang bu kun.
U so‘nggi martaba yumayotir ko‘z
Do‘stlari uchun...

1975

MASHQ

Qorong‘i bog‘,
Xilvatda
O‘t-o‘lanlar shovullar,
Go‘yo zulmat girvatida
Yuzlashganday dovullar.
Qorong‘ida yig‘lar kim,
Kim keladir yiroqdan?
Charaqlaydi yildirim
To‘qnashganday pichoqlar.
Telbaday jim boraman,
Yurakka qon sig‘maydi,
Shum dovullar qornida
Ajinalar yig‘laydi...
Go‘yo zulmat bosganday
Yangrar boyqush nidosi,
Shamol o‘ynar toshlarda,
Bu — dunyo ibtidosi,
Bu — dunyo intihosi.

1978

* * *

Yer hali oq-qora chiziqqa to'la,
Yer hali yer emas, oddiy xarita...
Qayerdadir do'zax, qayda ssilla,
Qaysi bir nuqtada xaribda.

Qaysi bir burchakda shodmon hayqirar
Baxtiyor brutlar, baxtli neronlar.
Qaydadir devorlar tagida turar
Qo'llari bog'langan insonlar.

Faqat kuzatasan beg'am, bexatar,
Faqat sen yashashing kerak o'zgacha...
Qaydadir insonlar osilib yotar,
Faqat sen yashashing zarur yuzgacha...

Baxtiyor bo'lishga haqqing bor, hatto
Yurakka otilar chiroyli gullar.
Qanchalik samimiy bo'lmasin, ammo
Ko'ksingga o'q kabi qadalar ular.

1974

QUMARU

Ko'kmak dala,
Osmon qoraygan,
Cho'kayotganday bulut karvoni.
Seskantirar jiydazorlardan
Qochayotgan qushlar faryodi.
Yo'llar qadim...
Tutlar qarigan...
Suvlar simob kabi yaltirar.
Sukunatning teran qa'rida
Uyg'onmoqda saslar qaltirab.

Asov ko‘ngil...
Ergashar andom,
Qadim yo‘ldan qayga yetaklar.
Qorong‘ilik quyular qandoq,
Qandoq titrar edi chechaklar.

O‘sib borar qop-qora besha,
Sovib borar yo‘llar tuprog‘i.
Ko‘ngil tashna,
Qondiray desam,
Qaynab turar g‘amlar bulog‘i.

1978

O‘SHKENT LAHZASI

Oq cho‘qqilar,
Shavaqi soylar
Yashillikka ko‘milgan mohtob.
Moviy osmon yoyilmasida
Suzar ulkan olmaday oftob.
Xayolimning tirishlariga
Gullar oqib kelar qayoqdan —
Ro‘mollarning tirqishlaridan
Yilt etkizib qarar ayollar.
Bir daqiqa o‘yga botibman,
Jodulanib shivirlar labim.
Bir qarasam toshday qotibman,
Oyoqlarim ildizlar kabi.

1980

BIR KECHA YODI

Yog'iladi mayin sas, sado,
Yog'ar, yog'ar shomurut qori,
Naqadar xush jodugar navo,
Ozod, qora sochlar ifori.

Shomurutlar oppoq gulidan
Kuzatarkan fonuslar yoqib,
Yulduzlarning olov selida
Ertaklarga kiramiz oqib.

Tuyg'ulardan devona ko'ngul,
Sahargacha yurarmiz daydib.
Kelarmikin bu joduli tun,
Kelarmikin dunyoga qaytib?!

1973

NIGOR

Kattalarga qararding sirli,
Kattalarga tutding gulingni,
Katta bo'ldim men bola sho'rlik,
Kechalari poylab yo'lingni.

Endi seni kutmasman ortiq,
Derazangga boqmasman mahtal.
Ko'zlaringga qarayman qattiq,
Bellaringdan quchaman dag'al.

Biroq jism-u joningni yoqqan
Devonavash qudratni yengib,
Derazangga jovdirab boqqan
Bolakayga qaraysan g'amgin.

1977

DASTXAT

Go‘zallik, poklikdan uyalib,
Qisilib, qimtinib turasan,
Qop-qora devorga suyanib,
Yop-yorug‘ xayollar surasan.

Iloham, tong kabi yuzingga
Hirslanib, hezlanib boqarlar,
Ko‘zlarin qoqarlar ko‘zingga,
Qalbingni azoblab yoqarlar.

Yiqilma, o‘zingni ushlagin,
Otsinlar jaholat toshini,
Labingni qattiqroq tishlagin,
Ko‘rsatma ko‘zlaring yoshini.

1977

VISOL

Asta-asta erib boradi
Narsalarning zarralari ham,
Ikki qushcha bir-birin suyar
Yaproqlarning oralarida...
Shabbodalar olib keladi
Rayhonlarning o‘tkir nafasin,
Yaproqlarning oralarida
Ikki qushning baxtiyor sasi.
Kecha uzun,
Xayolday uzun,
Undan uzun qorong‘i sukun,
Hadiksirab turaman faqat,
Nogoh kelib qolmasaydi kun.

1976

* * *

Ko‘p yig‘lama,
Og‘riydi boshing,
Axir baxtli bo‘lmog‘imiz shart.
Yomon bo‘lar agar ko‘zyoshing
Tugab qolsa, kelgunicha baxt.
Ko‘zyoshingni sochma tunlarga,
Asrab qo‘ygin yaxshi kunlarga.

1977

* * *

Kel, yashirib qo‘yayin seni
Yurakning eng chuqur yeriga.
Keyin sen ham yashirgin meni
Yurakning eng chuqur yeriga.

Topolmasin bizlarni birov!

1975

* * *

Dunyo hali noraso, hali
O‘rtamizda chopar ayriliq,
Chaqiramiz bir-birimizni,
Og‘zimizni yopar ayriliq.

Nafrat yashar dunyoda hali,
Yozilganday qaysi kitobda
Muhabbatning asrini kutib,
O‘tiribmiz ikki qutbda...

MUQADDIMA

Butun umrim tayyorgarlikdir,
Hali ko'pdir bitmagan ishim,
Anglanmadi hozircha ko'p sir,
Hali vujud ichida ishqim.
Yildirimday lahza suvratin
Yashirincha asrar xotira.
Meni bor ham yo'q qiladigan
Lahza porlab turar oldinda.

UMMON

Agarda bu ummon tagida
Qudratli daryolar bo'lmasa,
Tublari goh issiq, goh sovuq,
Navqiron suvlarga to'lmasa,
Bo'lmasa xilma-xil harakat,
Bu qadar ummonlik qayoqda,
Poyonsiz bir ko'lmak bo'lardi,
Botqoqqa do'nardi,
Botqoqqa.

1984

OZODLIK QO'SHIG'I

Bu qo'shiq ajoyib qo'shiqdir,
So'zlari kuydirar tomoqni,
O'limni nazarga ilmaysan,
Sezmaysan surgun-u qamoqni.

Shaldiroq kishanlar hukmiga
Achinmay berarsan yoshliging.
Yuzlaring burishmas og'riqdan,
Farog'at bag'ishlar ochliging.

Kuylasang, chekinar razolat,
Chekinar kadarlar, nolalar.
Unchalik qo'rqinchli emasdir
Ko'ksingda ezilgan lolalar...

1979

URUSH SUVRATI

Suv o'rniga qon shimayotgan
Halovatsiz, bechora zamin.
Hasrat bilan yerga qaraydi
Chiqarmasdan xudolar damin.

Qonga botgan dunyoni ko'rib,
Azoblarga berolmasdan dosh,
Ulkan, qizil quyosh har kuni
Olib ketar uzoqlarga bosh.

Ketayotir tubsiz moziyga
Ko'lankasiz yigitlar safi,
Qizlar qolar kuz og'ushida
Unutilgan mevalar kabi.

1979

ESKI JANG MAYDONI

Zambaraklar muzeyda qoldi,
Sarkardalar kirdi tarixga,
Gavdalardan bo'shatib qonni,
Askar kirdi zamin qa'riga.

Qalin maysa qopladi qadim
Kunda kabi jang maydonini,
Endi erkin qushlar behadik
Terib yurar rizqi — donini.

Chumoli-yu qushlar, maysalar
Buzgan mudhish chegaralarni,
Shu abadiy toza maskanning
Mangu g'olib,
Chin egalari.

1982

XAYOL

Dunyo...
Dunyo...
Ko'p qadim dunyo...
Na tubi bor, na chegarasi.
Somon yo'li buzilgan ziyo —
Sayyoraning tillo zarrasi.
Xayol o'sgan yorug' lahzada
Ehtiyot bo'l fosiq dunyodan.
Yiqilmagin oniy larzadan
Samolarga talpingan odam.
Ehtiyot bo'l
Nomard jo'rangdan,
Sinab ko'rish uchun doshingni,
Olmasin-da tag'in mo'ljalga
Pistirmadan yorug' boshingni.

JABR

Kirolmasdi bu uyga o'lim,
Bo'lmasaydik kibrli, olg'ir,
Bo'lmasaydik toshbag'ir, po'rim,
Agar odam qolmasa yolg'iz.

Kirib ketdi sharpa ayozda,
Jabr ko'rdi yana bir sho'rlik,

Ochiq qolgan edi darvoza,
Biror kimsa to‘smadi yo‘lin.

Birgalashib joyiga qo‘ydik,
Hol so‘rashdik ko‘z qirimizda,
Jabrlangan sho‘rlikni ko‘rib,
Uyalmadik bir-birimizdan.

1982

O‘ZGALAR DARDI

Qushchalar,
Sayroqi qushchalar
Qafasda bo‘g‘ilib sayrashar,
Betoqat potirlab, simlarga
O‘ralgan olamga qarashar...
Qushchalar,
Ozodruh qushchalar
Olamdan ko‘zlarin uzmaydi,
Chirqirab o‘zlarin holimas,
O‘zgalar holiga bo‘zlaydi.

1980

* * *

Chaqin bo‘lma,
Bo‘lma guldirak,
Yerdan ko‘pam uzoqlab ketma.
Ovozingni yirtmagin bekor,
Yerni quchma — quloching yetmas.

Undan ko‘ra biror odamning
Makoni bo‘l — irmoqli, soyli,
Shamollarni to‘sgan tog‘i bo‘l,
Osmoni bo‘l — yulduzli, oyli.

1978

XO'RSINIQ

Tog' xo'rsinib yubordi og'ir —
Vodiylarga yugurdi shamol,
Yuzlarini yashirdi hilol.
Tog' xo'rsinib yubordi og'ir,
Teran xobdan uyg'ondi yurak,
Tog'lar kabi xo'rsinmoq kerak.

1979

HAMAL

Erib bitdi poyonsiz qorlar,
Yana ko'hna zamin tulladi.
Vodiydagi ulkan o'riklar
Bir kechada oppoq gulladi.

Oq bulutlar yerga qo'ndimi,
Mo'jizalar bo'ldimi sodir?
Oh, naqadar ajoyib tunda
Oq mash'ala ekilgan vodiy.

Endi safsar kechalarda oq
Mash'alalar tutib, ulug'vor
Kengliklarda kezar chiroyli
Kunduzlarni axtarib bahor.

1979

* * *

Kunlar pisha boshlaydi yana,
Ranglarini boshingda elar,
Xayolingni chaqmoqlar kabi
Yoritguvchi lahzalar kelar.
Yana yaproq yozgan daraxtga,
Atirgulga do'narsan nuqul.

Kechalari chap ko'kragingda
Qafasini sindirar bulbul.
Bor kadarni yengmoqqa yana
Yetib ortib qolar bardoshing.
Endi o'zing istamasang ham
Yulduzlarga tegadi boshing.

1979

* * *

Yechib oppoq ko'ylagini vaqt,
Kiydi yashil gulli ko'ylagin.
Yurak, uyg'on, kapalak kabi
Chechaklarga qo'nib o'ynagin.

Maysalarin tarab, parvozga
Shaylanadi cheksiz dalalar.
O'spirinlar quchog'ida mast
Qirda asir tushgan lolalar.

Bog'larda oq alanga gurlar,
Telba qilar shamollar isi,
Gilos gulin kiygan ko'chada
Oqib borar qizlar kulgisi.

Gurkiragan bu rangin olam
Tuyg'ularni o'ynatib tashlar.
Va ajoyib kunlar umrimda
Atirgulday ochila boshlar.

1979

* * *

Subhidamda yam-yashil daraxt
Derazamga yuzini bosdi,
Kerishganday oynak sathiga
Gullarini ohista yozdi.

Qirchillagan shabada keldi,
Ko‘pirgancha shoshib, quvonib,
Bahor, jismi ochilib, yashnab,
Bosib ketdi atir tumani.

Ko‘tarilar zamindan qudrat
Shabbalarning uchiga qadar,
Birdan yashil shoxlarda tillo
G‘o‘ralar ham tovlanib ketar.

Go‘yo quyosh parchalanganday...
G‘arq qiladi olamni farah.
Har bahorda menga erinmay
Yashamoqni o‘rgatar daraxt.

1978

* * *

Ishon, odam, bahorga ishon,
Qara, go‘dak kabi beg‘ubor —
Minginchi bor olovday porloq
Gullarini ko‘rsatar bahor.

Bahor senga ishonar, qara,
Suzib chiqdi ko‘ziga yurak —
Qarab turar senga intizor,
Sen bahorni sevishing kerak.

Ko‘ziga boq, haydama uni —
Minginchi bor qilmagin xato.
Ostonangdan ketmaydi bahor,
Sen aslingga qaytmaguncha to.

Sharqiratar asov soylarin,
Nafasidan ranglar ufurar,
O‘ynayverar yashil qushlarin,
Gullarini yondiraverar...

1979

VIDOLASHUV

Xayr, bahor! Alvido, bahor!
Rahmat, oppoq gullaring uchun,
Shoxlarimga zumrad g'o'ralar
Qadab qo'ygan qo'llaring uchun.

Xayr, bahor! Alvido, bahor!
Ushalmasdan qoldi armonim.
Biroq kutgil, dedi-yu bahor
Lablarimga bosdi barmog'in.

1979

G'AMGIN QO'SHIQ

Ayam oftob mamajon karvon qiziga

Go'zallashib ketardi borliq
Shahrixondan o'tganda oftob,
To'kilardi kulgan chog'i dur,
Nur o'ynardi ko'zlarida sof.

Uni ko'rib to'xtardi suvlar,
Ketolmasdi qushlar poyidan,
Majnuntollar ko'tararди bosh
Shahrixonning eski soyidan.

"Oq ipakday qo'llari uzsa" —
Ezilardi sho'rlik rayhonlar.
"Oyoqlarin bir bor o'ptirsa" —
Xo'rsinardi yashil sayhonlar.

Suvlar uni sevardi qandoq,
Gullar yonib qilardi xitob,
Go'zallikka ko'mib borliqni,
Shahrixondan o'tganda oftob.

"Oftob, oftob, yopma paranji,
Tiniq oylar qorayib ketsin,
Oftob, oftob, bir bora ranjib
Bir xo'rsinib o'lishga yetsin..."

Kuzatdilar suvlari yig'lab,
Kuzatdilar chechaklar so'lib,
O'ttiz yilki yig'ladi oftob
Shahrixondan yiroqda to'lib.

Endi uning sochlari kumush,
Oq ipakday qo'llari qadoq.
Ko'zlarida limmo-lim kadar,
Bag'ri dog'li, yuragi adoq.

Suvlar uni sevardi qandoq,
Gullar yonib qilardi xitob,
Go'zallashib ketardi borliq
Shahrixondan o'tganda oftob!

1980

DARYO

Qo'yvormaydi ko'hna o'zanim,
Kunduz yashar samarlarimda.
Sayraganday qumri, bulbullar
Tovlanguvchi kamarlarimda.

Tog'lar tiniq qorini berar,
Yashil vodiy — yoniq gullarin,
Kechalarning bag'rini yoqdim,
Mazaxladim sassiq ko'llarni.

Suv ichgani kelgan qo'ylarday
Qirg'oqlarim to'ldirgan toshlar.
Majnuntollar mayda o'rilgan
Kokillarin bag'rimga tashlar.

Tirik suvman — gajir, o'ynoqi,
Kunlar uxlar quchoqlarimda,
Bekor boqmas hamisha maftun
Daraxtlar-u o't-giyohlar ham.

1980

QASIDA

Tun dedim, yarashdi bu ism,
Men seni bir so'zdan yaratdim.
Kiydirdim yarqiroq ko'ylakni,
Husningga olamni qaratdim.

Sen marol ko'zidan chiroyli,
Ohanglar taralar ismingdan,
Sen go'zal tonglarni tug'asan,
Nastarin bo'ylari jismingda.

Oylarni joyladim bag'ringga,
Sen barcha tunlarning yoshisan,
So'ng o'zim yiqildim hayratdan,
Milyonta suluvning sochisan.

Qadadim qop-qora ko'ksingga
Cho'g' kabi qip-qizil g'unchalar.
Agar men bo'lmasam, eshit, tun,
Chiroyli bo'lmasding bunchalar.

1979

SEHRGAR

Derazangdan boqasan sirli,
Titroq solib kunduz joniga.
Sochlaringni yozasan — tunni

Kirgizasan asta xonangga.
Birdaniga barcha daraxtlar
Qovjiratib to'kadi bargin,
Uxlab qolar sho'x o'spirinlar
Xafa bo'lgan bolalar kabi...

Sahargacha tabassum bo'lmas,
Shamol kezar zerikib, uflab,
Xayr, ey qiz, ey sehrgar qiz,
Yaxshi tushlar ko'rgancha uxla!

Juda zarur sahardan boshlab
Ko'chalarni suyib bosmog'ing,
Qotib qolgan sovuq yuzlarga
Iliq tabassumlar osmog'ing.

1981

* * *

Atirgulim, jonim, atirgul,
Qarashlaring toza, sarishta,
Tongning oppoq ko'ksiga seni
Qadab qo'ydi qaysi farishta?!

Ayt, uzaymi qo'lim qonatib,
Tishlarimda tishlab yuraymi?
Yoki yashil barglardan senga
Bir ajoyib qasr quraymi?

Atirgulim, jonim, atirgul,
Chidab bo'lmas atirlaringga,
She'r yozayin senga bag'ishlab,
Mangu qolgin satrlarimda.

Ammo bog'ning bir chekkasida
Gulga tashlab yurib ko'z qirin,
Men she'rimni yozguncha, uni
Uzib ketdi dag'al o'spirin.

1979

MUHABBAT

Muhabbat — chiroyli kapalak,
Qo'rqaman sho'rlikni tutgani.
Kapalak quvganim yodimda,
Yodimda yo'q ammo yetganim.
Yuragim ranjigan boladay
Na ermak, taskinga ko'nadi.
Muhabbat — chiroyli kapalak,
Hali ham gullarga qo'nadi.
Ortidan halloslab chopaman,
Xijolat bo'laman g'o'rlikdan —
Qanchalik yugurmay, baribir
Orqada qolardim sho'rlikdan.

1979

* * *

Goh chekasan,
Goh darg'azab
Qayoqqadir chopasan,
Qurg'ur uyning shamol kirgan
Tuynugini yopasan.
Atrofingda aytar qushlar
Bahoriga shukrona.
Sog'intirib kelgan bahor
Faqat senga begona.
Do'sting kelar:
Bahor uchun
Satta-satta qilsak der.
Biroq sening xayolingda
O'tgan yilgi chala she'r.
Topilmaydi biror fursat
Bahor zavqin tuymakka.
Navbahorni dast ko'tarib

Bola kabi suymakka...
Vaqt o'tar, o'tar shitob,
Tabiat ham turlanar
Va bir kuni boshing uzra
Yig'lab uchar turnalar.
Alanglaysan yuragingda
Allaqanday mung sezib
Va bahorni yana kuzda
Sog'inasan
She'r yozib.

1974

MANZARA

Xiralashar zirvalar qori,
So'lar ulkan loladay oftob,
Bitta o'zim maysa yoyilgan
Tepalikda o'qirdim kitob.

Kabutarlar uchganday bo'ldi,
Shundoqqina yonimdan sarin
Shabbodaday o'tardi o'ynab,
Shohi ko'ylak kiygan nastarin...

Sochi qumrol, dudog'i lola,
Yuzlari oq, yonoqlari ol,
O'ynab harir etaklarini,
Quchoqlardi bolakay shamol.

Qoraygandi zirvalar qori,
Allaqachon so'lgandi oftob,
Bolashamol endi muk tushib,
Tepalikda o'qirdi kitob.

1979

KAPALAK

Qizigan sadolar so'nadi,
Qush kabi cho'chiydi xayoli.
Ko'ksiga kapalak qo'nadi,
Qitig'i uyg'onar ayolning.
Yonog'i lovillab qiziydi,
Kapalak aylanar ro'yida,
Ohlari bo'g'ziga tizildi,
Parishon sochlari bo'ynida.
Atirli o'tlarga ko'milar,
Tikilib qoladi osmonga,
Mastona ko'zlari yumilar,
Kapalak yoqardi juvonga.

1979

* * *

Qishning qahri sokin,
Ammo beomon —
Qalbni qovjiratar,
So'rar quvvatni.
Mana, suzib chiqdi uning tubidan
Tiriklik —
Bahorning zangor suvrati.
Bag'rim to'lib ketdi,
Qalqdi,
Chayqaldi,
Bag'rimni paypaslab kulaman shodon.
Xayriyat,
Bor ekan yurakda hali
Bahorga,
Qushlarga,
Quvonchga makon.

1976

DENGIZ

Yechar moviy ko'ylagini qiz,
Nafasi-la mast qilar yozni,
Qumko'ynagin kiyar-u holsiz,
Sochturmagin sohilga yozdi.

Tikilmasa quyosh munchalar —
May misoli ko'pirar qoni,
Lab bosadi qizil g'unchaga,
So'ng unutib qo'yar dunyoni.

Pistirmada turgan shamol-chi,
To'satdan bir fitna o'yladi,
Raqsga tusha boshlar hayosiz,
Kiyib olib moviy ko'ynakni.

1979

QIYIQ

Uncha quv emasdi shekilli, faqat
Ko'zlari g'alati kulib turardi,
O'zini xotirjam tutardi, ammo
Negadir yuragi kattiq urardi.

Goho oq, gohida qizil ko'ylakda
Bir necha kunimga kirib chiqdi u,
Ko'zlarin o'ynatib kulgan chog'ida
Juda ham yarashib ketardi kulgi.

Men sezmay qolibman, o'ynoqi ko'zi
Yurakning tubiga borib yetibdi,
Jarangdor va sirli kulgisin, ayyor
Dag'al kunlarimga osib ketibdi.

1980

* * *

Bu qarovsiz gulzor ichida
Gazandalar gurkirab o‘sar,
Kunduzlari quyosh shu’lasin,
Kechalar oy yog‘dusin to‘sar.

Ammo kuchli kunlar keladi,
Baxsh etadi gullarga surur,
Parvo qilmay gazandalarga
O‘pa boshlar g‘unchalarni nur.

Gullar yonib kuladi, endi
Go‘zallashar yanada osmon.
Qushlar uchib keladi, hatto
Qari shamol aylanar yom-o-n.

Oh, bu hurkak atirgullarga
Qizil kulgi qanday yarashar!
Tevarakdan gurkirab o‘sgan
Gazandalar qo‘rqib qarashar.

1980

* * *

Bog‘lar shovullaydi
Asad oyida,
Duv-duv to‘kiladi pishgan olmalar.
Qovjirab yotishar oftob poyida,
Olmalarga to‘lib
Oqar solmalar...
Olmalar to‘kilar
Kecha-yu kunduz,
Sig‘mas yo‘lkalarga, sig‘mas so‘riga.
Patirlab-patirlab to‘kilar beso‘z,
Tegar yuragingning
Og‘riq yeriga.
Mana jonoqisi,

Qizili, oqi,
Iltijo uyg'otar ular kishida,
Balki shimoldagi ukam yutoqib
Oppoq olmalarni
Ko'rar tushida.
Olmalar to'kilar bog'larda hanuz,
Olmalar to'kilar sahar chog'lari.
Olmalar tilida kecha-yu kunduz
Nola qilayotir
Asad bog'lari...

1975

* * *

Qichqirvorar
Qaydadir xo'roz,
Parchalanar sahargi palla,
Olmalarday to'kilar saslar,
Uyg'onadi
Eski mahalla.
Qamashadi uyquchan ko'zlar
Kunning o'tkir pichoqlaridan,
Yashil suron to'lg'anar, sig'may
Tongning oppoq
Quchoqlariga.

1977

* * *

Har saharda
Daraxtlarga tirmashgan go'zal
Suvlar bilan chiqaman uydan.

Har saharda
Quyosh kabi porillab turgan
So'zlar bilan chiqaman uydan.

Har saharda
Har giyohda tovlanib yongan
Ranglar bilan chiqaman uydan.

Ammo yomon,
O'limdan-da yomondir har shom
Bitta o'zing kirmog'ing uyga...

1980

* * *

Bo'lsa hamki taxir va achchiq,
Yashirmasdan bor-yo'q aybimni,
Hayot, bosdim labingga qattiq
Haroratga tashna labimni.

Ochiq kulib, so'ylab yorug' so'z,
Quyosh, yerga shukrona ayta,
Men har kecha yumayapman ko'z,
Tug'ilyapman har sahar qayta.

1976

* * *

Men kelaman navbahor bo'lib,
Gulga to'lar tanho so'qmoqlar.
Men kelaman soylarday to'lib,
Yetilganda saraton, bog'lar...

Men kelaman, kelaman so'zsiz,
Ko'zingizni yashirmang zinhor.
Peshvoz chiqing yo'llarimga siz,
Bahor bo'lib kelaman, bahor...

YOZ RAVISHI

Nurlarini yig'ib olar kun,
Osmon yerga tashlar soyasin.
Yulduzlarin yoqib qo'yar tun,
Kesib qo'yar oyning poyasin...

Shu'lalanib, sharqirab yotar
Ko'k suvlarda oy siniqlari.
Yetib kelar muzday shabada —
Qari tog'ning xo'rsiniqlari.

Yalpizlarning bo'yin ufurib
Sho'x jilg'alar vodiyga chopar.
Hovuzlarni yopinib olgan
Qurvaqalar jimlikni qopar.

Qizib ketar yer tomirlari...
Tunga iliq bo'ylar taralar.
Birdan qaynoq yoz oqib kelar
Jimib qolgan bog'lar oralab.

1979

* * *

Bu yerda zangori kaptarday
Daraxtlar ergashar izimdan.
Hatto tosh ustida yulduzday
Chechaklar uyg'onar so'zimdan.

Qartaygan qo'toslar podasi
Kabi jim o'tlagan tog'larim.

Yalang‘och juvonlar yig‘ilgan
Oq tunga o‘xshaydi bog‘larim.

Men sevib yasharman umrbod
Bulbulday sayroqi soylarni,
Bag‘rimga bosgancha qaritgum
Juvonday to‘lishgan oylarni.

Bu yerda men mangu yasharman
Nurlarin sarflab ko‘zimning.
Birovning yerimas bu yerlar,
O‘zimning yerimdir, o‘zimning.

1979

* * *

Tong ko‘ksida qushcha sayraydi,
Kuylaydi ko‘p suvlari siniq.
Yuvosh nurlar o‘ynaydi, osmon
Gulday yashnar tobora tinib.

O‘tib ketar halloslab shamol,
Behilarning xush bo‘yi anqir.
Qizlar o‘tar — ko‘zlari armon,
Durralarda sochlarin tang‘ib.

Tong ko‘ylagi unsiz yirtilar,
Chaqnab ketar oftob tig‘lari,
It huradi, hangraydi eshak,
Qay hovlida go‘dak yig‘ladi.

Tonggi qishloq ko‘chalaridan
Chiqib ketar ovloqqa sukun,
Dalalardan o‘tar shoshilmay
Ola-bula sigir kabi kun.

1980

* * *

Suronlarni oralab o'tdim,
Terakzorlar safi boshlandi.
Quyosh o'chdi, yondi bulutlar,
Maysalarning ko'zi yoshlandi.

Alamzada itlarning sasin
Adashtirib ketdim xotirjam.
Ho'kizlarni ortda qoldirdim,
Hangrayotgan eshaklarni ham...

Ketaverdim, majnuna tollar
Suv ichayotgan soyni yoqalab.
Qip-yalang'och oyga baqrayib
Sayrar edi sho'rlik baqalar.

Vaqt og'adi, ulkan sukunat
Yobonlarni bosadir toshday.
Biror sado qolmas olamda
Yuragimning zarbidan boshqa.

1980

* * *

Yoz tuni. Bog' shira uyquda.
Keksa chinor suradi xayol.
Kirib qolar boqqa adashib,
Telvakezik, yalang'och shamol.

Dovdiraydi uxlayotgan bog',
Boshlanadi og'ir oh-vohlar.
Qomatlarin egishib, sannab,
Ko'zyoshlarin to'kar giyohlar.

Xayol surib, kuzga borayotgan
Bir yoshgina olma qo'rquvdan

Qoqilar-u sharbatga to'lgan
Mevalarin to'kvorar suvga.

Telvakezik, sayoq shamoldan
G'azablanib, ulkan, ulug'vor
Boshin chayqab qo'yar-da, uzoq
G'ijirlatar tishlarin chinor.

1979

* * *

Tun gurkirab o'sar yobonda
O'sganiday bir to'p gulxayri.
Boshlanadi singan suvlarda
Yalangoyoq oylarning sayri.

Maysalarning bag'riga kirar
Qizib ketgan tog'lik shabada —
Shivir-shivir boshlanib ketar
Bu yulduzli, oydin kapada...

Yonarqurtlar somon yo'liday,
Chirillaydi — qayda saraton.
Ag'darilib bahaybat, targ'il
Sag'risini ko'rsatar osmon.

Qushlar do'nar qora barglarga,
Nurlar so'nar shab namlarida.
Qurbaqalar yorila boshlar
Yo'lovchi — vaqt qadamlaridan.

1980

AFSONA

Ko'kragimni maysaga bosib,
Butalarning panasida jim,
Keng kamarda cho'milayotgan
Yulduzlarni uzoq kuzatdim.
Ikki ko'zim o'ynar miriqib,
Afsonaviy xilqat ochilar.
Qasirlatib quruq shoxlarni
Chakalakdan chiqar ovchilar.
Vujudimga tarqalar titroq,
Yurak toshga aylanib qoldi.
Xayriyatki, bu oydin tunda
Yulduzlarni bo'lmaydi otib.

1979

* * *

Bog'larda ko'zlarim qamashar
Shoxlarga ilingan oylardan...
Toshlarga urilib, sharqirab
Yulduzlar oqadir soylarda.

To'lin oy ochilgan ko'ksiga
Bulutdan bag'irdosh topadi.
Shabada — sho'x juvon yurakni
O'ynarkan, goh ochib, yopadi.

Bulutlar o'tlagan adirda
Chiroyli kunduzdan kechaman.
Sharobday totimli bu tunni
Tomchilab, tomchilab ichaman.

1979

* * *

Ichar quyosh nurlarin juvon,
Ko'ylagini, siynasin yechar —
Potirlaydi yayrab shamolda
Ikki tutqun oppoq musicha.

Ichar quyosh nurlarin juvon,
Nastarinday jismi qoraydi.
Qarib qolgan quyosh nayzadan
Bir daqiqa yomon qaraydi.

Dengiz o'par juvon oyog'in,
Shamol o'ynar qumrol sochini,
Huvillagan sohilda tanho
Juvon yotar gulday ochilib.

Bu atrofda biron shoir yo'q.
Juvon mangu yotar bu yerda,
Mangu yotar osmonga qarab,
Unutilgan, ajoyib she'rday.

1980

* * *

Tong ochar ko'zlarin erinib,
Sevinchdan yig'laydi qiyoqlar,
Chechaklar jilmayar sevinib,
Shamolda cho'milar giyohlar.

O'ynoqi shu'lalar — bolalar
Jimgina tarqalar sayhonga,
O'rgimchak to'qiydi tolalar,
Xonqizi boradi mehmonga.

Qurbaqa varaqlar bayozin,
Guldan bol so'radi arilar,
Chigirtka qayraydi ovozin,
Parvozda ninachi — parilar.

Chumoli, mehnatkash chumoli,
Kuyinma, atrofga bir qara —
Maysalar, oh, qanday humoli,
Dunyoni qilma ko'p masxara.

1979

* * *

Yashil sochli sannovchilar —
Singillarim — majnuntollarim.
Qayrildim-u rangim bo'zardi,
Qaltiradi kuchli qo'llarim.

O'ttiz yilki tinmay ergashib,
Yashiringancha ziyrak ko'zimdan,
Sarson bo'lib tog'-u toshlarda,
Kelar emish yig'lab izimdan.

Hali yoshman, hali kuz uzoq,
Gullar hamon porlar yodimda.

Biroq nega bu jinni tollar
Yig'lagancha kelar ortimdan?!

Gap uqtirib bo'lmaydi biroq,
Yig'laydilar sannashib, to'lib,
Oqib borar zangor vodiydan
Ko'zyoshlari bir daryo bo'lib...

1980

* * *

Oy sinig'i to'la suvloqqa
Sharsharaday quyilgan yollar.
Bu yollarni silar mehribon
Shabadalar — ma'yus ayollar.

Ko'k yellarin suvga botirib
Ne zamonki suv ichar otlar.
Atrofdagi ko'm-ko'k adirlar —
O'tovlarda botirlar yotar...

Biroq tunda o't-maysalarga
To'kiladir kimning yoshlari?
Nega suvdan bechora otlar
Ko'tarolmas og'ir boshlarin?

Nima bo'lgan ularga axir
Yo sehrlab qo'yganmi suvloq?
Nega jimlik bosgan vohada
Beg'am uxlar botirlar uzoq?

1980

* * *

Ne davrlar qori tagida
Muzlaganday qari qo'toslar —
Sokin yotar oloy tog'lari,
Bag'ri to'la g'alayon, saslar.

Ammo sezar har bir sharpani,
Bo'lsa hamki xoblari hadsiz,
O'z tinchini buzgan yovlarni
O'ldiradi tog'lar shafqatsiz.

Ishonmasang, o'q otib ko'rgin:
Bo'kirvorar sanoqsiz qoya.
O'ta mag'rur, fe'li ko'p yomon,
Tog'lar o'zin sevar bag'oyat.

Ehtiyot bo'l bunda yurganda,
Buyukman deb xos xayol surma.
Miltiq otish u yoqda tursin,
Ovozingni ko'tara ko'rma...

1980

* * *

Ibtidoiy, o'tkir qoyalar...
Bu tog'larning osmoni moviy,
Bunda gullar farishtasimon,
Bunda hatto toshlar samoviy.

O'zim tog'da, yuragim tog'da,
Qoyalarning tagida yurdim.
Kun nurida tovlangan qorda
Odamlarning izlarin ko'rdim.

Saqlab qopti odam izlarin
Bu tog'larning musaffo qori.

Olib borar edi bu izlar
Meni borgan sari yuqori...

Ammo tog‘dan tushganim sari
Sezar edim badbo‘y islarni,
Ko‘rar edim tulki, qashqirlar,
To‘ng‘izlar-u ilon izlarin...

1980

* * *

Tog‘ o‘tirar vodiyda tanho,
Oq sochlari qoplagan ko‘ksin,
Ming yillarki bu nuroniy tog‘
Asrlarga kiradi o‘ksib...

Atrofida son-sanog‘i yo‘q —
Qovjiragan, sariq adirlar —
Qachonlardir yurtim deb o‘lgan
Pahlavonlar yotgan qabrlar.

Uzoq yurdim keksa tog‘ sari,
Goh odimlab, gohida chopdim,
Nuragan tosh, qoya tagidan
Go‘yoki tog‘ ko‘zlarin topdim.

So‘ylaganday bo‘lar edi tog‘,
Tushunmasdim ammo so‘zlarin.
Qanday g‘amgin edi bu ko‘zlar,
Qanday yig‘lar edi ko‘zlari!..

1980

TUNGI MANZARA

O‘rmonlar jim, yig‘lamas shamol,
Soy sayramas, baqalar jimdir,
Ingroqlarga to‘lib ketgan tun —
G‘amgin qo‘shiq aytadi kimdir.

Otim o‘lgan, qilichim singan,
Majaqlangan sovut, qalqonim,
Kim tashladi meni bu cholga,
Qayda qoldi yorug‘ osmonim!

Qayerdanman, qayga borarman,
Qora zindon naqadar chuqur,
Faqat toqning burjidagi oy —
Tuynukchadan tushar xira nur.

Barcha azob kamlik qilganday
Soy sayramas, baqalar jimdir,
Go‘yo mazax qilganday goh-goh
Yopib turar tuynukni kimdir...

1980

SAYOHAT

Tabiatning xilvat burchagi:
Unutilgan, yovvoyi tuproq,
Huvullagan tog‘-u toshlarni
Qari quyosh sevadi ko‘proq.

Xabar berib shamol yugurdi
Bu diyorga kelganim haqda,
Uzlatdagi tog‘lar qo‘zg‘aldi,
Sarosima qo‘pdi har yoqda.
Ohu qochdi, boshimga nogoh

Ulkan burgut soya tashladi.
Qoyalardan to‘zg‘idi qushlar,
Suvlar qochib keta boshladi.

Atrofimga qaradim hayron:
Bulutlarga burkanar o‘tloq,
Suv ichmoqchi bo‘lib egildim,
Nogoh muzga aylandi buloq.

Qo‘l uzatsam, bulutlargacha
O‘sib ketar qirmizi olma!
Nima bo‘ldi senga, ey diyor,
Yuragimga g‘ulg‘ula solma?!

Zabt etgani kelmadim seni,
Yeng ichida yo‘qdir pichog‘im.
Men Iskandar, Chingizxon emas,
Osmon kabi ochiq quchog‘im.

Ishonmasang, qara ko‘zimga,
Ko‘zlarimda yashaydir hotam,
Men tegmadim hatto ilonga,
Nishi to‘la zahar bo‘lsa ham.

Jimligini buzmadi tog‘lar,
O‘z bag‘rini ochmadi, zimdan
Hadiksirab, mingta ko‘zi-la
Faqat qarab turar izimdan.

1980

O‘RMONDA

Qalin shoxlar aro yaltirab
Kun nurlari oqayotgan dam,
Yelkasida qo‘shog‘iz miltiq —
Kirib keldi o‘rmonga odam...

Afsonaviy, zangori diyor,
Bag‘ri to‘la joduli sukun.
Shoxlar aro tobora ko‘proq
Nurlarini oqizardi kun.

Chor-atrofni kuzatar odam,
Har sadoni poylar ataylab,
Daraxtlarni panalar, birdan
Maysalarni bosar avaylab...

Uyqudagi o‘rmon to‘satdan
Ko‘rmay qo‘yar ko‘hna tushlarni
Va qattiqroq bag‘riga bosar
Sayrayotgan mitti qushlarni.

Jimlik cho‘kar oraga bir zum,
Oh, bu kutish lahzasi yomon!
Varanglagan o‘qdan ayiqday
Bo‘kirvorar bahaybat o‘rmon.

...Ona bo‘ri ingrab qulaydi,
Ko‘zlari — lim qotgan jolasi.
Shoshilmasdan miltiqli odam
Qopga solar bo‘ri bolasin.

Chor atrofga qaramas endi,
Maysalarni bosar xotirjam.
Titroq bosgan o‘rmon ichida
Uzoq ingrar yarador odam...

G‘arq qiladi qalin shoxlarni
Kunning qonga o‘xshagan nuri,
Yelkasida qo‘shog‘iz miltiq,
Chiqib ketar o‘rmondan bo‘ri...

1980

MASHQ

Tun.
Olmazor elas ilg‘anar
Dalalarning keng og‘ushida.
Oqib yotar oltin jilg‘alar
Olmalarning sokin tushida.
Shovvasida nurlar qaynagan
Xilvatdagi jilg‘aga bordim,
Taqdiridan hasrat aylagan
Xasta dilni qo‘yib yubordim.
Qariqizlar,
Yetim yalpizlar
Quchog‘ida ketdim hushimdan,
Cho‘milyotgan sitora qizlar,
Olmazorni ko‘rdim tushimda.
Daf qildi kun
Milyon yildirim
Qudratini jamlab zarbiga,
Voh, o‘ynardi g‘amzada dilim
Jilg‘alarning zumrad labida.

Tushimni yo o‘ngimni bilmay,
Qarab qoldim — ko‘zimda vola,
Ko‘z o‘ngimda kechagi dilmas,
O‘ynardi bir jonsarak bola.
Dilim,
Dunyo dayuslaridan
Qora terga botgan g‘ulomim,

Nastarinday pok hislaridan
Tufdonlarni qilgan kulolim.
Judo bo'lding tabiatingdan,
Bo'g'zingda bor bir shoda mo'ldir,
Judo bo'lding tariqatingdan,
Endi tinchib qafasda o'ltir.

Dalalardan
Shaharga qaytdim,
Unda kasga kaslar g'animdir.
Yo'l bo'yicha ko'krak qafasim
Qattiq-qattiq mushtladi kimdir.

1980

CHO'L

Yovvoyi cho'l ochilib yotar —
Qip-yalang'och, chiroyli, ravon,
Tepasida tobora behol
Hansiraydi haybatli osmon.

Og'ushiga bosgancha vaqtni
Eritardi cho'l — sohibjamol.
Qashqir kabi uvlar vahmali
Yovshanlarda yirtilgan shamol.

Yovvoyi cho'l buyuk kenglikda
Menga borin ochib tashladi,
Go'l-devona ikki ko'zimni
Shoshilmasdan o'ynay boshladi.

Burgutlarin osmonga otdi,
Maqtandi xos gullari-la cho'l,
Turdim bilmay qayga yurishni —
Qayga boqmay, ko'rinardi yo'l.

Cho'l qitiqlar tovonlarimni,
Borgan sari boshlar ichkari,
Ko'rsatmoqchi bo'lardi go'yo
Xazinaga limmo-lim bag'rin.

Bir soniya xayolga cho'mdim,
Buyuk tog'lar, bog'lar izlarin,
Qotgan dengiz, to'zgan shaharlar
Sharpasini ko'rar ko'zlarim.

Cho'l go'zaldir.
Ortimga ammo
O'girildim bir sezgi bilan,
Izlarimda vahma-la shitob
O'rmalardi qop-qora ilon.

Cho'l, munchayam bo'lmasang ayyor,
Muncha bag'ring sevgidan xoli,
Go'zalsan-u, g'oyat makkorsan
Dog'uli, sho'x juvon misoli.

1980

ODAMDARAXT

O‘sayotgan
Kuchli daraxtman,
Shoxlarimda pishar so‘zlarim,
O‘ychan kuzak kelguvchi yo‘lga
Ikki tog‘day boqar ko‘zlarim.
Fursat esa —
Shoshqaloq bola,
Mevalarning xush bo‘yin tuyib,
Atrofimda tinmay aylanar,
Goh kunduzni, goh tunni kiyib...

1980

* * *

Uzum yig‘lar,
Yig‘lar buralib,
Yig‘layverar qishgacha dildan,
Billur kabi mo‘ldir turlanib,
Kuzda do‘nar oltin shingilga.
Poyoni yo‘q kuz og‘ushida
Qanday go‘zal yig‘laydi uzum!
Shunday bo‘lar haqiqiy yig‘i,
Ko‘rib qo‘ygin,
Ey noshud ko‘zim!

1980

* * *

Safsarlashar oqshomgi osmon,
Kun chekinar qorli tog‘larga,
Sukunatning munis qushlari
Uchib kelar kuzgi bog‘larga.

Kelar qora rido kiygan tun,
Sukunatning qushlarin suyar,
Suronlardan horgan shaharni
Silab-siypab uxlatib qo'yar.

So'ng poyida vafodor itday
Erkalangan shamol-la birga,
Yondirmasdan fonusi — oyni
Chiqib ketar poyonsiz qirga.

Uxlar ko'hna og'ushda borliq,
Faqat goho yiroq-yiroqdan
Hurib qo'yar daydi itlarday
Qorong'ida yotgan qishloqlar.

1980

* * *

Bobochinor sergak mudrardi
Kar, vaysaqi sherigi bilan.
Allaqaydan kelar sudralib,
Kuzak — xuddi uch sariq ilon.

Bobochinor uyg'ondi cho'chib,
Tanib qolar ilonlarni, oh,
Tungi yelga siynasin ochib,
Dam olardi homilador bog'.

G'ijirlaydi bezovta chinor,
Ogoh etib shovullaydi: ku-u-z,
Ammo uchta sap-sariq ilon
Og'ochlarga o'rlardi, afsus.

Ojiza bog' urindi har yon,
Izillatib so'ngsiz tonglarni.
Nogoh qutilar ko'tardi faryod —
Og'ochlarning sho'rlik jonlari.

1979

MAVZU

Boltalarning bo‘g‘iq zarbasi...
Sirqirayman urgandayin barq.
Og‘ochlarning ulkan sharpasin
Oy nurlari qilolmaydi g‘arq.

Boltalarning bo‘g‘iq zarbasi...
Yetib keldi bu yerga dushman.
Halok bo‘lar faqat bir lahza
Yerga qo‘ngan bahaybat qushlar.

Boltalarning bo‘g‘iq zarbasi...
Yaydoq cho‘lga tashlayman odim.
Og‘ochlarning dodin ko‘tarib,
Izlarimdan kelar zil yodim.

Xotiramdan chiqmaydi dushman,
Har zarbadan go‘yo barq urar.
Potirlaydi bag‘rimda qushday
Ildizlari qirqilgan yurak...

1979

* * *

Oy gulladi. Osmon toqiga
Yulduzlarni kimdir qoqadi.
O‘zanlarda sokin to‘lg‘anib
Tag‘in quyuq kunduz oqadi.

Osmonlarda o‘tlagan bulut
Podasini shamollar haydar.
Suronlardan horigan dala
Ibtidoiy jimlikka qaytar.

Yurak sokin qarar atrofga,
Sindirmaydi endi qafasin,

Faqat sezar poyonsizlikda
O'layotgan kuzning nafasin.

Huvillagan sariq vodiyda
Qarigan kuz yotadi behol —
Ko'zlariga osmonni joylab
O'lsa bo'lar endi bemalol...

1980

LAHZA

Xazonga aylandi kunlarim...
Motamda turganday boqaman.
Fasllar to'qnashgan lahzada
Xazonlar to'pini yoqaman.
Ko'zlarim achishar, bexosdan
Yuragim, qo'llarim titraydi.
Alanga olmaydi kunlarim,
Tutaydi, oh, muncha tutaydi.

1979

ISHQ

Bir kun osmon olmazorida
O'ynayotgan farishta qizlar
Ikki dona qizil, totori
Olma otib o'tganday bizga...

Porilladi ko'zimizda nur,
Bog'landi jon rishtalariga.
O'xshar edik ikkalamiz ham
O'sha mahal farishtalarga.

Olmalarni ichi qora vaqt
Olib qo'ydi qo'llarimizdan,

Shundan beri chaqirtikanday
Firoq o‘sar yo‘llarimizda.

O‘sha onlar hamon porlaydi,
Hamon tirik o‘sha nashida,
Hamon suzar qizil olmalar
Xayolimiz yoyilmasida...

1980

FARISHTALI...

Chol-u kampir
Shoshilmay salkam
Bir asrni yashab qo‘yishdi.
Kunjaraga, zog‘ora, patir,
Tomoshaga rosa to‘yishdi.
Kampirini eshitmaydi chol,
Eshitmaydi cholni kampiri.
Bir-biriga suyanib qolgan,
Biri ketsa,
Yiqilar biri.
Lek ko‘zlari hamon kuladi,
Yuzlarida aylanar ziyo.
Buziladi dunyo tasviri
Cholu kampir bo‘lmasa go‘yo.
Har narsaga qodir tabiat
Asramagin bunday qarishdan!
Ikkisining kiftidan ketmas,
Sakson yildir
Ikki farishta.

1980

ARMON

Kuylolmadim,
Yaproqlar kabi
Quruq shoxday titrar ovozim —
So'lib qoldi bahorim tag'in,
Suvga cho'kdi yana bir yozim.

Kuzak keldi
Bag'rimni dog'lab,
Qo'lin cho'zdi giyohga, gulga,
Sayradilar so'ng bora, bog'lar
To'lib qoldi o'lik bulbulga...

Qorlar yog'di,
Og'ridi jonim,
Uxlayotgan bog'lar poyida
Kuylolmasdim, undan yomoni
Yashil edim qantar oyida...

1979

VAQT

Vaqt senga qul bo'lmas aslo,
Undan kutma muruvvat, tama.
Sig'in unga, yolvorgin, avra,
Bir amallab vujudga qama.
Qul bo'lolmas senga, baribir,
Vaqt hamisha hushyor, jangari —
Yorib tashlar jismingni nogoh,
Chiqib ketar sendan tashqari.

1980

* * *

Aldab qo'yar ko'zlarim seni,
Goho o'ynar, goh termilar jim,
Sokin ko'lga o'xshaydi goho,
Goh tubida chaqnar yildirim.
Bu aldoqchi o'smir ko'zlarim
Yodgorlikdir yaqin do'stimdan —
Ko'zyoshini ko'rsatmay mangu
Yig'laydigan ko'zim ko'ksimda...

1980

* * *

Kun sayin ozadi yuragim,
Kun sayin vujudim semirar.
Yurakni yolg'izlik ezadi,
Vujudni lahzalar kemirar.
Sog'inchlar
Shamolday oqadi
Yurakka ko'rinmas rohlardan.
Qaysi bir qavatda — vujudim,
Yuragim tunaydi tog'larda.

1980

* * *

Sovqotdim,
Qo'llarim muzladi,
Osmonday sidirg'a yalangda
Gulxanga qo'llarim qalayman
Ko'kkacha o'rlasin alanga.

Yonmoqlik munchalar yoqimli!
Alanga, o'saver, o's tag'in.

Achinma,
Chinakam do‘st bo‘lsang,
Nari tur, shamolni to‘smagin.

1980

YOLG‘IZLIK

Uch ajoyib o‘g‘li bo‘lardi
Qachonlardir bechora cholning —
Biri shuhrat ortidan ketdi,
Biri haqning, biri xayolning.

Qanday erta ketishdi ular!
Ketdi qo‘rsi, sho‘xi, dilbari,
Chol bir umr kutdi qovjirab
Suvsiz qolgan o‘zan singari.

Kutaverib charchar, nihoyat
O‘ylab qolar ilk bor o‘zini,
Chaqirvolar ko‘pdan ko‘chada
Yo‘l poylagan ikki ko‘zini...

...Uxlab qolar, bolalik chog‘i,
Qishloq paydo bo‘lar tushida,
Do‘st-u yorning tanish yuzlari,
Kelinchakni ko‘rar tushida.

Uch ajoyib o‘g‘li qiqirlab,
Tizzasida o‘ynab-kulardi.
Birdan ular ulg‘ayib ketdi,
So‘ng yo‘qotib qo‘ydi ularni...

Volidasi oppoq ro‘molda
Yengi bilan artarmish ko‘zin:
“Bolam, olib ketgani keldim,
Qiynalibsan bunda bir o‘zing...”

Va uyg‘ondi, yurak tobora
Uzoqlashib ketyotgan edi,
Chol ko‘ksiga kaftini bosib,
“Rahmat senga, og‘ayni”, dedi.

So‘ng yashamay qo‘ydi, charchadi,
Chol yuzgacha yashardi, biroq
Yoqtirmasdi, istamasdi ham
Bitta o‘zi yashashni uzoq...

1980

SAFAR OYI

Sen yotasan yumshoq to‘shakda,
Derazangdan ko‘rinar yulduz.
Hamon o‘ychan ko‘zing oldidan
Oqib o‘tar bahor-u yoz, kuz.

Dadang esa ulkan adirda —
To‘shaksiz, tor, qorong‘i joyi.
Hatto parcha osmoni yo‘qdir,
Yo‘q oftobi, yulduzi, oyi.

O‘n yil avval seni dunyoga
Bergandi u ranjib, og‘rinib,
Xavotir-la kuzatdi o‘n yil,
O‘n yil seni kutdi sog‘inib.

Shamollarga berding yoshlikni,
Yerga emas, boqding osmonga,
Bir odamga zarurroq eding,
Kerak emas eding jahonga.

Ming bor seni kechira olar,
Ko‘zlaringning vazmin nigohi

Chavaqlashga haqli bo‘lsa ham
Hamon turar mehrli boqib.

O‘ylanasan, o‘ylagan sayin
Og‘irlashgan xotirang og‘rir,
Bu mehribon, bu teran nigoh
Og‘ir, og‘ir, naqadar og‘ir!

Hamon seni sevar samimiy
Azoblanar to‘kkan yoshingdan.
Kechalari sezdirmay kelar,
Sahargacha turar boshingda.

U shu qadar ulug‘, kamtarin,
Unga hamon yarashar xo‘rlik —
Tinch uxlasin o‘g‘lim deb hatto
Tushlaringga kirmaydi sho‘rlik.

1980

OYIMMOZOR

Adirlar, adirlar, adirlar —
Horg‘in, oq tuyalar karvoni.
Sudralib yo‘l olar moziyga,
Oldinda oq kiygan sarboni.

Olislab boradir bu karvon,
Izidan boqarman tosh bo‘lib.
Og‘zimni yoparman, ko‘zimdan
Lahzalar quyilar yosh bo‘lib.

Yangi qor qoplaydi atrofni,
Ko‘milar karvonning izlari.
Men endi yuraman oldinga —
Moziyga qadalgan ko‘zlarim.

1980, yanvar

AVJ

Men, shubhasiz, parchalanaman,
Shunday tugar buyuk xizmatim.
Kimga ko'zim, kimga peshonam,
Kimga tegar qiziq qismatim.

G'alayonga to'la vujuddan
Oxir dunyo bo'ladir xalos.
Yer ostiga kirib ketarman
Barcha mo'min bandalarga xos...

Biroq yerda mangu yashaydir
Ko'hna yuzim, o'ychan ko'zlarim,
Demak, o'lmas bu dunyoda hech
Xudo bergan ezgu so'zlarim.

Ular yangrab tinmay aylanar
Razolatning tevaragida.
Men-chi, mangu kulib yotarman
Quloq solib yerning tagida.

1980

XOTIMA

Xotirjamlik,
Vazminlik kerak
Chizgan mahal olam tasvirin,
Har bir rangda haqiqat bordir,
Har chiziqda sirlar yashirin.

Xudo yashar
Har bir giyohda,
Har daraxtda bordir diyonat.
Ayirmagin ranglardan rangni,
Sen ranglarga qilma xiyonat.

Dunyo qizil,
Dunyo sariq, deb
Bekor bizga berishgan saboq.
Dunyo azal rangindir va biz
O'ylagandan ko'ra ranginroq.

Chiza olsang
Rangin dunyoni,
Rangin bo'lsa quyoshi, oyi,
Sendan buyuk musavvir bo'lmas,
Bo'lmas sendan buyukroq shoir.

1980

SO'NGGI QISHLAR

Isfandiyorga

Suq bilan tikilding,
Talashding keyin,
Qiz talashgan kabi dag'al,
Jangari.
Balki sog'inchdandir,
Balkim shunchaki
Anordan zavqlanding bola singari.
Anorni yemading,
Sovuq fevralda
Sen uni asrading,
Ko'z-ko'zlab,
Suyib.
Bizlardan qizg'anib,
Kulgili holda
Yotding yostig'ingning ostiga qo'yib.
Biz-chi, "qariya"lar,
Yangi-da, derdik,
Xayol ham qilmasdik tortib olishni.

Sen birinchi qishni o‘tkazar eding,
Biz-chi, o‘tkazardik beshinchi qishni.
Keyin nima bo‘ldi, ha, keldi bir qiz,
Sochlari sap-sariq,
Ko‘zlari ko‘m-ko‘k.
Anor sovg‘a qilding,
Quvondi cheksiz,
Sen mamnun iljayding, achinmading, yo‘q.
Mana, yillar o‘tdi,
Eslayman seni,
Sening ham ortingda so‘nggi qish qolar.
Kimnidir mazaxlab kulasan endi,
Anorni sog‘inar
Endi boshqalar...
Ular ham she’r yozar
Dilbar kuzlarga.
Orziqib kutishar bahorlarini.
Berishar
Ko‘zlari ko‘m-ko‘k qizlarga
Quvaning
Ajoyib
Anorlarini.

1976

YO‘L MANZARALARI

* * *

Tik qoyaga chiqaman bazo‘r,
Oyoqlarim ostida qoya.
Charaqlagan kenglikda ko‘zim
Qirg‘iy kabi suzar nihoyat.

Tuyalardek cho‘kkan adirlar...
Ko‘k olovda yonar har yonim,
Ko‘rsa bo‘lar o‘ychan oqqanin
Guldiragan tog‘lik daryoning.

Ufqlarda mangulik sari
Suzar qari tog‘lar qorayib.
Yuragingni ezmaydi bunda
Pastdagiday — dunyo torayib...

Ko‘z o‘ngingda dunyo shaklga
Sig‘maydi ham bilmaydi hudud.
Kengliklarni ko‘rsatmoq uchun
Yaxshiyamki cho‘qqilar mavjud.

1979

VENETSIYA

Yigirmanchi asr!
Tashlab ket meni,
Boqiy go‘zallikni bilmas bu olam.
Ming yilni yelkamda ko‘tardim, endi
Malol kelayotir soniyalar ham...
Otam —
Metamauko xoki ostimda...

Qaydandir chorlaydi go'zal spina.
Ravenna ingrog'i yangrar ustimda,
Ming yilkim poyimda yig'lar po'rtana...
"Bevafo dunyo bu — vafosiz dunyo",
O'tganlar haq gapni aytgan edilar.
Zamin qa'ridadir sanoqsiz ma'vo —
Troya,
Tarteslar,
Atlantidalar!
Yigirmanchi asr!
Meni o'ylama,
Tumshug'imga tiqma liralaringni,
Muhtojlarga bergin, kamingni yama,
Shifola qontalash yaralaringni.
Bilaman,
Go'zallik, nafosat uchun,
Saxovat qilasan o'zingcha go'yo.
Biroq, nega kerak mikena bukun,
Nima qilib berar senga troya?

O'tinaman, asr!
Achinma menga,
O'ylagin qismatlar nihoyasini.
Xalos et yillarning g'ubori ko'mgan
Odamzod qalbining troyasini!
Cho'kib borayotir muqaddas hislar...
Muqaddas orzular, go'zal tuyg'ular,
Xaloskor bo'lolmas bobil, tarteslar,
Senday buyuk dastga muhtojdir ular...
Notinch bag'ring uzra chayqalib turar
Shu boqiy olamning ezgu hislari.
Men cho'kib boryapman, cho'kmasin sira
Inson yuragining Venetsiyalari!

1976

TAVBA

Ochdilar —
Ko‘zlari iltijo to‘la,
Ochdilar iforli quchoqlarini.
Yuraklarga sanchib yiqildi ular
Sevgining shafqatsiz pichoqlarini.
O, ayol sevgisi,
Ayol sevgisi,
Biz ajin tushirdik yonoqlaringga.
Biroq sen...
Mahkamroq yopishding,
essiz,
Kamtar oshiqlarning oyoqlariga.
Seni bosib o‘tdik,
Majaqlab o‘tdik,
Behuda tashvishlar yukin orqalab,
Moviy og‘ushingdan yiroqlab ketdik,
Urushlar,
Xatarlar,
Jarlar yoqalab...
Endi yasharmizmi mangu g‘aflatda,
Sog‘inib
Qachondir yongan gullarni;
Bu uzun yo‘l bo‘ylab
har bir bekatda
Musht bo‘lib tugilgan
Jajji qo‘llarni?!
O, jajji qo‘lchalar,
Yo‘qdir sanog‘i,
Ozgina muhabbat, mehr so‘ragan,
Sevgining shafqatsiz,
Yovuz pichog‘in
Yurak devoriga mangu tiragan,
Kechalar uxlatmas —
Yurakka sekin

O‘rmalar kimningdir pok tilaklari.
Bir kun bo‘g‘ib tashlar bizlarni sevgi —
Xo‘rlangan sevgining
Oq bilaklari...

1976

MINORAYI KALON

Ming yillar qa’ridan keladi,
Kulfatga yo‘liqib ming bora.
Tinimsiz toshbo‘ron, qirg‘inga,
Xo‘rlikka duch kelgan minora!

Necha bor to‘plarga tutildi,
U judo bo‘ldi bosh qismidan...
Va lekin jon qoldi sharqona
Bezaklar bitilgan jismida.

Tasanno aytaman tuproqning
Metindan kuchliroq doshiga.
Har yili in qurar laylaklar
Minorning nuragan boshiga.

Bu yil ham minorda, xayriyat,
Sharqona bezaklar so‘nmapti.
Minorning boshiga bu yil ham,
Xayriyat, qarg‘alar qo‘nmapti.

1980

TARIXIY ONG

Chumolidan battarroqsan sen,
Vaqt o‘tar jismingni yanchib.
Ikki ko‘zing — ikkita kuchuk,
Qarolmaysan atrofga ranjib.

Ko‘ksingdagi muqanna bilan
O‘zligingga qaradingmi, ayt?!
Musht zarurroq bo‘lgan mahalda
Yozding go‘zal she’rlarni faqat.

Sen bechora, notavon kimsa —
Makon qilding gullar ortini,
Ko‘zing yumib, tilingni tishlab,
Tinglayapsan odam dardini.

Sen botirlar naslidan emas,
Qanday chidar poyingda rohlar?!
Halok bo‘lgan botirlar jangda,
Tirik qolgan faqat qo‘rqoqlar!

1980

* * *

Qanday yaxshi
Ertakdagiday
Bir yumalab daryoga do‘nmoq,
Bir yumalab oppoq kaptarday
Daraxtlarning shoxiga qo‘nmoq.
Do‘stlarim bor,
Ular har safar
Tog‘ soyiday sharqirab oqar,
Atirgulga aylanib tongda
Suluvlarning ko‘ksini yoqar.
Bir do‘stim bor,
G‘oyat riyokor,
Bir yumalab tulki bo‘ladi,
Bir yumalab do‘nar odamga
Va baribir kulgi bo‘ladi.

1980

LORKA

Qovirg‘ada qisib xanjarni
O‘lib yotar yolg‘iz toshyo‘lda,
Cho‘qqilardan izlar ajalni,
O‘rmonlarda adashgan, ko‘lda.

Sakro-monte g‘orida o‘lar,
Lo‘li qizning achchiq ohidan.
Korridada yerparchin bo‘lar
Qora o‘lim — buqa shoxidan.

U chalqancha yotar maydonda,
Oqib kirar og‘ziga yomg‘ir,
O‘zi suygan yomg‘ir daryoday
Olib ketar jismini oxir.

Yovlariga sohilda daflab,
Yunus baliq kabi otilar,
Po‘lat jismin daryoga tashlab
Benamexga qochar qotillar.

Xayolimdan sira ketmas bu
Ulug‘ o‘lim — abadiy firoq,
Yot o‘limga kelaverar duch,
O‘z o‘limi yo‘q edi biroq...

1979

20 YIL AVVAL

Oloy qirlaridan
Ketar saraton,
Sovuq shabadalar uyg‘ondi tag‘in.
Qushlar qiy-chuviga to‘ladir osmon —
Sentyabr yaqin.

Ertadan kechgacha
Singlim ikkimiz,
Soyda cho‘milamiz, cho‘zma otamiz[1]
Yarim kechagacha kelmay uyqumiz,
Sirli yulduzlarni sanab yotamiz.
Cho‘ponlar turardi bizdan sal nari,
Hammasi xushchaqchaq, hazilkash, hotam.
Ko‘zdan yosh chiqquncha kulishar bari,
Kulgili gapirsa paxmoq singilcham.
Har shom doirasin chalar qari chol,
Tinmay qiyqirishar to‘rt-besh yosh-yalang
Tog‘larga termilib suradi xayol
Ular orasida bir o‘smir — bo‘shang,
“Qiz bola” deyishar unga so‘z ora,
Qiyqirib kulishar shaddod do‘stlari.
Biror so‘z demasdi,
Keyin bechora
Tojikcha so‘kinib ketardi nari.
Qiziqib borardik biz orqasidan
Cho‘ponlar siylagan novvotni shimib,
U yotgan bo‘lardi suv yoqasida
Yig‘idan qizargan ko‘zlarin yumib.
Bir oz hadik bilan
Borardik yaqin,
Biror so‘z demoqqa yetmas jur’atim.
Biz uning qo‘lida ko‘rardik tag‘in
Ko‘zlari kattakon
Qizning suratin.
Bizlar go‘dak edik,
Bilmasdik hali
Nega ko‘zyosh to‘kar kap-katta odam.
Yoshim beshda edi o‘sha mahali,
Ikkiga to‘lgandi
Paxmoq singilcham.

[1] Cho’zmaotar.

Haftalar ortidan sirg‘alar hafta,
U yurar qandaydir xayolga cho‘mib.
Yotar soy bo‘yida —
Qo‘lida daftar,
Yig‘idan qizargan ko‘zlarin yumib.
Endi hayiqmasdan
Borardik yaqin,
Biror so‘z demoqqa yetar jur’atim.
U kular,
Ko‘rsatar tishining oqin,
Biz ham ko‘rar edik
Qizning suratin.
U biz bilan o‘ynar,
Erkalar, suyib.
Ot rasmin chizadi,
Chizar qo‘zichoq.
Keyin-chi, to‘satdan qovog‘in uyib,
Olis tog‘lar tomon
Termilar uzoq.
Bizlar go‘dak edik,
Bilmasdik hali,
Nega yiroqlarga tikilar odam.
Beshdan sal oshgandim o‘sha mahali,
Ikkidan o‘tgandi paxmoq singilcham.
Bir kun janjal chiqdi —
Turar so‘kishib,
Mushtlashishga esa yetmay jur’ati.
Yashirib qo‘ygandi kimdir tegishib
Ko‘zlari kattakon
Qizning suratin.
...U ketdi adirlar qoraygan chog‘i,
Ketdi qizilsuvni asta yoqalab.
Qopni orqalab...
Yigitlar kulishdi
Qaytib kelar, deb.
Chol-chi, yo‘lga qarab qovoq soldi jim:

"Katta trassaga borolmas yetib,
Hazlakam gap emas
Ellik chaqirim".
...Ular kech yotishdi
Har kundagidan,
Uni kutishardi, sababi.
Chol esa shimining keng cho'ntagidan
"Belomor"ni ulab
Chekdi asabiy.
O'tdi yomon tushga
To'la kecha ham.
Mashina to'xtadi sovuq azonda.
Kabinadan shoshib tushdi bir odam
Va ishora qildi
Kuzov tomonga.
Bilmadim...
Cho'ponlar yig'lashdi uzoq...
Bir-birin quchoqlab, o'zlarin urib.
Biz shoshib chopdigu qochdik orqaga
Bo'ynidan g'ajilgan
Bo'rini ko'rib.
Qon qotib qolgandi uning bo'ynida,
Qo'rquv-la kuzatdik qonli tishini.
Biz taniy olmadik bo'ri yonida
Qimirlamay yotgan kishini...

1975

* * *

Ukalarimga

Dadam o'ldi,
Go'yo cho'kdi tog',
Shamol yo'li ochilib ketdi.
Quchoqladik bir-birimizni,
O'tkir sovuq

Suyakka yetdi.
Shundagina angladik, qanday
Og‘ir bo‘lgan uning ahvoli.
Tog‘day jismi bilan u to‘sib
Turgan ekan barcha shamolni.
Bo‘shliq ezdi yuragimizni,
Og‘ushida so‘zlatdi qayg‘u:
“Biz g‘aflatda yashar ekanmiz.
Qanday ulug‘ odam ekan u”.

1980, yanvar

SAVOL

Kim edim-u
Kim bo‘ldim endi,
Qayga ketar yoshligim, kuchim,
Isyonlarga, g‘azab, nafratga,
Og‘riqlarga to‘ladir ichim...
Ko‘proq yashab qo‘ydim shekilli:
Oy, kun sayin xotiram — og‘ir,
Yetti qavat osmon tepamda,
Yelkalarim sirqirab og‘rir.
Tashladimi yoki bir umr
Ko‘zimga g‘am ko‘lkalarini,
Parvardigor,
Bor bo‘lsang agar,
Ezma o‘g‘lim yelkalarini...
Kim edim-u
Kim bo‘ldim endi,
Ko‘rib turar quyosh, suv, tuproq.
Ko‘zlarimdan ko‘ra hayotni
Yelkalarim ko‘ribdi ko‘proq...

1980

YANA SAVOL

Oyog‘imga
Botmon toshlarni
Bolalikdan bog‘lab qo‘ydi kim?
Endi xalos bo‘lmoqqa yetmas
Yovuzlardan asragan umrim.
Xudo bergan soniyalarni
Xarob qildi qaysi g‘alamis?
Agarda shu toshlar bo‘lmasa,
Uchar edik samolarda biz.

1980

MARAFON

Tezoqar sel kabi
Yurak sirqirar,
Xuddi yer shariday aylanar boshim.
Ufqqa sanchilgan yo‘llar chaqirar,
Faqat yetarmikan bardoshim?!
Qulog‘im shang‘illar,
Ko‘pchigan o‘pkam
Bo‘g‘zimda turibdi shundoq tiqilib.
Baxtiyor bo‘lardim bir kuni o‘lsam
Yurakni changallab,
Yiqilib.
Ekranga qaraysiz
Cho‘chib, qunishib,
Mixda o‘tirganday notinchsiz shu tob.
Men bilan chopyapsiz harsillab,
Pishib,
Men bilan ter to‘kib,
Azob chekyapsiz!
Sizning daldangizni bag‘rimga bosib
Chopyapman,

Baquvvat ruhim paylari,
Bir kuni qularman madorsiz o'qchib,
Qolarman yo'llarga aylanib...
Keyin bosib o'tar boshqalar meni,
Yo'llarga oqizib ter,
Qonlarini.
Men esa o'paman uzoq sevinib
Ularning
Qaqshagan
Tovonlarini!

1976

O'SH TOG'LARI

Rassom Shuhrat Abdurashidov xotirasiga

Quladimi, cho'kdimi bu tog',
Tog' o'rnida qoldi bir qabr?!.
Tog'larini yo'qotib, sarson —
Ko'zyosh to'kar bir to'da abr.

Quladimi, cho'kdimi bu tog',
Yuragimda ortdi dog'larim?
Bilolmayman, o'n yildan keyin
Ko'rarmanmi sizni, tog'larim.

Yurt kezaman: yig'lar yuragim —
Bu qandayin razolat, ofat —
Buyuk tog'lar o'rnida har gal
Qabrlarni ko'raman faqat.

Ko'rmayin deb ketarman badar,
Ketgan sayin yurakda dog'lar:
Xayolimdan ketmaydi biroq
Yerga qarab o'syotgan tog'lar!..

1979

* * *

Sharq uyqudan
Uyg‘onar go‘zal,
Quyosh chiqishiga o‘xshaydi bu hol,
Hozircha u yozgi jaziramada,
Hozircha dunyoga boqadi mudroq.

Buzilgan dunyoning bir chekkasida
Sharq go‘zal uxlaydi,
Yoglarga o‘xshab —
Ko‘mib tashlasalar hamki, baribir,
Ruhi o‘saverar,
Idroki o‘sar.

Ammo uyqusidan
Uyg‘onar go‘zal,
Hayrat qamrab olar hamma narsani.
Sharq quyosh singari uyg‘ongan mahal
Dunyo sezib qolar uxlayotganin...

1983

* * *

Qaytdim yorug‘ yulduzlarimga,
Shu’lalarga to‘ldi har onim.
Meni ko‘rib qo‘zg‘alib ketdi
Adirlarning sariq karvoni.

Tumanlarni qo‘porar tog‘lar,
Giyohlar ham ko‘zin yoshlaydi.
O‘shning ko‘hna quchoqlarida
Ko‘nglim yana o‘sa boshlaydi.

Majnuntollar ko‘tarar boshin,
Yana raqsga tushar teraklar
Va xotirjam yashay boshlaydi

Meni uzoq kutgan yuraklar.

Ariqlarda tovlangan she'rga,
Yaproqlarning qatiga indim.
Oyoqlarim... Yerga botadi,
Shu o'lkada o'sarman endi.

1979

* * *

Quyosh, senday yashasam yonib,
Hech bilmasam qayg'u, o'limni,
Ilonlarga... Odamlarga ham
Uzatardim qaynoq qo'limni.

Quyosh, senday yashasam yonib,
Pisand qilmay ayozni, qishni,
Men o'rganib olardim bir kun
Hammaga teng kulib boqishni.

Biroq senday yasholmam aslo,
Boqolmasman hammaga xushhol,
Buyuk emas bardoshim, senday
Erta tongda chiqmog'im mahol...

Sen-chi, takror chiqaverasan,
To'zim bilmas sendagi bardosh.
Naqadar zo'r, naqadar ulug'
Va naqadar baxtlisan, quyosh!

1980

QO'SHIQ

Gang daryo bo'yida
Hindu qizlari
Ko'zlarin muzlagan tog'larga qadab,
Bir qo'shiq aytadi qadim-qadimdan,

Bir qo'shiq aytadi dunyoga qarab.
Ulug'vor,
Nuroniy tog'lar ortida
Teran tomirlarin uzgan gunohkor —
Zilol buloqlardan benasib dunyo,
Adashgan, yig'lagan
Bitta dunyo bor.
Mehr-u muhabbatga, sog'inchga to'lIq
Qo'shiqlar uchadi tog'lardan oshib —
Adashgan dunyoni chaqirar qizlar,
Larzaga tushadi tog'larning toshi.

Necha ming yillarkim
Hindu qizlari
Tangrilar tug'ilgan hind tuprog'ida
Bir qo'shiq aytadi,
Ishonib faqat
Qo'shiqlar dunyoni asramog'iga...

1983

YO'LOVCHI

O'ttiz uch yoshimda
O'ttiz uch ming yil
Hasrati, dog'i bor qarashlarimda,
Sangtarosh xo'rsinar qadimdan buyon
Olam toshlarini taroshlar ekan...
Qadam bosganimda chayqaladi yer,
Chayqalar yodimning og'irligidan.
Biror asr uxlay,
Ichayin chog'ir,
Bergin, yer, ming yillik chog'irlaringdan.
...Birdan afsonaviy kishvar ochildi,
Simirdim qip-qizil gullarning isin.
Olam go'zal ekan,
Shunda ilk bora

Eshitdim qalbimning teran yig'isin.
Borliqni unutib uxladim lahza,
Ruhimdan uvalib ketganday g'ullar.
So'ng cho'chib uyg'ondim kuz nafasidan,
Sarg'ayib qolgandi
Qip-qizil gullar.

1983

FIKR

Daryoga aylandim,
O'ychan daryoga,
Ruhimda qadimgi osoyishtalik.
Qa'rimga berkitdim dolg'alarimni,
Ruhimga bo'ysundi dunyo ishlari.
O'ylayman yashamoq mohiyatini,
Qattiq nigohlarim osmon xatida.
Vujudim sezmayman,
Lazzat olaman
Har fikr — ruhimning harakatidan.
Biroq o'jar kunduz
Tovlanar ekan,
Yashil zamzamali yiroq tog'lardan
Irmoqlar — jodugar pari qizlarni
Boshlab kelar toshloq qirg'oqlarimga.
Qizlar ko'ylaklarin
O'tlarga yoyib,
O'ynatib jarangdor tovushlarini,
Xayolchan yuzimga oqshomga qadar
Otib o'tirishar mayda toshlarni.
Ruhim harakati to'xtamas, biroq
Har kun davom etar bu go'zal yovlik.
Menga osoyishta lahzalar kerak,
Jodugar qizlarga —
Sho'xlik, asovlik.

1983

QIZGUL

Qizil atirgulni
Tishlab olgan qiz,
Tizlarin quchoqlab o'tirar xumday.
Asriy muzliklarning g'ullarin yanchib,
Sahroyi samumga aylandim zumda.
Shunda u jilmaydi.
O'jar sochlarin
Shu'laviy qo'llari asta boyladi.
Bulbulday sayroqi buloqqa do'nib,
Siniq ko'zlarimga rasmin joyladim.
Qiz cho'zdi horigan oyoqlarini,
Zangori sayhonday bag'rimni ochdim,
Ulkan chinor kabi oltin oftobdan
Tangachalar yasab,
Ko'ksiga sochdim.
Shunda yuragimga umrini qo'ydi,
Unutdi kunlarning zil toshlarini,
Butun ganjinasin
To'kdi kaftimga —
Billur zarrasiday
Ko'zyoshlarini.

1982

BIROVNING GULI

Devor-la o'ralgan hovli ichida,
Ariqcha labiga egilgan ko'yi,
Atirgul o'rtanar kimning ishqida,
Epkindan qaltirar,
To'zg'igan o'yi.
Ey, desam,
Atirgul yomon titradi,
To'kilib qotdimi dedim hidlari.

Nuragan devorning beri yog'ida
Buzilgan yuragim nozik titradi.
Shundoq gul...
Kimsasiz hovli ichida,
Begona nigohdan titraydi muncha.
Munchalar xokisor kimning ishqida,
Avjida ochilgan,
Emasdi g'uncha...
Shundoq gul...
Haliyam boqar hayosiz,
Axir, sal yashirsa deyman dardlarin,
Eh, sho'rlik.
Tobora quyosh ayovsiz,
Hademay to'kilar baxmal barglari.
Bir o'tli nigordan titraydi yomon,
Jur'atli bir qo'lning sadqasi, quli.
O'ziyam gulmisan gul edi, ammo
Birovning guliydi,
Birovning guli...

1989

TOR KO'CHALARDA

Hamal — bol nafasli,
Tonglari — pushti,
Quyosh qahrabo may to'la kosadir.
Gullagan o'riklar
Jon o'rtaguvchi —
Oq hijob yopingan sho'x raqqosalar.
Sadlari oq, moviy rangga bo'yalgan
Hovlilar ustidan toshgan bulutlar.
Go'yo sen shirakayf turk sultoniday,
Tagingda o'ynoqlar chaqmoqday tulpor.
O'tasan go'yoki afsonalardan,
Nim qarab tor ko'cha go'zallariga,

Lablaring cho‘zilar
Dudoqlarida
G‘unchaday yashringan bo‘salariga.
Hamal o‘t nafasli milyonta qizlar,
Gullagan o‘riklar kabi tizilgan.
Kapalaklar kabi qizg‘ish tabassum
Tinmay qo‘naverar
Rangpar yuzingga...

QIYOS

Kuzatdim —
Har olma rangin sayyora,
Sollanib turar hur shabbodalarda,
Limillagan anhor eshilib oqar —
Shamolda tebrangan
Shalabbo parda.
Tun kelar,
Qadimiy osoyishta tun,
Oy haydar bulutlar —
Tevalarini,
Sanoqsiz qoramtir qalqonlar bilan
Daraxtlar yashirar mevalarini.
Yerdagi koinot parchasi — bog‘da,
Buzila boshlaydi to‘satdan sukun,
Tinimsiz to‘pillar...
Saharga qadar
Rangin olmalarni o‘ynab otar tun.

1983

HOLAT

Qiyoqli,
Yalpizli xo'b o'zanida
Tovusday tovlanib rosa yayrardi,
Quyoshdan qamashgan ko'k ko'zlariga
Majnun ko'zlarim-la uzoq qaradim.
Tiz cho'kib,
Quyoshni shart to'sganimda
Nafasin chiqarmay tikilganday suv,
So'ng o'pa boshladim:
Har o'pganimda
Qiqirlab-qiqirlab kulardi bu quv.

* * *

Oh, naqadar go'zal olmazor
Dalalarning keng og'ushida,
Oqib yotar oltin jilg'alar
Olmalarning sokin tushida.
Qirg'og'ida go'zal yulduzlar
O'ynayotgan jilg'aga bordim,
Ingrayotgan, keksa yurakni
Olmazorga qo'yib yubordim
Va kechaning yalpiz anqigan
Quchog'ida ketdim hushimdan:
Cho'milyotgan yulduzlar bilan
Olmazorni ko'rdim tushimda.
Subhidamda uyg'ondim cho'chib
Quyosh tig'in o'tkir zarbidan:
Voh, yuragim o'ynardi kumush
Jilg'alarning zumrad labida.
Tushimmi yo o'ngimmi — unga
Qarab qoldim ko'zimda vola:
Tungi, keksa yurakmas endi
O'ynardi sho'x, jonsarak bola —

Jilg‘alarni sayratardi xo‘p,
Goho qushday qo‘nardi qo‘lga,
Quvnab quvar kapalaklarni,
Dadil boshlar tikonli yo‘lga.

Xullas, bola — yurakka endi
Qari vujud qilardi torlik,
Olib ketdim baribir aldab,
Qilsa hamki g‘ashlik, ayyorlik.

Eshitildi shomgacha biroq
Uning ko‘hna kulbani tanib
Dodlagani, ko‘krak qafasim
Qattiq-qattiq mushtalayotgani...

1980

* * *

Tog‘ etagi, tog‘ olmalari
Mittigina, shirali, suvli,
Halol, qaysar tog‘ jilg‘alari —
Biri muzli, birisi kuvli.

G‘adir-budir tog‘ bag‘irlari,
Har qadamda zangori archa,
To‘nkarilgan dengiz boshimda
Porillaydi go‘yo ko‘k parcha.

Nur to‘kilgan sayhonda bo‘ydoq
Shamol bilan o‘ynar giyohlar.
Yuksaklikka ko‘tarar meni
Yildirimday yorishgan rohlar...

Buyuk toshlar, buyuk qoyalar
Saltanati nogoh boshlanar.
O, yiqilgan bulutlar yurti!
O‘pkam to‘lar, ko‘zim yoshlanar.

Suvlar yurti, sukunat yurti,
Toshday qotdim turgan joyimda —
Toshlar aro qizday yalang'och
Ko'l uxlardi shundoq poyimda.

Tiz cho'kaman, o'paman ko'lni,
Ko'l jilmayar uyqusida jim.
Hayajondan shoshib, entikib
Bor libosin yechar yuragim.

Qanday havo, oh, qanday soflik,
Oh, qandayin go'zal bu chog'lar!
Jilmayardi yalang'och osmon,
Jilmayardn yalang'och tog'lar.

1980

* * *

Oy nurini kiygan go'zalim
Farishtaday kirar xonamga,
Birdan atrof yorishib ketar,
Titroq kirar yana jonimga.

Tinmay boqar iltijo bilan
Yana hayrat to'la ko'zlarim.
Mayin qo'lin qo'limga qo'yar
Oy nurini kiygan go'zalim.

Yoyib tashlar shamol — sochini
Nafasidan gullar taraydi,
Mo'ldirlarin tiyib olmagan
Ko'zlarimga kulib qaraydi.

Rang qaytadi yana dunyoga,
Zulmatlarga yog'du sochilar,
Soylar kular, kuladi osmon,
Qor ustida gullar ochilar.

1979

* * *

Lablarimni kuydirib o'pdim,
Oxir senga yetishdim, olov!
Titrayotgan kuchli qo'limda
Hilpiraysan bamisli yalov.

Guldiragan yuksak yolqining
Yoritvordi yurakning qa'rin.
Men seni deb yuzimni yolg'on
"Xudo"lardan burdim teskari...

Yolqiningda qayragin, isit
Qishki osmon kabi ko'zimni.
Senday ko'hna isyonkor bilan
Qudratliroq sezdim o'zimni.

Qadimgiday birgamiz, olov!
Ko'ksimni yoq, borlig'imni quch.
Bu dunyoda topilmas endi
Bizni ayrib qo'yadigan kuch.

1979

QASIDA

Tutilgan oy, qadimgi
Fanorsan, anor.
Yoqut to'la qip-qizil
Qanorsan, anor.
Goho qorol, gohida
Pushtisan, anor.
Yerning qonga bo'yalgan
Mushtisan, anor.

1983

BASHORAT

Surilar bu temir pardalar,
Istibdodning tog'lari qular,
Mog'or bosgan qora qa'rlardan
Milyon ozod ruhlilar turar.
To'sib bo'lmas soxta vahiy-la,
Yolg'on shior,
Safsata bilan,
Hur fikrni bosgan vahima,
Dabdaba-yu as'asa bilan.
Qular qonda suzgan qasrlar,
Judab yitar sangin saltanat,
So'qir bo'lar asriy nahsdan
Bino bo'lgan yovuz shaytanat.
Kelar,
Kelar buyuk mehrdan
Kiftlar kiftga bosilajak kun,
G'amdan forig' jez kallalar ham
Ko'kraklarga osilajak kun.
Porlar toshga do'ngan so'zlarim,
Porlar mangu odamiy ruhim,
Porlar haqqa tashna ko'zlarim,
Xudo bergan mangu anduhim,
Yorug' anduhim...

OZODLIK

Qorli uvalarda qora qo'toslar,
Temir halqalar bor burunlarida.
Bir joyda aylanar buyuk cho'llarning
Daraga qamalgan quyunlariday.
Qamchinlar tarsillar,
Yorilar havo,
Qiy-chuvlar,

Hushtaklar,
Suronlar jo‘shar,
Harsillar,
Guldirar
O‘jar qo‘toslar,
Jon kirib quturgan tog‘larga o‘xshab.
Qorlar qorayadi...
Orqada qolar
Qamchinlar ovozi,
Shavaqi saslar.
Endi birin-ketin kenglikka emas,
Qorli cho‘qqilarga o‘rlar qo‘toslar.
Bu yo‘l so‘nggi yo‘ldir,
Yagona yo‘ldir,
Ularni na shamol,
Na qoya to‘sar.
Qo‘toslar o‘rlaydi tik cho‘qqilarga,
Poyonsiz borliqda cho‘qqilar o‘sar...

1981

GO‘L

Bu go‘l yerdir,
Dangasa emas,
Go‘l bo‘lsayam yerlarning zo‘ri,
Kuzni kuz-u, qishni qish demas,
Ko‘zlarini bo‘lmaydi ko‘rib.
Ya’ni ishdan ko‘tarmaydi bosh,
Berar ipak, qorako‘l, paxta,
Oltin, kumush, yana marmartosh,
Tag‘in haqin so‘ramas xarday.
Bu go‘l yerdir,
Hamma yog‘iga
Faqat qizil shior osilgan,
Hech ochilmas milyard og‘ziga

Bosqinchilar muhri bosilgan.
Qiyofati tag'inam qiziq,
Ko'ray desang jism-u rangini,
Shoshilmasdan suvratin chizgin
Terga botgan milyon zanjini.

1984

XONADON

Bunda hamma o'zini sevar,
Tag'in sevar nozik gullarni...
Chaqmoq ko'zli bolalar emas,
O'stirishar faqat qullarni.

Bu sho'rliklar xonadonida
G'araz, fosiq niyatlar tunar,
Halok bo'lar qancha daholar,
Muttahamlar, o'g'rilar unar.

Haliyam ko'z ochmagan xalq-da,
Hali kamdir imon, e'tiqod,
Yashaydilar bir-birin aldab,
Bir-birining motamidan shod.

Nafas olmay o'taman har gal,
Uf-f, naqadar o'tkir anqiydi
Irib ketgan orzu-xayollar,
Chirib yotgan tuyg'ular hidi.

1980

HAMMA

Bunda chumchuq
Yerga qo‘nmaydi,
Bunda parvoz qilmaydi nag‘ma,
Kulgani hech kimsa ko‘nmaydi,
Qo‘rqib yashar hammadan hamma.

Hamma xomush,
Hamma bir g‘amda,
Alanglaydi atrofga nuqul.
Xullas, sen-da yasha hammaday,
Hamma kulgan daqiqada kul.

1982

SHAXS QISMATI

Xayoli shan,
Andomi o‘ktam,
Daryo kabi jushqin zot edi,
Endi poda bosgan bu yo‘lda
Sariq ko‘lmak kabi yotibdi.
Asilzoda,
Asli bek edi,
Qulday to‘zdi qullar ichida,
Butun umr tirnadi yerni,
Paxta degan oyim ishqida.
Qochib ketdi,
Oh, ketdi qochib,
Qorovullar chalg‘igan damda.
Qo‘li ochiq,
Yuragi ochiq,
Ko‘zi ochiq ulug‘ odam-da.

1986

SOYA

Ko‘p narsaga
Ko‘niksa bo‘lar,
Loqayd qarab yolg‘on-u chinga,
Ruhning buyuk iztiroblarin,
Qudratlarin qamab ichingga.
Ko‘zingni yum,
Quloqni berkit —
Kunduzdan-da yorug‘dir yo‘ling.
Bir kun kelib alqar-u seni
Yuksaklarga ko‘tarar ko‘rlik.
Biroq qiyin,
Ko‘nikmoq qiyin —
Harakatga ko‘ngil tashnadir.
Otilasan bu tor olamdan
Kaltaklangan itday tashqari.
Yugurasan,
Bahaybat oyning
Yog‘dusida, mana, nihoyat,
Quvib kelib izingdan seni
Bosib ketar bahaybat soyang.

1983

NUR

Koinotning sovuq qa’ridan
Kelar bizdan xabar olgani,
Kelar cheksiz bo‘shliqda kezgan
So‘qir yerda mangu qolgani...

Har gal o‘zga sayyoralardan
Bizga yorug‘ salomlar aytar,
Biroq nechun yerni zulmatga
Tashlab, tag‘in ortiga qaytar?

Nechun yerda mangu qololmas,
Xomushlanar nechun ketar choq?
Zulmat bosgan qalblarimizda
Qadr-qimmat toparmi kamroq?

Yoxud ko'rmas rostlikni aslo,
Yoxud ko'rmas diyonat, g'urur,
Balki shundan mangu qololmas,
Balki shundan qaytib yurar nur.

1981

TOR KO'CHA

Kun chiqadi — huraverar it,
Kun botsa ham huraveradi.
Yaraqlatib tig'day tishlarin,
Tor ko'chada turaveradi.

Yuraksizlar turar bo'zarib,
Jasurlarning tugar bardoshi,
Necha yilki birovlar kirar
O'z uyiga devordan oshib...

Biroq barcha vahm-u gumonlar
Tugaydigan paytlar keladi.
Mana, bir kun it ovlovchilar
Varanglatib otdi o'latni.

Xayriyatki, qutuldi hamma,
Yo'qsa ahvol nima kechardi?
Xayriyatki, it ovlovchilar
Nogoh kirdi bu tor ko'chaga...

1981

BOBURIYLAR

Ikki daryo oralig'ida
Haq-adolat topmadi qaror —
Bari ketdi
Yurtni sog'inib,
G'urbatlarda yig'lagani zor.
Tangri bunyod etgandan buyon
Qancha olchoq,
Qancha yotlarga
Quchoq ochgan yurt torlik qildi
Qancha odil,
Fozil zotlarga.
Kimni aytay,
Kimni eslatay,
Sanay qaysi ulug' nomlarni,
Qay iqlimdan ko'rsatay bugun
Ul zotlarni yutgan komlarni.
Moziy to'lgan mungli sadoga,
Bir sadoki,
Ulug'vor, kabir,
Sahrolarda adashib ketgan
Karvonlarning sadosi kabi.
Mana, bugun
Moziy qa'ridan
O'z yurtidan ayrilgan, sag'ir —
Buyuk zotlar sirli hadikda
Kelyotganday bo'lar birma-bir.
Ular kelar...
Nahot eshitgan,
Nahot ular bo'lgan xabardor
Ikki daryo oralig'ida
Haq-adolat topdi deb qaror.
Birodarlar,
Bo'ling ehtiyot,
Birodarlar,

Yo'llarga boqing —
Tangri kabi keksa ochunda
Siz uchinchi daryoday oqing.
Haq-adolat dilingizdadir,
Avaylang, hech zavol yetmasin,
Ular kelar...
Tag'in moziyga
Yarim yo'ldan qaytib ketmasin.

1983

SULAYMONTOG' ETAGIDA O'YLAGANLARIM

Diyonatli, orli ajdodlar
Bu haybatli toshlar tagida
Biror lahza xayol surmagan
Soxta shuhrat, tama haqida...

Yasharkanlar yurtda sargardon,
Kezarkanlar g'urbatda yoxud,
Sulaymontog' poyida bir kun
Ko'milmakni qilganlar orzu.
Bundan ne-ne alloma o'tgan,
Ne jahongir, nechalab shoir,
Biroq aziz tog' toshlariga
Yozdirmagan hech biri nomin.
Sulaymontog' yuksalib turar
Bir elatning buyuk yodiday,
Hayron bo'lib poyiga bugun
Kelguvchilar e'tiqodidan.

Bugun kelar istagan kimsa,
Berib tama ilinjiga zeb,
Nomin yozar tog' toshlariga,
Palonchilar kelib ketgan deb.

Kuzatarkan orsiz, vijdonsiz
Kimsalardan to‘ygan kunlarni,
Bir hayajon,
Titroqda tuydim
Yer tagidan kelgan unlarni.
Sulaymontog‘,
Muqaddas yodim,
Ko‘rsam yurak-bag‘rimni dog‘lar,
Betayinlar nomin ko‘tarib,
Soat sayin o‘sar qoyalar.

1983

KO‘ZLAR

Go‘yo bunda
Har bir narsaning
Ko‘zlari bor — xotirasi bor,
Yayrab-yashnab qarashlari goh
Shafqat so‘rab jovdirashi bor.
Ko‘zi borday kuzgi dalaning,
Ko‘zi borday nuroniy tog‘ning;
Xotiramga sanchilib qolar
Narsalarning o‘tkir nigohi.
Qaraganday
Har bitta narsa
Har bir sharpa tovushlarimga,
Suv ichaman,
Yorug‘ nigohlar
To‘lib ketar hovuchlarimga.
Guyo shu yer,
Shu bezabon yer
Ko‘rmaydi deb o‘ylamoq xato.
Go‘yoki yer ulkan bir ko‘zdir,
Ilg‘ab turar o‘yingni hatto.
Go‘yo shu yer,
Shu xokisor yer

Farqlar yaxshi, yomon — barini,
Tanib olar bir kun baribir
O‘zin asl jallodlarini.
To‘lqinlanar ulkan adirlar,
Dov-daraxtlar yoprilar lak-lak,
Qattol davr, asrlarni u
Salobati bilan ezajak.
Neki yolg‘on,
Omonat bo‘lsa,
Halok bo‘lar bari bir zumda.
Qular, cho‘kar, to‘zonga do‘nar
Eng odil va qat’iy hukmdan. *1983*

AFSHONADAGI IBN SINO HAYKALI

Buyuk hakim o‘ylanib qoldi
Afshonaning qoq o‘rtasida —
Go‘yo ushlab jon tomirini
Quloq solar
Yerning sasiga...
Saratonning osmoni ezgan,
Holdan toygan
Dalv oyiday,
Rangi ro‘yi qumday bo‘zarib,
Yer yotadi hakim poyida.
Ming yilki yer
Bor orzusini,
Bor havasin ko‘ksida yoqdi,
Qora terga botib ming yilki
Diyonatsiz kaslarni boqdi...
O‘z holiga qo‘ysalar agar,
Qilmasalar zo‘rlik-u zino,
Tug‘armidi to‘lg‘oqdagi yer
Har yilida bittadan sino.
Tilsiz yerning azoblarini

Sig'dirolsam qaniydi she'rga —
Hamon ko'plar tupurib yurar
Buyuklarni yaratgan yerga.
Bu kimsalar suvning o'rniga
Zahar-zaqqum bermoqqa yarar.
Yerning dardi shu qadar og'ir,
Go'yo yetdi sinoga xabar.
Mana, hakim...
Nechun hayallar,
Nechun uzoq tinglar sasini,
Qay usulda davolay olar
Yerning buyuk xotirasini.
Yuz yil, ming yil,
Balki uzoqroq,
Kerak bo'lar mangulik balkim —
Ushlab yerning jon tomirini,
Xayol surar nuroniy hakim.

1983

BIR XOIN XUSUSIDA

Azaliy ko'zlari
It ko'zlariday...
Yuzida azaliy dardi bor edi.
Qomati hamisha kaltabinlarga
Egilgan boshiga sayyor dor edi.
Har nokas kelaru borini olar,
Qo'ynida to'lg'ongan yorini olar,
Qovushgan qo'liga kulib qarar-u,
Og'ir nigoh bilan jonini olar.
Sarboz etiklari ostida dunyo —
Dunyo kelajakka kirmakda yonib.
Turar u qo'llarin qovushtirgancha,
Oqar sanjoqdagi ruhidan qoni.
Jonim-jigarimsan,
Sen-da odamsan,

Loaqal ko‘zingda bir yosh ko‘rsaydim,
Loaqal qovushib qolgan qo‘lingda
Yovlarga atalgan bir tosh ko‘rsaydim.
Qay bir qaro kunda tug‘ilgan eding,
Seni chetlab o‘tar ishqdir, iqboldir.
Ummon cho‘lga do‘nar,
Cho‘llar ummonga,
Tog‘lar qumga do‘nar,
Faqat sen qolding.
Turasan kelajak bo‘sag‘asida
Bulg‘ab pok quyoshning ziyolarini,
O‘z suvrating bilan buzmoqlik uchun
Baxtli bolalarning dunyolarini.
E, yo‘g‘-ey,
Men seni bo‘g‘ib tashlarman,
Kelajak ko‘rmasin senday beorni.
Nimadir qars etdi,
Bir oh dedim-u
Yuztuban yiqildim
Changallab qorni.
Bo‘rilar hidsirab keldi dunyodan...
Yuztuban yotganim ko‘rmadi hech kim —
O‘z qo‘lim o‘zimni mahv etdi bugun,
O‘z yerim o‘zimning qonimni ichdi.
Qotilim bilmadim,
Ko‘rdim hammadan —
Yuz bora, ming bora botdim gunohga.
Sen o‘tding kelajak bo‘sag‘asidan,
Mendan-da kerakroq eding dunyoga.
Seni alqadilar,
Kiftingga qoqib,
Maqtovlar yog‘ildi oqqush pariday,
Men esa yig‘ladim ena yerimning
Toptalgan qorong‘i og‘ushlarida.
Ena-ey,
Ena yer,

Qonimni ichgil,
Tezroq ado bo'lsin jismimda xo'rlik.
Eshitdim tog'larning guldirosini,
Ko'katlar ko'kkacha o'sganin ko'rdim...

CHINOR KO'RINISHLARI

Vodil guzarida bir chinor ko'rdim,
Bo'ronlar qo'pguday har nafasidan,
Taralguday bahor qaldiroqlari
Pahlavon kelbatli chinor sasidan.
Yerning shoxlab ketgan
Nidolarimi
Yo yerga sanchilgan dasta chaqinmi,
Oydin sharpalari sochilgan mahal
Alvastiga o'xshar,
Bo'lmas yaqinlab.
Ko'rdim azim filday bujur tanida
Qilichlar izlarin,
O'qlar izlarin.
Soatlab tingladim,
Biroq behuda,
Chinordan behuda sado izladim.
Yopiray,
Bu qandoq ko'rinish bo'ldi,
Qursog'i o'yilgan, ruhi ezilgan.
Gavjum yo'l bo'yida qadalgan darvish
Quloqlari karday,
Tili kesilgan.
Tomirlari —
Tuproq yuzida bo'rtgan
Chayir tomirlari shartta chopilgan.
Bu qandoq suvratdir,
Qani, yigitlar,
O'ylashib ko'raylik,
Qanday topilma?!

Balki bu azamat —
Chinor emasdir,
Biror alpning daydib yurgan ruhidir
Yo biron jahongir,
Yurt talovchining
Unutib qoldirgan mudhish tug'idir.
Va yoki bu chinor biror valining,
Yerga sanchib ketgan tayog'imikin?
Bulutlar ustida dam olayotgan
Bahaybat devning bir oyog'imikin?
...Zamonlar yaratgan chinor suvrati
Bir asriy timsol bor,
Katta qismat bor.
Ko'rarmidi shundoq tarixni, agar
Katta yo'l bo'yida
O'smasa chinor.

1983

KUZGI YER KO'RINISHI

Qurigan,
Bahaybat yaproqdir yerim,
Yerim,
O'zim kabi giyohvand yerim,
Yotibman kuzakning bir parchasiday,
Yotibman,
Bag'riga bag'rimni berib.
Tagimda somonday sarg'aygan maysa,
Kuzatdim bo'zargan osmonlaringni,
Xotirlab jannatiy giyohlaring-u
Bag'ringda bo'g'ilgan
O'rmonlaringni.
Zilol suvlaringni qo'msab yotaman,
Qo'msayman rang-barang chechaklaringni,
Qushlar, sitoralar, saratonlarga,

Ertaklarga to'la kechalaringni.
Nogoh sado keldi
Qalbing qa'ridan:
Intizor turibdi poyonsiz olam,
Maysamni hidlama,
Ichma suvimni,
Sarg'aygan bag'rimda yotmagin, bolam.
Yerim —
Bor-budidan ayrilgan yerim,
Jonim joningdadir —
O'jar bolangman
Men sening osmonga yetmasdan tag'in
Bag'ringga gup etib tushgan nolangman.
Kechmoq va unutmoq mumkindir balki
Kichkina kaslarning shaharchasidan.
Sendan ketib bo'lmas,
Yotmasam bo'lmas
Bag'ringda kuzakning bir parchasiday.
Shu mahal
Chechaklar izlab topmagan,
Qachondir, bir vahshiy go'zal qahrimdan
Yaralgan jon o'g'lim —
Osmonga qadar
O'stirgan bir orzum yog'di bag'rimga.
"Bolakay,
Hidlama giyohlarimni,
Suvlarimni ichma,
Dunyolar go'zal,
Kimsasiz bag'rimda yotmagin", dedim,
Bag'rimga qattiqroq yopishdi, o'jar.
Yotibmiz,
Yerimning qoq o'rtasida,
Yotibmiz yerimning parchalariday,
Tinimsiz chorlasa hamki yulduzlar —
O'zga dunyolarning darichalari...

O'sh, 1983

Tutlar —
Kallaklangan birodarlarim,
Osmonga bosh tirab turibsiz hamon,
Mayishgan timsohday badanlaringiz,
Dahshatli qudrat-la ezganday osmon.
Turibsiz
Habashiy qullarday mahzun,
Yo‘q, turkiy shevali pahlavonlarday,
Qadimdan bobolar qoldirgan duzni
Har turluk balodan saqlayotganday.
Tilimni,
Dilimni bilgan o‘zlarim,
Duzlarda qopketgan sodda narlarim,
Shamol bo‘lay derdim to‘zg‘itayin deb
Boshingiz ustida suzgan dardlarni.
Bugun-chi,
Bir zumga tut bo‘lgim keldi,
Osmonni ko‘tarib turay bir nafas,
Sizday posbon bo‘lib asrayin elni,
Men-da zamin bilan pinhon sirlashay.
...To‘satdan qomatim qisirlab ketdi,
Sizlarday mayishdim, biroq sinmadim,
Osmonning bo‘lagi tushdi yelkamga.
Tuproqqa botdim-u, butkul singmadim.
Voh, yer tagidayam bobolar erdir,
Shu lahza tig‘ misol ildizlarimga
Kaftlarini tirab tasalli berdi,
Ko‘zingni uzma deb yulduzlaringdan.
Endi men ham tutman,
Quvvat berar yer,
Shohlarim gurkirab o‘sgan chog‘ida,
Yengilroq bo‘lsin deb,
Qiynalmasin deb
Kallaklab turishar meni gohida.

Ammo men —
Azaldan isyonkor bola,
Qanchalik tutaqib chopqi ursalar,
Har chopqi zulmidan yangi ruh ola
Shoxlarim shunchalik o‘sar gurkirab.
Aytarsiz,
Bu qadar isyon qayoqdan,
Ammo tut dardini bilajak tutlar,
Faqat temir kosov turar tayoqday
Odamlar it kabi boylangan yurtda.
Bobolar xoklarin to‘ng‘iz bosipti,
Qum kabi to‘zg‘igan qadim hududlar,
Zolimga basma-bas o‘smoq lozimdir
Odamlar tuproqqa aylangan yurtda.
Kessalar kessinlar,
Chandon o‘sarmiz,
Erkimiz borligin ko‘rib qo‘ysinlar.
Har bahor chog‘ida chandon jo‘sharmiz,
Zolimlar zulmga qarab to‘ysinlar.
O‘smasak,
Kelipti balog‘at gali,
Tig‘ kabi ildizlar yerdan uzilar,
Bu g‘arib maskanda asqotar hali
Devyurak botirlar uchun gurzilar.

1983

* * *

Murosa, madora tashvishlari-la
Ko‘z ochib, yumguncha o‘tadi fursat.
Ajablanib yurmang, basharangizga
Ertaga birorta bola tupursa.

Chunki siz
O‘sishdan to‘xtagan odam,

Didiga olamni moslagan kimsa,
Kelajak tashvishi bir yoqda qolib,
O'zining tashvishin rostlagan kimsa.
Bilaman,
Bu xilda haqoratlanmoq —
Barcha noxushlikdan og'ir noxushlik.
Biroq bolalarni to'xtatib bo'lmas,
Chunki bolalarning ko'zlari kuchlik.
Yirtilur chiroyli so'zlar niqobi,
Endi naf bermaydi quvlik, ovsarlik,
Bolalar yodida qaerda, qachon
Kazzoblik qilgansiz,
Qilgansiz g'arlik.
Bolalar yodida
Ajdodlar yodin
Qaerdadir bulg'ab tashlaganingiz
Yo umum baxtidan safsata sotib,
Cho'ntak qappaytirib yashaganingiz.
Demak, siz,
Kelajak — bolalar uchun
Ko'p qing'ir yo'llarni tuzatmadingiz.
Demak, siz
Kelajak cho'kyotgan mahal
Kuchli qo'lingizni uzatmadingiz.
Ajablanib yurmang, ertaga agar,
Didiga olamni moslab olgan zot,
Bironta o'spirin basharangizga
Osib qo'yadigan bo'lsa mukofot.
Shundoq qilmasalar agarda ular,
Bilingki,
Orqalab o'z yuklarini
Yo sizga ergashgan va yoki sizdan
Qizg'angan hattoki tupuklarini...

1983

* * *

Umr — qumsoat ham
Yarimlab qoldi,
Ko'nglim to'lgani yo'q bilganlarimdan.
Yodimni og'ritar kechirganlarim,
Ko'pdir qilmaganim qilganlarimdan.
Kechalar tobora oydinlashadi,
Ko'zingda quyoshning chechagi so'lmas,
Yashaging keladi,
Faqat umrni
Qumsoat singari to'nkarib bo'lmas.
Go'zallar yodimdan o'chdilar bir-bir,
Do'stlarim bag'rimdan ko'chdilar bir-bir,
Yillarim uzilib tushdilar bir-bir,
Faqat bu ko'ngilni
To'ldirib bo'lmas.
Kun keldi,
Ohlaring uchadigan kun,
Yuraging olamga sig'maydigan kun,
Yuzingni bosgancha yerning yuziga,
Silkinib-silkinib yig'laydigan kun.
Kimni baxtli qildim,
Kimni umidvor,
Kimlarga ko'nglimni yorib so'yladim.
Qo'limni berdimmi moziy qa'ridan
Cho'zilgan sanoqsiz ojiz qo'llarga?!
Quyosh daldasida egilganlarning
Yengilroq qildimmi og'irligini?
Aytdimmi kimlarning asl do'stligin,
Kimlarning haqiqiy yog'iyligini?!
Kun keldi —
Boshingni egadigan kun,
Hattoki o'zgalar gunohi uchun
Yuzingni bosgancha yerning yuziga,
Silkinib-silkinib yig'laydigan kun.

Mendan nima qolur,
Abadiy nurlar
Barq urib yashnagan dunyo tomonda?
Urinib-surinib, sira to'lmagan
Bir ko'ngil qoladi
Qolsa ham mendan.

1983

O'SHNI KEZGANDA O'YLAGANLARIM

Bahaybat yaproqlar diyoridaman,
Ulkandir bu yerning gul-u toshlari.
Aylanar ko'k osmon yoyilmasida
Bahaybat suvlarning
Gulduroslari...

Sabr-u irodadan to'ralgan tog'lar
Ulkan davrlarning yo'lchilariday.
Adirlar —
Ummonning bir ko'tarilib,
Mangu to'xtab qolgan to'lqinlariday.

Bunda har bir chechak,
Har bir giyohning
Osmonni to'sguday haybati bordir.
Qadim ohanglarday ulug' diyorning
O'zidan ulug'roq hasrati bordir.

Men buni uqaman:
Har bir narsadan
Yog'ilgan chog'ida bahaybat bir nur,
Cho'yan o'zanlarga sig'masdan suvlar
Guldirab chopganda uyur va uyur.

Men buni uqaman:
Erkalab zamin,

Ham asrab bag'rida ko'z qarog'iday,
Bahaybat bo'lgin deb
Har bir bolaning
Mitti tovonlarni o'pgan chog'ida.

Ammo qani ular,
Zamin alqagan,
Umidvor tikilgan mitti daholar?
Birining ko'zida g'alat dard ko'rdim,
Birining ko'zida ko'rdim jaholat.

Tobora kichrayib ko'rinar ular
Kichkina tashvishlar iskanjasida.
Shundoq so'nib borar yer orzulari
Hirs-u tamalarning kir panjasida.

Na'ra tortaymikin
To'qson to'qqiz ming
Pahlavon bobomning ovozin yig'ib,
Dahmalar qopqog'in taqillataymi,
Faryod qilaymikin osmonni yirtib?!

Qo'pordim
Yuragim hayqirig'ini,
Hayqiriq zaminu ko'kka sig'madi.
Bu yomon holimdan yorildi tog'lar,
"Suvlari sirqirab toshlar yig'ladi".

Mana shu lahzada polaponlarin
Parvozdan, osmondan yiroq go'shada,
Suyibmas, cho'qilab ulg'aytayotgan
Bir yirtqich,
Bir vahshiy qushga o'xshayman.

1983

BALAND DARAXTLAR

Baland daraxtlar bor,
Baland daraxtlar —
Yerning yuragidan kuch-quvvat so‘rgan,
Baquvvat, chatishgan shox-shabbalarda
Daburu po‘yiroz[1]
Yo‘lini to‘sgan...
Cheksiz g‘am-g‘ussalar keltirar dabur,
Mislsiz qiynoqlar yuborar po‘yroz.
Pastda past daraxtlar oralarida
Samum sabo bilan o‘ynashadi soz...
Samum — olov shamol,
Sabo nafisdir,
Kezarkan vodiyning bog‘-rog‘larini,
Harorat, nafosat domida toblar
Pastak daraxtlarning g‘o‘r shoxlarini.
Past daraxtlar esa
Kunni to‘sdi deb,
Egallab oldi deb yuksak olamni,
Baland daraxtlarning g‘iybatin qilar
Har o‘tgan yo‘lovchi yelga zorlanib.
Sho‘rliklar,
Bilmaslar o‘sha yuksakda
Yovuz shamollarga tutib boshlarin,
Vodiyda gul tukkan past daraxtlarning
Umrini asragan mard qardoshlarin.
Osmon — qasirg‘alar,
Muzlar maskani,
Buyuk olishuvlar qizigan maydon,
Dunyoda bor ekan baland daraxtlar
Yurtimiz bog‘lari bo‘lmaydi vayron.
Baland daraxtlar bor,
Qulaganda ham

[1] Shamol nomlari.

Hech kimga aytmaslar qiynoqlarini.
Hech kimsa eshitmas,
Eshita olmas
Baland daraxtlarning ingroqlarini...

1983

G‘O‘ZA

Bir parixon
Kabi so‘zladim
Tuproq yorgan g‘o‘zaga qarab:
“Avlodlarning haqqi-hurmati
O‘sgin,
O‘sgin,
Pakana daraxt”.
Shunday o‘ski,
Hatto eng baland
Daraxtlar ham qolsinlar dog‘da.
Shunday o‘ski,
Lo‘ppi momiqlar
Bulutlarday toshsin chanoqdan.
Axir senga egilaverib
Yo aytolmay ko‘ngil dardini,
Qancha avlod qadimdan buyon
Rostlayolmay o‘tdi qaddini.
G‘o‘za,
Ulkan daraxtga aylan,
Osmon qadar yuksalgin yerdan,
O‘ynab pishiq shoxalaringdan
Pag‘a-pag‘a bulutlar tersak.
Qo‘shiq aytsak,
Qo‘shiqlarimiz
To‘lqinlanib tekis taralsa,
Kuylaganda ko‘rinsa osmon,
Kuylagandan qayta yaralsak...

Bir parixon
Kabi birpasda
Zo‘r daryolar yo‘lini to‘sdim,
Avlodlarning haqqi-hurmati
O‘sgin go‘za,
G‘o‘zajon, o‘sgin.

1982

OROLGA SAVOL

Olovlanib,
Jizillab kuygan
Qumtepalar ichida orol
Talvasada to‘lg‘onib yotar,
Borgan sayin ahvoli xarob.
Tegrasida majusiy kabi
Gir aylanar sahroyi samum,
To‘lib-to‘lib kelar sirdaryo,
Mast tuyaday lo‘killar amu.
Sahro o‘rab kelar orolni,
Orol go‘yo
Yerning bo‘g‘zida,
Eriyotgan osmonga boqar —
Jon beryotgan odam ko‘ziday.
Jazolarmi uni tabiat,
Ammo uning nedir gunohi?
Tinim bilmay oh urar orol
Dengizlarga yetmaydi ohi...

Nima bo‘lgan
Senga, ey Orol,
Hayratlarga solib har yonni,
Ming yillardan buyon yutoqib,
Simirasan ikki daryoni...

1983

ESKI RASM

Tarix darsligida
Qiziq rasm bor:
Chipta chorig'li chol — bitta oyoqda,
Birini ko'targan,
Boshini qashir —
Boshqa oyog'ini qo'ysin qayoqqa?

Uning yag'irlagan bo'yniga mingan
Dunyoning qorindor amaldorlari,
Chol esa iljayib,
Bitta oyoqda
Tarix darsligida turar zorlanib.

Bugun eslab qoldim
O'sha sho'rlikni,
Notavon laqmavoy qoldi qayoqda,
Tarix darsligida bormikin omon,
Hamon turarmikin
Bitta oyoqda?

Yoki u tarixni hayratga solib,
Bo'ynidan yukini otgan, hoynahoy,
O'ziga tegishli ekinzorlardan
Topgandir ikkinchi oyog'iga joy.

Shunday deb
Qizimning kitobin ochdim,
Mana, o'sha rasm, o'sha "ayyor" chol,
Bir oyoqlab turar,
Boshini qashir
Va hamon iljayar aybdorlarcha...

1982

YULDUZLAR QULAGAN TUNLARI

Yulduzlar qulagan tunlari
Yer-u ko'k bir sirli larzada.
Xavotir, halokat saflari
Oralab yugurar lahzalar...

Yulduzlar qulagan tunlari
Go'yo bir dahshatli on yaqin,
Go'yo bir saharsiz, sadosiz,
Chehrasiz, abadiy shom yaqin.

Qit'alar ustida aylanar
Halokat tashigan quzg'unlar.
Dunyoning erigan suvrati —
Hofizam arqog'i uzilar...

Qonimga, qadimgi qonimga
Baqirdim, ketaylik moziyga,
Ketaylik turkular aytishib,
Yashaylik Yusuf Xos Hojibday.

Yo mamluk bo'laylik, e qonim,
Ketaylik yo undan nariga,
Tushaylik odamzod qonining
Hamisha musaffo qa'riga.

Johillar,
Jallodlar yeridan
Yiroqda yashaylik o'ylanib,
...Bir tirik panjara misoli
Yuksalar bolalar qo'llari...

Shiddatli nolalar, sadolar
Gurkirab yuksalar yonimda.

Gurkirab yuksalar samoviy
Arg'anun musiqa qonimda.

...Yulduzlar tinimsiz qulaydi
Bo'shliqni kesaroq lovullab,
Qaydadir bahaybat qo'llarda
Uchganini sezaman povillab.

Yo tinsiz chekarmi zaminning
Bu zabun holidan gangirab,
Sanoqsiz sayyora — toshlarda
Kengashib o'tirgan tangrilar?

1983

* * *

Har qanday himmat-da
Chegaralidir,
Chegarasi bordir nafsoniyatning —
Qay bir aybi uchun
Parvardigorlar
Yerga qamab qo'ygan insoniyatni.
Insoniyat sig'may
Toshboltalarda
Yo'nilgan qit'alar — gil sollariga,
Azaldan tikilar sayyoralarga
Faryodi, xayoli, lisonlaridan.
Qaydan kelgan ular —
Azal-azaldan:
Urushib to'ymagan jinoyatkorlar?
Bu qadim nizolar, urinishlarda
Go'yo bir g'alati sinoat borday.
Chayqalib suzarkan mudhish sollarda
Halokat, xavotir suvlari aro,
Bir elat Mirrixga,
Biri — Zuhalga,

Bir elat tikilib yotar Zuhroga.
Chegarasiz bo'lsa inson imkoni,
Tabiat odamga bir qanot bersa,
Yerda qolarmikin birorta odam,
Abadiy kulfatlar maskani — Yerda?

1983

INSONLAR OVOZI

Jismimiz o'ragan
Tikonli simlar,
Tikonli fikrlar ichra ruhimiz,
Nigohimiz kalta,
Nursiz zindonlar —
Yuraklarda chirir g'am-anduhimiz.
Zamin parcha-parcha,
Qayga burilma —
Ko'ksingga g'archillab qadalar tig'lar.
Qachon ellar tanir bir-birlarini,
Qachon bu qit'alar
Topishib yig'lar?
Hozircha poyonsiz chegaralarda
Elatlar bir-birin tinmay chavoqlar.
G'ofil yer ustida tunlari tinmay,
Tinmay aylanadi
Uchar tovoqlar.

1983

YORILGAN HARAKAT BAYONI

Bir odam izladim...
Izladim g'arib,
Jufti yo'q burgutday xunuk qishladim.
Kezdim armon to'la bir jom ko'tarib,

Malaklar yig‘ladi,
Itlar tishladi...
Umring uzoq bo‘lsin,
Ey daryojonim,
Husningga hirs bilan nazar solmadim.
Zanjirlar tovshiga to‘lganda yodim
O‘zingdan o‘zga bir dildor qolmadi.
Qolmadi bir ilinj,
Ishonch qolmadi,
Vahshiy daholarning makri bilindi.
It bazmi qizigan oysiz shomlardan
Qizg‘onib opqochdim daryo dilimni.
Bu chirkin og‘izlar...
Singan kallalar...
Ig‘vodan, bo‘htondan osilgan tillar...
Hirslar lashkarlari bosgan pallada
Shohlarin bo‘g‘izlab tashlagan dillar.
Bu quyosh xo‘rlangan...
Bu oy zo‘rlangan...
Zarlari talangan bu sodda jabal.
Qon, aroq, peshobni emib to‘ralgan
Buvaklar bo‘kirib yig‘lagan mahal
Yo Xudo, dedim-u
Nurlar o‘ynagan
Peshonam ilk bora tuproqqa tegdi,
Yo xudo, dedimu
Erkin gullagan
Daryodil samoga dilimni berdim.
Umring uzoq bo‘lsin,
Ey daryojonim,
Kechalar qa’rida bir gul yig‘ladi,
Yuzimga sachradi bir bulbul qoni.
Ko‘nglimga bu dunyo
Nechuk sig‘madi?!
Nechuk bag‘ringdaman,
Kimning ishqida?

Nechuk yolvoraman umringni tilab?
Ulkan jasadimni toshlar ichida
Yuvarsan eng nozik qo'llaring bilan.
Aytgil, ey daryojon,
Bormidi zulm?
Tog'lar silsilasin buzvordi nola:
"Gullarning bargini yemagan gulim,
Bulbullar qonini ichmagan bolam"[2].

BAXT SO‘ZI

Baxtiyorman degan birgina so‘zni
Aytish uchun kerak qancha kuch-chidam,
Garchi baxt so‘zlarning eng yoqimligi,
Garchi tursa hamki tilning uchida.
Og‘ir botmasmikin
Bu so‘z kimgadir,
Tegib ketmasmikin oh-vohlariga,
Qandoq bardosh berib yashayman keyin
Baxtsiz kimsalarning nigohlariga.
Avvalo bu so‘zni o‘zgalar aytsin,
Aytsinlar ko‘zlari sevinchga to‘lib,
Elning baxti uchun umrini tikkan
Shoirlar aytmasin birinchi bo‘lib.
Bu so‘zni bir umr aytmay yashadim,
Har shodlik kelganda yurdim sekinroq.
G‘am so‘zin elimdan avvalroq aytdim,
Baxt so‘zin aytaman,
Eldan keyinroq.

1984

* * *

Hali biror ishni uddalamadim,
Hali hech kimsani qilmadim rozi,
Behuda o‘tibdi go‘zal umrimning
Qanchalab chiroyli bahori, yozi.
Farog‘at borligin unutib qo‘ydim,
Bag‘rimga chaqinlar tegdi daf’atan,
Sendan-da ulug‘roq narsa yo‘qligin
Sochim oqarganda angladim, vatan!

Buncha kech angladim,
Nega muncha kech...
Anglasam loaqal o'ttiz yil avval,
Loaqal tug'ilmay turib anglasam...
Ko'rgan bo'larmidim seni mukammal.
Hali asl vatan bo'lmog'ing uchun
Ovozi toshlarni yorar kuychilar,
Qanchalab sehrgar shoirlar kerak,
Qancha bilim kerak,
Qancha kuch-chidam.
Umrim ko'chkilarday jimjit, shiddatli,
Butkul tinmoq uchun bir kun bemalol
Faqat yaxshi bo'lmoq judayam kamdir,
Juda kamlik qilar yashamoq halol.

Naqadar kechikib angladim seni,
Chaqinlar yo'q qilsa meni daf'atan,
Ayt, qandoq chidayman bunday xo'rlikka,
Ayt, qandoq yotaman qa'ringda, Vatan!

1984

YOSH O'ZBEK SHOIRLARIGA

So'zlarni qayraylik,
Obdan toblaylik,
Idrok-la sovutib tag'in qayraylik,
O'zbekning qorako'z bolalariga
Bitta dunyo qolsin hayratlik.
Bitta dunyo qolsin mustahkam,
Eshilgan po'latday daryolar qolsin,
Chaqilmas toshlarday bir tog'lar qolsin,
Musaffo xayollar,
Samolar qolsin.
So'zlarni qayraylik,
Do'stlar, jo'ralar,
G'aflat to'shagida yotmay, shoshaylik:

Yashamoq, kurashmoq, o'lmoq sirlarin
Bolakaylar uchun ochaylik.
Bitta dunyo qolsin mustahkam,
Unga posbon bo'lsin o'tkir she'rimiz,
Tokim bu daryolar bemaloł oqsin,
Bolalarga qolsin jannat yerimiz.
So'zlarni qayraylik,
Tag'in qayraylik,
Tokim keskir bo'lsin bamisli olmos.
O'tkir so'z qolmasa shoirlaridan,
O'tkir so'z qolmasa...
Hech narsa qolmas.

1984

SHE'RIYATDAGI HAYKALTAROSHLAR

Haykal tiklayapti
Har kim o'ziga,
Har kim haykaliga bermakda sayqal:
Birov Temur shahdin berar ko'ziga,
Suqrot kelbatida ba'zi bir haykal.
Mana bu haykalcha Dantega o'xshar,
Bunisi Pushkinday mag'rur, to'pori,
Kim o'z haykaliga zo'rlab kiygizar
Lyudovik xivning cholvorin.
Farishta libosin kiyadi Neron...
Tartyuflar turibdi baxday qayg'urib.
Haykallar oldida turasan hayron:
Hammasi qaraydi senga qichqirib.
Ammo bir haykalning oddiy yuziga
Yozib qo'yilmagan edi kimligi.
U juda o'xshardi o'zi o'ziga,
G'oyat og'ir edi
Uning jimligi...

1974—1980

QARSAK

Qarsak nima o‘zi?
Ikkita kaftning
Orasidan potrab chiqadigan sas,
Xohlasam chalaman, xohlamasam yo‘q,
Qarsak menikidir, sizniki emas.
Qarsaklar hozircha qo‘ltiqlarimda
Mitti mushuklarday mudraydi taftdan.
Axir, o‘zbekning bir o‘jar shoiri
Qarsak chalarmidi bema’ni gapga.
Vijdonsiz shoirlar ko‘paygan juda,
Yurakni so‘z bilan yondirguvchi kam,
Xalqimas,
Shuhratni o‘ylab so‘ylagan
Ahmoqqa bermayman qarsagimni ham.
Qarsak nima o‘zi?
Arzimagan gap,
Kerak bo‘lsa topilar qoplab.
Titroqqa to‘ldirib osmon gumbazin,
Qarsaklar chalishni bilaman boplab.
G‘irromlik qilmasa notiq agarda,
Yolg‘on she’r aytishdan qaytsaydi shoir,
Miltiq o‘qlariday gumbir-gum qilib
Havodan qarsaklar yasardim doim.
O‘jar shoirlikni tashlab o‘shal payt,
Epchil bir yugurdak kabi zamonda
Qarsak chaladigan xizmatchi bo‘lib,
Ishga kirar edim o‘zbekistonga.

1984

MEHMONDO'STLIK

O'zbeklar azaldan mehmonchi eldir,
Mehmon otangdan ham ulug', deydilar.
Bir kunlik mehmonga bor-yo'g'in qo'yib,
O'zlari ancha vaqt turshak yeydilar.
Bu go'zal xislatdir,
Noyob xislatdir,
Ayniqsa, mehmonlar bo'lsa munosib.
Biroq har xil bo'lar mehmonning fe'li,
Biri so'rab kirar,
Birisi bosib.
Uydagi tartiblar yoqmas biriga,
Yoqmas "tarbiyasiz" bolalar xulqi,
Yalinib-yolvorib siylaganingiz,
Taomil, odatlar qo'zg'atar kulgi.
Bola-chaqalarning rizqini qiyib,
G'orday dasturxonga ayni qish chog'i
Bor narsa qo'yasiz o'limdan boshqa,
Ko'chirib kelasiz jannatning bog'in.
Shunda aroq ichib bo'z piyoladan,
Gazakka sho'r bodring yeydiganlar bor.
"Bizlarga atalgan bor ne'matlarni,
Hammang yeb yotibsan",
Deydiganlar bor.
Derlar choyxonada salla o'ragan
Chollarga o'qrayib qararkan sherday:
"Manov bosmachilar hamon tirikmi,
Sovet hokimiyati bormi bu yerda?!"
Birdan muzlab ketar tovonlaringiz,
Xijolat bo'lasiz dadil qarashdan,
O'ylaysiz, mehmon-da, kayfi oshibdi,
Bu razil so'zlarni aytmadi qasddan.

...To'kin kuz kezadi o'zbekistonda,
Gohida yon eldan,

Goho chet eldan
Suhbat yo tuhmatga bir sabab izlab,
Har kuni o'n minglab mehmonlar kelar.
Mehmon xabarini beradi minglab
Bosiq karnaylarning ovozalari,
Shaharlar qo'porib tashlaydi birdan
Yuz minglab sharqona darvozalarin.
Shoirlar tushiga kirmagan qizlar
Kimlarga im qoqib,
Quloch yozgancha
Buyuk bir xazina ustida o'ynar,
Sho'x-sho'x yurib,
Go'yo cho'tni bosganday.
Mehmon kutish o'zi buyuk san'atdir,
Bunda bizning elga yetadigan kam.
Mehmon kutishni-ku qoyillatamiz,
Qaniydi o'rgansak kuzatishni ham.

ISPANIYADA YANGI YIL

Ispanlar
Judayam erinmagan xalq,
Har yili bir marta yasharib olar,
Kartondan yasarkan jami yomonning
Qiyshaygan, burishgan
Basharalarin.
Butun Ispaniya — achchiq kulgisin
Milyonta qo'liga jamlagan rassom.
Cheksiz ustaxona — tor ko'chalarda
Buyuk asarlarin yaratar har shom.
Mana, yangi oqshom,
Jaranglar nogoh
Milyon derazalar sho'x qahqahadan —
Ulkan suvratlarni shoirlarday xalq
Ko'tarib chiqadi mingta dahadan.

Ispanlar guyoki bor g'uborini
Sitib chiqarganday pok qonlaridan,
Dunyo ko'z oldida
Minglab razilga
O't qo'yib yuborar maydonlarida.
Ulug'dir o'zidan kuladigan xalq
Dunyoga ko'z-ko'zlab noyob xislatin,
Kavshlarin artarkan eski yillarga,
Kuydirib yo'q qilar
Barcha illatin.
Bir havasim keldi,
Qani bizdayam
Bo'lsaydi shu xalqning ruhiy quvvati,
Biz ham maydonlarda kuydirsak har yil
Yomon illatlarning xunuk suvratin.
Ammo vaqtimiz yo'q,
Garchi ko'p hali
Miriqib kulguday ajib illatlar —
Xalqimiz qirovli paxta changallab,
Boshin urib olar yangi yillarga.
U yangi yillarning bo'sag'asida
Taomilga ko'ra bir oz to'xtalar,
Yolg'onchi, olchoqlar suvratin emas,
Buyuk tashvishlarni boshda ko'tarar...
Hatto imoniga kir nazar bilan
Qarab, bisotiga ko'zin olaytgan
Kimsalar bilan ham tantilik qilib
Cho'qishtirib ichar bo'z piyoladan.
So'ng tag'in tog'larday
Cho'ng kiftlarida
Bir dunyo tashvishni olib yuradi.
Anglagan jilmayar...
Anglamaganlar
Bunday soddalikdan kulib turadi.
Menimcha,
Xalqimiz munosib ko'rmas

Poyiga boshqadan qolgan izlarni...
Hozircha ispanlar tan beradigan
Kulgili jazoni tinmay izlaydi.

1984

QODIRIY VA HOZIRGI YOSHLAR

Hozirgi yoshlarda
Pokizalik bor,
Tirik qalblariga diyonat ega,
Go'yo pok tabiat yomon ko'zlardan
Asrab qo'yganlarin shularga bergan.
Agar tirik bo'lsa, bir chetda turmay,
Hozirgi yoshlarga sardor bo'lardi,
Goh ko'kdan yog'ilgan,
Goh yerdan chiqqan
Tuhmatu baloga qalqon bo'lardi.
Hozirgi yoshlar ham turarmidi jim,
Yig'ishitirib qo'yib shaxsiy hasratin,
O'z nafsi yo'lida har nega qodir
Yuvuqsiz kaslardan uni asrardi.
Sindirib tashlardi
Uning bo'g'ziga
O'rlagan qo'llarni bittama bitta,
Bor ovozi bilan polonchilarmas,
Xalqning bolasiman degan yigitlar.

Qodiriy o'ylanar yuksak-yuksakda,
Payqamay vaqtning to'su to'slarin,
Poyiga qo'yadi qo'llari titrab
Qarigan gullarin
Sodiq do'stlari...
Ammo u yuksalgan ulug'vor toshday,
Ko'rmas do'stlarining yig'inlarini.

Eshitmas jomlarning jaranglari-la
Otashin alyoru yig'ilarini.
Bilmadim,
Do'stlarin tanirmidi u,
Poyiga barini haydab keldi vaqt...
Bas, ey qodiriyning poyidagilar,
U do'stlar ovozin eshitar faqat.
Vaqt kelib
Qarisa hozirgi yoshlar,
To'la uzmoq uchun umrlik qarzin:
Voy, do'stim, jigarim,
Birodarim deb
Qodiriy poyida yig'lasa arzir.
Shunda bir seskanib,
Chin do'stlariga
O'zining moziydek quchog'in ochib,
Yuksakdan egilar,
Ming bor egilar,
Tuproqqa tekkuncha nuroniy boshi.

GURJISTON MANZARASI

Kim seni bunchalar
Suyib asragan,
O'tkinchi davronlar chovutlaridan?!
Porillaysan qonmas,
Shudring sachragan
Navqiron askarlar sovutlariday.
Bunda borliq o'ylar gurji tilida,
Shu tilda so'ylaydi bunda har narsa.
Ming-minglab yillarki gurji ko'zi-la
Olamga qaraydi sanoqsiz xarsang.

Gurjiston,
O'ynoqi daryolaring bor,

Saslari jaranglar qizlarnikiday,
Ming bitta tashvishning og‘irligidan
Harsillab oqmaydi bizlarnikiday.
Beg‘am va bokira dalalaring bor,
Yuzlarini to‘sgan yomg‘ir — to‘rlari,
Milyon yil kutsang ham
Manglaylaridan
Oqarib, bo‘zarib chiqmas sho‘rlari.
Jannatsan —
Yashaysan afsonalarda.
Shoirlar dilidan chiqmagan she’rsan.
Milyonta gurjini bitta gurjiday
Boshingga ko‘targan baquvvat yersan.
Gurjiston,
Ko‘p qadim qo‘shiqlaring bor
Har bitta gurjining yurak ko‘njida,
Shodlik kelganda ham
Qayg‘u kelganda
Bir gurjiga do‘nib kuylar gurjilar.
Kuylashar —
O‘rmonday gurkirar o‘tlar.
Kuylashar —
Minglagan quyoshlar balqar.
Naqadar baxtsizdir,
Naqadar go‘ldir
Yagona qo‘shig‘i bo‘lmagan xalqlar.
Kuz edi,
Gurjiston bir olma kabi.
Marmar ko‘chalarda nurlar sharqirar.
Kezardim, kezardim,
Ammo yodimdan
Kuzgi O‘zbekiston chiqmasdi sira.

AMUDARYO QIRG‘OQLARI

Amu guldiraydi mast tuyalarday...
Bir vahshiy qudratga to‘la komlari.
Ko‘rinar hov olis tepaliklarda
Xorazm shohlarin istehkomlari...
Bir yoqda yashillik ko‘pirgan voha,
Bir yoq saksovulzor —
Sahro faryodi.
Sarhadsiz osmonday ochiq kenglikda,
Bilmaysan,
Shamollar kelar qayoqdan...
Axir nogoh qo‘pgan vahshiy shamollar
O‘tgan-ku vohani qumlarga qorib.
Go‘yo daryodanmas,
Og‘ir o‘ylardan
Kemamiz chayqalib suzar yuqori...
Shunda bir qirg‘oqdan go‘yo hoziroq
Uzilib tushganday momo quyoshdan,
Bolalar qiyqirdi,
Oq ko‘ylaklarin
Bandi oqqushlarday silkitib boshda.
Bolalar,
Munchalar sodda, to‘pori,
Tinib-tinchimas oq kapalaklarday...
Yuqori suzyotgan kemaga qarab
Xuddi jon kirganday tepaliklarga...
Ey ulug‘ daryoning bolakaylari,
Daryodek jo‘shqindir g‘ayratlaringiz.
“Jism-u jonlaringiz muhabbat bo‘lsin,
Unga qalqon bo‘lsin
Nafratlaringiz”.
Vahshiy Amudaryo qorayib borar
Goh ochib, goh yonib o‘pqon-domlarin.
Ko‘rinmas endi hov tepaliklarda
Xorazm shohlarin istehkomlari...

Ularning o‘rnida
Endi tirik saf —
Uzilib tushganday momo quyoshdan —
Bolalar... Bolalar...
Oq ko‘ylaklari
Oqqushlar singari aylanar boshda...

1984

QIZILQUMDA BIR KUN

Jayhundaryo sohillarida
Nazarida qolib ulug‘vor suvning,
Shamol esnog‘idan shuv etib ko‘chib,
Buralib, uvalib yotibdi qumlik.
Ulkan quyosh pastlab,
Olov burgutday
Qumlik tepasida aylanib suzar.
Jimlikni zanglagan saksovullardan
Yirtilgan shamolning ovozi buzar.
Uchardinozavr — qumtepalarda
Yonarkan trilyon zarra yiltirab,
Oyoq bosib bo‘lmas,
Suyanib bo‘lmas —
Qumlik oqaverar suvday jildirab.
Esiz, shundoq voha,
Esiz, ulug‘ suv,
Esiz, ochiq osmon, esiz, ming karra,
Kenglikni qo‘msagan shoir yuragim
Shoqolday uvladi bu kengliklarda.
Ey qum —
Barmoqlarim oralaridan
Zarra-zarra bo‘lib to‘zg‘iyotgan qum,
Birlashsang na bo‘lg‘ay,
Mushtdek toshga yo
Tuproqqa aylansang bo‘lmasmi bir zum.

Ey buyuk sahroning zarrachalari,
Kaftimda to'zg'imay tursang bo'lmasmi,
Dil xursand bo'lmasmi,
Tumsa bag'ringda
Giyohlar potirlab unsa bo'lmasmi?
Tokay zanglab ketgan bu saksovullar
Tirik bir imonday turadi axir —
Turar jaloliddin manguberdining
Sahroga sochilgan o'zligi kabi.

... Jayhundaryo sohillarida,
Ikki yoqdan qisib qudratli suvni,
Shamolda elanib,
Quyoshda qurib,
Zarra-zarra bo'lib yotibdi qumlik.

Orzular surarman endi abadiy,
Kuchli zamin kerak oyoqlarimga.
Ko'zlarim o'ngida to'zg'igan qumlik,
Bog'lar gurkiraydi xayollarimda.

Ey qum,
Kuchli zamin axtararmidim,
Shu buyuk kenglikda agar qo'llasang,
Ko'zlarim uzoqqa tikilmasa gar,
Agar kiftlarimda tog'lar bo'lmasa.

1984

XORAZM QISHLOQLARI

Xorazmda deyarli har bir tuman markazida urushda o'lgan yuzlab askarning nomi bitilgan toshlavhalarni ko'rdim.

Bo'z yo'llar bo'yida
Yoz nafasidan

Mudragan bog'larning panohlarida
Yerdan o'sib chiqqan qishloqlar yashar
Quyoshning abadiy hamrohlariday.
Bir qarasang
Beg'am xirgoyi qilib,
Qayroqlarin o'ynab ko'zlardan chetda.
Jayhunday ulug'vor daryo yoqalab,
Xilvat kechalarning qa'ridan ketar.
Tanbal deb niqtamang barmog'ingizni,
Ko'zingizga qarab so'kinib kular.
Sanoqsiz olifta shaharvoylarni
Tinmay kiyintirib,
Boqadi ular.
Biroq kerilmas ham ko'rsatavermas,
Zorlanib har kimga manglay sho'rlarin.
Shu qadar ter to'kar kengliklariga,
Oqarib turadi hatto go'rlari.
Ilonday chiroyli kechalari ham
O'ynatib bir pudlik bosqonlarini,
Toblar sho'x qizlarning sandonlarida
Minglab Jaloliddin,
Hojixonlarni...
Bu paxsa vujudli yo'lovchilarning
Umriga boqsangiz teranroq o'ylab,
Ko'rasiz — ko'zyoshi tovonlarida,
Ichkarida yig'lab,
Ko'chada o'ynar.
Ko'rdim har birining qoq yuragida
Toshga do'nib ketgan og'riq-dardlarni,
Har birin ko'ksida yuztadan Shermat,
Uch yuz Jumaniyoz,
Besh yuz matlari.
Yig'lasa bo'lar-ku azalar ochib,
Bevaqt xazon bo'lgan mard erlariga,
Yig'lasa bo'lar-ku azalar ochib,
Boshlarini urib sho'r yerlariga.

Biroq chah-chahlaydi qayroq toshlari,
Yer larzaga tushar raqslaridan,
Ko'zyoshi bo'lsayam vujudlarini
O'n karra,
Yuz karra g'arq qiladigan.

ARAVON KO'RINISHLARI

Tursunboy Adashboev va
Abduqahhor Mannonovga

1

Tog'lar —
Nortuyalar abadiy cho'kkan,
Qurigan yillarni chaynab, kavshanib.
Qani yasovullar, tuyakashlari,
Tilloli, javharli sandiqlar qani?
Barisi talangan,
Qaroqchilarning
Izlarin yashirib yuborgan moziy,
Yashirgan yillarning changalzorlari
Sarbonni o'ldirgan qotil ovozin.

2

Muzlikdan
Yuhodek kelgan shamollar
Tuyalar jismini yalab-ishlagan,
Asrlab toblagan temirchi quyosh,
Yomg'irlar cho'qigan,
Qorlar qishlagan.
Shu qadar metinki tuyalar jismi,
Charsillab qaytadi otilgan o'qlar.
Ming yillab tinimsiz bo'kirsa hamki,
Metin tuyalarni yiqolmas to'plar.

3

Sarbonni ko‘mdilar
Sangzor sohilga,
Qabridan yuksaldi so‘nggi so‘zlari:
“Elimdan o‘zga bir dardim yo‘q edi,
Elim deb yiqildim,
El deb bo‘zladim”.
Xotinlar soch yoyib “voy”lab yig‘ladi,
Mardlar yerga yotib oylab yig‘ladi,
Do‘st, yovni bilmagan qur kechalarda
“Bulutga yashrinib oylar yig‘ladi”.

4

Bir daryo —
Tepadan bo‘g‘ilgan daryo...
Shashtini sindirgan metin to‘siqlar,
Sanoqsiz toshlarni oralab oqar
Elning tilidagi o‘lmas qo‘shiqday.
Balki shundanmikin
Uylar zichlashib
Daryodan suv ichar podalar kabi.
Yulduzlar keladi cho‘milmoq uchun,
Bir qirg‘oq turkiydur,
Biri — arabiy.

5

Isyonkor tutzorlar oralaridan
Chiqar afsonaviy jangchilar kabi
Nigohlari o‘tkir,
Odimi shaxdam,
Barvasta, qoracha yigitlar safi.
Qishloqqa kirishar,
Momo quyoshning
Eng so‘nggi nurlari to‘kilib yotgan
Guzardan o‘tarkan,

Qiz kuzatganday
Suqlanib qarashar suvlagan otga.
Jiddiy qat'iyat bor chehralarida,
Mardona ko'zlarin
Qisib qarashar...
Zulmatda yuz yillab surgunda yotgan
Zaharday sharobdan ichmoq yarashar.

6

Bolazor,
Mevazor,
Tolzor ko'chalar,
Shoxlar yerga tegar shig'il hosildan.
Moviy darvozalar ravoqlarida
Tamaki barglari
Ipga osilgan.
Barkashdek soqolin silagan chollar
O'y surar qo'l tashlab tayoqlariga,
Saslari gullagan bolakaylarga
Tikilib to'ymaydi hayot qa'ridan.
Bekinmachoq o'ynar sho'x bolakaylar,
Hozirgina so'ngan quyosh qo'rlari.
Chayqalgan shabboda to'lqinlarida
Tovlanar qizlarning
Harir ko'ylagi.
Xinodan qizargan kafti-la qizlar
Yonoqlarin to'sar,
Yerga qaraydi.
Yosh qoning to'lg'onar tomirlaringda,
Tilingda uyg'ongan bulbul sayraydi.
Yuz oyoq, yuz qo'lli,
Ming bir iboli
Pardaga o'ralgan yonoqlarida.
Eh, qanday sehrli sadolar uxlar
Bu hulvo qizlarning tomoqlarida.

7

Anjirzor
Oq oyning shu'lalarida...
Qadlari mayishgan,
Go'yo falajruh.
Yiqilar chog'ida bir-birlariga
Mustahkam suyangan eldir halajruh.
Ulkan, dag'al kaftlar —
Yaproqlarida
Oltin anjirlarni tutar anjirzor.
Ko'r nurlar daydigan bu saltanatda
Sabr-qanoatli qancha zanji bor.

8

Shamolzor darada chayqaladi tun,
Oqarishib borar oyning pallasi.
Qonimni qonimga tanitib qo'ydi
Qorong'i tunlarning
O't musallasi.
Eng asil do'stlarim yonimda ekan,
Yonimda, jonimday jonimda ekan,
Do'st izlab o'tkardim bahorni, yozni,
E voh, ular mening qonimda ekan.
Mana, yuragida diyonatini
Bokira qizlarning nomusi kabi
So'nggi nafasgacha pok asraguvchi
Vazmin, irodali odamlar safi.
Qudratli yuraklar zarbini uqdim,
Uqdim toqatlarin,
Uqdim ko'zlarin.
Har birin dilida go'zal so'zlar bor,
Mo'ysafid sarbonning
So'nggi so'zlari.

9

Aravon
Bo‘zargan tong quchog‘ida,
Ko‘pirgan bog‘larin tebratib yotar,
Goh moviy,
Goh pushti pardalarida
Quyoshday uyg‘onib, oy kabi botar.

1984

AVTOBUSDAGI O‘YLAR

Katta yo‘l bo‘yida
Go‘yo o‘zlarin
Olis bir sayohat, safarga chog‘lab,
Pista, qurut sotuvchi chollar singari
O‘ylanib o‘tirar sodda qishloqlar.
Qayga boradilar,
Loygarchilikda
Qay orzu-istaklar bag‘rini ezar?
Biroq yo‘l sezdirmay yodingda qolgan
Noxush suvratlarni o‘chirar tezda.

Paxtazor boshlanar,
Kirza etikli,
Yuzlarin quyoshlar yalagan qizlar
Ming bora egilib,
Ming bor yalinib,
Har mitti g‘o‘zani uyg‘otar sizlab.
Bir zum bosh ko‘tarib,
Yerga o‘xshagan
Qo‘llarin silkitib nenidir so‘ylar.
Go‘yoki qo‘llarmas,
Qo‘llar shaklida
Rostlanib havoda titraydi o‘ylar.

Turkona hovlilar kunga qaragan,
Achchiq mevasidan shirin boli ko'p,
Ko'rimsiz eshiklar mangu yopilmas,
Teragidan ko'ra majnuntoli ko'p...
Sabr daraxtiday o'sgan odamlar —
Saksovul singari chidamli, chayir,
Yerga botib ketgan bahodirlarday
Kunlarga qaraydi
Siniq iljayib.
Mayxonaga o'xshar
Avtobus ichi,
Yosh-yalang chaynaydi nag'malarini.
Bir butun odamni ko'rmadim bunda,
Ko'rdim men odamning zarralarini.
Ko'ngil ag'darilar
Latifalardan,
Orzular, qarashlar naqadar kalta.
Nega gapirishmas separatchilar
Indira Gandini otgani haqda?!

Bular yashaydilar
Qaysi kunlarda,
Qayga boradilar, kimga yukinib?
Shular o'ylarmikin tuprog'imizni,
Shular ko'tararmi elning yukini?!
Qani birortasi
Bitta so'z aytsa,
So'qimlar davrasin nogoh to'zitib,
Shoir yuragimni yulib berardim
Birgina turkiston degan so'z uchun.
Qarashar
Avtobus derazasidan
Oxirlab qolganda hamki sayohat,
Bilishmas, ne uchun xo'mrayar tog'lar
Bu azim daryolar oqar qayoqqa...
Bolalar, kampirlar,

Chollar mudraydi,
Mehnatkash qo'llari yoziqligicha,
Bu dono yigitlar,
Bu dono qizlar
Uxlaydi ko'zlari ochiqligicha.

1984

CHARXIPALAK

G‘ichir-g‘ichir,
G‘ichir-g‘ichir,
Aylanasan — joning halak,
Aylanasan kun-tun demay,
Charxipalak,
Charxipalak.

Shar-shur etib,
Shar-shur etib
Quyilar suv chirik novga,
Ne azob-la olgan suving
Teshik novdan oqar soyga.
Chanqagan yer kuyib yotar,
Bu ahvolni kuzatmaslar,
G‘ayrat qilib teshik novni
Yamab-yasqab, tuzatmaslar.

G‘ichir-g‘ichir,
G‘ichir-g‘ichir,
Aylanasan — joning halak,
Aylanasan azal-abad,
Charxipalak,
Charxipalak.

ASOTIRLAR KITOBI

Javshanlarin yechmayoq,
Yechmay qurol-yarog‘in,
Uxlab yotar botirlar
Vodiylarda qorayib...
Ochsanggina kitobni
Nogoh bari uyg‘onar,

Uyg‘onar bulut yolli,
Yashindayin tulporlar.
Bir g‘ururmi yo hayrat
Paydo bo‘lar ko‘zingda,
Botirlarni uyg‘otib,
Uyg‘onasan o‘zing ham.
Uyg‘onasan, o‘zgacha
Yolqinlanar tonglaring,
To‘qson ikki tomirda
Potirlaydi qonlaring.
Ammo ketar chog‘ingda
Unutmagil insofni —
Bolalarning oldida
Ochiq qoldir kitobni.

1984

* * *

Jangda o‘lgan emas
Biror bahodir,
Bari halok bo‘lgan xiyonatlardan,
Toshday uxlaganda to‘shlarin ochib
Yo zahar qo‘shilgan ziyofatlardan.
Biror asotirda
Bahodirlarni
Hattoki yuzboshli ajdar yemagan,
Ming bir sinoatli yalmog‘izlar ham,
Tog‘larni o‘ynagan devlar yengmagan.
Bari halok bo‘lgan xiyonatlardan,
Bariga orqadan sanchilgan xanjar.
Shunday bo‘lib kelgan azalu azal
Mana shu jafokash,
Ko‘hna vatanda.
Har gal bahodirlar yiqilar ekan
Kurakka sanchilgan nomard tig‘idan,
Qayta tirilganday bo‘lardi nogoh

Har bir bolakayning qorachig'ida.
Ishongil,
Hech qachon seni aldamas
Sofdil elatlarning asotirlari,
Birorta bahodir o'lganmas jangda,
Qo'rqoqlar o'ldirgan bahodirlarni.

1984

YOSH TOG'LAR

Kuch yog'ilgan
Gavdalarini
Saratonning o'tiga toblab,
Ochib qo'yib xazinalarin,
Uxlab yotar o'spirin tog'lar.
Go'yo mangu safarga chiqqan
Yo'lovchilar horgan ko'yicha
O'tirganu
Birpas mizg'igan
Sirqiragan suvlar bo'yida.
Bir nafasga ko'z yumgandilar,
Milyon yillar o'tdi oradan,
Uxlab yotar yurakni o'rtab,
Uxlab yotar
Sodda bolalar...

1984

SUVLAR ILA MULOQOT

Ulug'vor qoyalar saltanatida
Oftobning yig'ilgan shu'lalariday
Sirqirab yotibsiz toshlar oralab,
Bokira suvlarim,
Go'zal suvlarim.
Tutashdi nafasim nafasingizga,
Uzoq titrab turdi jismim torlari,

Qushday potirladi hovuchlarimda
Qadimgi dunyoning
Tirik qorlari...
Tog'lardan sirg'alib tushar ohista
Cheksiz vohalarning qorong'ilari.
Qaerga shoshasiz bag'rimni o'rtab,
Binafsha,
Nilufar,
Yorongullarim...
Men kim — ezgulikning
Elchisi shoir,
Siz kim — go'zallikning
Milyon ohusi.
Ayni shu lahzada tangrilardan ham
Ulug'dir
Go'zallik to'la hovuchim...
Biroq nega yolg'iz,
Nega hazinmiz
Shu mangu, shu yorug', sodda dunyoda?
Qachon kelar ekan bu qirg'oqlarga
Qachon kelar ekan majruh odamzot.
U daydib yuribdi allaqaylarda,
Mangulikni bo'lib,
O'rab simlarga,
Bir vahshiy shiddat-la buzib borliqni,
Behuda sig'inib allakimlarga.
U hali bu yerga yetganicha yo'q,
Tashlagani yo'qdir hali tug'larin...
Siz esa kutasiz uni intizor
Bokira suvlarim,
Go'zal suvlarim.
Bir kuni
His qilib aldanganini,
Odamzot, albatta, yo'l topib kelar,
Nogoh sizni ko'rib hovuchlarida
Asrlab-asrlab yig'lasa kerak.

OFTOB VA OFTOB NURLARI HAQIDA AFSONA

Milyonta yildirim
Chaqnar to‘satdan,
Bulutlarga do‘nar abadiy qorlar.
Nurlarga g‘arq bo‘lib,
Chayqalgan yerga
Oftobning bag‘ridan tushdi tulporlar.
Gurkirab yuksalgan bir yashil olam
Yashil ko‘lkalarin tashlar qirlarga.
Cho‘ng tog‘lar uyg‘onar,
Sayraydi suvlar,
Dunyo to‘lib ketar yorug‘ sirlarga.
Oftob salobat-la,
Chehrasi yashnab,
Boqarkan samoviy toqdan pastlarga,
Nogoh bir chayqaldi bor koinotni
Titratgan dahshatli o‘tkir saslardan.
Ne ko‘z bilan ko‘rsin,
Qalayi nigoh
Ham temir chovutli qahhor sayyodlar
Tinsiz arqon tashlar,
Ko‘kka sapchiydi
Bir olov oqimday aylangan otlar...

Nahot kechagina g‘orlar tubida
Bir tomchi harorat,
Bir tomchi shu’la
So‘rab yolborganlar,
Buyuk oftobni
Koinot qa’ridan chorlagan shular.
Oftob o‘ylagandi pok niyat bilan
Bag‘ridan berarkan mo‘l-ko‘l harorat:
“Hurlikka intilsin,
Tulporlarimda

Go‘zal olamlarga qilsin sayohat”.
Istagi pok edi,
Ammo qasamxo‘r
Sayyodlar qo‘lida aylanar arqon.
Zaminga yaxshilik, nurday yoyilgan
Tulporlar izidan yolqinlanar qon...
Makonlar xor bo‘ldi,
Minib otlarni
Uchqur shamoldan ham jadal yelarkan,
Ko‘hna keklarini tug‘day ko‘tarib,
Bir-birin shafqatsiz qirdi elatlar.

Oftob aylanarkan,
Chetlab o‘tadi
Zaminga uyulgan muz tog‘larini...
Tashlab ham ketolmas buyuk bag‘ridan
Abadiy uzilgan tulporlarini.
Tulporlar,
Yollari tirik alanga,
Sovuq yaraqlagan ko‘zlari g‘amgin.
Bu cheksiz zamindan buyuk oftobga
Qaytmoqchi bo‘lganday chopadi mangu.
Necha ming yillarkim
Oftob izidan
Tinimsiz talpinib chopadi otlar.
Oftob o‘sha-o‘sha,
Zamin ham o‘sha,
Tinimsiz almashar faqat sayyodlar...

1984

GUMANOIDLAR

Ularni bilaman, ular pok bo'lar,
Yuragi go'dakday beg'ubor bo'lar,
Sezmasdan yashaymiz,
Yonginamizda
Bu oliy kishilar xor-u zor bo'lar.

Bir lahza o'grilib,
Teranroq qarang,
Qaysi bir ko'zlarda og'ir yosh qoldi,
So'ligan gullarday ochiq yuraklar,
Kaftlarga tiralib necha bosh qoldi?
Qayerga borasiz
Kunlarni yanchib,
Yillarni to'zg'itib qayga borasiz?
Yuksakka qarab bu ketishingizda
Hali qancha-qancha
Qalbni yorasiz.

Bir qizning yulduzday
Ko'zlarin ko'rdim,
Samo gullariday qo'llarin ko'rdim,
Agar yillab uchsam nur tezligida,
Sira yetib bo'lmas o'ylarin ko'rdim.
Qancha jasad ko'rdim,
Go'yo bir kuni
Yorug' orzularning bahridan kechib —
Shoshilib ketganday oliy kishilar
Azobdan burishgan libosin yechib.
Nega yulduzlarga qarar odamlar,
Qanday sadolarni uqar g'oyibdan?
Olamni g'aflatdan ogohlantirgan
Valilar singari
Bedor shoirlar.
Ular yashaganday yonginamizda,

O‘zlari ko‘rimsiz, dillari kabir,
Astoydil suyaydi yiqilganingda,
O‘limgacha borar sodiq do‘st kabi.
Nogoh taqib ketar xayollaringga
Bir kuni ketar chog‘ safari qarib —
Bir parcha osmonday pok xotirasin
O‘zga dunyolarning
Xabargirlari.

1984

VAQT

O‘ldirib qo‘ydingiz
Vaqtni bugun,
Go‘yoki o‘zingiz sezmagan holda,
Tilingiz titramay soddadillarga
Kulib uzatdingiz yolg‘onni bolday.
So‘ng qarab qo‘ydingiz atrofingizga:
Hech kim sezmadimi,
Payqamadimi?

Birov qiyshiq kulib qo‘yvormadimi
Savil-pavili-yu poyqadamini.
Juda nozik usul,
To‘g‘rimasmi-a,
Qotillik qilganing hech kim sezmasa,
Sazoyi qilmasa eshak mindirib,
Xaloyiq oldida tiling kesmasa.
O‘tgan asrlarda sho‘rlik vaqtni
So‘yib qo‘yishardi qo‘zichoqlarday,
Qoziqqa o‘tqazib
Yo osib dorga,
Tiriklay ko‘mishar edi chohlarga.
Noziklashib ketgan usullar bugun,
Qotil ham qurbon yo‘q bir qaraganda,

Biroq ayon bo‘lar sof aqllarni
Bo‘g‘uvchi badbo‘y hid taralganida.
Vaqt kelar —
Behuda gapga tobi yo‘q,
Umid-la qaraydi odamiyatga:
“Basharning eng buyuk tashvishlarini
Shiorday ko‘tarib yursin niyatlar”.
Birov o‘ldiradi bekorchilikdan,
Biri — jaholatdan,
Biri — to‘qlikdan,
Qopdagi mushukni suvga otganday
Birovlar o‘ldirib yurar sho‘xlikdan.
Goho o‘ldirishar ko‘pchilik bo‘lib,
Shunda vaqt bo‘yalib qora qoniga,
Gumbirlab qulaydi har kuni moziy —
Adadsiz vaqtlar qabristoniga.

O‘h-ho‘,
Qancha vaqt chiriydi unda,
Xo‘rlangan,
Zo‘rlangan yoki kesilgan,
Bedarak yo‘qolgan,
Bir zo‘ravonning
Temir chovutlari aro ezilgan.
O‘h-hu,
Qancha vaqt...
Ishga solinsa,
Qancha ellar mangu yashardi ozod
Yo qursa bo‘lardi oddiy qo‘llarda
Bundan ham go‘zalroq bitta koinot.

1983

OCHIQ QOLGAN KO‘ZLAR

Askarlar yiqildi —
Ko‘zlari ochiq,
Yo‘q edi ko‘zlarin yopadigan qo‘l.
Na tuproq,
Na fursat qo‘li yopolar,
Yopolmas hattoki bosib o‘tgan yo‘l.
Sho‘rlik osiyodan ovrupo bo‘ylab
Olmon yerlariga tutashgan yo‘llar,
So‘ngsiz tepaliklar,
Qora o‘rmonlar
Abadiy ochilgan ko‘zlarga to‘lgan.
Maysaday gurkirab o‘sar nigohlar,
Mashaqqat-la yorib yerning qatini,
Shamolda tebranib,
Uzatar go‘yo
Avlodlarning har bir harakatini.
Giyohlar kirmasmi tushlaringizga,
Bezovta qilmasmi ko‘zlar ovozi?!
Mudhish bir suvratdir achchiq Ovrupo —
Tirik nigohlarning buyuk mozori.
Tovonlarim qaqshar
Bosganday go‘yo
Milyon askarlarning ochiq ko‘zlarin,
Jasadim ko‘radi agarda yotsam,
She’r yozgan chog‘imda
Ko‘rar qo‘llarim.
Adashar o‘lganlar ko‘rmaydi deya
Insonlik nomini sotib yurganlar,
Ishratni suyganlar,
Uchqur vaqtdan
Qo‘rqoq ko‘zlarini yumib turganlar.
Yulduzsiz osmonday bu chuqur ko‘zlar,
So‘ngan yulduzlarday son-sanog‘i yo‘q.

Topilmas,
Topilmas abadulabad
Bu ochiq ko'zlarni yopadigan qo'l.

1984

GULLAYOTGAN TOSH

Manovi qora tosh —
Vaqt kaftlarida
Trillion marotaba kichraytirgan tun
Jonsizday yotarkan, o'tkir ko'zimga
Tobora shubhali ko'rinar har kun —
Go'yoki jonliday,
Go'yo bir kuni
To'satdan gurkirab gullaydiganday,
Go'yoki hozircha o'tmas ko'zlardan
Sirlarin yashirib uxlayotganday.
Go'yoki kuzatib o'tkinchilarni
Mangu harakatning yukin tashirkan,
Zo'r berib o'ylaydi: "Qay asr qulay,
Sirin ochsa bo'lar qaysi asrga?.."

Tosh ham gullarmi deb
Minglab kaltabin
Gurzisin do'layib yig'ilgan paytda,
Mardona iljayib, ko'rasiz, dedim,
Bir kuni gullaydi bu tosh albatta.
Balki tosh hoziroq
Gullayotgandir,
Ming rangli jiloda yashnab, o'zgarib,
Balki bu gullarni ko'rmayotgandir
Hatto shoirning ham o'tkir ko'zlari...

1984

OQ DEVOR TAGIDAGI SUHBAT

Gapirib bo'lmaydi moziy haqida,
Moziy yuki og'ir —
Tashlab ketarli,
Hali buzg'unchi deb,
Qo'poruvchi deb
Yoqangdan olguvchi gumroh yetarli.
Yaxshisi, moziyni toshbo'ron qilib,
Farzand o'stirganlar qavmiga ergash.
Eslama, qachondir yassaviy kabi
Daholar qay sabab kirganin yerga.
Moziy qora maskan —
Zarracha nur yo'q.
Hayratga soluvchi biror shuur yo'q,
Jaholat, hamoqat
Bari moziyda,
Dilni yoritguvchi zarra surur yo'q.

Mo'jiza yuz berdi,
Ko'z o'ngimizda
Birdan oppoq devor ketdi qizarib.
Hech kim ko'rmasin deb oqlab tashladik,
Amallab yashirdik qizil izlarin.
Ertaga ham oqlab qo'yamiz, agar
Qizillik ko'rinsa oqlik o'rnida.
Agar indingacha...
Ungacha vaqt bor,
Balki qizarmaydi,
Balki ko'nikar.

SO‘Z QUDRATI

Ariq bo‘yidagi
Sarg‘ish chimzorda
Pashshaga talanib yotgan mayxo‘rga
O‘zingni valiga sig‘inadigan
Avom bir qul kabi
Qarashga o‘rgat.
Ichir Sirdaryoday ulug‘ mehringni
Hovuchlab-hovuchlab ochiq qalbingdan.
Ko‘ksingga qo‘l qo‘yib,
Ta’zim qilaver,
Buyuksiz deyaver har bir gapingda.
Sinamoqchi bo‘lsang so‘z qudratini,
O‘zingni majbur qil,
O‘zingga buyur,
Ichib Sirdaryoday ulug‘ mehringni
Esipast albatta bo‘ladi buyuk.
So‘ngra g‘olibona tikilishidan
Sen titray boshlaysan tomchi simobday,
Go‘yo sen yotganday kuppa-kunduzi
Pashshaga talanib
Sarg‘ish chimzorda...

* * *

Har kun katta yo‘ling
So‘qmoqqa do‘nib,
Tosh shahardan seni chiqarib tashlar.
Har oqshom qadimgi oyoqlaringga
Qo‘rqinchli bir kenglik
Ochilar dashtday.
Goh kulging keladi,
Goh... Yig‘i kelmas,
Ko‘zlaring qurigan o‘zanlar kabi,

Mushtlaring og'riydi cho'ntaklaringda,
Sen hamon kichiksan,
Bu olam kabir.
Ko'rding ishq,
Do'stlikning savdolarini,
Go'yoki ishonchni yulib olganlar,
Tilingning o'rniga bir bo'lak temir,
Dilingga shubha-yu gumon solganlar.
Nega bunday bo'ldi?
Bir haykal kabi
Tuyg'usiz tikilib go'zal tonglarga,
Faqat jumavoyi bo'lgani uchun
Havaslaring kelar robinzonlarga.
Axir *qiziqmasmi*,
Ish rejasimas,
Xayolan g'alati qasrlar qursang,
Odamlar qaynagan katta shaharda
Odamlarni sog'inib yursang.

* * *

Tabiat — qo'li gul hunarmand,
Tabiat — ming hunar sohibi
Muz eritib, tog' toshlariga
Tongga qadar lola qoqibdi.

Bir kechada
Bor daraxtlarga
Kiydiribdi yashil liboslar,
Uyg'otibdi yosh jilg'alarni,
Qushchalarning ovozin sozlab.

To'rt raqqosa —
Po'yroz-u dabur,
Samum, sabo — bodin o'ynatib,

Jismi asal, ishqdan qorilgan
Buvaklarni o'pib so'ylatdi.

Tabiat —
Qo'li gul hunarmand,
Gavharlarda ishlar berilib,
Oylab orom bilmasa hamki,
Minbarlarga chiqmas kerilib.

Ko'zim tushdi,
Korxonasida
Bir zargarday azoblanardi,
Bolarilar yasardi, borliq
Uyg'unligin rasolar edi.

Bir daqika
Kuzatdim kulib,
Men kim — yetti iqlim sultoni,
Ishchan qarol — go'l tabiatday
Hayron qilib qo'yay dunyoni.

Zumda yiqdim qo'poruvchiday
Xarsanglarni ildizi bilan,
O'rmonlarni kesdim erinmay,
Daryolar ham chiqdi izidan.

Ishga tushdim ustaxonada,
Ayon bo'ldi mehnat sirlari.
Ammo ming yil ishlasam hamki,
Yasolmadim bir tirik ari...

* * *

Biz tomonda ayni yoz payti,
Har yilgiday qizigan palla,
O'tlar yoqib, yor-yorlar aytib,
To'y qiladi bizning mahalla.
Ariqlarning bo'ylari salqin,
Soya tashlar qarigan tollar,
Mashrab she'rin qiladi talqin
Choyxonada nuroniy chollar.
Kun nayzada...
Qizitar kunni,
Soyalarga chekinar suron,
Sotib bo'lib so'nggi qovunni,
Choyxonada choy ichar dehqon. *1973*

* * *

Ona, aytgin,
Ko'plik qilmasmi
Shuncha tashvish yolg'iz boshingga,
Ko'nikkandek kunlarga asta
Biz ko'nikib qoldik yoshingga.
Qadoq ko'zing,
Qadoq qo'llaring
Bir daqiqa bo'lsa ham tinmas,
Mehring daryo kabi ulug'dir,
Metin kabi bardoshing sinmas.
Ona, qachon ko'rganding gulni,
Eslaysanmi shodlikning rangin,
Osmonlarga boqqanding qachon
Sochlaringni durrada tang'ib.
Ona, qachon yashading aytgin,
Yashayotgan bizlarmiz, ona,
Hayratlansin bolalarim deb
Sen yashamay qo'ygansan, ona. *1980*

* * *

Yoz yotadi tarang, baquvvat
Mushaklarin oftobga toblab.
Shamollarni bosib ko'krakka,
Goh olovli siynasin oblab.

Taratgancha nastarin hidin
Yaqinlashib kelar baxtli on...
Yozning qaynoq tomirlarida
Saratonday kuylavorar qon.

* * *

Ulkan sasga do'nar otishma,
Ming baravar kuchayar suron.
To'qnashar oy, quyosh, yulduzlar,
Ming baravar torayar osmon.

G'aroyib qush to'pi singari
Uchib yurar balandda bog'lar.
Botirlarday na'ra taratib
Bir-biriga urilar tog'lar.

Yuraklarning qudratli zarbi,
Yerda odam qalashgan, tirband.
Bir tomonda Eyfel minori,
Bir tomonda qari Samarqand.

Qanday dunyo, oynaga qarab
Tanimaysan hatto yuzingni.
Hech bo'lmasa daraxtga taqab
O'polmaysan sevgan qizingni...

HAYRAT

Bola shodmon kuzatardi qushlarni,
Qushlar o'xshar ekan paxtaga.
Bola hayratlanib oppoq tushlarni
Bo'r bilan avaylab chizdi taxtaga.
Qiyqirib tikildi shalolalarga,
Shamolni yiqitdi g'ayratda...
Zavqlanib maysalar, gul-lolalarga
O'tli yonog'ini bosdi hayratda.
Yongan ufqlarni uzoq kuzatdi,
Quvonchi to'qinib ketdi bahorga.
Bir kuni hayrat-la o'zini otdi
Tunda uchib kelgan birinchi qorga.
Bolani hayratga solardi hatto
Ayqirgan soylaru biyday dasht, dala.
Bolaga kulishib qarar "hayrat"da
Hayratni unutib qo'ygan kattalar.

1975

OVOZIM

Nahot she'rlar aytdim
Bo'shliqqa qarab,
Nahotki sovrildi olov so'zlarim,
Nahotki haq bo'lsa, el-u yurt asli,
Quruq so'zlar, degan gumroh do'stlarim?!
Nahot bekor o'tdi
Gulday umrimning
Ming yilga tatirlik oltin choqlari,
Nahot biror ruhni uyg'otolmadi
Shoir yuragimning qaldiroqlari?!
Nahotki birorta dilga yetolmay,
Behuda sarflanib qancha kuch-chidam,
Kelib ketaverar yorug' dunyoga,
Kelib ketaverar menday kuychilar?!
Menga minbar emas,
Unvonlar emas,
Latta chechaklar-u
Ehsonlar emas,
Olov bir sahroni,
Yurtim xayoli
Nurda gurkiragan sahro bering, bas.
Erku muhabbatning muxtor elchisi —
Yotmasman tuproqqa do'nib, tinchlanib,
Jasadim tirikdir yorug' dunyoda,
Oyning sinig'iday chaqnar sinchlarim.
Agar yetti qavat yerning qa'rida
Yotsam-da larzaga solib havoni,
Elimning yuragin
Topar baribir
Jismimni kuydirib uchgan ovozim.

1985

* * *

Endi jim turasiz,
Sira iloj yo'q —
Dunyo o'zgarmadi siz aytgan so'zdan,
Siz qurgan qasrlar vayrona bo'ldi,
Alaflarga to'ldi siz oqqan o'zan.
Endi jim turasiz,
Og'ir, bilaman,
Ammo har kimsaga taqdir nasibdir,
Bilmoqchi bo'lsangiz agar, shoirlik
Jasorat so'zining tarjimasidir.

Endi jim turasiz,
Eshiting elni,
El aslo demaydi: zog'lar kuylasin...
Endi kengliklarda haq so'ramasdan
Yerni bezab yotgan bog'lar kuylasin.
Kuylasin,
Keldi-da kuylamoq gali,
Kuylasin mangulik qo'shiqlarini,
Buzsin-da siz kabi aqli qisqalar
Xatarsirab qurgan to'siqlarini.
Ana... Quloq soling...
Eshityapsizmi,
Kuylar shoir shamol, kuylar shoir qor,
Shoir qorong'ilik, shoir tog'larda
Shoir daryolarning shovillashi bor.

1985

O‘GIT

Qo‘rqoqning ko‘ziga tik qara doim,
Biror so‘z demasdan
Uzoqroq qara,
Titroq yetib borsin nigohlaringdan
Yuzlab ajdodining jon-joni qadar.
Yetsin,
Ajdodlari tirilsin qayta,
Tirilsin, so‘ng yana qaytadan o‘lsin,
Sening nigohingda ajdodlaringning
Keskir nigohlari jamuljam bo‘lsin.
Qo‘rqoq lozim bo‘lsa qadaming bo‘lar,
Eng yaqin do‘sting yo odaming bo‘lar,
Qo‘rqoqqa tik qara —
Odamiyatga
Bu sening eng zarur yordaming bo‘lar.
Qo‘rqoq oylab, yillab,
Hatto bir umr
Ko‘z-ko‘zlab ming turlik suvratlarini,
Eng nozik — eng ojiz joyingni ko‘zlar,
Ojiz joying esa kuraklaringdir.
Shu yorug‘ dunyoga bo‘lib orzumand,
Qoningdan baqirar qanchalab dohiy.
Qo‘rqoqqa ko‘rsatma kuraklaringni,
Ko‘ziga tik qara,
Tik qara doim.

1985

QASIDA

Daraxtlar —
Zaminning ochiq jonlari,
Zaminga bulutday soyasin tashlar,
Daraxtlar osmonning boshlanishida

Qo'rquvdan keyingi umrini yashar.
Daraxtlar
Qo'rqmagan metin shamoldan,
Kimdir kesib ketar demay ko'kargan,
Ulug'vor boshlarin ona-zamindan
Kuchi yetganicha yuksak ko'targan.
Daraxtlar
Xatarga ochiq ochunda
Quyosh qarshisida rasmga tushar.
Uzoq-uzoqlardan xilvat shoxlarin
Sog'inib keladi toliqqan qushlar.
Ko'p ko'rdim,
Kimsalar bo'g'izlarida
Mumdek qotib ketgan saslarni ko'rdim,
Ming yillab ulug'vor boshlarin yerdan
Ko'tarolmay yotgan kaslarni ko'rdim.
Qancha sinoat bor,
Qancha tilsim bor
Nurlar saltanatin har girvatida,
Ma'nisi jamiki tirik zot borkim,
Xiyonat qilmasin tabiatiga.
Daraxtlar —
Men itday sezdim o'zimni,
Go'yo tirik jonmas, kesilgan dastman,
Boshimni ko'tarib sizga qarayman,
Naqadar balandsiz,
Naqadar pastman.

1985

TILGA KIRGAN BALIQLAR

Baliq tutaymikin endi umrbod,
O'ylasam, shoirga juda soz ish-da,
Har holda tuzukroq
Kattabinlarning

G‘ashiga teguvchi she’rlar yozishdan.
O‘yladim: “She’r bilan dunyo o‘zgarmas,
O‘zgarmas har toshni bosgan sarvarlik,
Har bir hayqiriqda tamayi nafs bor,
Ba’zan jo‘n niqobdir odamparvarlik”.
Har holda baliqday jimjit yashasam,
Kimdir xursand bo‘lar,
Kimdir — xotirjam.
Hattoki qattiqroq eslab qolganlar
Ismimni o‘chirib tashlar xotirdan.
...Mana, qarmoq tashlar ko‘hna suvlarga
Kecha to‘s-to‘palon she’r aytgan shoir,
Biroq sal qo‘zg‘algan ko‘l tublaridan
G‘alat saslar kelar:
“Xoin, o, xoin”.
Bir cho‘kib ketganday orqadosh tog‘lar,
Daraxtlar ketganday mendan nariga,
Yuragim bir kuydi: “Xoin, o, xoin”,
Tinmay sado kelar ko‘lning qa’ridan.
O‘tlar o‘smay qo‘ydi,
Uniqdi quyosh,
Suv chaqa boshladi oyoqlarimni,
“Xoin, o, xoin” deb bir gala baliq
Baqirar
Tortqilab qarmoqlarimni.
Yoqamni ushladim shunda ilk bora:
Yo tavba,
Baliqlar... Baliqlar hatto...
“Qarmoqni tashlagin, o, shoir, o-o...”
Suvdan bosh chiqarib qarashar qator:
“Qaytargil tog‘larning salobatini,
O‘stir maysalarni,
Qaytsin daraxtlar,
Quyosh qiynalmasin, ezgulansin suv,
Qaytib ket, qaytib ket,
O‘zingga qaytgin...”

...Qarmoqni tashladim,
Birdan gumbirlab,
Yerdan o'sib chiqdi tirik tog'larim,
Tag'in tilim qonar keskir so'zlardan,
Bag'rimni ezadi eski dog'larim.
Qaytaman,
Yer tinglar odimlarimni,
Quvonchim ichimga sig'mas hali ham,
Bir yangi so'z aytgum odamiyatga:
"Gapira boshlabdi hatto baliqlar"...

1985

OTGA QIYOSIY QASIDA

Shaklga qamalib qolgan alanga,
Jismida chayqalib pishgan qoni bor,
Quvvatu g'ussaning qorishmasidir,
Bahaybat nafasli,
Horg'in jonivor.
Suvliqdan yirtilgan og'zi tegaru
Maysalar qovjirab qolar adirda...
Ucholmas yukining og'irligidan —
Ulkan qanotlari bo'lgan qadimda.
Men seni esladim
Katta go'dak ham
To'rt bola tashvishin kiftiga ortib,
Hamisha parvozni qo'msab yashagan,
Ko'zlari g'ussali,
Chiroyli otim.
O'zim ham anovi qorabayirday,
Qonim-da sovigan, o'ychan, beqanot,
Yag'ir kiftlarini pashshalar talar,
Kimlarning yukini tortmagan bu ot.
Sag'risi yalt etar
Xira oydinda...

Oqargan dalalar, kuygan adirlar,
Ular ham qachondir parvozlar qilgan,
Ulkan qanotlari bo'lgan qadimda.
O'xshatib...
O'ylasang oylar yetmaydi,
Ot kabi o'tlasang joylar yetmaydi,
O'lguday tashnasan,
Chanqoqbosdiga
Chil-chil sinib oqqan soylar yetmaydi.

Oh-h, ko'ngil,
Bir nafas otga aylansak,
Eng ko'rkam baytalga mahkam boylansak,
Bir shoir kelsa-yu
Uning she'rida
Eng baxtli, eng erkin zotga aylansak.
Ho'y ot, desa,
Ho'y baxtiyor ot,
Siz — shoir, men otga aylansak desa,
Oh-h, ko'ngil,
Hah, ko'ngil,
Yana nimalarni tusaysan besar.

Buyuk tun to'ladi hansiroqlarga,
Ularga qo'shilar shoir sasi-da,
Aylanar, aylanar,
Mangu aylanar
Nafaslar to'rt fasl doirasida.

1985

QAYTAR DUNYO

Esiz, shundoq umr,
Uqib yetmabsiz,
Azaldan nodonga dunyo torligin,
Loaqal keksani hurmat qil degan
Oddiy bir maqolning borligin.
Kecha itlik qilib,
Donoligidan
Sizdayin nodonga pastdan qaragan
Nuroniy odamni abgor qildingiz,
Qildingiz nodonga xos bir harakat.
Endi xavfsiraysiz orqaga qarab,
Ne bo'ldi, boshdan yo humo uchdimi?
Yursa, yuribdi-da izlaringizdan
Sanoqsiz bolalar
Tugib mushtini.

1985

SAN'AT

Sodiq qoldim tabiatimga,
Yashamadim yuz xil turlanib —
Ko'rgan edim bir paytlari
Himoyasiz atirgullarni.
Garchi gullar ko'rkini to'kib,
Qovjiratib to'zg'itsa-da kuz,
Atirgullar ichiga o'tkir
Pichoqlarni joylayman hanuz.

POKIZA GIYOHLAR

Bir oykim
Archazor tog‘lar bag‘rida
Bir o‘ktam archaday yashnadim qasddan.
Bir siniq buloqday kunga qaradim,
Faylasuflik qildim
Bamisli xarsang.
Maysalar selida ko‘rdim o‘zimni,
Ruhimning hurligi haqda o‘yladim.
Dilimning dilidan chiqqan so‘zimni
Tilimga qo‘ndirib,
Ravon so‘yladim.
Zulmsiz boladay beg‘ubor kunlar,
Na g‘iybat, na hasad, na bor xiyonat.
Buzmasdan tabiat rasoligini,
Mangulik yurgizar odil siyosat.
Qarasam, yo‘l bo‘ldi —
Odimlarimdan
Yig‘lab chinqirmadi birorta maysa,
Dodlab bo‘kirmadi qoya ortimdan,
Ulug‘vor tog‘larga bermadi xabar...
Boshim-da ming bora falakka tegdi,
Nurdan to‘qilganday butun borlig‘im.
Bir yildir sog‘inib
Yashayman endi
Donishmand tog‘larning ulug‘vorligin.
Bir yildir xayolim bo‘shliqlarida
Oniy yildirimday charaqlar rohlar,
Shovillar mangulik qo‘shiqlariday
Yumaloqxat yozmas
Go‘zal giyohlar.

DENGIZ BILAN UCHRASHUV

Nafasini tuydim,
Jismimga
Yuragimdan taralar titroq.
Sangin g'aflat aro qisilgan
Bu dengizda yashar qaldiroq.
Go'yo buzib yerning haddini,
Yetgandayman boshqa olamga,
Go'yo bunda tashlab qalbini
O'tib ketgan jo'mard odamlar.
Sangin qirg'oq
Gangib turadi
Zarbalardan toshi yorilib.
Muncha qattiq urding,
Yuragim,
Taniganday oshiyoningni.

...Yarqiragan erkning sohili,
Qudrati-la etarkan sarxush,
Yovuz osmon sari otilib,
Qafasida urinar bir qush...

JODU

Chalg'ib qoldim
Bir zumga — nogoh,
Ko'zlarimga ranglar urildi,
Hovlilardan ko'pirgan oppoq,
Pushti gulli bog'lar ko'rindi.
Kun tovlanib
Aylanar ekan,
Ranglari-la bog'lab ko'zimni,
G'o'zalarning qulog'in tergan
Qizlar aro ko'rdim o'zimni.

Qiyiq qizlar
Qahqahalarin
Lablari-la zo‘r-bazo‘r ushlar.
Ko‘targancha sal dahanlarin,
Hozir titrab uchguchi qushday.
Yalt-yult etar noyob suvratlar,
Yashil... Yashil...
Voy, jonim yashil.
Omonatman bir yutim suvday,
Bahor, yashil ko‘zlaring yashir!
Bir seskandim
Aytgan so‘zimdan,
Toshday og‘ir gullari-la bot,
Sezdirmasdan aslo o‘zimga,
Xotiramni bezardi hayot.

BO‘SAG‘A

So‘nggi tomchimgacha
O‘zimni bedor
Sahroday cho‘llagan dunyoga berdim.
Qancha og‘ir bo‘lsa,
Shuncha telbavor
Kuladigan bo‘ldim yaqindan beri.
Endi olov baland — muzlarni yoqsam,
Nigohimdan yumshar yovuz toshlar-da.
Bahor haqda o‘ylab,
Qay tomon boqsam,
Ayni qish chog‘ida bahor boshlanar.
Endi qo‘nim topmay bog‘chalarida
Mo‘min musichalar,
Ko‘rkam kaptarlar —
Ochiq derazamning tokchalarida
Majlis qiladigan bo‘ldi haftalab.
O‘y surib dunyoning kamoli haqda,

Ming bir fido bo'lib, o'zim o'zgardim.
Go'yoki ruhimning botin qa'ridan
Umrlik quvvatim
Birdan qo'zg'aldi.
Endi ma'shug'ining bir nigohidan
Oygacha yugurgan tentak oshiqman.
Endi bir yurakman,
Xomush johillar
Ko'zlari o'ngida butkul ochilgan.
Panoh so'radimmi borimni yechib,
O'zni urdimmi yo biron eshikka?
Qaltis lahzalarda orimdan kechib,
Kirdimmi sichqonlar kirgan teshikka?!.
Qaltis lahzalarda sinalar paytim,
To'g'ri so'zi uchun o'lgan qaysarday,
Dunyoning ko'ziga qaradim qattiq,
Jismimga sanchildi
Minglab nayzalar.
Bolam, jonim bolam,
Bu go'zal hurlik,
Unutma, bu hurlik,
Unutma, bu hurlik to'ralgan kunni —
Yonyotgan sahroga yuzimni burdim,
Bahaybat chechaklar potirlab undi...

QIZALOQNING ERMAKLARI

Dunyo tez o'zgarar,
Odam o'zgarar...
Kechagina har xil ermak topardi.
Uzoq jim turishdan garov o'ynaymiz,
Deb gulday kafti-la og'zin yopardi.
Axir, bilmasdi-da
Dodlaydigan payt

Sukutning moziydan qolgan qasrida
Dunyoning aksiga tikilib loqayd
Yashash mumkinligin hatto asrlab.
Jimlikni xushlardim,
Barsiy faryodni
Yashira bilardim bir tabassumda.
Chidolmay bu qadar jimlikka doim
Qizaloq yutqazib qo'yardi zumda.
Dunyo tez o'zgarar,
Odam o'zgarar...
Buzar qasirg'alar sukut qasrini.
Endi jim turishdan o'ynar o'zgalar,
Hayratga solgancha suron asrini.
Ko'zida daholik nuri barq urgan
Qizaloq ermagi bo'ldimi sabab,
Jimlik langarida
Chayqalib turgan
Kunlar suvratidan qaqshaydi asab.
O', bu kunlar,
Har bir lahza qa'riga
O'lim yo hayotni joylagan kunlar,
Nur, zulmat, ranglarning girvatlarini
Sog'inib toshlarga aylangan unlar.
Men endi dunyoning aksiga emas,
Ko'ziga qararman devona bo'lib,
Otashin bo'ronday aylanar nafas,
Har lahza hayotdir,
Har lahza — o'lim.
Bezovta ruhdayman o'zga yoqlardan...
G'aflat to'rlarida qolganda borliq,
Bir nolam yangraydi sukutgohlarda:
Hoy, odam, bormisan,
Ovozing bormi?!

SHABI XAYOL

Jismingda jon bo'lsa,
Undan hazar qil,
Haqorat — xotirga sanchilgan nayza.
Sezaman — poyonsiz qorong'ilikda
Chinqirib o'sadi xo'rlangan maysa.
Sezaman — bevaqt kesilgan daraxt
Battar ko'karishni o'ylab shaylanar.
Sezaman — ne yildir zahardan karaxt
Zamin o'z o'yida
Dashtga aylanar.
Xavflidir xotirot o'ramalari,
Ne-ne haqoratni yutsa qa'riga,
Jim yutib yursayu
Minglab yildan so'ng
Yuzaga chiqarsa ancha naridan.
Hazar qil
Haqorat zarralarini
Mukofot sanagan xotirasizdan.
U qaysi tomonga yursa, baribir,
Dod yoki haqorat qolar izidan.
Mana, xotirasiz,
Xayol kuchini
Butun borlig'i-la toptagan dajjol,
U guldek ayolning o't og'ushiga
Haqorat urug'in ekar bemalol.
Dunyo nima o'zi,
Dunyo — yuksaklik,
Yuksak manziliga qaytadi xayol
Va lekin bu ayol xokisor nega,
Nega haqoratga chidar bu ayol?!
...Yulduzlar baqrayar...
Yog'du bodida
Sollanib chayqalar qamar — belanchak.
O'h, qanday haqorat,

O‘h, shabi zolim,
Ovozsiz chinqirib kelar kelajak.

BIR UMR TOG‘ ETAGIDA YASHAB, TOG‘GA CHIQMAGAN ODAMNI UCHRATGANIMDA

Qorlari qilichday yarqirab yotgan
Tog‘larga boqarsiz,
Suvday oqarsiz.
Yoshin yashab bo‘lib uyg‘ongan odam,
Kuyib bo‘lgan dilni qandoq yoqarsiz.
Xo‘rsiniq,
Naqadar baland xo‘rsiniq,
Oraliq oyida sizday cho‘llayin.
Yuragi — vayrona,
Ko‘zlari — siniq,
Armon-la qaytyotgan odam bo‘layin.
Giryalar to‘lqini bosib kelganda,
Bo‘g‘zimda qushlarday kuylasin titroq.
Yomg‘irlar bo‘zlasa yelkalarimda,
Mushukday suykalsa
Qopag‘on itlar.
Ilk bora — so‘ng bora ko‘rib dunyoni,
Qo‘llar mushtga do‘nib,
Ingramoq baxtdir.
Jimlik sahrosida bir zum quvonib,
Bo‘shliqqa suyanib yig‘lamoq baxtdir.
Soy soymas,
Bulbullar oqqan o‘zandir,
Zulmat saltanatin o‘pirgan quyosh,
Kunning og‘ozida qandoq go‘zaldir
Fazoga quyoshday ko‘tarilgan bosh.
Endi niyat qiling,
Niyat sof bo‘lsa,
Tuproq-da odamga do‘najak bir kun,

Toshdan-da odamlar unajak bir kun,
Qayta tirilajak agarda o'lsa.
...Kunlarga cho'karkan
Misli hofiza,
Borliqqa kechikkan rozini aytib,
Ishondim, bu odam nurday pokiza,
Ishondim, bu odam keladi qaytib...

BAHORNING ILK KUNIDA AYOLINI KO'RGAN SHOIR KECHINMASI

Bu ayol...
Ko'zimga qushday ko'rindi,
Musicha, kaptarday — surganda xayol.
Qaydanam sozladim tasavvurimni,
Qushga o'xshayverar hadeb bu ayol!
Go'yo xob elitgan...
Suvrati so'lg'in,
Sezdirmay jilmayar go'yo humoylik.
So'lish yo giryami — g'alati to'lqin,
Ko'zlari hazinlik yoxud xumorlik.
Bahorga o'xshatsam...
Bahor yarashmas —
Bu ayol bahordan ming bora go'zal.
Poyiga tashlashga — qalbni tarashlab,
Yoniq so'zlar kerak,
Samimiy so'zlar.
Bahorning bir zumrad bo'sag'asida
Kaftlari qushlarday...
Ovozsiz so'ylar.
Dunyo, bu ayolga o'xshatadigan
Bormi biror timsol qushingdan bo'lak.
Hadikli nigohni sirli qirida
Osmonni chog'larkan qushday beg'ubor,
Sezaman,

Ayolning nozik kiftida
Qanday og‘ir so‘zlar,
G‘amgin so‘zlar bor.
Ko‘rinmas so‘zlarni ayol kiftidan
Birma-bir olaman sehrgar kabi.
Qo‘llari titraydi ayolning birdan,
Ko‘zlari titraydi,
Titraydi labi...
Go‘yoki parvozdan oldingi holat,
Nozik kiftlarida eng so‘nggi malol —
Go‘yoki so‘nggi so‘z,
Og‘ir so‘z qolgan,
So‘nggi so‘zni olsang,
Uchguday ayol...

RO‘MOLCHA

Yomg‘irning uzilgan
Torlari kabi
Tuyg‘ular quyilar teran o‘zanga...
Kezaman bamisli bedor bir nabi —
Boshimda dunyolar nurli to‘zonday.
Bu kunlar suvrati qolur yodimda,
Titroqni bilmagan fikrim zarbador.
Zulmatning ko‘mirday kuygan bodida
Lablarimdan uchgan
Har so‘z — sarbador.
Eshitdim minglagan sadolar aro
Chaqnagan hur qizning humoy sasini.
Shoh edim, olay deb bo‘ldim fuqaro
Nogoh tushib ketgan ro‘molchasini.
Bir yorug‘ tabassum,
Baxshida nazar,
Salgina egilgan xushbaxt niholjon.
Oh, endi yonimda o‘tgan lahzada

Har gal qo'llaridan tushar ro'molcha.
Har gal kengliklarda suzar bejirim,
O'zanlarni buzgan jinni daryoman.
Bitta ro'molchani
Ming bor egilib,
Olib boradigan bitta sayyohman.
Kimlar anglab yetdi oshiqligimni,
Olamning ko'zidan nechun nihonman.
Butun borlig'imni bor koinotdan
Bittalab-bittalab
Tergan insonman.
Bitta fidoyiman,
Gul yaprog'idan
O'ziga uy qurgan bitta faqirman.
Goh qushday tunayman olma shoxida,
Goh ovozim kelur teran nahrdan.
...Alangaga kirdim,
Shundoq yonimda
Birdan paydo bo'ldi kuygan niholjon,
Salgina egildi,
Olov domida
Oyog'im ostiga tushdi ro'molcha...

QIZIL OLMAGA QASIDA

Yiqildim kuzakning qoralig'ida,
Tun-da bir chayqaldi,
Asta tinchlandi.
Borlig'u yo'qlikning oralig'ida
Ko'zimga ko'rindi olam sinchlari.
Yotardim toshdayin jimlik tubinda,
Xayolim — bemahal so'lgan g'unchadir.
Voy, ko'nglim, desammi
Jimlik suvinda,
Ayt, ko'nglim,

Kimlarga kuyding bunchalik?
Vaqt ham tun bo'yi yulduz qoni-la
Ularkan ko'nglimning siniqlarini,
Tirildi bir dilbar saboh yonida
Tolg'in qush galasi —
Xo'rsiniqlarim.
Shunda dimog'imga bo'ying urildi,
Tag'in yurilmagan yo'l bo'ldi olam —
Ulkan bir sayyora kabi ko'rinding,
Menday bir faqirga, olmajon, olma!
Manim, kichik ko'nglim,
Ay, shoir ko'nglim,
Nokaslar ra'yiga tushmagan ko'nglim,
Dunyoning million xil noz suvratidan
Bir qizil olmani xushlagan ko'nglim!
Olmajon,
Tushdingmi osmon bog'idan,
Qaysi bir dunyodan elchi bo'p kelding.
Ko'nglim so'lar chog'i tun qiynog'idan,
Nahotki fazoda olovday yelding.
Manim kichik ko'nglim,
Ay, shoir ko'nglim,
Tag'in kunduzlarning ishqidan bedor.
Olmani olamga otaman to'lib,
Bormisan,
Bormisan bu dunyoda, yor...

VISOLSIZ ISHQ

Olovrang
Barglarning saltanatida
Yaproqday qovjirab yonganda bag'rim,
Fazo jimligiday kuz tal'atidan
Mehrga aylandi hattoki qahrim.
Dilimda nola yo'q,

Chashmimda — jola,
Sokin ishq otashi yoqar jismimni.
Xayolim shu qadar ketdi havolab,
Hattoki unutib qo'ydim ismimni.
Ismim nimaydi, deb kundan so'radim,
Porlab so'ylab ketdi: endi isming yo'q.
Shamol gulxanlari ko'kka o'rladi:
Biz kabi ruhing bor,
Ammo jisming yo'q.
Ruhimni dunyoga qo'shib o'stirdim,
Endi tabiatning dono toshiman.
Qalandar shamol ham suygan do'stimdir,
Har bir chumolining qarindoshiman.
Zaminga sanchilgan bir terak kabi
O'yimda titraydi moziy — xotira.
Agarda qo'zg'alsam,
Og'ochlar safi
Ildizin qo'porib kelar ortimdan.
Olovrang
Barglarning jim davrasida
Naqadar yuksalib ketdim o'limdan,
Bag'rim kuyib ketdi jozib sasidan
Baxtiyor bo'lganda samo yo'lida.
Oniy jamolidan ko'zim qamashdi,
Lahzada qorayib qoldi qorliklar.
Yildirim singari o'tkir qarashdan
Zaminga quladim baxtiyorlikdan.

...Ey qiz,
Quyosh yanglig' botarman endi,
Quyoshday yog'dular to'karsan, ey qiz.
Ey qiz,
Tuproq bo'lib yotarman endi,
Osmonda osmonday o'tarsan, ey qiz.

KUNLARDAN BIR KUNI

Go‘yo bir falokat bo‘ldi dunyoda —
Qalbning inja tori titradi yomon —
Ming og‘och narida
Ko‘m-ko‘k chimzorda
Chirqirab yotardi bitta polapon.
Shamol buzdimikin sho‘rlik inini
Yo biron shumtakaning otgan toshimi?
Ehtimol, ulug‘vor osmon ishqida
Qanotlari qotmay,
Uchgan shoshilib.
Bilmadim,
Titraydi inja torlarim,
Mitti ko‘zlari-la jovdirab har yon,
Qari tol tagida,
Ko‘m-ko‘k chimzorda
Chirqirab yotardi bitta polapon.
Sho‘rlik nolasidan ko‘nglim ezildi,
Mushuk yo kalxatday kelmasdan o‘lim,
Ming og‘och nariga
Nur tezligida
Cho‘zildi titragan odamiy qo‘lim.
Qushginam,
Shu qo‘lim in bo‘lsin senga,
Hali dovullarni yengib ucharsan.
Johil kimsalarning umrini bezab,
Balki qafasga-da
Bir kun tusharsan.
Shundayam zorlanma,
Sevin ziyoda,
Shoir yuragiga o‘xshagan qushim,
Kalxatlar, qafaslar to‘la dunyoda
Kuchli qanotlaring borligi uchun.
Ojizlar duch kelsa,
Tilagin sabot,

Bir shoir so‘zlarin dadil so‘ylagin:
“Kuchli qanotlaring bo‘lsa umrbod
Qafasni ko‘tarib uchsang bo‘ladi”.

ATLANTIKA DOVULI

Biskay ko‘rfazining qirg‘oqlarida
Bir tog‘ kullasida
Nogahon tanglig‘ —
Turardik dovuldan bir-birlariga
Jon-jahd-la intilgan og‘ochlar yanglig‘.

Buyuk atlanta ham
Million qaldiroq
Ovozini bo‘g‘arkan nursiz qa’rida,
Bezovta simobiy rangda yaltirab,
Osmonga qorishib kelar naridan.
Tayrlar giryaning parchalariday
Bir najot izlarkan
Girlab g‘oyibdan,
Vaqtning bu notinch lahzalarida
Dahshat to‘xtaganday odam poyida.
Go‘yoki Londonlar,
Parijlar yo‘qdir,
Odamzot turganday bir yoqqa qarab.
Qaltis lahzalarda bir holni ko‘rdim —
Insonlar bir taraf,
Dahshat bir taraf.
Yolg‘ondir,
Bir guruh safsatabozning
Odamni odamdan bo‘lgani yolg‘on.
Bugun “birlik” so‘zin dilimga yozdim,
Birliksiz zamonmas endi bu zamon.
Insonlar to‘ygandir
Yolg‘on — ovunchdan,

Cheksiz bir g'azabdan titrar lablari.
Tarixga aylanur buyuk sog'inchdan
Sahroi kabirday kuygan qalblari.
Birlik bor —
Qit'alar qirg'oqlarida
Zaminu zamonni bosganda tanglig'
Insonlar turajak bir-birlariga,
Jon-jahd-la intilgan og'ochlar yanglig'.

BAXTLI DAQIQA

Mashhur musavvirning
Shoh asarini
Ta'mirlov paytida ochildi bir sir —
Fosh bo'ldi yuzyillab nim qorong'ida
Asrdan asrga o'tguvchi tilsim.
Qirolning gerdaygan qiyofasidan
Yillarning izlarin artayotgan choq
Yalt etib ko'rindi yorilib ketgan
Bo'yoqning tagidan boshqa bir bo'yoq.
Shunda ta'mirchining titroq dastidan
Xiralashgan qatlam yitarkan, to'zib,
Chorcho'pdan qirolmas,
Boqardi o'ychan,
Ulug'vor siymoli musavvir o'zi.
Qani u dabdaba,
Kibru shon, qani
Durru zabarjadlar qadalgan libos?!
Qani u saltanat ravoqlaridan
Olamga taralgan qaldiroq ovoz?!
Bari zumda to'zdi,
Go'yo musavvir
Mustabid qismatin oldindan bilgan,
Bir ezgu ish qilmay, abadiylikka
Intilgan qirolni masxara qilgan.

Go‘zal haqiqatning bir daqiqasi
Buyuk musavvirga bo‘ldi madadkor:
Demak, bu dunyoga zarurroq ekan
Mustabid qirolmas,
Zukko san’atkor.
Bu buyuk quvlikdan uqdim bir ma’ni,
Bir dono lahzani ochdi sinoat:
Qirollar,
Davronlar hamisha ojiz,
Kimda kuchli bo‘lsa agar diyonat.
Ammo aytib qo‘yay
Bu suvrat bitta,
Ming yilda bir bo‘lar bunday musavvir.
Suvratlar tagidan suvrat axtarib,
Bekor kuch sarflamang deyman-da, axir.
Chindanam berilib ta’mirchilikka,
Ne-ne muzeylarga keltirib g‘orat,
Boshqa suvrat izlab suvrat tagidan,
Qancha shoh asarni buzmoq na hojat?

1985

UCHAYOTGAN ODAM

Tobora tushlarim qiziq tus olar,
Tobora qisqarar qush tushlariday.
Ko‘pincha uchaman,
Uzoq uchaman
Shundoq teraklarning uch-uchlarida.
Sezaman,
Tig‘dayin shoxlar jismimni
O‘zimning qonimga bo‘yar, alhazar.
Yuragim qamalgan qushday potirlar,
Quvar qon hidini olgan kalxatlar.
Shundoq bir shum holat iskanjasida
Yerning tortish kuchin yengmoqchi bo‘lib,

Silkiyman qontalash qanotlarimni,
Ming bor tirilaman,
Ming bora o'lib.
Yuksakda bir olam — moviy ranglarda,
Ozod ruhlar uchun boshpana bergan.
Uchib ketolmasdim,
Go'yo jismimni
Ko'rinmas rishtalar bog'lagan yerga.

Shundoq bir shum holat iskanjasida
Yurak o'ynog'idan sovuq ter bosib,
Uyg'onar ekanman,
Oylab o'ylayman
G'aroyib tushlarning ta'bir, ma'nosin.
Nega men uchaman,
Qayga uchaman,
Nega takrorlanar g'aroyib tushlar?
Demak, qachonlardir qanotim bo'lgan,
Demak, ajdodlarim to'ralgan qushdan.
Haftalab o'ylayman,
Oylab o'ylayman,
Ne uchun qushlarga tortar qonlarim?
Qachondir bahaybat qush edim, desam,
Nega siz kulasiz, og'ajonlarim!

Qush edim,
O't bilan o'ynashgan bir qush,
Balki o't kuydirgan qanotlarimni.
Shu xolos, yillarcha urindim bekor
O'qiyman deb kuygan yodim xatini.

Men qushman
Qachondir yerga qulagan,
Keyincha zaminga moslashgan jismim.
G'aroyib tushlarim esa, shubhasiz,
Yodimning kuymasdan qolgan bir qismi...

Goh esa o'ngimda
Kuymasdan qolgan
Xotiram parchasi sabab bo'larmi,
Gavjum shaharlarning ko'chalarida
Qanotday yozilib ketar qo'llarim.
Qayga uchish kerak —
Bilmayman, ammo
Bilarsiz bemalol uxlayotganlar —
Qushdan to'ralgansiz desam, ustimdan
Silkinib-silkinib kulayotganlar?!
Bilsangiz,
Shu tobda jismu jonimni
Zaharga aylanib yoqar qonlarim.
Qushday bo'zlab uchdim boshlaringizda,
Qushligin unutgan og'ajonlarim!
Zora eslasangiz,
Zora tilagim,
Balki nasib bo'lar sizlar-la uchmak.
Hozircha kechirdim, saqlamadim kek,
Chunki men odammas,
Chunki men qushman.

1985

AGAR

Tuhmatdan yiqilsa
Birorta do'stim,
Men-chi xilvatlarda berkinib yotsam,
Bu ham yetmaganday ancha vaqt o'tib,
Poklikdan so'ylasam,
Xotira sotsam.
Yo'q, bo'lmas,
Yashardim boshimni egib,
Kezardim umrbod yurtma-yurt oshib.
Odamzot ko'ziga qarolmasam tik,

Ko‘ksimga osilgan bo‘lardi boshim.
Yo‘q, yo‘q, yo‘q...
Albatta birga bo‘lardim
Tamug‘ malaylari ishga tushgan choq.
Do‘stim-la yonma-yon turib o‘lardim,
Ehtimol, o‘lardim undan oldinroq.

ORZUGA AYB YO‘Q

Kecha davlat tuzdim,
Uncha kattamas,
Turar metindan-da qattiq tamalda —
Muxtasar qonunlar faqat xatdamas,
Butun afzalligi,
Erki amalda.
Go‘yo kim ataylab suvga bosgan bir
Koptokday balqidi rangin savlati,
Ko‘rdi yuksalganin bir fitna olg‘ir
O‘zi bo‘g‘ib qo‘ygan o‘zbek davlatin.
Ammo g‘arazgo‘ylar taxmin qilganday
Gurkirab o‘smadi yurtda vahshiylik,
To‘qnashib qolganda kuldi itlar ham,
Shikor-qatag‘onga chiqmas dahriylik.
Axir, o‘zbeklar ham unchalik go‘lmas,
Baliq boshdan degan gaplar to‘xtadi,
Rahbarlar ko‘ksini changallab o‘lmas,
Pinhona xusumat,
Zarblar to‘xtadi.
Shoirlar nolimas,
Sochlar oqargan...
Notiqlar esdalik aytar avlodga:
Bir payt, azizlarim,
Masko‘p orqali
Borib kelar edik qo‘shni afg‘onga.
Bundagi elatlar izzat-hurmatda,

Ko‘zlari chaqchaymas yakkatillikdan,
Ko‘ngilga yaqinroq bo‘ldi g‘urbatlar,
Hech kimsa o‘lmaydi mustaqillikdan.

Yetar shuncha ta’rif,
Nozik zamonda
Agar aytib qo‘ysam ta’rif adog‘in,
Yonib ketishingiz mumkin armondan,
Armon — bu og‘ir dard,
Judayam og‘ir.

IQROR

Rubobiy she’r yozsam...
Qaytsam bir nafas...
Hamisha musaffo chashmani ko‘rsam,
Qoraygan cho‘qqilar qoriga qarab,
Bir nafas xayolchan o‘smirga do‘nsam.
Voh, o‘shal lahzalar...
O‘tdimi butkul
Gunafsha atirli tansiq tuyg‘ular,
Sahargi bog‘larni uyg‘otgan bulbul,
Oylarning nurlarin elagan suvlar.
Yashil shajar edim...
Qandoq sog‘indim...
Ko‘zimni yashnatsa rubobiy ranglar.
Qaysi bir dunyoga buncha og‘rindim,
Dilimni qaritdi besamar janglar.
Men jangchi emasdim,
Men shoir edim,
Nihoyat shoirdan ko‘ra zobitman,
Har nafas musulmon millatim dedim,
Nafsiga kuyganlar keldi oqibat.
Haromni xush ko‘rgan maslakfurushlar
Zig‘irday himmatin qilganda minnat,

Yaproqday sarg'ordim buyuk urushda
Musulmon yo'q edi,
Yo'q edi millat.
Bas, qushlar sayrog'i,
Yaproqlari mo'l
Yashil shajar kabi turay mushakkal,
Ilhomim haqida so'ylasinlar xo'b,
Zaharli tilimdan to'kilsin shakkar.
Rubobiy sabolar, ruhimdan esing,
Qaytadan uyg'onsin ilohiy tug'yon.
Voh, yalang shoxlarim qilichday keskir,
Bir yaproq qolmaptir shivirlayturg'on.

* * *

Nodirajon, Shoirajon,
Tanam qimir etmaydi,
Olis-olis vohalardan
Tog'larimni chaqiring,
Osmon to'la havolar
Faqat menga yetmaydi.

Nodirajon, Shoirajon
Tanam qimir etmaydi,
Ko'zimda bir tomchi yosh,
Soylar yuvsa ketmaydi.

Nodirajon, Shoirajon,
Tanam qimir etmaydi,
Peshonamning sho'ridan
Bino bo'lgan bu daryo...
Osmon to'la havolar
Faqat menga yetmaydi.

Nodirajon, Shoirajon,
Tanam qimir etmaydi,

Boring, qorli tog‘larga:
Bir shoir yotibdi, deng
Xudoning hovlisida...
Osmon to‘la havolar
Faqat menga yetmaydi...

1996

* * *

Ayt, ey xasta bulbulim,
O‘shga qachon yetamiz?
Yashil bog‘lar sarg‘ardi,
Mag‘iz bo‘ldi gujumlar.
Oh, voy, muncha yo‘l og‘ir,
Bulbulim...
Ulkan soat o‘rtasida
Madorim yo‘q yurmoqqa,
Qashqirlar davrasida
Sudralaman turmoqqa.
Shunda qolib ketsam gar
Netamiz?
Abadiyat oralab
O‘shga qachon yetamiz?
Qorli tog‘lar bag‘rida
Begim — o‘shim ko‘rindi,
Sulton — o‘shim ko‘rindi...

1996, sentyabr

MUNDARIJA

Ikki buyuk shoir haqida. (*Usmon Azim*) 3

RAUF PARFI

Bag'ishlov 12
"Kunduz o'yga cho'mar. Tun yaqin..." 13
Otam xotirasiga 14
Rondo 14
"G'unchalar pushtirang va za'far..." 15
"Yangi tong..." 15
Favvora. "Ko'p og'ir ko'rinar uxlashing..." 15
Isikava Takuboku xotirasiga 16
Rondel. "Xayrlashdik... O'ynar kapalak..." 16
"Xarita. Ko'zlarimga nur singari..." 17
"Ma'no o'qi ko'zimdan..." 17
"Oylar o'tdi va yillar o'tdi..." 18
"Xayr, dada..." 19
"Talpinadi, shunday kuladi..." 19
"Muallaq ko'llardek bulutlar..." 20
"Yomg'ir ham tinmadi uzun kun..." 20
"Yoz kechasi. Osmon — falakda..." 21
"Yaproqlarda shamol o'ynar..." 21
"Nimadir u — ko'zingga kelgan..." 22
"Qanday go'zal, qanday lojuvard..." 22
Nozimning sadosi 23
"Yomg'ir emas, marvarid yog'ar..." 24
"Derazamga uriladi qor..." 25
"Daftardan bir varaq boqadi kulib..." 25

"Bu kun bir tush ko'rdim. Tushimda..." 26
"Kulrang bulut kezinadi jim..." 26
"Sabolarda o'ynaydi navo..." 27
"Mudrab yotar bunda daraxtzor..." 28
"Og'ir tun. Qurir tinka..." 28
"Bormi, bahorim bormi?" 29
Oydinlik 30
"Aylanib tushar qor yo'limga..." 31
"Og'ushiga olar kunduzni..." 32
"Bir so'z bor..." 32
"Balki o'chgan edim yodingdan..." 32
Shabnam 33
Yoshlik 33
"Hayotga to'ymagan ko'zlarim..." 34
"Nima qilib qo'yding, quyosh..." 34
"Muncha g'amgin bo'lmasa o'ylar..." 34
"Hoy, bola-bola, hoy, bola..." 35
So'zlar 36
Ohang 37
"Dilgir musiqa oqardi..." 37
"Bir qushcha derazam yonida..." 38
Tanka 38
"Daryo mavjlarida yozilmish g'azal..." 39
"O'tmishlarning yodi qolsin..." 39
"Sokin turar bir daraxt..." 39
"Dilimda bir so'z bor edi..." 40
"Men o'zimdan o'zim kulaman..." 40
"Umrimni sovurding, deb..." 40
"Tonglar ziyosidan ziyoli dunyo..." 40
"Men bilaman, vujuding bo'zlar..." 41
Rassom 41
"Shovullaydi shamol, uvlaydi..." 42
"Tong otmoqda. Tong o'qlar otar..." 42
"Mudrar yarim kecha uyquda..." 42
"Shirin uxlar tong chog'i go'dak..." 43
"Hasratlari dunyoning ko'pdir..." 43

"Termulaman olis ufqqa..." 43
"Oppoq bulut izg'ir sarosar..." 44
"Chiroq. Chiroq yonar bo'zarib..." 44
"Yillar, berahm yillar..." 45
"Ona, mening haqqim ko'p..." 45
Izlar 46
"Mana, chaqmoq chaqdi nogahon..." 46
"Nigohing kurinur, ko'zlaring..." 47
"Yulduzlar buncha ham behisob..." 47
"Binafsha, ismingiz umidli..." 48
"Bu kun kechdi. Quyuldi oqshom..." 49
"Bu kun mening yuragim bo'm-bo'sh..." 49
"Men o'tkinchi, men faqat mehmon..." 50
"Bilaman, siz meniki emas..." 51
Onamga 51
"Juda baxtli eding u bilan..." 52
"Qayg'u bo'lsang agar, sevgilim..." 52
"Oppoq bulut izg'ir sarosar..." 52
"Hayot ummonida bir-birin bilmay..." 53
"Ko'zlarimga to'lib qolgan nimadir..." 53
"Bir aqlli-yey, mana bu qurmag'ur..." 54
"Men sening ko'zlaringga qarayman..." 54
"Seni topgunga qadar..." 54
"To'xta, vijdon, qayoqqa ketayapsan..." 54
"Yo'qlik bir armondir, armon — bir yo'qlik..." 54
"Jigar-bag'rimga to'ldi ushbu so'zlar..." 54
Bog'chasaroy fontani 55
Egalari tashlab ketgan uy 56
" — Oyi, oyi, aytib bering..." 56
"Shivirlaydi oyog'imda yashab o'tgan xazonlar..." 57
"Yomg'ir yog'ar, shig'alab yog'ar..." 57
"Butun kecha o'ychan va sokin..." 57
"Tashqarida shovullar shamol..." 58
"Uzoqdan chiroqlar ko'rinar..." 58
"Xayr senga, yaxshi qol endi..." 59
"Yo'q! Ko'rishmaymiz, xayr, endi..." 60

"Qayda o'sding, qayda yashnading..." 60
"Shivirlama menga, ey shamol..." 61
"Yana ajib tushlar ko'ribman..." 61
Abdullajon marsiyasi 62
"Seni menga betob dedilar..." 64
"Avtobus derazasidan qarab ketsang..." 65
"Derazamdan boqar zulumot..." 65
"Birga tug'ildik-ku, yuragim..." 66
"Qayga uchmoqdasiz, qayga, bulutlar..." 66
"Rubob bergil menga, do'stginam..." 67
"Yulduzlarga men ham qarayman..." 67
"Yuragimdan maskan axtarib..." 68
Hamlet 68
"Ishq-vafodan so'zlaganlarim..." 70
Chingiz Aytmatov 70
"Mana shundoq kechar kunlarim..." 71
"Izlaysanmi sen-da bir panoh..." 72
"Ko'zlaringga ishonmaysan..." 73
"Telbalarcha qarayman goho ..." 74
Usmon Nosir 74
"Suv ostida yaltiraydi tosh..." 76
"Ayt-chi, meni unutdingmi..." 77
"Men kimnidir kutgayman mahzun..." 77
"Daryo kabi oqdi olis yil..." 78
Ona tilim 79
"Hayron, mag'lub bu koinot..." 80
Habib Abdulla xotirasiga 81
"Yo'q, shoir deb qarama atay..." 82
"Jigarbandim, ko'zim yo'lingda..." 82
"Butun umr o'ylar band etar..." 82
"Daf'atan yomg'ir yog'ar..." 83
"Ostonamda yotar do'stimning iti..." 83
"Kuygan daraxt bo'yniga osilar...." 83
"Ha" va "yo'q"dan iboratdir qisqalik..." 83
"Ko'zimga nega to'r tashladingiz..." 83
"Nima desam ekan senga, shamol..." 83

"Men seni sevamanmi? Bilmayman..." 84
"Tovushlarning rangiga qarang..." 84
"Sen kelmassan, kelmassan endi..." 84
"Yer o'z o'qidan ayrilar, inon..." 84
"Eslaysanmi, izg'irin kecha..." 84
"Bir yoni baland tog', mudraydi besas..." 85
"Uyg'on, ey, malagim, tur, o'rningdan tur..." 85
"Yasatib qo'yibdi senga bir dunyo..." 86
Onamga xat 87
"Seni o'ylab jon-holim og'rir..." 88
"Yana qaytib keldim. Chang to'zgan..." 88
"She'r yo'li mushkul naqadar..." 90
Yurak 90
"Termulaman olis ufqqa..." 91
"Yuragimdan maskan axtarib..." 92
"Shoirlikni berdi tabiat..." 92
"Qorayib ketdi ko'ksimdagi qorlar..." 92
Samarqand osmonida 93
"Tog'da bir buloq bor zor-u zor..." 94
"Yorug'likni o'g'irlab sekin..." 95
Bir lahza dostoni 96
"Yodingdami, sevgilim, bir kun..." 97
"Bir kun yo'lga otlansam, tanho..." 97
"Yana jimlik, yana sukunat..." 98
"Daryo kabi doimo uyg'oq..." 98
"Muncha g'amgin bo'lmasa o'ylar..." 99
"Suvlar, ne deb jildiraysiz..." 100
"Xayol olib ketar yiroqlarga..." 100
"Daraxt shoxlarida silkinar..." 100
"O, xayolning yo'llari olis..." 100
Oybek xotirasiga 101
Odamning bolasi 101
"Chars-chars yonaver, nimjon olov..." 103
"Og'zim to'la so'zlar — jigarlarim-ey..." 103
"To'r tashlaysan, igna sanchasan..." 103
"Sevinch, biror marta qayg'urganmisan..." 103

"Men hammasini chindan aytdim..." 103
"Xiralashib borar kunduzning rangi..." 103
"Osmon shu qadar toza! Rahming keladi..." 104
"Voh, jonim, voh, jonim" deb hayqirar..." 104
"Bu qanday oroldir, osmon ko'rinmas..." 104
"Pag'a-pag'a oppoq qor yog'ar..." 104
"Yomg'ir yog'ib chiqdi tun bo'yi..." 105
"Men o'zimdan o'zim kulaman..." 105
Agar 105
"Pochta. Telegraf. Telefon. Kirdim..." 106
Shoir 108
San'atkor 110
"Do'stim, menga doimo..." 111
"Hayot jomi ichra oqamiz..." 112
"Ko'zlarimning osmonlarida..." 112
"Oy, nurlaringni yig'ishtirib ol..." 113
"Sen ko'p yashading, buyuk tosh..." 113
"Hayhotdek tun ichra bir o'zim..." 113
"Sen, ayt, bu kun sening aytganing aytgan..." 113
"Yulduzlarning achchiq nurlariga chirmashar..." 114
"To'kildi umidimning bahori..." 114
"Ovozingni o'parman, sevgilim..." 114
Karlo Kaladze diyorida 115
Tavfiq Fikrat kitobiga yozuv 117
Bitiktosh 117
Arava tortayotgan otga 118
"Bu qanday oroldir — osmon ko'rinmas..." 118
"Aytmasang bo'lardi-ku shularni, e voh..." 118
"Mo'ltirab qarab turibsan, qushcham..." 118
Betxoven 119
Pablo Neruda o'limiga 119
"Huvillagan uyda siqilar yurak..." 121
Hijratda ona allasi 121
Yegishe Charens xotirasiga 123
Tagor va srabon yomg'irlari 123
Verlen 124

"Dolg'alarning shovqin odimi..." 125
G'afur G'ulom va Tursunalining varragi 125
Omon Aziz. "Kandakorlar" 126
"Kunduz: chiq-chiq" 126
"Bir yoqlarga ketmaysanmi uchib-uchib..." 127
"Og'zimga eng xushbo'y havolarni to'ldirib..." 127
"Har kun huzuringga kelaman..." 127
Itlar 127
"Bo'ron, do'stim, nechun jimsan..." 129
"Vujudim yallig'lanar nafasingdan..." 129
"Tovushlarga ko'milib qoldim..." 129
"Tirnaydir sochlaringning tarog'i..." 129
Bayronning so'nggi safari 130
Alyor 132
"Ko'zimga to'qinar malolat, tuman..." 133
"Qabringni ziyorat qilgali keldim..." 134
"— Bir she'rimning, qarang, boshi yo'q..." 134
Muhabbat 134
Van Gog 137
"Yoshlik — zangor fasl. Kechdi. Sarg'ardi..." 138
Aldov 138
Soya 139
"Moviy osmon etaklarida..." 140
"Tun yaqin. Daraxtlar junjikar behol..." 141
"Kel, jimgina vidolashaylik endi..." 142
Diloromning ko'zlari 143
Tanbeh 145
"Osmon naq boshimning ustida turar..." 145
Maqtov 145
She'riyat 146
"Xato qildim, sevgilim..." 146
Javob 147
"Sira ko'nika olmaydilar onam shaharga..." 147
"Sevgilimning porloq-porloq ko'zlarini..." 147
Qo'rquv 148
Yetim 148

Mikelanjelo sevgisi 149
"Uyqu kelmaydi..." 150
So'zlar 150
"Siniq osmon. Bir yulduz mudrar..." 151
Shoir (2) 152
Shuhrat Abdurashidov mozorida 152
Nasihatni chuqur tushunish 152
Bir kishining o'lim oldidan o'g'liga aytganlari 153
Sunbula 153
"Men yolg'izman, g'uluv, hayajon..." 155
Og'riq 155
Turkiston yodi 157
Muktibodh duosi 158
"Bugun yashash kerak, ha, xuddi bugun..." 160
"Ko'ksimning chap tomoni tinsiz og'rir..." 161
Aleksandr Blok 161
"Hech narsa behuda emas bu on..." 162
Lutfixonim. "Uyg'on, bolam" 163
Qadimgi turkulardan 163
"Osmon o'zgarib ketdi..." 164
Yong'in 165
"Ichingdagi g'amingni ber menga, yo'lovchi..." 165
"Men senga ishonmayman endi..." 165
"Haykallar ko'p bizning shaharda..." 165
Vatan 166
"O'ltiribman jar yoqasida..." 167
O'rtada 168
Munojot 168
Siyovush faryodi 169
"Buncha ko'p so'zlaysan?.." 169
"Go'yoki men hamma narsani..." 169
"Uzoqlarda itlar huradi..." 170
"To'xta, deyman, haybatli bo'shliqqa qarab..." 170
"Men o'z gavdamga boqib..." 170
"Men nochor va mehribon..." 170
"Cho'kmakdaman suvlarga..." 170

"Ko'nglimga qil sig'mas..." 170
"Qaydadir ko'rgandim men seni, daraxt..." 171
"Ko'zlaring so'qirmi, tun, nima bo'ldi?" 171
Abdulhamid Sulaymon Cho'lpon 171
Xudbinga marsiya 172
Abdulhamid Cho'lponga muxammas 173
"Ey siz, to'yganlar..." 173
Ay, Turkiston bulbuli 174
Usmon Nosirga muxammas 174
"Uxlama, sen, haqiqat..." 175
Dorning og'ochi 176
"O'zingni ayama, borayotgan ildiz..." 177
"Yana jimlik. Yana sukunat..." 178
Yonayotgan ayol 178
"Biz sumar nishoni, abut turk qoni..." 178
"So'nmas ruhimizda matonat aslo..." 179
Adashgan ruh 179
Ozarbayjon. 1991. 183
Thakurga iqtibos 184
"Inondim shamollarga..." 184
Abdurauf Fitrat 185
Abdulla Qodiriy g'azaliga muxammas 186
Sensiz 187
Tangri sog'inchi 189
Munajjim 190
Tavba 192
Uchlik turkumlar
1. "Chag'alayim, mehmon chag'alay..." 194
2. "Mana zahar, hozir ichaman..." 194
3. "Sochimni yuladi izg'irin..." 195
4. "Men sizni sevaman, Alloh kechirsin..." 196
5. "Shamolga osilib yashadim..." 196
6. "Ayting, nima qilay..." 196
7. "Soat sindi, soatlar sindi..." 198
8. "Hech kimga ishonmang. Hammasi yolg'on..." 198
9. "Meni haydang, meni yo'latmang..." 199

10. "Qurbonlikka meni so'ydilar..." 199
11. "Men bilmayman yoshim nechadir..." 200
Xiyonat 201
Qora devor 203
"Meni ta'qib qilar shoir degan nom..." 206
Yo'lovchi 207
"Shoir, men uyg'ondim. Dovdirab turdim..." 208
Hazil 209
U dunyoga, onamga maktub 209
Shuursiz she'r tajribalari
1. Matbuotning kattasiga 212
2. Bir muarrixga 212
3. Bir tufurish 213
4. Sotti qo'ydi sho'rlik ayg'oq 213
5. Bosh senzo'rga qayg'uli so'net 214
Siyovush 215
"Ko'zimning g'orida parchinlangan ko'k..." 217
"Mening otam odam, momom havodir..." 217
"Qirq yil qoraladim qog'ozni..." 217
"Loy ichindan ko'zlarimni izlayman..." 218
"Shoir. Ilhomning bir qo'lida xanjar..." 218
"Ko'zimda g'ildirar xo'rlangan xilqat..." 218
"Iymon asirlari quyoshga boqar..." 219
"Ay, iymon asiri, vijdon tutquni..." 219
"Men g'arib og'ochman. O'zim osaman..." 220
"Sen shoir — chorlaysan osmon hurlarin..." 221
"Kuch-quvvat bag'ishlar erkin she'rimga..." 221
Thakurning oxirgi she'ri 222
"Avval xayol eding, bir xayol, xolos..." 224
Tuhmat — 1985 225
Toshtemir Qahramon o'g'li she'rlaridan 227
Alaniya 229

Qasam 232
Orzu tasbehi 233
Manzara 233
Soya 233
"Sen baxtlisan, moviy havoga..." 234
"Sen meni bilmaysan..." 234
"Og'ir botar ko'zlarimga kun..." 235
"Men yo'g'imda..." 235
"Ertaga qiynalib seni topaman." 236
"Ko'rishamiz bu kun sog'inib..." 236
"Baxtiyorlik..." 236
"Bizlardan kuldilar panada, ochiq..." 237
Eslash 238
Poyezd 238
"Tog'larga chop, dalalarga chop..." 239
Shahar 239
"Qushlar kutmas bahorni bizday:" 240
"Ko'zingizni oching, qo'rqmang," 240
Shimol kuni 240
Bir haftaki 241
Esdalik 241
Mangulik 242
"Yashamog'im zarur..." 242
"Birodar, yashayber, yig'lab va kulib..." 243
Tanish-bilishlar 244
"Sayyora turnalar arqon solishar" 245
Uyqu 245
Do'stlar 246
Mashq 246
Yer hali oq-qora chiziqqa to'la, ... 248
Qumaru 248
O'shkent lahzasi 249
Bir kecha yodi 250
Nigor 250

Dastxat 251
Visol 251
"Ko'p yig'lama..." 252
"Kel, yashirib qo'yayin seni..." 252
"Dunyo hali noraso, hali..." 252
Muqaddima 253
Ummon 253
Ozodlik qo'shig'i 253
Urush suvrati 254
Eski jang maydoni 254
Xayol 255
Jabr 255
O'zgalar dardi 256
"Chaqin bo'lma..." 256
Xo'rsiniq 257
Hamal 257
"Kunlar pisha boshlaydi yana..." 257
"Yechib oppoq ko'ylagini vaqt..." 258
"Subhidamda yam-yashil daraxt..." 258
"Ishon, odam, bahorga ishon..." 259
Vidolashuv 260
G'amgin qo'shiq 260
Daryo 261
Qasida 262
Sehrgar 262
"Atirgulim, jonim, atirgul..." 263
Muhabbat 264
"Goh chekasan..." 264
Manzara 265
Kapalak 266
"Qishning qahri sokin..." 266
Dengiz 267
Qiyiq 267
"Bu qarovsiz gulzor ichida..." 268
"Bog'lar shovullaydi..." 268
"Qichqirvorar qaydadir xo'roz" 269

"Har saharda..." 269
"Bo'lsa hamki taxir va achchiq..." 270
"Men kelaman navbahor bo'lib..." 270
Yoz ravishi 271
"Bu yerda zangori kaptarday..." 271
"Tong ko'ksida qushcha sayraydi..." 272
"Suronlarni oralab o'tdim..." 273
"Yoz tuni. Bog' shira uyquda..." 273
Tun gurkirab o'sar yobonda 274
Afsona 275
"Bog'larda ko'zlarim qamashar" 275
"Ichar quyosh nurlarin juvon..." 276
"Tong ochar ko'zlarin erinib..." 277
"Yashil sochli sannovchilar..." 277
"Oy sinig'i to'la suvloqqa..." 278
"Ne davrlar qori tagida..." 279
"Ibtidoiy, o'tkir qoyalar..." 279
"Tog' o'tirar vodiyda tanho..." 280
Tungi manzara 281
Sayohat 281
O'rmonda 283
Mashq 284
Cho'l 285
Odamdaraxt 287
"Uzum yig'lar..." 287
"Safsarlashar oqshomgi osmon..." 287
"Bobochinor sergak mudrardi..." 289
Mavzu 289
"Oy gulladi..." 289
Lahza 290
Ishq 290
Farishtali... 291
Armon 292
Vaqt 292
"Aldab qo'yar ko'zlarim seni..." 293
"Kun sayin ozadi yuragim..." 293

"Sovqotdim" 293
Yolg'izlik 294
Safar oyi 295
Oyimmozor 296
Avj 297
Xotima 297
So'nggi qishlar 298
Yo'l manzaralari 300
"Tik qoyaga chiqaman bazo'r..." 300
Venetsiya 300
Tavba 302
Minorayi kalon 303
Tarixiy ong 303
"Qanday yaxshi..." 304
Lorka 305
20 yil avval 305
Dadam o'ldi 305
Savol 309
Yana savol 310
Marafon 310
O'sh tog'lari 311
"Sharq uyqudan uyg'onar go'zal..." 312
"Qaytdim yorug' yulduzlarimga..." 312
"Quyosh, senday yashasam yonib..." 313
Qo'shiq 313
Yo'lovchi 314
Fikr 315
Qizgul 316
Birovning guli 316
Tor ko'chalarda 317
Qiyos 318
Holat 319
"Oh, naqadar go'zal olmazor..." 319
"Tog' etagi, tog' olmalari..." 320
"Oy nurini kiygan go'zalim..." 321
"Lablarimni kuydirib o'pdim..." 322

Qasida 322
Bashorat 323
Ozodlik 323
Go'l 324
Xonadon 325
Hamma 326
Shaxs qismati 326
Soya 327
Nur 327
Tor ko'cha 328
Boburiylar 329
Sulaymontog' etagida o'ylaganlarim 330
Ko'zlar 331
Afshonadagi Ibn Sino haykali 332
Bir xoin xususida 333
Chinor ko'rinishlari 335
Kuzgi yer ko'rinishi 336
Tutzor xotiralari 338
"Murosa, madora tashvishlari-la..." 339
"Umr — qumsoat ham yarimlab qoldi..." 341
O'shni kezganda o'ylaganlarim 342
Baland daraxtlar 344
G'o'za 345
Orolga savol 346
Eski rasm 347
Yulduzlar qulagan tunlari 348
"Har qanday himmat-da chegaralidir..." 349
Insonlar ovozi 350
Yorilgan harakat bayoni 350
Baxt so'zi 353
"Hali biror ishni uddalamadim..." 353
Yosh o'zbek shoirlariga 354
She'riyatdagi haykaltaroshlar 355
Qarsak 356
Mehmondo'stlik 357
Ispaniyada yangi yil 358

Qodiriy va hozirgi yoshlar 360
Gurjiston manzarasi 361
Amudaryo qirg'oqlari 363
Qizilqumda bir kun 364
Xorazm qishloqlari 365
Aravon ko'rinishlari 367
Avtobusdagi o'ylar 371
Charxipalak 374
Asotirlar kitobi 374
"Jangda o'lgan emas biror bahodir..." 375
Yosh tog'lar 376
Suvlar ila muloqot 376
Oftob va oftob nurlari haqida afsona 378
Gumanoidlar 380
Vaqt 381
Ochiq qolgan ko'zlar 383
Gullayotgan tosh 384
Oq devor tagidagi suhbat 385
So'z qudrati 386
"Har kun katta yo'ling..." 386
"Tabiat — qo'li gul hunarmand..." 387
"Biz tomonda ayni yoz payti..." 389
"Ona, aytgin..." 389
"Yoz yotadi tarang, baquvvat..." 390
"Ulkan sasga do'nar otishma..." 390
Hayrat 391
Ovozim 392
"Endi jim turasiz..." 393
O'git 394
Qasida 394
Tilga kirgan baliqlar 395
Otga qiyosiy qasida 397
Qaytar dunyo 399
San'at 399
Pokiza giyohlar 400
Dengiz bilan uchrashuv 401

Jodu 401
Bo‘sag‘a 402
Qizaloqning ermaklari 403
Shabi xayol 405
Bir umr tog‘ etagida yashab,
tog‘ga chiqmagan odamni uchratganimda 406
Bahorning ilk kunida ayolini ko‘rgan shoir kechinmasi 407
Ro‘molcha 408
Qizil olmaga qasida 409
Visolsiz ishq 410
Kunlardan bir kuni 412
Atlantika dovuli 413
Baxtli daqiqa 414
Uchayotgan odam 415
Agar 417
Orzuga ayb yo‘q 418
Iqror 419
Nodirajon, Shoirajon 420
“Ayt, ey xasta bulbulim...” 421

TURKIY ADABIYOT DURDONALARI

RAUF PARFI
SHAVKAT RAHMON

30-jild


Adabiy-badiiy nashr

Muharrir *Oydinniso Yo'ldosheva*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Gulchehra Gulyamova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog'ozi. "PT Astra Serif" garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 27,5. Nashriyot-hisob tabog'i 21,50.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 98-1/22. Buyurtma raqami № 22-313

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining "O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

"O'zbekiston" NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.



R 27 Rauf Parfi, Shavkat Rahmon [Matn]: nazm/to'plovchi va nashrga tayyorlovchilar: Olim Oltinbek, Husan Maqsud. – Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti", 2022. – 440 b.
ISBN 978-9943-8569-7-4

UO'K 821.512.133-1
KBK 84(5O')-5

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

RAUF PARFI

SHAVKAT
RAHMON